Areal lingvistika qanday fan? Areal lingvistika adabiy til va shevalarning hudud bo'yicha ishlatilishi hisoblanadi va lotincha "areas" so' zidan olingan bo'lib, "maydon", "bo'shliq" ma'nolarini anglatadi. Mos hodisalar ayrim bo'laklarining lingvistik tarqalish zonasini, ya'ni tilning dialektal farqlanishini anglatadi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi areal lingvistikaning ham o'z metodlari mavjud bo'lib, ular sharhlash, qayd qilish, tahlil qilish kabilardir. Areal lingvistikaning xarakterli belgilaridan biri hisoblangan irradatsiya hodisasidir. Bu hodisa mos hodisalarning tarqalish tushunchasidir. Masalan, qaratqich kelishigi qo'shimchasi – ning Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo shevalarida har xil holatda kelishi, masalan -n-, -di, ba'zan –ti. O'rin payt kelishigi – da qo'shimchasi Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo shahar tip shevalarida adabiy til ta'sirida to'siqlarga uchramasdan kirib borish yo'li bilan tarqalgan. Til hodisalarini o'rganishda yondosh tillar ularning shevalarini o'rganadi. Demak, qo'shni tillar va shevalardagi masofaning yaqinligi bilan xarakterlanadi. Lekin til va dialektlarning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda ayrim hodisalarni izohlayotganda shevalar har doim ham bir-biriga o'tavermaydi. Masalan: vodiy tomonlardagi viloyatlarda "r" tovushi ko'p ishlatilmaydi. Masalan: boddi- boddь, choshaammi- chorshanba, tussun- tursun. Aynan shu kabi hodisalar Qashqadaryodagi shahar va shahar tip shevalarida mavjud. Bu hodisalarning asosiy markazi qaysi ekanligi va uning irrodatsiyasi noma'lumdir.

Adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta'siri o'zbek xalq shevalarida til asoslarining aralashuvi va tekislashib borish jarayonini tezlashtiradi. Masalan, tillarda yaqin hududlar orasida o'tish zonalari paydo bo'ladi.Bu o'tish zonalarining ta'siri ikki til doirasida fonetik, leksik, morfologik va sintaktik o'zgarishlarga olib keladi. Masalan, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston va boshqa hududlarda unlilar cho'ziq aytilsa, ular xaritada berilishi kerak. Bu adabiyotlarda izofon termini bilan berilgan hodisa hisoblanib, u orqali hududiy fonetik farqliklarni o'rganish mumkin.

Hozirgi Xorazm shevalarida "Avesto" tilining substratlarini uchratish mumkin. Mana shunday holatda o'zbek shevalari va dialektlarining atlasi tuzilganda ko' pgina muammolar hal bo' lgan bo' lar edi. O'zbek shevalarining atlasini ishlab chiqishda ko'pgina olimlarimizning tadqiqotlari mavjud bo'lib, ulardan Sh. Shoabdurahmonov, A. G'ulomov, M. Mirzayev, A. Aliyev, A. Shermatov, N. Rajabovlar va ularning shogirdlari shular jumlasidandir. Mana shunday atlaslar yaratiladigan bo'lsa, lingvogeografiya va areal tadqiqotlar uchun manba

yaratilgan bo‘lardi. Bundan tashqari areal tilshunoslik va dialektologiya muammolarini hal etishda yosh tadqiqotchilarning izlanishlari etarli emas. Bu tadqiqotlarning rivojlanishi turizmning bir qator yo‘nalishlarini ham rivojlanishiga turtki berishi, gastronom turizmi, etnoturizm kabi yo‘nalishlarga manba va dastur berishi mumkinligini nazarda tutsak, sohaning salmog‘ini his qilgan bo‘lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi.-Toshkent: Navro‘z, 2016.
2. Po‘latova S. Areologiyaning o‘rganishning ahamiyati//Tafakkur va talqin. BuxDU, 2018
3. Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2020.

MAIN CHARACTERISTICS OF PRAGMA LINGUISTICS IN GENDER ANALYSIS

Dadaboyeva Guzal Akbarjonovna
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulug'bek
Foreign Philology Department
Master Degree 2 year student
Telephone: 9989(90)1272816

Abstract: There are a number of linguistic methods and approaches to investigate gender existence in contexts, one of them is pragma linguistic analysis which deals with the study of the meaning of the dialogue, text and communication. This article explains the history and the development of pragmatics and its role in literature analysis.

Key words: a gender; linguistics; pragmatics, semiotics, meaning, context, communication.

The modern usage of the term pragmatics is attributable to the philosopher Charles Morris (1938), who was concerned to outline (after Locke and Peirce) the general shape of a science of signs, or semiotics (or semiotic as Morris preferred). Within semiotics, Morris distinguished three distinct branches of inquiry: syntactic (or syntax), being the study of "the formal relation of signs to one another", semantics, the study of "the relations of signs to the objects to which the signs are applicable" (their designate), and pragmatics, the study of "the relation of signs to interpreters". Within each branch of semiotics, one could make the distinction between pure studies, concerned with the elaboration of the relevant meta language, and descriptive studies which applied the meta language to the description of specific signs and their usages.

As instances of usage governed by pragmatical rule, Morris noted that " interjections such as *Oh!,* commands such as *Come here!, ...* expressions such as *Good morning!* and various rhetorical and poetical devices, occur only under certain definite conditions in the users of the language". Such matters would still today be given a treatment within linguistic pragmatics[1].

Vaxtel Natalia Mikhailovna in her book presents the notion of the term *gender* from *greek (business) or* language in action. Pragma linguistics is a discipline which deals with the methods in humans speech activity.

A great work on PL done by Vintgeyshten. L. who is first investigated pragmatics in language use that means it is possible to interpret the utterance (expression) in context, taking into account a concrete situation. Taking from above, some examples are given by Scientists.

For example: *It is raining* gives pragmatic meaning in different situations. Some more: *I won't go to anywhere*. (refuse), *Take an umbrella*. (advice), *Gloomy weather*. (statement of fact) with questioning intonation.

According to the Researcher Deep Shikha, Pragmatics is the study of meaning in situation or in context. It is a medium where we examine how people convey different kinds of meanings with the use of language or how people express a variety of meaning with variety of people. It is the study of mutual world knowledge. It is the only discipline where we study the real role of persons in language use. Later some linguistic philosophers have had a contribution to the development of PL such as, DJ. Oustina, DJ. Serilya, Graysa, Vendlera

[1] STEPHEN C. LEVINSON., PRAGMATICS, First published 1983, Cambridge University Press 1983-p I

and Maslova, Soboleva Y; Uzbek linguists: Safarov.SH and so on.

In studying the use of language, the role of speaker and listener, the role of the context, the amount of relative quality of language which is used and the relative distance between the speaker and the listener is important. Pragmatics is the study of the aspects of meaning and language use that are dependent on the speaker, the addressee and other features of the context of utterance.

Therefore, utterance is the process of communication, for example, a person's sigh is an indication of his or her relief that is the person wants some relaxation because of tiredness. The sound "shhh…" indicates that somebody is caught. A silence or pause or zero sound is also an utterance where silence becomes meaningful. The certain expressions or indications suddenly appear on a person's face, when that person gets angry or happy. Therefore, pragmatics studies the expression of one's personality, behavior, feeling and so on. It shows and also hides one's characterization or nature. Every time the context changes, what is communicated changes as well.

In pragmatics, we focus only on a spoken language, conversation or how people speak or express their desire when they communicate with others. People express their feelings, desires, point of views and variety of things about their culture, society and so on. But sometimes they have many desires which they do not express or unable to express and there can be variety of reasons for that, for example, fear, inferiority, insult, etc. Pragmatics tries to study human beings at their characterization, feelings, needs, attitudes, volition or volatile personality and many other things through language. Therefore, pragmatics is the study of language used by real people in the real context.

According to David Crystal (professor of linguistics at the University of Wales) in the book, *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*: Pragmatics is the study of language from the point of view of users, especially of the choices they make, the constraints they encounter in using language in social interaction and the effects their use of language has on other participants in the act of communication[1].

E.Soboleva, who analyzed pragmalinguistic features literary texts in English says that pragmatic aspect of an author's speech is incorporated into delivering the social evaluation attitude of an author towards events. She says that pragmatics of an author's speech consists of informative emotional-evaluative and literary-stylistic features. Indeed, while describing time an object an event a character in all parts of a literary work: exposition, development of the events, culmination, scenery, portrait an author fulfils intentions aimed at providing a static spiritual gain for a reader via literary description metaphorical thinking, emotional evaluation and information. For instance: *In the middle of a large pond there was a clay cobbled hut like a piece of nutshell, barely standing like an old horse, it was propped up from four sides and the old gate was covered, there was lightof a pale, shimmering candle which can be seen vaguely from a wicket covered with a paper instead of a pane. A rattling singing voice was coming out of the hut* [2]. The writer mentions that it was taken from folklore humorous tales after the title. In the fragment above, the main purpose of the author is to inform the story of the hero's life and social status, and to create a humorous image by first comparing the hut to a piece of a nutshell and then an old horse. Most importantly, in the last sentence singing of the hero which was added in order to indicate that the state of the hut does not have a negative impact on the heroic state brings tolerance and excitement towards him.

In addition to the author's speeches in the literary text, the heroic speeches can also be the object of a particular pragmalinguistic analysis. Master writers do not use much

[1] Crystal, David. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics.* 2nd ed. Oxford: Blackwell, 1985.
[2] G. Gulyam "Hasan Kayfiy

narration; instead they describe their characters as lifelike, lively, revealing their humanity through their heroes' words. This process is implementedvia dialogue. Especially dialogue is of great important in the composition of the prose. «The dialogue develops very closely knitted with the author's narration. It plays an important role in the composition of the narrative and can not exist apart from the speech system.» A dialogue describes the spiritual condition of heroes and their relationships, reveals their attitude to the described situations and various speech situations appear.

E. Soboleva points out that the dialogue of personalities can be divided into the following components:

10. Emotional - evaluative lexical (reference, zoometahphors, superlative adjectives, phrases; prosodic elements (punctuation helps the reader to understand the content quickly and accurately);

11. Methodical features and characteristics of the speech (peculiarities of heroic speech); Informativeness;

The impact of socio - cultural factors (discrimination in society, social background, gender and age, type of communication, etc.); The psychological basis of dialogue (building relations between the participants of the dialogue ...)[1].

As well as, pragmatic studies can be learnt collaborating with gender analysis in literary works. Such as; defining male thinking and interpretation of the ideas in communication and different situations. Also, as it was mentioned above feminism or equality of women in social stages, feelings, worldview can be investigated in gender analysis from the point of view of pragma linguistics and psycholinguistics.

The List of used Literature

1. Сафаров. Ш Прагмалингвистика. –Тошкент, 2008.
2. Солижонов. Й Диалог қурилиши ва унинг элементлари.// Ўзбек тили ва адабиѐти, 2010. №3. Б.3–7
3. Соболева. Е Проблемы прагматики англоязычного художественного текста.// Известия ПГПУ, № 6, 2008.
4. Маслова А. Введение в прагмалингвистику. – Москва: Флинта, Наука, 2010.

[1] Соболева Е. Проблемы прагматики англоязычного художественного текста.// Известия ПГПУ, № 6, 2008. С. 55 – 56.

PSYCHOLINGUISTIC APPROACH OF GENDER IN FICTIONAL TEXTS

Dadaboyeva Guzal Akbarjonovna
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulug'bek
Foreign Philology Department
Master Degree 2 year student
Telephone: 9989(90)1272816

Abstract: This article involves the importance of psycholinguistics in gender analysis so that it is reflection of women and men inner life emotions, feelings, gratitude, thinking, wishes and so on. Some studies prove that language is a tool element in acting, communications, dialogues. Thus, Psycho linguistic approach is still interesting for writers and readers to describe the heroes life experience.

Key words: Psychology, linguistics, gender use, speech act, mental image, interpretation.

In the modern linguistics the question of psycholinguistic aspect of studying the text as a product of speech activity is one of the central questions. Within the text-centric concept the attention of the scientists is concentrated on the characteristic of the text as of a speech work and gender use. The creator of the domestic is the structure of processes of a speech production and a speech perception in their ratio with the structure of a language (any or certain national)"[1]. The psychology represents theoretical knowledge of a ratio of language and consciousness, of thinking and speech, of processes of perception and properties of memory, of mental activity of the person and of speech activity as one of the activity kinds of a person. In psycholinguistics an important role is played by a statement which is a unit of speech communication and is focused on the participants of speech communication. The expanded statements act as the main unit of speech communication; the main form of their expression is the text[2].

The text, according to N.S. Valgina's definition, is «a dynamic unit, organized in the conditions of a real communication, having extra- and intra-linguistic parameters». The text is created to transfer the thought of the author, to embody his creative plan; that is the text represents a product of a speech and mental activity of the subject. Considering the text from a pragmatic position, it is a material for the perception and interpretation (Nadezda *et al.*, 2016; Nurgaliyeva *et al.*, 2018; Sadanyan *et al.*, 2017; Yusupova, 2017; Zulfiya and Muslima, 2017).

Such a multidimensional consideration of the text allows to maintain the text (speech and mental) activity representing a structure which includes the following components: the author (the addresser of the text), the reader (the addressee), the displayed reality itself, knowledge of which is imparted in the text, and language system which the author chooses the language means from, allowing him to embody adequately the creative plan [3].

In the psycholinguistic aspect the text possesses a big degree of "interpretativeness" (options of the interpretation of the semantic contents by a listener or a reader). V.Z.Demiyankov considers that the concept of interpretation can be revealed through a concept of a cognition which "includes not only exquisite occupations of a human spirit

[1] Leontiev, A. A. (1997). Fundamentals of psycholinguistics.

[2] Harley, T. (2005). *The psychology of language, from data to theory.* Psychology Press Translation: New York. 52: 13-21.

[3] Dem'yankov, V. Z. (1992). Cognitivism, cognition, language and linguistic theory, Language and structure of knowledge representation, Sat. scientific and analytical. INION RAS: Moscow.

(such as knowledge, consciousness, reason, thinking, representation, creativity, plans and strategies development, reflection, symbolization, logical conclusion, solution of problems, making evident, classification, correlation, imagination and dreams) but also processes more terrestrial, such as organization of motility, perception, mental images, reminiscence, attention, recognition …". In relation to the interpretation of the speech it is a type of a cognition the direct object of which is the product of speech activity. When producing the speech the inner world of a man in the form of a speech is interpreted, while when perceiving the speech itself is interpreted.

The main features distinguishing psycholinguistics from linguistics are the factor of a situation in which speech statements are designed and perceived, and the factor of the person making or perceiving the speech[1]. For the definition of a basis of psycholinguistic aspect of studying the text it is necessary to mark out the lines distinguishing consideration of the text in psycholinguistics and linguistics.

The most attention of the researchers of psycholinguistic study of the text is given to the category of the integrity referred to the plan of the text contents. The integrity can be treated as the existence of a semantic dominant which is established when perceiving the text by the recipient and sets the direction to the process of generation of sense connected with the text Leontiev calls integrity the fundamental property of the text: «… the integrity is the characteristic of the text as of the semantic unity, as of the united structure and is defined on all the text. It isn't correlated directly to linguistic categories and units and has the psycholinguistic nature. In psycholinguistics it is generally accepted that the integrity of the text is a certain condition of the text arising in the course of interaction of the recipient and the text. In the psycholinguistic aspect of the study of the text the concept «perception» of the text treated as the act of knowledge, experience and creativity is important. Comprehension of that ideal model of reality which was created by the author of the work becomes the end result of the act of reading [2].

However, the author's model of reality isn't adequate to the reader's because the reader in a varying degree expresses the attitude to the read. Personal interpretation becomes the embodiment of this attitude in different sign systems. Certainly, the interpretation is created not only in the course of reading, but also in the course of the analysis directed to specification, adjustment and deepening of the perception[3].

The unity of sensual and logical is always shown in the perception. The perception demands ability to see an image behind a word, to recreate a picture in one's own representation. To form these abilities the scientists Granik and. Samsonova recommend using the technique of the slowed-down reading which goes back to the idea of slow reading of Shcherba. In «The experiences of the linguistic interpretation of poems» the famous linguist warned readers against danger «of arguing the ideas which they, maybe, subtracted incorrectly from the text»

The technique of the slowed-down reading is used to form the psychological mechanisms of understanding and perception of the text [4].

The researchers distinguish three phases of the process of art perception: 1) pre-

[1] Hatzidaki, A. (2007). The process of comprehension from a psycholinguistic approach. Translator Journal, 52: 13-21.

[2] Antunez, J. V. (2016). Hipotesis para un derecho alternativo desde la perspectiva latinoamericana. *Opcion,* (13): 7-10.

[3] Granik, G. G. and Samsonova, A. N. (1993). The role of the installation in the process of text perception. 2: 72-73.

[4] Zaidullina, C. N. and Demyanova, O. V. (2017). Enhancement of the choice of innovation strategy of industrial enterprise. *Astra Salvensis,* (2): 297-310.

communicative (formation of an art and mental set, as of general – expectation of joy of communication with art, so of private – preparation for the forthcoming meeting with the concrete work); 2) communicative (direct contact with the work of art; beginning of a dialogue: the author creates – an image – the reader recreates); 3) post-communicative (assignment of the work of art as personally significant value).

The perception of the text is closely connected with a text projection which in psycholinguistics is treated as mental formation (a text concept, meaning of the text, its integrity), the product of process of judgment of the semantic perception of the text by the recipient to some extent approaching author's version of the text. The projection of the text includes the system of meanings (representations) which is formed at the recipient. The projection focuses attention on the certain aspects of reflection of the personality in the types of his activity and mental behavior, nominates in the center of consideration the identity of the person, the sphere of his subjective world in which all phenomena and events of the outside world are refracted.

The psycholinguistics studies projections of the text both at the reader, and at the author. Thus the mental form of the text existing in consciousness of the person is studied. Individual experiences of the person in various forms and manifestations which can include emotional and estimated experiences, esthetic senses, frames, schemes of situations, denotata, images of different modalities, pragmatic knowledge are used for the organization of a projection of the text.

It is necessary to remember that the text represents the sequence of sign units connected by the meaning assuming single coverage of rather large number of the facts of surrounding reality and therefore subject to obligatory interpretation from the recipient.

According to T.M. Dridze, the recipient adequately interprets the text only if the main idea of the text is interpreted adequately to the author's plan [1].

From all above, Psycholinguistics is correlated with speech act between men and women so that psycholinguistics studies inner life of male and female worldview, behavior in the text. Gender could be represented by psycholinguistic features which are used to be possible for both roles. Some samples of psycholinguistic characteristics of gender use in literature will be presented to further chapter of the work.

The List of used Literature

1. Leontiev, A. A Fundamentals of psycholinguistics. 1997
2. Harley, T *The psychology of language, from data to theory.* Psychology Press Translation: New York. 52: 13-21. 2005
3. Hatzidaki, A. The process of comprehension from a psycholinguistic approach. Translator Journal, 52: 13-21. 2007

[1] Krasnikh, V. V. (1998). *On the question of psycholinguistic analysis of the text.* Philology: Moscow. 3: 120

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARI TAHLILIDA KREATIV YONDASHUV

Fozilova Mohigul
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent shahar Chilonzor tuman 79 – maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
84rizayv@mail.ru 90-916-67-40

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalarini interfaol metodlar va texnologiyalar bilan o'rgatish orqali o'quvchilarni kreativ fikrlarini shakllantirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Albert Eynshteyn, Shukur Xolmirzayev, kreativlik, ijodkorlik, hikoya qahramonlari, hamkorlik texnologiyasi.

Zamonaviy ta'limda kreativlik degan tushuncha keng qamrovda qo'llanilayotgan atamalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni ma'naviyatini yuksaltirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kreativ yondashuv asosida bilimlarini rivojlantirish har bir pedagog oldida turgan muhim vazifadir . Binobarin, mazkur jarayon asosida darslarni tashkil etish pedagoglardan izlanuvchanlik va ijodkorlik talab etadi.

Kreativlik ingliz tilidagi "create" so'zidan olingan bo'lib, yaratish, ijod degan ma'nolarni anglatadi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida noodatiylik va erkinlik yotadi. O'quvchilarning kreativ fikrlarini aniqlash uchun, avvalo, o'qituvchining o'zida kreativ fikrlar va tushunchalar bo'lishi zarur. Hozirgi zamon psixologiya va pedogogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqati tushuniladi.

O'quvchilarni kreativ fikr yuritishi jarayonida hayotda uchraydigan muammolarga yechim topa olishlari, tasavvurni ta'sirchan g'oyalar bilan ifodalash qobiliyatlari shakllanadi. Albert Eynshteyn " Tasavvur – bilimdan muhim " deganda aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. O'quvchilarni ijod qilishga o'rgatish, izlanishga yo'naltirish, tasavvur, fantaziyani hosil qilish, o'qitishning zamonaviy usullariga kiradi.

Kreativ muhitda o'qituvchi o'quvchilar diqqat - e'tiborini jalb etish maqsadida biror-bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg'otuvchi ma'lumot, o'quvchilarni o'ziga jalb etib, ularda o'qishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. O'quvchilar mustaqil fikrlash orqali individual ravishda izlanadilar, natijada tafakkur qobiliyatlari rivojlanadi. Kreativlik tafakkur o'stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Ushbu tizim o'quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishda muhim vosita sanaladi.

O'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Shukur Xolmirzayev hikoyalarini tahlil etishda kreativ tushunchalar orqali tadbiq etish, nafaqat hikoyalar mazmunini yaxshi o'zlashtirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Jumladan, umumta'lim maktablari 8- sinf adabiyot darsligida berilgan " Ot egasi " va " Omon ovchining o'limi " hikoyalarini kreativ yondashuv asosida tahlil qilamiz.

Buning uchun " Fikrlar munozarasi" hamkorlik ta'lim texnologiyasidan foydalanamiz. Texnologiyaning maqsadi o'quvchilarning bir – birlari bilan ijobiy munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilarga quyidagi munozarali savollar bilan murojaat qilinadi:

" Otning egasi" hikoyasida hikoya qahramoni Inod dars beradigan maktabda yetti yashar bolakay ham, o'n ikki yashar bolakay ham yonma – yon o'tirib o'qishadi. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz ?

E'tibor bering : Omon " negadir " kalamush, sichqon va boyqushlarni sira otmaydi.

Bunday holat nimadan dalolat beradi?

Javoblardan namunalar:

1. Inod dars berayotgan maktab o‘quvchilarning imkoniyati cheklangan. Chunki qishloq atrofida bundan o‘zga maktab yo‘q edi. Inodning o‘zi ham o‘ninchi sinfni bitirgan edi, xolos.
2. Inson ruhiyatidagi aynish holati, psixologiya fani tilida - “o‘limsevarlik” deya talqin etiladi.

O‘quvchilarning hamfikrligiga qarab guruhlarga ajratiladi. Savollarga hech qanday fikr bildirmagan o‘quvchilar faollar guruhiga biriktiriladi.

Jamoadagi kreativ fikrlarga ega o‘quvchilarni aniqlash uchun “ Yelpig‘ich” texnologiyasi orqali hikoya tahlili davom ettiriladi. “Otning egasi” va “ Omon ovchining o‘limi” hikoyalaridan qahramonlar xarakter xususiyatlarini belgilovchi va asar g‘oyasini belgilovchi parchalar keltiriladi:

“…… Ot jimib qolgandan keyin Inod otning boshiga bordi va birdan uning bo‘ynidan quchoqlab, ko‘zlarini yumdi. Ot badani sovidi . Inod o‘rnidan turdi: qarshisidagi archali tog‘lar ham, chorbog‘i, daraxtlari ham, anavi soy – u olisda oqarib turgan maktabi ham ma’nosini

yo‘qotgan, yigitning ko‘zlari loqayd boqardi.”

(“ Ot egasi” hikoyasi)

“U o‘zi ham o‘lishi mumkinligini o‘ylamasdi. U o‘ldirishni … hayvonlarni, parrandalarni, xullas, Olatog‘da ov qilishga arzirli o‘lja borki, u qo‘liga miltiqni olishi bilan o‘zi anglamagan holda, ulardan nimanidir otish o‘ldirishni o‘ylardi.

….. Mabodo ovdan qo‘li quruq qaytsa – bunday voqea juda kam bo‘lardi u bamisoli otasi o‘lgandek aza tutar, qovog‘I ochilmas, shunda xotini ham ko‘ziga yomon ko‘rinib, bechora biron – bir yetishmovchilikdan zorlansa, u : “Jonga tegding-ku sen ham!” deya miltiqni qo‘lga olardi.”

(“ Omon ovchining o‘limi” hikoyasidan)

Aspekt	Fazilat	Nuqson	Xulosa
Soy bo‘yidagi qishloq Qorabayir otiga bo‘lgan mehri, Egamberdining pinhoniy istagi	Inod sodda va ishonuvchan. Qishloq bolalariga mehribon. Inod-arabchadan olingan “cho‘rtkesar”,”qaysar”ma’no larini beradi. Qalbi beg‘ubor, hech kimga yomonlik istamaydi	Inodning ishonuvchanligi, Egamberdining gaplari bilan cheklanib qoldi. Har bir insonni o‘ziday e‘tiqodli deb o‘ylashida.	Inod o‘ziga qadrli bo‘lgan narsalarni ko‘ngil mulki deb hisoblardi. Inson hayotda yashash uchun kurashishi lozimligini anglab yetmadi.

Jamoalar tomidan hikoya qahramonlari shu tarzda o‘rganiladi. Hamkorlikda muammo va vaziyatlar tahlil qilinadi.

Adabiyot o‘qituvchisi adabiyot darslarida o‘quvchilarning erkin fikr yuritishlariga imkon yaratishlari kerak. Shundagina ularninf fikrlarida kreativlik kasb etadi. “Kreativlik darslarida o‘quvchilar birgina “to‘g‘ri” javobni izlash o‘rniga o‘zlarini erkin va xotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko‘p g‘oya va fikrlarni o‘rtaga tashlasalar, shuncha ko‘p g‘oyalar kreativ bo‘ladi”. Keyingi bosqichda ***“Bashoratli o‘qish”*** metodidan foydalanish turli g‘oyalarni o‘ylab topishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Mazkur usul o‘quvchilarga tengdoshlari bilan birgalikda turli mavzularda muloqotlar va adabiy munozaralar o‘tkazish imkonini beradi. Bunda hikoya matni bilan o‘uvchilar tanishmagan bo‘ladi. O‘qituvchi darslikdagi hikoyalar matnini o‘qib

berish jarayonida o‘quvchilarga turli mulohazali savollar bilan murojaat qiladi. Masalan, 1.”… Uzoq yili Inodning bor – yo‘q ikki farzandi beda solingan bostirmaga tuynukdan kirib, gugurt o‘ynaydi, bedaga o‘t ketadi. Ularning qiy – chuvini eshitgan onalari borib, eshikni ochmoqchi bo‘ladi, biroq eshik qulf, u ham jonsarak holatda tuynukdan o‘zini ichkariga tashlaydi. Alangani ko‘rib yayov chopib kelgan Inod xotin va bola – chaqasining allaqachon sob bo‘lganini ko‘radi.

So‘ng ……” (“Ot egasi” hikoyasidan)

Xo‘sh, o‘quvchilar hikoya qahramoni Inodning keyingi ahvolini qanday tasavvur qilasiz? 2.”…..Omon mergan tunda: o‘rmonda, tog‘da hech narsadan qo‘rqmagani kabi jin –ajina degan narsalarga ishonmas, shu ma’noda “qon tutadi”, “gunoh”, “ko‘z tegadi” degan gaplarning ham uning uchun ma’nosi yo‘q edi. Masalan, qadimdan qolgan gap bor: ovchi kiyikdan bitta otishi kerak. Aks holda, bir falokat yuz berishi mumkin emish. Omon bu gapga ham panja orasidan qarardi”.

(“Omon ovchining o‘limi” hikoyasidan)

Omon nega bu gaplarga panja orasidan qaraydi ? O‘qituvchi hikoya matnini xuddi shu tartibda o‘qib, o‘quvchilardagi erkin va ravon fikrlarni rivojlantiruvchi savollar bilan murojaat qiladi. Uning muammoli savollarni berishi o‘quvchilarni kreativ fikrlarini aniqlashni osonlashtiradi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari hayotda, inson qalbida yechilmayotgan muammolarning badiiy tahliliga qaratiladi. Yozuvchi qahramonlari asar g‘oyasini, badiiy topilmalarini o‘quvchi og‘ziga “*chaynab*” solmaydi. Hayotga to‘g‘ri yo‘l topa olmagan qahramonlarini asar nihoyasiga borib tugatmaydi, yaxshilamaydi. Ularni o‘zining badiiy niyati amalga oshirilgan darajada hayotdagiday qoldirib, kitobxon hukmiga havola etadi. Bu uslub asar va qahramon haqida mushohada yuritish uchun o‘quvchiga keng imkoniyat qoldiradi. “O‘n minutlik esse” metodi o‘quvchilarning badiiy salohiyatlarini yuksaltirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

O‘quvchilarga o‘n minutlik esseni yozish qoidalari tushuntiriladi. Mazkur ikki hikoya qahramonlarining xarakerlariga asoslangan holda,

“Oliyjanob fazilatlar inson husni”, “ Inodning ko‘ngil mulki”, “ Ikki hikoyadagi milliy ruh ifodasi” kabi mavzular tavsiya etiladi

O‘quvchilar ushbu mavzularga esse yozish orqali o‘qituvchining xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildirishadi, mavzuga aloqasi yo‘q g‘ayrioddiy fikrlar keltiradi, keltirgan g‘oyalarini dalillar bilan ifoda etadi.Badiiy asarga ana shunday kreativ yondashuv o‘quvchini ijodiy fikrlashga, qiyoslashga va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiradigan usuldir.

Kreativlik inson tafakkuri va ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanar ekan, adabiyot darslari orqali o‘quvchilarni kreativ fikrlarini aniqlash osonroqdir. Shunday ekan, badiiy asarni kreativ yondashuv asosida tahlil etish orqali o‘quvchi nafaqat asar g‘oyasini yaxshi anglashi, balki o‘quvchilarda yangi g‘oyalar uyg‘otadi, tasavvur dunyosini boyitadi, o‘z fikrini himoya qilish odatini shakllantiradi. Adabiyot o‘qituvchisi adabiyot darslarida badiiy asarlarni tahlili jarayonida o‘quvchilarni tasavvurlarini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘rayev A.B. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” – T.: “Sano standart” nashriyoti. 2015. – 158 b.
2. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z., “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi” / Metodik qo‘llanma – T. : Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 223 b
3. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R., B.Karimov,K.Usmonova. Adabiyot o‘rta ta’lim muassasalarining 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik-majmua T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi 2019.- 256 b

MAKTABLARDA FONETIKA BO‘LIMINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FODALANISH

H. Qurbonboyeva, N. Xudaybergan
Amudaryo tumani 16-IDUM o‘qituvchilari
+998994555881, +998972207908

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabda ona tili darslarida fonetika (nutq tovushlari) bo‘limini o‘rgatishda yordam beradigan shaxsiy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: nutq tovushlari, mashqlar, noan’anaviy usullar, zamonaviy texnologiyalar

O‘quvchilarga ona tilini o‘rgatishda nutq tovushlarining ahamiyati kattadir. Boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarga fonetika bo‘limini to‘g‘ri o‘rgatish lozim. Sababi, harflarni, so‘zlarni o‘rganishda nutq tovushlari muhim hisoblanadi. O‘quvchilarga fonetika bo‘limini o‘rgatish darslarida turli zamonaviy pedogogik metodlardan, kompyuter texnologiyalaridan, shaxsiy metodlardan foydalangan holda tashkil qilish lozim.

1. Mashqlar yordamida o‘rgatish

Mashqlarni hamma sinflarda qo‘llash mumkin. O‘quvchilarga shunchaki, ko‘chirib yozishni topshirsak ularga bu zerikarli bo‘lishi, o‘zlashtirishi kam o‘quvchilarga mashq qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli mashqlarni o‘quvchilarga moslashtirish kerak bo‘ladi. Masalan:

18-mashq. Nuqtalar o‘rniga x yoki h harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

…ushyor, sa…iy, ma…sulot, …ulosa, …arakat, …urmatli, …ukm, …ozirjvob, ta…t, sa…na, …ayol, …ar kim, …ech qachon.

Bu mashqni faqat ko‘chirib yozishni topshirmang o‘z ijodingizdan foydalangan holda mashq doirasida turli o‘yinlar tashkil qiling, yoki, boshqa usullardan foydalaning. O‘zlashtirishi qiyin o‘quvchilarga ikki ustunga so‘zlarni ko‘chirib yozishni topshiramiz. Birinchi ustunga x harfini qo‘yib yozishini ikkinchi ustunga esa h harfini qo‘yib ko‘chirishni topshiramiz. Oxirida ularga tog‘ri javoblarni yozishini aytamiz, O‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar asosan yozish jarayonida qayta-qayta takrorlash yordamida yaxshi o‘zlashtirishadi. Yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilar uchun esa murakkabroq topshiriq berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularga mashqlarni ishlashdan tashqari adabiyot darslikdagi biror mavzu ichidan x va h harflari qatnashgan so‘zlarni topishni topshirish mumkin.

3. O‘yinlar yordamida o‘rgatish

Nutq tovushlari asosan kichik sinf darsliklarida bo‘lganligi sababli o‘yinlardan ko‘proq foydalanish kerak. Masalan: O‘quvchilarga unli harflarni o‘rgatish darslarida o‘quvchilarga daftarlariga unli harflarni yozish topshiriladi. Harflarni uchta jihat bo‘yicha tasnif qilish toshiriladi.

A – old qator, quyi keng, lablanmagan
I – old qator, yuqori tor, lablanmagan
U – orqa qator, yuqori tor, lablangan

Shu tariqa davom ettirish mumkin. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning eslab qolishi juda oson bo‘ladi. O‘yindan uyga vazifa sifatida ham foydalansa bo‘ladi. Bu o‘yindan darslar orasida foydalanib turilsa unli tovushlarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Undosh tovushlarni o‘tishda ham bu usulni qo‘llasa bo‘ladi.

D – til undoshi, portlovchi, jarangli
T – til undoshi, portlovchi, jarangsiz
B – lab undoshi, portlovchi, jaangli
H – bo‘g‘iz undoshi, sirg‘aluvchi, jarangsiz



4. Ko‘rgazmali materiallar yordamida o‘rgatish

Oddiy tushuntirishga ko‘rgazmali qurollar qo‘shilsa dars yanada samarali bo‘ladi. Unli tovushlarni taxtaga yozib, yoki og‘zaki aytganda o‘quvchilar diqqatini tortish oson emas. Mana shunday chizmadan foydalansak ancha tushunarli bo‘ladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun esa shunga o‘xshash rangli yoki ular uchun qiziqarli bo‘lgan narslardan foydalansak bo‘ladi.

5. Noan’anaviy usullar yordamida o‘rgatish

O‘quvchilarga unli va undosh tovushlarni o‘rgatish jarayonida nutq a’zolari harakatlariga e’tibor berishni o‘rgatish kerak, chunki bu nutq tovushlarini o‘rganishda muhim hisoblanadi. Dars jarayonida o‘quvchilarga ko‘zgu olib kelish topshiriladi. Tovushlarni aytgan vaqtida ko‘zguga qarab aytishadi va nutq a’zolarining harakatini eslab qolishadi.

Ovoz ohang bilan eshitiladigan xonada dars o‘tish kerak. Bu usulni jarangli va jarangsiz tovushlarni o‘gatishda qo‘llash mumkin. O‘quvchilar xonada tovushlarni aytganda jarangli va jarangsizga ajrata oladi. Kichik sinflardagi o‘quvchilar uchun esa tabiat bilan bog‘lab o‘rgatish, bunda o‘quvchilarga qushlar yoki hayvonlarning qanday tovush chiqarishi so‘raladi. Ular qaysi tovushlarni aytayotganini aniqlashni topshirish mumkin.

6. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘rgatish

Zamonaviy texnologiyalar yordamida ham o‘rgatish qiziqarli usullardan biridir. Unli tovushlar haqida audio qo‘shiqlar yoki ertaklardan foydalanish mumkin. O‘quvchilarning tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilayotganini tekshiradigan kompyuter dasturlaridan foydalanib, turli xil ko‘rinish testlar yaratish mumkin. Fonetika darslarida bu usullarni qo‘llash yordamida darslarning yanada qiziqarli va tushunarli bo‘lishiga erishish mumkin. Darslarga bunday yondashish o‘quvchilarning barchasi ma’lumotlarni to‘liq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. G‘ulomov, M. Qodirov “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent “Universitet” nashriyoti. 2001-y.

2. B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.

3. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo‘raboyeva “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5- sinfi uchun darslik” Toshkent. “Ma’naviyat” nashriyoti. 2015-y.

4. hppt//www.theschoolrun.com

NAVOIY IJODINING BOBUR SHE'RIYATIGA TA'SIRI

Hakimjonova Sadoqat O'lmasali qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
Tel:(90) 623-35-23
Karimjonova Mumtozbegim Anvarjon qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi
Tel:(93) 972-63-88

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning so'z qo'llash mahorati, betakror o'xshatishlari, badiiy san'atlarning mohirona qo'llashi Bobur ijodiga o'z ta'isiri o'tkazganini mualliflarning misralari orqali tahlil etilib, ularning mushtarak jihatlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: G'azal, bayt, tazmin, uslub, lirik qahramon, hijron motivlari, tasvir obyektlari, badiiy estetik zavq, lirika.

Annotation: This article analyzes the influence of Alisher Navoi's wording skills, unique analogies, skillful use of art on Babur's work through the poems of the authors and discusses their commonalities. .

Keywords: Ghazal, byte, verse, style, lyrical hero, suffering motives, image objects.

Ma'lumki, har bir davrning yetuk shoiri, arbobi bo'ladi. Ular o'z asarlari orqali xalq dardini, davr muhitini, ko'ngil rozlarini qalamga olishgan. " Katta shoir hamisha o'z vaqtida maydonga keladi, u hamisha- tarixiy. Zotan, katta shoir o'z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodachisidir."[1]. Hazrat Alisher Navoiy ham o'z davrining buyuk shoiri, maorifi edi. Alisher Navoiy o'zining ulkan she'riy merosi orqali turkiy tilning butun jozibasini, ohorini, keng imkoniyatlarini ko'rsatib bergan. Shu bilan bir qatorda, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi ham diqqatga sazovor. Navoiy asarlari va Bobur ijodidagi asarlar bir davrda turli usullar va o'ziga xosliklar mavjud bo'lganligining yorqin isbotidir. Ammo Bobur adabiyotshunos Fitrat ta'biri bilan aytganda, "Navoiy kabi "oliy uslub"da emas, sodda, ravon uslubda qalam tebratdi."[2]. Ta'kidlash joizki, Bobur Navoiy ijodini chuqur o'rgangan, g'azallaridan yod olgani haqida "Boburnoma" asarida ham aytib o'tadi. Bobur ijodida Navoiyning ta'siri katta bo'lganini uning g'azallarida, ruboiylarida ham ko'rish mumkin. Ikki allomaning bir davrda yashab, ikki uslubda yozgan bo'lsada, bir-biriga ta'sir etisha olgani, aruzga oid asar yozishgani ham buning yaqqol dalilidir.

Navoiyning Quyidagi baytida qo'llangan Xizr payg'ambar nomi talmeh san'atini yuzaga chiqarishga xizmat qilganini ko'rish mumkin:

Xati labig'a tutosh bo'lsa, ey ko'ngil, ne ajab,
Ki Xizr chashmai hayvonga rahnamoyidir.

Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonining 359-g'azalidagi bu baytdagi *xati labi, Xizr chashmasi* birikmalari o'ziga xos manzarani aks ettirgan.

Labing xati zohir etti, Xizr umri bersalar o'lgum
Xususankim, Xizrg'a hamdam o'lg'ay obi hayvoning

Bobur Navoiy g'azallaridan ruhiyatiga mos kelgan baytlarni o'z g'azallariga ko'chirganligini yuqotidagi bayt ko'rsatib bergan. Bu esa aynan talmeh san'atini qo'llash orqali hissiyotni ifodalagani bilan ahamiyatlidir. Hazrat Navoiyni Bobur o'ziga ustoz deb bilganidan, Navoiy ijodidan yaxshigina xabardor va tanish ekanligi, o'zgacha mehr bilan yondashganidan dalolatdir. Bobur ijodida Navoiy g'azallari ta'sirida yozilgan bunday g'azallarni ko'plab uchratish mumkin. E'tiborli jihati shundaki, o'z davrining "malik ul-kalom"i deya e'tirof etilgan Lutfiyning "Koshki" radifli g'azaliga, g'azallar sultoni Navoiy va Bobur ham shunday radifli g'azal yozganidadir.

Navoiyda: Ochmag'ay erdi jamoling olam aro koshki,
Solmag'ay erdi bari olamg'a g'avg'o koshki.

Boburda: Ko‘rmag‘ay erdi jamoling olam aro koshki,
Bo‘lmag‘ay erdim bari olamg‘a rasvo koshki.

G‘azallarni tahlil etish jarayonida juda ko‘plab o‘xshashliklarga guvoh bo‘ldik. Bunday o‘xshashlik, g‘azal strukturasidagi hamohanglik, *ochmaga’ay, ko‘rmag‘ay, solmag‘ay-bo‘lmag‘ay* kabi ma’nodosh so‘zlarninng qo‘llangani Navoiyning Boburga ta’sirini ko‘rsatib bergan.

Navoiy: G‘unchadek ko‘nglim mening gulzor mayli qilmag‘ay
G‘am bila butgan ko‘ngul gulgasht ila ochilmag‘ay
Bobur: Mening ko‘nglimki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur
Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondir.

Baytlardagi *g‘unchadek, gulning g‘unchasidek* birikmalari orqali Navoiyning betakror o‘xshatmalari Bobur ijodida sayqal berib qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Navoiy she’riyati o‘zining betakrorligi, orginal o‘xshatmalarning ta’siri bilan ajralib turadi. “Topmadim” radifli g‘azali tarkibidagi quyidagi misrani keltirish orqali Navoiy oshiq va ma’shuq munosabatlaridagi nomutanosiblikni ko‘rsatadi:

Husn mulki ichra sendek shohi zolim ko‘rmadim,
Ishq ko‘yida o‘zumdek notavone topmadim.

Baytdagi *husn mulki* birikmasi yorning naqadar go‘zalligini, unga teng keluvchi topilmasligini ifodalashga xizmat qilsa, *shohi zolim* birikmasi yorning ishqda ma’shuqiga beshafqatlik qilib o‘zini ustun tutayotganini anglatishga xizmat qilgan. Hazrat Navoiy yorning go‘zal husnini ko‘rolmay uni zolim deya ta’rif beradi. Ikkinchi misrada Ishq, muhabbat borasida o‘zidek *notavone* ya’ni *bechora, kambag‘al, nochor* kishini topmadim deya o‘xshatishni kuchaytirib beradi. Oshiqning husni va unga qarshi zolimligini ana shunday tarannum etgan lirik qahramon o‘zining bechoraxol ekanligini zo‘r hasrat bilan ifodalaydi. O‘quvchi ko‘z o‘ngida suyukli yorining husnini ko‘rish dardida nochor bir ahvolga kelgan oshiq obrazi jonlanadi. Navoiy lirikasidagi hijron tuyg‘ularini ikki toifaga ajratish mumkin: asl mohiyat ya’ni Haqning vasliga erishish yo‘lidagi umidvorlik va voqelikdagi ma’shuqining muhabbatiga erisholmay iztirobga chekkan oshiq holatining hijron tasviri.

Mumtoz she’riyatida bir xil nom ostida turli xil manzara, hissiyot, kechinma ifodalangan g‘azallar ko‘p. Shulardan biri “ Topmadim” g‘azali hisoblanadi. Chunki Hazrat Navoiydan keyin Bobur ijodida ham “Topmadim” nomli betakror g‘azal uchraydi. Navoiyning Bobur ijodiga ta’siri g‘azalning quyidagi misrasida yaqqol ko‘rinadi:

Jonimdek o‘zga jonni dilafgor ko‘rmadim,
Ko‘nglum kibi ko‘ngulni giriftor topmadim.

Bobur o‘zini qayg‘udan dili vayron bo‘lgan jonni hech ko‘rmaganini aytib nola qiladi, ko‘nglini esa asir qilinganligini ta’kidlaydi. Bobur keltirgan birinchi misraning qofiyasi “ko‘rmadim”, Navoiyning g‘azalidan keltirilgan birinchi misraning qofiyasi ham “ko‘rmadim” bilan boshlangan. *Dilafgor ko‘rmadim, shohi zolim ko‘rmadim* birikmalari har ikki g‘azalning darajasini ko‘tarishga xizmat qilgan. Boburning hijron, ayriliq, visol ohanglarini Navoiy hazratlari lirikasidek ham ajratish mumkin, lekin faqrli jihati shundaki, Boburning hijroni, iztirobi ko‘proq Vatan, yurt visoliga nisabatan beriladi. Ikkinchi toifasi esa haqiqiy borliqdagi yorining vasli, muhabbati yo‘lidagi hijronida o‘z ifodasini topadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Bobur ijodida Navoiyning o‘rni beqiyos bo‘lib, o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Navoiy lirikasidagi xilma-xillik, tasvir obyektlari, hijron tasviri Bobur ijodida ham aks etgan. G‘azallaridagi o‘xshashlik, mazmuniy yaqinlik, badiiy san’at qo‘llashdagi mushtaraklik alohida e’tibor tortadi. Har ikki shoir keltirgan so‘zlar kitobxonga badiiy estetik zavqni berishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

14. N.Jabborov. “Zamon, mezon, she’riyat”.Toshkent:G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2015.
15. Abdurauf Fitrat. “Tanlangan asarlari”.Toshkent:”Ma’naviyat”, 2000.
16. A.Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati.Toshkent:G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.

METHODS OF IMPROVING READING SKILL.

Isakova Nargiza Toxirovna.
Namangan viloyati, Norin tumani 1-o'rta maktab
Ingliz tili fani o'qituvchisi.
Tel: +998995182304
Qasimova Saida Naqibillayevna
Namangan viloyati, Norin tumani 1-o'rta maktab
Ingliz tili fani o'qituvchisi
Tel: +998911862515

Abstract: this is written in order to organize reading lessons interestingly. There are given up-to date methods to improve reading skill.

Key words: reading skill, method, "jigsaw", "hamburger", " Is white poplar or blue..?", worksheets.

Reading is the receiving an information from the written text. Pupils learn listening, speaking, writing and reading skills. If three skills: listening, speaking and writing is the aim of learning English language, reading is both aim and tool of learning target language. Because learner can learn and receive something by reading.

Modern English language lessons require from teachers always searching novelties, learning and using new methods during the lesson. The textbook of the 7th grade pupils was renewed and published. It was enriched with home reading activities. We want to share some cutting-edge methods to organize home reading activities interestingly.

"Jigsaw" method. This method can be used with both pictures and texts. We can use this method as a pre-activity. Pupils can guess the meaning of the text or the picture. If jigsaw is used with pictures, teacher should cut pictures into many pieces and pupils have to collect them properly.

But today we talk about working with texts. First of all, teacher should print text into paper as worksheets and cut them for several pieces. And divide pupils into small groups then pupils are handed cut worksheets, they have to put in order according to its meaning. At the end of activity one member of each groups read the text loudly. Whose text will be meaningful, they will be winner.

EXAMPLES OF "JIGSAW" WORK SHEETS.



The second method is "Hamburger". It is suitable for while activity. We know any text includes three parts: introduction, main body and conclusion. Teacher give pupils bread

of the hamburger. Pupils must fill middle part with ham, leaves and cheese. Initially tutor print worksheets which consist of only introduction and conclusion. There must be a space for main body. Pupils should fill in the space with the text they have learnt and retell it. According to the number of information in the space pupils are marked. Groups can count the facts about the text and mark each other.

EXAMPLES OF “HAMBURGER” WORK SHEETS.





The last method I am going to explain is “Is white poplar or blue…”. We had better use it at the end of the lesson as a post activity. Teacher should divide pupils into two groups. Then turn by turn pupils ask questions based on the text from a member of opponent group. If any participant of the group can not answer the question he or she has to join to opposite group. At the end of the game according to the number of members winner group is announced.

Literature:

1. “Teaching reading in secondary school” Geoff Dean. 2005
2. “Teaching reading in the content areas for elementary teachers”. Margot King. 2006.
3. @english_worksheets_more.
4. ESLprintable.com

THE MAIN OBSTACLES THAT CAN BE ENCOUNTERED IN TEACHING AND LEARNING ENGLISH AS A SECOND OR FOREIGN LANGUAGE.

Jumaniyozov Husanboy Yusufboyevich
Teacher of English at the Specialized
Boarding-School for Some Subjects and
Foreign Languages in Baghat district of Khorezm province
Tel: +998977928003
E-mail: husanboy_2020@umail.uz

Abstract: It is known, that second language learners usually make mistakes in certain grammatical rules. This research aimed to reveal and analyse such grammatical difficulties in order to give a contribution to the study of linguistics and help teachers in identifying grammatical errors commonly made by second language learners of English.

Key words: contextual meaning, presentation and practice, comprehension, second language acquisition, grammatical concepts, articles, modal verbs, tenses .

Introduction: Since the beginning of the XXI century there has been a renewed interest in grammar teaching in L1 and L2 classrooms and this interest has become even more apparent in recent years. While traditional parsing exercises generally fail to improve students' writing, there is a growing body of empirical evidence indicating positive effects of contextualized grammar teaching. Most grammar teaching in L1 contexts is still fairly 'traditional', in two distinct but related senses (cf. the systematic literature review of Van Rijt, De Sewart & Coppen, 2018). First, grammar in L1 contexts is mostly traditional in terms of its teaching approaches (e.g. focusing on rules, parsing isolated sentences, labelling parts of speech). Second, it is traditional in the sense that it uses a traditional body of grammar knowledge (e.g. structuralistic parts of speech terminology)

One of the main reasons why grammar education is still remaining " strange" can be explained with the distinctive features of a certain language. (e.g. Some grammatical concepts such as " Articles", " Modal Verbs" …etc. do not exist in most languages, as well as in Uzbek). Teaching grammar based on real insights rather than rules.

According to Phipps& Borg and Watson teaching grammar based on parsing isolated sentences puts less cognitive strain on teachers, who mostly lack the knowledge and confidence to teach grammar insightfully. Moreover, research into "teacher beliefs" has revealed that teachers generally tend to adopt teaching styles that match the content and pedagogies which they have experienced themselves as learners. This way, more traditional forms of grammar teaching remain persistent in education.

What should we do? Should we teach grammar? If so, how…?

During recent decades, answers have ranged from one extreme to the other to the question of whether grammar should be taught or not. These beliefs are radically different; on one hand, some linguists and teachers, including those who prefer the grammar-translation method, strongly believe that grammar should be at the heart of language teaching, while others, according to Lewis and Krashen, who depends on studies of the acquisition of English morphology to claim that language learning is not conscious, although some grammatical information is useful and they pointed out some factors to prove their theories, such as, much of the grammar that is taught is inaccurate;

The rules which are taught are frequently incomprehensible to students;

Nevertheless, grammar teaching has enjoyed renewed interest in recent years; indeed, according to Fotos, it has never left the classroom. Most researchers strictly believe and support grammar teaching as a main and inseparable part of the language teaching and learning process.

Another hypothesis of SLA is Krashen's Acquisition-Learning Distinction. According to Krashen, acquisition is more related to the development of first language abilities while learning describes the development of second language abilities. Acquisition is a subconscious process of implicit or natural learning. This term is applied to the way in which humans learn their native language without the use of formal rules or instruction. On the other hand, learning describes the conscious study and knowledge of grammatical rules that are most often associated with foreign language education.

As I mentioned above, some grammatical categories do not exist in other languages, but we can replace them with their alternatives. For instance, articles, modal verbs, irregular verbs and etc. Let us observe some of them.

" I need to brush my hands"- Men qo'llarimni yuvishim kerak.

" I have to go to the dentist"- Men tish doktoriga borishim kerak.

" You should not smoke"- Siz chekmasligingiz kerak.

" I must do my homework"- Men uyga vazifamni tayyorlashim kerak.

As we can see all the modal verbs in these sentences are translated into Uzbek the same but modal meaning is quite different . And how to explain them clearly to second language learners is a matter of regular practice.

Another concept is " Article" that could be difficult to explain without alternatives.

How can we explain articles as easy as possible?

First, after having been identified the main rules, their function in a sentence the students should be acquainted with their meanings(or alternatives).

The Indefinite Article has the following meaning: one, any and every.

e.g. 1. "Give me a book"= " Give me one book or any book you want(it does not matter which book");

2. " A pupil has a bag"= "Every pupil has one bag" .

The Definite Article can be replaced with the Demostrative Pronouns(this/that or these/those).

"Can you open a window,please?"

"Can you open the window, please?

These sentences seem identical at first sight but their meaning is quite distinctive. In this case, " a window" is equal to " one window" or "any window". Consequently, we can accept it as " Open one of the windows in the room" or " Open any window you like". If the Definite Article in the second sentence is changed with the Demonstrative Pronouns,(this/that window) it means that, there is either only one window in the room or the speaker is having in mind which window to be opened.

Conclusion

Thus, learning a foreign language is not so problematic issue as we expect but is a long-lasting process that depends our individual ability and approach. The main aspect is that this process should be well-organized, should be carried out regularly, and step by step from simplicity to higher levels.

References:

1. Krashen, Stephen D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. New York: Prentice Hall, 1987.

2. Mitchell, Rosamond and Florence Myles. Second Language Learning Theories. New York: Oxford University Press, 1998.

3. Omaggio, Alice C. Teaching Language in Context: Proficiency-Oriented Instruction. Boston: Heinle and Heinle, 1986.

4. Cook, V. (1989). Universal grammar theory and the classroom. System, 17, 169–182.

ASSESMENT AND EVALUATION MATTERS IN ELT CLASSES

Khalilova Himoyat Khatamovna
a senior teacher of
Tashkent institute of finance
Tel: 998(97)6048085

Annotation: This article examines the importance of assessment and evaluation. The aim of this article is to elaborate different assessment techniques that may better address student learning needs, improve student learning and engage students in self-assessment, including the sequence of steps that could lead to self-assessment .

Keywords: valuation, self -assesment, learning assessment, implementation, assessment techniques, achievement, teaching methods, English language.

Assessment and evaluation have always been important; they are linked to language teaching methodology, program outcomes, language teacher competencies, language standards and second language acquisition training.

They can serve many different policies and can come in different forms. Assessment and evaluation have always been seen as the responsibility of the specialists, but they have rarely been included as a component in English language teacher (ELT) training. However, the ELT field has been experiencing a major shift in assessment and evaluation with effects on teachers, and learners around the world. It has also been influenced by a major questioning of traditional forms of testing and the underlying psychometric principles of measurement in ELT. A major concern of English language teaching has been assessing and evaluating students' progress during the course of study as well as their achievements at the end of it. Assessment and evaluation also give teachers useful information on how to improve their teaching methods. Assessment and evaluation are very important parts of the constructive alignment process. Well designed assessments can allow students to use the knowledge and skills they have learnt and indicate their level of mastery. The feedback on the assessment will also provide students with clear information on the criteria they need to succeed at assigned tasks, can give the lecturer a clearer sense of how the task is assessing mastery and what aspects are being assessed. Evaluation of the course or module, by students and lecturers should feed back into the whole process of curriculum alignment, as well as reflect critically and constructively on the outcomes, the teaching and learning activities, the assessment and the experience of the course or module. Reflexivity, continuous learning and development are key aims of successful evaluation.Through the use of appropriate classroom assessment strategies and techniques, teachers can increase their students' motivation and show them how well they have learned the language. Evaluation goes beyond learners' achievements and language assessment to consider all aspects of teaching and learning. Although the terms 'assessment' and 'evaluation' are often used interchangeably, they can be considered two parts of the same process. Assessment is the process of gathering evidence of what the child can do. Evaluation is the process that follows this collection of data, including analysis and reflection, as well as decisions based on the data.

The present study focuses upon the qualitative approach of English language learning assessment and evaluation process in the educational system. Evaluation in teaching the English language is a process of collecting, analyzing and interpreting information about teaching and learning in order to make informed decisions that enhance student achievement and the success of educational programs.

The purpose of classroom assessment and evaluation is to give students the opportunity

to show what they have learned rather than catching them out or to show what they have not learned. Needless to say, evaluation and assessment can focus on different aspects of teaching and learning: respectively, textbooks and instructional materials, student achievement, and whole programs of instruction.

It is important to clarify the distinction between evaluation and assessment. These terms are often used interchangeably and are, in fact, related, but they are technically different. Assessment of an individual student's progress or achievement is an important component of evaluation: it is that part of evaluation that includes the measurement and analysis of information about student learning. The primary focus of assessment in English Language Teaching has been language assessment and the role of tests in assessing students' language skills. Evaluation goes beyond student achievement and language assessment to consider all aspects of teaching and learning and to look at how educational decisions can be made on the basis of alternative forms of assessment. Classroom assessment and evaluation under the active management of teachers can also serve important professional development purposes since the information resulting from such evaluations provides teachers with valuable feedback about their instructional effectiveness that they can use to develop and improve their professional skills. Assessment is perhaps one of the most important elements of curriculum design and alignment, because this is where it is possible to see if students can demonstrate mastery in terms of the knowledge and skills they need to have learnt. Assessment, in a constructively aligned curriculum, must speak to the outcomes listed for the course. It must draw in both the knowledge and the practical and intellectual skills and competencies that students have been taught and that they have practiced in lectures and tutorials. Assessment activities must test what has been learnt and taught, and should not be constructed so as to be ambiguous or inexplicit. Evaluation is an important part of an alignedcurriculum and an overall teaching and learning strategy because it is apart of the feedback and development cycle. It should be a part of any responsive and up-to-date teaching and learning strategy or plan. Evaluation gives students opportunities to speak to the lecturer about their experiences and impressions of the course content and the pedagogical approaches that have been used. One of the most important issues in evaluation is timing. Assessment plays a number of roles in the life of a student, some of which they may be more aware of than others. It is widely accepted that students'

learning patterns, educational focus, and allocation of time will be directly influenced by assessment. It does more than allocate a grade or degree classification to students – assessment plays an important role in focusing their attention. Therefore one of the most important issues in evaluation is timing. Teachers can use quick exercises to check in with students during the course, at the end of a topic or after an assignment has been completed. Longer and more detailed evaluation for the end of a course can also be created. The important thing to consider when thinking about the timing is the purpose of the evaluation (what do students need to know and why), and what teachers plan to do with the information students give them.

Used literature :

1. Biggs, J. (1999). What the student does: Teaching for enhanced learning. Hager Education Research and Development, 18(1), 57-75.

2. Genesee, F., Upshur, J. (1996). Classroom-based evaluation in second language education. Cambridge, UK: Cambridge University Press.

3. Sainsbury, E., & Walker, R. (2007). Assessment as a vehicle for learning: Extending collaboration into testing. Assessment and Evaluation in Higher Education, 33(2), 1-18.

4. Graves K. 2000. Designing Language Courses: A Guide for Teachers. Boston: Heinle&Heinle.

BADIIY ASAR TARJIMASINING TURLARI VA AHAMIYATI

M.M.Kumekova, +998977870679
N.E. Yuldasheva, +998937171697
Amudaryo tumani 30-sonli maktab o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima tarixi, badiiy asar tarjimasida muhim bo'lgan jihatlar haqida mulohza yuritilgan. Yozma va og'zaki tarjimaning bir-biridan farqi tarjimachilik sohasidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: og'zaki va yozma tarjima, sinxron tarjima, tarjima tarixi, "Faust" asari, tarjimon

Dunyoda barcha millatlar o'z qo'shnisi bilan ijtimoiy aloqa qiladi, bir-biridan ilm o'rganadi va moddiy, madaniy aloqalarni yo'lga qo'yadi. Tarjima - millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Albatta, boshqa tilda gaplashadigan xalq bilan har qanday aloqada o'sha millat tilini tushunishga ehtiyoj sezamiz. Tarjimasiz hech qanday ijtimoiy, madaniy aloqa yuzaga kelmaydi. Bundan ming yillar ilgari ulug' olimlarimiz Ibn Ruid, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Beruniy va boshqa allomalarimiz dunyoga mashhur asarlarni yaratish bilan birga tarjima ishlari bilan shug'ullanganlar. Ma'mun akadamiyasida sharq tarjimonchilik maktabi faoliyat ko'rsatgan. Unda arab, fors, hind, turk, yahudiy, yunon olimlari birgalikda ish olib borib, ularning tarjimonlik faoliyatiga O'rta Osiyodan olimlari rahbarlik qilganlar. Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisaga, san'at asariga aylanadi. Badiiy asar tili alohida badiiylik, voqelik unsuridir. Tarjimada ana shu badiiylikni, asarning to'liq ma'nosi saqlanib qolishi muhim. Tarjima qilish jarayonida asar qahramonini qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan kashf qiladi. Tarjima jarayonida tarjimon hamma vaqt o'z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezoni bo'lib xizmat qiladi. Masalan: Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonini tarjima qilgan Qutb ("... Nizomiy bolidan holvo pishurdim "). Tarjima faqat nusxa ko'chirish kabi bir ish bo'lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa boldan holva pishiruvchi mohir yozuvchi bo'lishi kerakligini aytadi. Ma'lumki, har bir til og'zaki yoki yozma nutq shaklida mavjud bo'lishi mumkin.

1. Yozma- yozma tarjima. Yozma matnning yozma tarjimasi ikkala til ham yozma shaklda qo'llaniladi. Tarjima turlari ichida bu odatda eng ko'p qo'llaniladigan tarjima turidir. Tarjimanig bu turini tarjima qilinayotgan matn xarakteriga qarab, yanada kichikroq guruhlarga bo'lish mumkin.

a) axborot matnlar, turli hujjatlar va maxsus ilmiy matnlar tarjimalari

b) ijtimoyi-siyosiy, publitsistik adabiyotlar va notiqlar nutqlarining tarjimasi

v) badiiy adabiyotlar tarjimasi.

2. **Og'zaki-og'zaki tarjima.** Og'zaki matnning og'zaki tarjimasi ikkala til og'zaki shaklda qo'llaniladi. Ushbu tarjima turida ikki xil tarjima mavjud:

a) ketma-ket tarjima. Ketma-ket tarjima asl matndan keyin matn to'la yoki uning ayrim qismlari aytilgandan keyin sodir bo'ladi. Odatda to'xtalish bir necha gaplardan keyin sodir bo'ladi, har bir gapdan keyin to'xtalish esa kamroq uchraydi.

b) Sinxron tarjima. Matn aytilayotgan vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Sinxron tarjima asosan asl matn bilan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi, ammo nutqning ayrim qismlarida tarjima qilinayotgan nutqdan biroz (bir necha so'zgagina) orqada qoladi, yoki tarjima qilinayotgan nutqqa nisbatan oldinga o'tib ketadi. Sinxron tarjimaning bunday oldinga o'tib ketishi tarjimonning hali aytilmagan nutq qismlarini oldindan bilish qobiliyati borligi sab-

abli sodir bo‘ladi. Og‘zaki tarjimaning ikkala xili ham ketma-ket tarjima qilinadi. Sinxron tarjima o‘ziga xos psixologik qiyinchiliklar bilan bog‘liq ketma-ket tarjima tarjimondan yaxshi mashq qilingan va tez ishlaydigan xotirani talab etadi, sinxron tarjimada esa bir vaqtning o‘zida eshitib, gapirish ko‘nikmasi birinchi o‘ringa chiqadi. Sinxron tarjima qila bilish uchun maxsus va uzoq vaqt davom etadigan mashqlar bajarilishi lozim.

3. **Yozma-og‘zaki tarjima.** Yozma matnning og‘zaki tarjimasi. Tarjimaning bu turida ham ikki xil tarjimani farqlash mumkin.

a) tarjima asl matnni ichidan o‘qish bilan bir paytda (xuddi sinxron tarjimadagidek) sodir bo‘lishi mumkin.

b) ketma-ketlilik bilan, butun matnni yoki har bir jumlani o‘qib bo‘lgandan keyin amalga oshishi mumkin

4**. Og‘zaki-yozma tarjima.** Og‘zaki matnning yozma tarjimasi. Amaliyotda tarjimaning bu turi juda kam uchraydi, chunki matnni (qo‘lda, mashinkada yoki kompyuterda) yozish tezligi og‘zaki matnni aytish tezligidan ancha past bo‘ladi. Shu sababdan bunday tarjimani amalga oshirishning deyarli iloji bo‘lmaydi. Og‘zaki-yozma tarjimaning amaliyotda qo‘llanishiga yagona misol bo‘lib chet tili mashg‘ulotlarida uchraydigan mashqlardan bir turi diktant-tarjima xizmat qilishi mumkin. Og‘zaki matn (asl matn) sekinlashtirilib aytiladi («diktant tezligi»da) va bu bilan yozma tarjima qilishga imkon yaratiladi.

Fanda tarjimaning bu turlari bir-biridan farq qiladi. Agar tarjima to‘g‘ridan-to‘g‘ri asl nuxsa tilidan tarjima qilingan bo‘lsa, bunday tarjima bevosita tarjima deyiladi. Tarjima asl nusxadan emas, balki boshqa bir til orqali qilingan bo‘lsa, bunday tarjimaga bilvosita tarjima deyiladi. Tarjimon asl nuxsa tilini yaxshi bilmagani tufayli tarjimani boshqa til yordamida qilishga majbur. Nemis yozuvchisi I.V. Gyotening eng yirik asari “Faust”ni E.Vohidov tomonidan rus tili orqali o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi bilvosita tarjimaga misol bo‘la oladi. Ma’lumki, tarjima jarayonida asl nusxaning qandaydir nozik tomonlari buzilishi yoki yo‘qolib qolishi mumkin. Bevosita tarjimada bunday buzilishlar va yo‘qolishlar bilvosita tarjimaga nisbatan ancha kam bo‘lishi shubhasizdir. Tarjima san’ati eng mashaqqatli va sharafli hamda ko‘p bilim malaka talab qiladigan ishdir. Sababi, tarjima qilingan badiiy asarning o‘quvchilar asarning asl mazmuni tushunishi kerak. Tarjima qilingan asarning badiiyligi, obrazligi, ifodaligi buzilmasligi uchun asar tilini bilish birinchi o‘rindadir. Tarjima bir tildagi matnni boshqa tilda yaratishdan iborat ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Asl va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga bo‘linadi. Asl nusxani aks ettirish xususiyatiga ko‘ra tafsir, tadbil, sharh kabi ko‘rinishlariga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima qadimiy davrlarda turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa muloqat ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. “Tilmochlik” atamasi bugungi kunga kelib o‘zgargan “tarjimon” atamasiga aylangan. Tarjimaga aniqroq ta’rif beradigan bo‘lsak . Tarjima deb bir tildagi nutq asarini ikkinchi tildagi nutq asariga aylantirish, o‘zgartirish jarayoniga aytiladi. Ushbu jarayonda nutq asarining ma’nosi o‘zgarmasdan saqlanib qolishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андрес А. Дистанция времени и перевод//Мастерство перевода. –М., 1965. –с.118-131.
2. K. Jo‘rayev. “Tarjima san’ati”. –Toshkent “Fan” nashriyoti, 1982 y. 60-bet
3. Qudrat Musayev. “Tarjima nazariyasi asoslari”. Toshkent “Fan nashriyoti, 2005 y. 352-b
4. G‘aybulloh as-salom. “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent-2003 y. 54-bet
5. hppt//www.ziyouz.com

YENGIL ATLETIKACHI AYOLLAR JISMONIY TAYYORGARLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qaxxorova Maqsuda Sobirovna
Farg‘ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
II toifali jismoniy tarbiya o‘qituvchisi.
Tel nomeri: +998995321369

Annotatsiya: ushbu maqolada yengil atletikachi ayollarning sport bilan shug‘ullanishidagi jismoniy me’yorlar, tayorgarlik holatlari, yengil atletikada ayollar va erkak mashqlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr-mulohazlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yengil atletika, sport gimnastikasi, gimnastik snaryad mashqlari, sport texnikasi.

Yengil atletikada erkaklar hamda ayollar sporti takomillashuvining vosita va usullari bir xil. Biroq ayollar tayyorgarligida qo‘llanadigan vositalarning hajmi va shiddati ancha past. Ayollarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan mashg‘ulot yuklamalari ham erkakalardagidan kamroq.

Ayollar organizmining o‘ziga xos xususiyatlari tufayli mashqlar hamda ularni bajarish uslubini tanlayotgan murabbiy-o‘qituvchi barcha mushak guruhlari va, ayniqsa, orqa, yelka sathi, qorin, oyoq kaftlari mushaklari, tosning ichki mushaklari rivojlanishiga erishishi lozim.

Yelka sathi va qo‘l mushaklarini rivojlantirish uchun mashqlar tanlanganda, ayollarda ko‘krak mushaklarining funksional imkoniyatlari birmuncha cheklanmaganligini, shuning uchun ular bilan mashg‘ulot o‘tkazganda aynan shu mushaklarni mustahkamlovchi maxsus mashqlarni, xususan predmetlar bilan yoki predmetlarsiz holatda qo‘llar bilan katta amplitudali harakatlar qilish, gimnastika snaryaddagi mashqlar, qo‘llarga tayanib yotib, ularni bukib-yozish, ikki yoki bir qo‘l bilan turli predmetlatni uloqtirish kabi mashqlarni tanlash juda muhim (bunday mashqlar, ayniqsa, uloqtiruvchi ayollarda mashg‘ulotlar dasturining kattagina qismini tashkil qiladi).

Yengil atletikachi ayollar organizmining funksional imkoniyatlarini oshirishda qorin pressini rivjlantirish katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu ichaklarni to‘g‘ri faoliyat ko‘rsatishiga, shuningdek, qorin bo‘shlig‘I hamda kichik tosning barcha organlari ishiga yordam beradi. Yaxshi rivojlangan qorin devoir mushaklari sportchi ayollarning ichki jinsiy organlarining balandlik va uzunlikka sakrash vaqtlarida turli silkinish va siljishlardan saqlaydi. Tayyorgarlik darajasi past bo‘lgan boshlovchi sportchi va yengil atletikachi ayollar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda umurtqa pag‘onasining haddan ortiq egiluvchanligini keltirib chiqaradigan mashqlarni ko‘p qo‘llash tavsiya etilmaydi. Bu uning bel qismidagi egriligi ortib ketishiga, shuningdek, qorinning old mushaklari keragidan ko‘proq cho‘zilib qolishiga olib keladi. Xuddu shu sababga ko‘ra gavdani orqaga qattiq engashtirish bilan bog‘liq mashqlarni ham cheklash lozim.

Jismoniy mashqlar orqali kichik tos bo‘shlig‘idan a’zolarning to‘g‘ri joylashuvini saqlashga yordam beradigan ichki tos mushak va bog‘lamlariga bevosita ta’sir ko‘rsatish mumkin emas. Ular boshqa mushak guruhlariga beriladigan mashqlar ko‘magida mustahkamlanadi. Masalan, qorin pressi mushaklarini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar bachadonning dumaloq mushaklarini baquvvatlashtirib, ular tarangligini oshiradi. Oyoq mashqlari tosning ichki devorlarida joylashgan tos ichi mushaklarini rivojlantiradi. Yengil atletikachi ayollarga yumshoq tuproq (o‘t, qum, qor) ustida o‘lchab beriladigan sakrash mashqlarining turli kombinatsiyalarini bajarish foydali. Ular kichik tos organlarining

sezilarsiz siljishlariga sabab bo‘ladi va natijada ularni tutib turuvchi mushak hamda bog‘lamalarning mustahkamlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Yengil atletikaning xususiyatlari juda ko‘p miqdorda yugurish va sakrash mashqlarining bajarilishini talab qiladi, shuning uchun oyoq kafti mushaklari yetarlicha qotmagan yosh yoki boshlovchi yengil atletikachi qizlarning oyog‘iga beriladigan katta yuklama kaft gumbazining qattiqlashuvi va yassitovonlilik yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Yengil atletikaning barcha turlarini o‘zlashtirishda muvvaffaqiyat maxsus kuch va tezlik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, uloqtiruvchi ayollarning yelka sathi, oyoq, gavda mushaklari juda kuchli harakatlari nihoyatda tez, koordinatsiyalaro yuqori darajda bo‘lishi zarur. Ayni vaqtda qisqa masofaga yuguruvchi yoki sakrovchi ayollarning oyoq, gavda mushaklari kuchli, harakatlari tezligi a’lo bo‘lishi lozim. Bu sifatlarsiz yugurish, sakrash, uloqtirsihlarning zamonaviy texnikasini egallab olish mumkin emas.

Agar tezkorlik va chidamlilikni rivojlantirish va takomillashtirish usuliyati erkaklarda ham, ayollarda ham asosan bir xil bo‘lsa (farq faqat bajarilayotgan hajmi va shiddatida), kuchni rivojlantirish usuliyati maxsus mashqlarni talab qiladi. Yengil atletikada ayollarning tayyorgarligini yengilroq, haddan ziyod jismoniy zo‘riqishga majbur qilmaydigan vositalar bilan amalga oshirish ma’qul. Katta og‘riqlar qo‘llanadigan mashqlardan foydalanish esa qorin bo‘shlig‘i va kichik tos organlarining tushushiga oyoq kaft gumbazlarining yassilanishiga, umurtqa pag‘onasi, bel sohasining jarohatlanishiga olib kelishi mumkin. Kuchni rivojlantirish uchun yengil atletikachi ayollarning to‘ldurma to‘plar, qumli qoplar, shtanga lappaklari bilan, juftlikda qarshilik ko‘rsatiladigan mashqlarni, shuningdek, sakrash mashqlarining har0xil variantlarini bajarilishi juda foydali. Shtanga bilan bajariladigan mashqlarni umumiy jismoniy tayyorgarlik holati mutlaqo qoniqarli bo‘lgandagina mashg‘ulotlarga kiritish mumkin.

Bunda mashqni bajarish shakli va shtanganing og‘irligi juda muhim bo‘lin. Yuklama hajmini hamda og‘irlik vaznini qat’iy izchillikda oshirib borish lozim.

Takroriy yulamalar usulini asta-sekin maksimal yuklamalr usuli bilan to‘ldirib boorish kerak. Toliqishni tez bartaraf qilish uchun og‘riqlar bilan bajariladigan mashqlarni bo‘shashtiruvchi mashqlar bilan navbatma-navbat bajarish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Jismoniy tarbiya va sport gimnastikasi” umum ta’lim maktablar uchun qo‘llanma Toshkent “O‘qituvchi” nashiryoti 2011-yi
2. “Jismoniy tarbiya nazaryasi” SH.X.Xonkeldiyev, A.Abdullayev. Toshkent 2006-yil
3. “Yengi atletika” kitobi Toshkent 1987-yil
4. “Jismoniy tarbiya va yengil atletika” kitobi 1996-yi
5. “Yengil atletika” metodik qo‘llanmasi 2015-yil.

REKLAMA MATNLARIDA BO‘LAKLANISH VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Mamirova Dilnoza Shirinboyevna,
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
Telefon: +998942841701,
mamirova.d@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada reklama matnlarida segment qurilmalarning eng ko‘p uchraydigan turi tasavvur nomlari va mavzu ifodalovchi gaplar ekanligi, bu ikki hodisa funksional jihatdan bir-biridan farq qilishi ko‘rsatib berilgan. Tasavvur nomlarida ekspressivlik, badiiylik va psixologizm kuchli bo‘lsa, mavzu ifodalovchi gaplarda axborotni yetkazishda tinglovchining diqqatini ma’lum bir jihatga qaratish asosiy xususiyat sanaladi.

Kalit so‘zlar: segment, rema, tema, adresant, adresat

Nutq jarayonida adresantning adresatga munosabati, berilayotgan axborotning muhimligiga qarab kommunikativ maqsad bilan gapni qayta tuzish natijasida shakllanadigan sintaktik qurilmalarni o‘rganish, ularda so‘zlovchi pragmatik intensiyasi, baho munosabatining aks etishi, bunday sintaktik qurilmalarning matnlardagi o‘rni va emosionallikni ta’minlashdagi ahamiyati masalasini yoritish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Biz ham shu munosabatni inobatga olgan holda reklama matnlarida ko‘p uchraydigan segment birliklar va segmentasiya hodisasiga to‘xtalishni lozim deb topdik.

Adresant kommunikativ jarayonda o‘zi muhim deb hisoblagan o‘ringa adresatning diqqatini tortish uchun turli vositalardan foydalanadi. Tilshunoslikda gapni qayta tuzish, bo‘laklash natijasida hosil bo‘lgan qurilmalarning asosan uch turi farqlanadi: segmentasiya-nutqni bo‘laklarga bo‘lish natijasida hosil bo‘lgan bo‘lak, parsellyatsiya -gapning shunday bo‘linishiki, unda ifodaning mazmuni bitta emas, balki ikki va undan ortiq intonatsion-ma’noviy nutqiy birliklarda anglashiladi. Bunday birliklar biri ikkinchisidan so‘ng ketma-ket keladi. Gapning ekspressiv maqsad bilan bo‘laklanishi bo‘lib, unda gapning bir qismi ayiruvchi to‘xtamdan keyinga, gapning tashqarisiga chiqariladi[1;80], antisipasiya - oldindan sezish, keyingi tovushning avvalgisiga ta’siri; oldingisini talaffuz qilishda keyingisining ta’siri[2, 48]. Segment qurilmalar asosan og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, reklama matnlarida so‘zlashuv nutqiga xoslikni berishda keng foydalaniladi. Masalan, *Pikovit- Farzandingiz muvaffaqiyati uchun vitamin va minerallar (Vitamin haqidagi reklama).*

Adresant nutqini o‘zi muhim deb bilgan qismdan boshlashi mumkin, bunda so‘zlovchi muhim deb hisoblagan qism mantiqiy jihatdan ajratilib, gapning oldingi qismiga chiqariladi hamda fikrning temasi vazifasini bajaradi. Bunda mantiqiy jihatdan ajratilgan qism og‘zaki nutqda intonatsiya, yozma nutqda tinish belgilari yordamida ajratiladi. Segment bo‘lak tema sifatida kelar ekan, tinglovchining diqqatini ma’lum bir o‘ringa qaratish uchun xizmat qiladi hamda ta’kid ma’nosini kuchaytiradi, uni izohlab kelgan gap tarkibida esa olmosh bilan almashadi yoki ba’zi o‘rinlarda o‘zi takror keladi. Masalan, *Taylol-xot - Gripp va shamollash alomatlarini yengishga yordam beradi, Taylol-xot.*

Segment bo‘lak so‘zlovchining kuchli his-hayajonini ifoda etadi [3,45]. Bunday holatlarda segment bo‘lakdan keyin undov belgisi qo‘llaniladi. *Masalan: Qadam bosing, gigabaytlar oling. Sizdan qadamlar –bizdan giglar. Qadamlar uchun giglar. (Beeline uyali aloqa kompaniyasi tariflari reklamasi)*

Yetakchi, ishonchli, innovasion! Keltirilgan reklamada segment bo‘lak sifatida ajratilgan so‘z *giglar* bo‘lib, bu misolda uch o‘rinda qo‘llangan: birinchisi segment bo‘lak, ikkinchi va uchinchisida uni izohlab kelayotgan gap tarkibidagi kesimdir. Bunday holatda qo‘llanilish ta’kid ma’nosini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Segment bo‘lak kuchli emosionallikni

ifodalash bilan birga adresatning diqqatini ma'lum bir obyektga qaratish vazifasini ham bajaradi. Ekspressivlikni ta'minlovchi, nutq jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan segmentasiyaga o'xshab ketadigan sintaktik figuralardan yana biri parsellyativ qurilmalardir. Ta'kidlash kerakki, segmentasiyada ham, parsellasiyada ham muhim sanalgan bo'lak ajratib ko'rsatiladi. Tilshunoslikda ekspressiv sintaksisning usuli sanalgan bu hodisalar haqida turg'unlashgan qarashga asosan, segmentatsiya ajratilgan bo'lakni gapning oldiga chiqaradi va u har doim ot xarakteridagi so'zdan iborat bo'lib, bosh kelishikdagi so'z bilan ifodalanadi. Parsellyatsiyada esa parsellyat asosiy gapdan keyin kelib, morfologik jihatdan har xil bo'lib, turli gap bo'laklari maqomida bo'ladi.

Parsellyatsiya ham, segmentatsiya ham og'zaki nutqqa xos bo'lib, yozma nutqda ular, asosan, tinish belgilari vositasida ifodalanadi. Segmentatsiyaga xos bo'lgan asosiy xususiyat uning, asosan, monologik nutqda uchrashi bo'lsa, parsellyatsiya ham monologik nutqda, ham dialogik nutqda uchraydi[5,10]. Parsellyatsiya dialogik nutqda personajlarning o'ziga xos so'zlashuv uslubini ko'rsatishda, nutq jarayonida so'zlovchining ruhiy holati – quvonchi, g'azabi, ro'y bergan voqyelikdan esankirash, voqyelikka shaxsiy munosabatini ifodalash, qo'shimcha axborot berish kabilarni ifoda etishda, asar tilini jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirishda, badiiy asar tilining o'ziga xosligini ta'minlashda asosiy vosita sifatida ishtirok etadi. Segmentatsiyada esa bu holat kuzatilmaydi. Parsellyatsiyadan farqli ravishda segmentatsiya so'zlashuv nutqini kitobiy nutqqa yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Segment bo'lakda ham qahramonning ruhiy holatlari bilan bog'liq o'zgarishlar ifoda etiladi, parsellyatsiyadan farqli ravishda segment bo'laklar nutqqa ko'tarinkilik, ulug'vorlik, o'ziga xos ohang, ba'zan sokinlik berishda qo'l keladi. Segmentatsiyada segment bo'lak og'zaki nutqda intonatsiya yordamida aniqlanadi, segment bo'lakdan keyin to'xtash, bir oz tin olish intonasiyasining yo'qligi segment bo'lakni ajratib olish imkonini yo'qqa chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ҳожиев А. Тилшунослик термииларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. -Б. 80.

2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 598 с.

3. Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – Москва, 1981. – 104 с.

4. М.Э.Умурзоқованинг "Ўзбек тилида сегмент қурилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи" мавзусидаги Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. -Т. 2019. -Б. 142.

NAZARIY TILSHUNOSLIKNING MULOQOT JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Masharipova Bekposhsha, Davletova Shahnoza
Qo'shko'pir tumani 31-maktab o'qituvchilari,
+998943156463, +998993474841

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslik nazariyasi va inson muloqotining bir-biri bilan bog'liqligi, farqli jihatlari haqida fikrlar keltirilgan. Tilshunoslik fanining boshqa yo'nalishlar bilan hamkorligi, tilshunoslikning insoniyat tarixida qanday ahimiyat kasb etishi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Fonologiya, pragmatika, psixolingvistika, diaxronik tilshunoslik, nazariy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, tanqidiy disursiy tahlil

Nazariy tilshunoslik - bu tilni ilmiy o'rganish. Uning asosiy maqsadi odamlarning har kuni ishlatadigan tabiiy til va uning qanday ishlashini o'rganishdir. Tilshunoslar quyidagi fundamental savollarni berishadi: Tilning qaysi jihatlari hamma uchun universaldir? Ingliz, yapon va arab tillaridan farqli ravishda tillar o'rtasidagi ajoyib grammatik o'xshashliklarni qanday hisobga olishimiz mumkin? Biz foydalanadigan til grammatikasining qanday qoidalari bor va biz ularni qanday qilib bilib olamiz? Tilning tuzilishi bizning atrofimizdagi dunyo haqidagi fikrimiz bilan qay darajada bog'liq?

O'zimiz va atrofimizdagi dunyo haqida ko'proq bilish uchun olib boriladigan yo'nalishlardan biri sifatida qiziqarli bo'lishiga qaramay, tilshunoslikni o'rganish hayotdagi muammolarni hal qilishda ham juda muhimdir. Amaliy tilshunoslar tillarini o'qitish, nutq terapiyasi va tarjima kabi sohalarga o'z qarashlarini olib kirishadi. Tilshunoslar dunyo miqyosidagi universitetlarda va ilmiy-tadqiqot institutlarida, olimlar sifatida, amaliy tilshunos bo'lib, maktablarda, sudlarda va davlatning eng yuqori darajalarida ishlamoqda. Nazariy sintaktikchilar va tilshunoslar bitta asosiy jihatga e'tibor berishadi. Tilshunoslik odamlar qanday qilib tildan foydalanishni tushuntirishni emas, balki til tizimining ishlashini tavsiflash va modelni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Ushbu jihatlar birgalikda tilning grammatikasini tashkil qiladi. Kitobdagi qoidalar ro'yxati emas, balki aloqa uchun zarur bo'lgan qismlarni. Tilshunoslik bu so'zlar va iboralarni o'z ichiga olgan birliklarni jumlalarga qanday birlashtirishini o'rganishdir. **Masalan**: **Nega Nasiba baliqni eydi. Nasiba baliqni eydi?** Sintaksis bo'yicha olimlar so'zlarning qanday buyruqlari qonuniy jumlalar yaratishini, jumlalar ichida qanday qilib aniqlangan tartibni yaratishadi. **Masalan:** faol gaplar (Jahongir to'pni tepdi) va passiv gaplar (To'pni Jahongir tepgan).

Fonologiya va tilshunoslik. Odatda nutqni emas, balki imo-ishora tilini ham o'rganishni o'z ichiga oladi. Ovoz yoki imo-ishora orqali tilni ifodalash uchun ishlatiladigan bir xil jihat ikkalasining asosi sifatida qaraladi. Imo-ishora tilidagi tadqiqotlar, shuningdek, o'z ona tilini biluvchi tilshunoslarning tushunchalari uchun ham foydali. Fonologiyada bo'g'inlarning tuzilishi, intonatsiyasi, ohanglari va imo-ishora, qo'l harakatlari bilan tilni ifodalash uchun dinamiklardan foydalanadigan grammatik tizimni o'rganishdir. Fonolog tilni fonologik tarkibiy qismlarga ajratadi. Masalan: **mushuk** so'zini {m}{u}{sh}{u}{k} segmentlarini tartibga soluvchi har birini fonema sifatida bo'laklarga ajratadi. Tovushni hosil qilish, harfni shakllantirishning yoki imo – ishora harakatlarning cheksiz ko'p usullari mavjud bo'lsada, fonologlar ushbu guruhni qanday qilib mavhum toifalarga ajratish bilan qiziqishadi. **Masalan:** chet tillarida bunga ko'plab misollar keltirish mumkin ingliz, nemis, fransuz, xitoy va boshqa tillarda uchratish mumkin. Ingliz tilida wh [v], fransuz tilida esa C [seh], arab tilida صَ [sod] o'zbek tilida sh [sh], ng [ng] bizda bu harf birikmalari hisoblanadi. Fonetika nutqning tovush tomoniga e'tiborni qaratadi. Fonetika nutqni idrok etish (miya tovushlarni

qanday aniqlayotgani), akustika (tovushlarning jismoniy fazilatlari havo orqali harakatlanish) va artikulyatsiyani (o‘pka, til, lablar va boshqa artikulyatorlarning harakatlari orqali ovoz ishlab chiqarish) qamrab oladi. Bu soha nutqning jismoniy amalga oshirilishini va individual tovushlarni, adabiy til va lahjalardagi farqlarni tahlil qilib o‘rganiladi. Fonologiya kompyuter nutqini aniqlash va sintez qilishda katta rol o‘ynaydi.

Tilshunoslik sohasidagi semantika til qanday ma’noni anglatishini o‘rganishni anglatadi. Bu erda o‘rganilgan ma’noning boshqa jihatlari shundaki, ma’ruzachilar qandaydir noaniq jumlalarni qanday tushunishgani haqida aytiladi. **Masalan: Talaba har bir professor bilan uchrashganmi?** Bu gapda noaniqlik mavjud (boshqa talaba yoki o‘sha talaba?) va yuzaki jihatdan juda boshqacha bo‘lgan jumlalarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. **Masalan: Bemalol oqardi** (nima yoki kim) **juda ko‘p suv iste’mol qilindi** (kim, kimlar).

Pragmatika – tilshunoslik. Aytilgan gaplarning kontekst bilan qanday bog‘liqligini o‘rganishdir**. Masalan: ikki bolali** jumlasi faqat kontekstda aniqlash mumkin. **1**. **Avtobusdan ikki bolali ayol tushdi. 2. Mening dugonam ikki bolali bo‘ldi.** Tilni bilish bilan qanday tushunishni oldindan aytib bo‘lmaydi. **Tilshunoslikning boshqa sohalari**

Tilshunoslik ko‘plab sohalarni qamrab olgan va birlashtirgan insonning tabiiy tilining asosiy xususiyatlarini, shaxslarning rivojlanishini, fikrlash va muloqotda foydalanishni, miyani hayotga tatbiq etishni, genetik asoslarni va evolyutsion kelib chiqishni o‘rganadi. Tilshunoslik, bolalarda va kattalarda nutqning qanday paydo bo‘lishini nazariy yoki amaliy o‘rganish. **Kognitiv tilshunoslik** umumiy bilishning bir qismi sifatida tilni o‘rganish. **Nazariy tilshunoslik** esa tilshunoslikning asosiy sohasi, bu barcha odamlar uchun umumiy bo‘lgan til jihatlari modellarini tahlil qilish orqali tilning o‘zi tizimining xususiyatlarini o‘rnatishga harakat qiladi.

Psixolingvistika ong qanday ishlashini bilish uchun tilni o‘rganish. **Sotsiolingvistika** tilning madaniy kontekstga, suhbatdoshning nutqi va u ishlatiladigan nutqning vaziyatga qarab qanday o‘zgarishini o‘rganish.

Stilistika tildan foydalanish va kontekst bo‘yicha farqlashini o‘rganish.

Lingvistik o‘zgaruvchanlik dunyo tillari o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish. Bu umuman tilshunoslikka ta’sir qiladi. Agar insonning til qobiliyati tor bo‘lsa, unda tillar juda o‘xshash bo‘lishi kerak. Insonning til qobiliyati cheklanmagan bo‘lsa, unda tillar juda farq qilishi mumkin.

Tarixiy tilshunoslik (yoki diaxronik tilshunoslik) tillarning tarixiy bog‘liqligini o‘rganish (masalan, o‘zbek, qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik yagona til oilasidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi). Bunga tilning universal xususiyatlarini topish va tilning rivojlanishi va kelib chiqishini hisobga olish kiradi.

Kontekstual lingvistika tilshunoslik boshqa akademik fanlar bilan o‘zaro aloqada o‘rganishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Antropologik tilshunoslik tilshunoslik va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqadi.

Tanqidiy disursiy tahlil - bu ritorika va falsafa tilshunoslik bilan o‘zaro ta’sir qiladigan tahlil. Muloqot asoslari umuman o‘zgarmaydi. Aksincha, til lug‘atiga har kuni yangi so‘zlar qo‘shiladi, shuning uchun u har kuni o‘zgarib turadi. Buning natijasida tilshunoslik faniga yangi mavzular, bo‘limlar qo‘shiladi. Tilshunoslik qoidalari o‘zgarmas emas, ularning turli xil tomonlari yillar o‘tgan sari yangidan kashf qilinaveradi.

Xulosa. Yuqoridagi tushuntirish bilan, muloqot jarayoni tildan ko‘ra kengroq doiraga ega ekanligi aniq, chunki birinchisi ikkinchisini qamrab oladi. Til - bu muloqotning mohiyati, ularsiz u mavjud bo‘lolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:
1. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. -T., 1979.
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Yo‘ldoshev I. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Yo‘ldoshev I., SHaripova O‘. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007.
5. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (OTM uchun darslik). –Toshkent, 2010.
6. Kosovskiy B.I. Общее yazыkoznanie. -Minsk. 1969

XITOY TILIDA QIYOSLASH MAZMUNIDAGI GAPLARNING 不比 BUBǏ INKOR SHAKLI ORQALI IFODALANISHI

Maxamadtoirova Adiba Botir qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanuvchisi
Telefon: +99893 570-57-69
maxamadtoirov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola xitoy tilida qiyoslash mazmunidagi gaplarning inkor shaklini 不比 orqali yasalishiga qaratilgan bo‘lib, gaplarning inkor shakli 不比 bubǐ orqali ifodalanganda, oldingisi keyingisiga teng emas degan ma’noni anglatishi, qiyosiy gaplarning inkor shakli 不比 orqali yasalganda uning grammatik jihatdan gapdagi joylashuv o‘rni va stilistik jihatdan tarjima masalalariga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Qiyos, taqqos, o‘xshatish, inkor, qiyosiy daraja, daraja tengligi

Ikki yoki undan ortiq predmetlar orasidagi taqqoslanayotgan darajaning baland, past yoki tengligini ifodalash uchun qiyoslash mazmunidagi konstruksiyalardan foydalaniladi. Xitoy tilida A 不比 B konstruksiyasi qiyoslash mazmunidagi gaplarning inkor shakli bo‘lib, biror-bir shaxs yoki predmetning, boshqa bir shaxs yoki predmetdan ustun emasligini, yeta olmasligini ifodalab keladi. 比 *bǐ* old ko‘makchili gaplarning inkor shaklini yasash uchun biz uning oldidan inkor ravishi 不 *bu* ravishidan foydalanamiz va uni quyidagicha izohlanadi: “oldingisi keyingisiga teng emas ….” ya’ni “ A B dek emas”. Shunga e’tibor berishimiz kerak, “B A dek… deyish mumkin emas” ya’ni “keyingisi oldingisiga nisbatan….“ deb bo‘lmaydi [5]. Masalan:

今天不比昨天冷。*Jīntān bubǐ zuotiān lěng.*

Bugun kechagidan sovuq emas.

这样做不比那样做好。*Zheyang zuo bubǐ nayang zuo hǎo.*

Bunday qilishing unday qilishingdan yaxshi emas.

他不比你矮。*Tā bubǐ nǐ ǎi.*

U senga nisbatan past emas.

她起的不比你晚。*Tā qǐ de bubǐ nǐ wǎn* [2].

U sendan kech turmaydi.

Qiyoslash mazmunidagi gaplarning inkor shaklini turli xil usullar bilan izohlashimiz mumkin. Masalan: 他不比我高 *tā bubǐ wǒ gāo* u menchalik baland emasman.

1. 他跟我差不多高。*Tā gēn wǒ chabuduō gāo.*
2. 他跟我不一样高。*Tā gēn wǒ bu yiyang gāo.*
3. 我比她高一点儿。*Wǒ bǐ tā gāo yidianer.*
4. 她比我高一点儿。 *Tā bǐ wǒ gāo yidianer.*

Lekin bu gaplarning har biri aynan bir xil ma’no anglatmaydi. Bunday gaplarda 不 *bu* kesimdan oldin qo‘yilishi mumkin emas. Masalan:

1. ?她比我不高。*Tā bǐ wǒ bu gāo.*
2. ?今天比昨天不暖。*Jīn tiān bǐ zuo tiān bu nuǎn.*

比 *bǐ* inkor formasining 不比 *bubǐ* bilan birga 没有 *meiyǒu* inkor formalari ham mavjud bo‘lib, ular gapda turlicha ma’no anglatadi [3]. Masalan:

1. 他<u>不比</u>我高。 *Tā bubǐ wǒ gāo.*

U mendan baland emas.

2. 他<u>没有</u>我高。 *Tā meiyǒu wǒ gāo.*

U mendek baland emas degan ma’nolarni anglatadi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki 不比*bubǐ* darajalardagi farqni ko‘rsatuvchi, sof qiyoslash mazmunidagi konstruksiyalar qatoriga kirsa, 没有 darajalarning teng yoki teng emasligini ko‘rsatuvchi, o‘xshatish mazmunidagi konstruksiyalar qatoriga kiritishimiz mumkin.

[A不比B] konstruksiyasi qiyoslash mazmunidagi gaplarning inkor formasi bo‘lib, 刘月花 *Liu Yuehuā* xitoy tilshunos olimining ta’kidlashiga ko‘ra ularni quyidagi [A没有 *meiyǒu*

B] (A B dek emas) yoki [A 不如 B] (A B ga teng kelmaydi) shakllari bilan adashtirib yubormaslik zarur. Ularning tarjima turli ma'nolarni ifodalaydi [1]. Masalan:

1. 这件衣服不比那件衣服长。*Zhe jian yīfu bubǐ na jian yīfu zhǎng.*
Bu kiyimni unisidan uzun deb bo'lmaydi.
2. 这件衣服没有那件衣服长。*Zhe jian yīfu meiyǒu na jian yīfu zhǎng.*
Bu kiyim unisidek uzun emas.
3. 这件衣服不如那件衣服长。*Zhe jian yīfu buru na jian yīfu zhǎng.*
Bu kiyimning uzunligi unisidek emas.

Shu bilan birga不比*bubǐ* gapda faqat inkor shaklni yasabgina qolmay, u anglatayotgan ma'no bevosita gapning ichki va tashqi omillari bilan bog'liq bo'ladi. Hozirgi zamon xitoy tili grammatikasida qiyosiy gaplarning不比*bubǐ* shakli semantikasi nisbatan murakkab eknaligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

不比*bubǐ* tuzilish jihatdan qiyosiy gaplarning inkor shakli, biroq, hozirgi zamon xitoy tilida qiyosiy gaplarning inkori 没有*meiyǒu* yordamida yasaladi. Ammo, 不比 *bubǐ* shaklan qiyosiy gaplarning inkori bo'lgani holda hamma vaqt ham qiyosiy gaplarning inkori bo'la olmaydi. Soddaroq aytilsa, 不比 *bubǐ* gapda ma'no hosil qilishda shakl va mazmun jihatdan teng emas [5]. Ya'ni 不比*bubǐ* ishtirok etgan gaplarda, shuningdek, turli matnlarda u anglatadigan asl ma'no bir-biridan farq qiladi. Natijada uning bilan bog'liq gaplarni anglash va tushinish jarayonida murakkab holatlar yuzaga keladi.

Odatda 不比*bubǐ* tarjima jarayonida stilistik jihatdan faqatgina qiyosiy gaplarning inkor shaklini yasamaydi. U anglatayotgan ma'no gapning ichki va tashqi omillari bilan bevosita bog'liq [4]. 不比 *bubǐ* ishtirokida yasalgan gaplarning tarjimasi har bir semantik kategoriyaning xususiyatlaridan kelib chiqib va undagi mavjud omillarni hisobga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi misollardan 不比*bubǐ* ishtirokidagi grammatik konstruksiyalar o'zining rang barangligi va qo'llanish doirasi ko'ra kengligiga ko'ra boshqa konstruksiyalardan ajralib turishini aniqladik.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, [A不比B] konstruksiyasi qiyoslash mazmunidagi gaplarning inkor formasi bo'lib, biror-bir shaxs yoki predmetning, boshqa bir shaxs yoki predmetdan ustun emasligini, yeta olmasligini ifodalab keladi. 不 inkor ravishi, 比old ko'makchisidan oldin qo'llanishi kerak. Lekin aslo kesimdan oldin qo'llab bo'lmaydi. Ushbu konstruksiyani [A没有B] (A B dek emas) yoki [A不如B] (A B ga teng kelmaydi) shakllari bilan adashtirib yubormaslik zarur. Ular gapda turlicha ma'no anglatadi. [A不比B] oldingisi keyingisiga teng emas …. ya'ni " A B dek emas" degan ma'noni anglatadi. Hozirgi zamon xitoy tili grammatikasida qiyosiy gaplarning 不比 shakli semantikasi nisbatan murakkab bo'lib, 不比tuzilish jihatdan qiyosiy gaplarning inkor shakli, biroq, hozirgi zamon xitoy tilida qiyosiy gaplarning inkori 没有 yordamida yasaladi. Ammo, 不比 shaklan qiyosiy gaplarning inkori bo'lgani holda hamma vaqt ham qiyosiy gaplarning inkori bo'la olmaydi. U anglatayotgan ma'no gapning ichki va tashqi omillari bilan bevosita bog'liq. 不比ishtirokida yasalgan gaplarning tarjimasi, semantik kategoriyaning xususiyatlaridan kelib chiqib va undagi mavjud omillarni hisobga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ┌月化等著. ┌用┌代┌┌┌法. – 北京: 商┌印┌┌, 2001. – 840 ┌.
2. 苗┌霞┌煮.HSK 考前强化┌法. –北京: 北京大┌出版社, 2010年. – 175┌.
26. 戴雪梅, ┌若┌. ┌用┌┌┌法三百点. – 北京: 新世界出版社出版, 1999. – 240 ┌.
27. ┌吴博. A Syntactic Analysis of the Bi Comparative Construction. – 四川:四川外┌┌大┌┌士┌位┌文,2013 年. – 78 ┌.
28. Очилов О.М. Хитой тилида ┌иёсий гапларнинг шакли ┌а┌ида // Хитой шунослик факультетинтнг биринчи илмий –амалий конференцияси материаллари. – Т., 2015. – Б. 163-173.
29. htpp: //www.baidu.com/ (XXR maxsus qidiruv sayti)
30. htpp: //www.cdmd.cnki.com.cn/ (XXR ilmiy tadqiqotlar sayti)

ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISH DARS SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY MEZONIDIR.

Mirzaxodjayeva Raximaxon Ulmasaliyevna
Andijon tumani 36-umumiy o'rta ta'lim maktabi
informatika va axborot texnologiyalari fani
o'qituvchisi
914964111 mirzaxodjayeva67@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sohasida AKT va elektron darsliklardan foydalanish dars samaradorligini oshirishni ta'minlash ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish; o'quvchini har tomonlama rivojlantirish,kompyuter savodxonligini ahamiyati, darsda bilim olshga bo'lgan qiziqishini oshirish, axborot madaniyatini shakllanishi, o'quvchilarni bilim saviyasini oshishi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: dars, elektron darslik,kompyuter savodxonlik, dars sifati,dastur.

«Eng yangi zamonaviy o'quv vositalari bilan ta'minlangan ta'lim muassasalarida eskidan qolgan o'qitish usullarining davom etishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi».
Sh.Mirziyoyev.

Mahmud Qoshg'ariy- XI asrning O'rta Osiyolik filolog olimi va tilshunosidir. 1072-1074 yillar davomida arab tilida "Turk tili lahjalari" ni tuzgan. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'ati turk " asarida arab tilining ilmiy uslublari orqali yaratgan asari turk tilining rivojlanishi va shevalari haqidagi muhim va qimmatli manbadir. Mahmud ibn al- Husayn ibn Muhammad al Qoshg'ariy Buxoro, Nishopur, Samarqand, Marv, Bag'dod kabi shaharlarda olim uzoq vaqt yashagan va shu hududlarning tili, madaniyati, etnagrafiyasini o'rganadi. Turkiy urug' va qabilalar yashagan barcha yerlarni birma bir o'rganib, ularning tillaridagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi. Til xususiyatlariga ko'ra turkiy tillarni guruhlarga tasniflash imkoniyatiga ega bo'ldi. Mahmud Qoshg'ariyning o'zi bu haqida shunday deydi: "Puxta qo'llanma bo'lsin deb, har bir qabilaning o'ziga xos xususiyatlariga qiyosiy qoidalar tuzdim…" Turkiy tillarni farqli belgilariga ko'ra dastlabki ikki guruhga ajratadi: turklar (chigil, qoshg'ar, arg'u, barsog'on, uyg'ur), o'g'uz va qipchoq qabilalari tillari.

Asar sakkiz asosiy bo'limdan iborat bo'lib:

Hamzali so'zlar bo'limi. (so'zning boshida ى, و, ا harflari kelgan so'zlar bo'limidir.)

Solim bo'limi.(so'z tarkibida arab tilida "harfi illat" deb ataluvchi ى, و, ا harflardan birontasi bo'lmagan, shuningdek, takrorlangan harfi bo'lmagan so'zlar.) 3. Muzoaf bo'limi (bir harfi ikki qayta takrorlangan so'zlar bo'limi)

Misol bo'limi. (so'zning boshida, o'rtasida yoki oxirida ى, و, ا

harflaridan biri bo'lgan so'zlar bo'limi)

Uch harfli so'zlar bo'limi. (sharhlardagi "uch harfli so'zlar" degan iboralarda arab harflari nazarda tutiladi.)

To'rt harfli so'zlar bo'limi.(sharhlardagi "to'rt harfli so'zlar" degan iboralarda arab harflari nazarda tutiladi.)

G'unnalilar bo'limi. (tarkibida burun tovushlari kelgan so'zlar bo'limi.)

Ikki undosh qator kelgan so'zlar bo'limi.

Har bir bo'lim otlar (ismlar) va fe'llar tarzida ikki qismga ajratib berilgan.

Devondagi terminlar masalasiga kelganda Mahmud Qoshg'ariy ko'makchi, undov va qo'shimchani *harf* deb, sifat, son, va boshqa so'z turlarini *ism* deb bergan. Mahmud Qoshg'ariy o'z izohlarida so'z turlarini *uch turkum ism, fe'l, harf*ga ajratgan. Asarda uch turkumga ajralgan barchasining grammatik xossalarini o'sha davr nuqatai nazaridan

kelib chiqib aniq ravshan holda yoritib bergan. Masalan qo‘shimchalar imlosini oladigan bo‘lsak, birgina –*chi* affiksni olaylik. Bu affiks XI asr til grammatik xossasiga ko‘ra otlarga qo‘shilib, ot yasalishida qo‘llanilar edi. **Mahmud Qoshg‘ariy buni alohida affiks sifatida ko‘rsatmagan, uning ayrim so‘zlarga bergan izohidan –*chi* affiksini shaxsga tegishlilikni anglatuvchi sifatida keltirgan.**

-*chi* affiksni tahlil qilar ekanmiz bugungi kunda u:

So‘roq –taajjub yuklamasi: sen-*chi,* kelsa-*chi*, Lolaxon-*chi.* Bunda –*chi* affiksi olmoshga, otga, fe’lga ham bog‘lana olgan.

Ot yasovchi (shaxs oti) yasovchi: suv+*chi,* bo‘z+chi, gul+*chi.*

Sifat yasovchi : a’lo+*chi.*

Yuqorida keltirib o‘tganimdek –chi affiksini Mahmud Qoshg‘ariy alohida affiks emas ya’niki, ular shaxsga tegishlilikni anglatadi xolos degan izohini tahlillaymiz. So‘roq taajjub yuklamasiga keltirgan misolimizda ham barchasida shaxsga tegishlilikni anglatmoqda. (sen+chi ikkinchi shaxs birlikda, Lolaxon+chi uchinchi shaxs birlikda, kelsa+chi uchinchi shaxs birlikda). Ot yasovchi ya’ni kasbga doir otlar: suv+chi, gul+chi, bo‘zchi. Sifat ya’sovchi a’lo+chi yasama so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak, a’lo=sifat, a’lo+chi o‘quvchi (qanday o‘quvchi? so‘rog‘ini beramiz.) Ma’no jihatidan sifat yasovchi affiks –chi shaxsga tegishlilikni anglatayotganini ko‘rishimiz mumkin. Agar a’lochi yasama so‘zini ot kesim qilib oladigan bo‘lsak: Xurshida guruhimizda— a’lochi. Shaxsga tegishlilikni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. **Yuqorida ta’kidlaganimdek Mahmud Qoshg‘ariy so‘z turkumlarini uchga: harf (qo‘shimchalar), ism (sifat, son va ot va boshqalar), fe’lga ajratgan.** Bunda sifat va ot bir turdaligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, -*chi* affiksi ma’no jihatidan shaxsga tegishlilikni anglatadi. Shuning Mahmud Qoshg‘ariy alohida affiks sifatida olmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni lug‘atut turk” I, II, III tom asarlari. Toshkent 1960-yil. “O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashiryoti”.
2. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sayfullayeva R, Mengliyev B.
3. Tilshunoslikka kirish. O.Azizov. 1996. “O‘qituvchi “ nashiryoti.
4. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. A.A. Abduzazizov. 2010.

KOREYS TILIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR SISTEMASI (O‘ZLASHMALARNING MAVZUVIY GURUHI TASNIFI)

Abdieva Iroda Normurotovna
SamDCHTI 1-kurs magistranti
Tel: +998(93) 226 44 94
iroda_abdieva@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada koreys tilidagi ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning mavzuviy guruhlari o‘rganilib, uning koreys tilidagi leksik ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

В данной научной статье изучаются тематические группы слов, изучающихся с англий ского на корей ский язык, и рассматриваются их лексическое значимость на корей ском языке.

In this article, thematic groups of Korean words borrowed from English are studied and their lexical value in the Korean language is examined.

Kalit so‘zlar: O‘zlashma so‘z, leksik birlik, graduonimik munosabat, semantika, leksema, neologizm.

Koreys tilida inglizcha o‘zlashmalar sinonimik, antonimik kabi leksik-semantik munosabatlarda bo‘lar ekan, muayyan paradigma a’zolari bilan birgalikda mavzuviy guruhlarga birlashadi. Bu kabi mavzuviy guruhlar tilda iyerarxik (pog‘onali) munosabatlar asosida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Tilning lug‘at tarkibi jamiyatdagi o‘zgarishlarga mos rivojlanishda bo‘lar ekan, leksikaning boyishida o‘zlashma so‘zlarning o‘rni birlamchi vazifa bajaradi.

Koreya Respublikasi mustaqil davlat bo‘lganidan so‘ng yevropadan o‘zlashma so‘zlarning tilga bevosita o‘zlashishi kuchaydi. Xususan, inglizcha o‘zlashmalar bunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Koreys tilidagi inglizcha o‘zlashmalarni quyidagi mavzuviy guruhlar asosida tasniflab o‘rganish mumkin: ijtimoiy-siyosiy sohaga oid mavzuviy guruh leksikasi; iqtisodiy sohaga oid mavzuviy guruh leksikasi; madaniy-ma’rifiy sohaga oid mavzuviy guruh leksikasi; sport sohasiga oid mavzuviy guruh leksikasi.

Quyida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va sport sohasiga oid mavzuviy guruh so‘zlarini ichki bo‘linishlar asosida tasniflab o‘rganamiz.

Oziq-ovqat mahsulotlari nomi: 햄버거, 아이스크림, 요구르트, 케찹, 잼, 케이크, 소시지 kabilar. Ichimlik nomlari: 아이스라때, 콜라, 환타, 위스키, 와인, 샴패인 kabilar. Kiyim-kechak nomlari: 스위터, 코트, 블라우스, 브라, 와이셔츠, 티셔츠 kabilar.

Uy-ro‘zg‘or buyumlari nomi: 믹서기, 플래이어, 에어컨 kabilar.

Kosmetika va maishiy mavzuga oid: 샴푸, 러션, 서비스, 파우더, 리프스틱, 헤어드라이기 kabilar.

O‘rin-joy tushunchasini anglatuvchi nomlar: 캠핑, 바, 클럽, 스크웨어, 타워, 모텔, 호텔, 터널, 슈퍼마켓, kabilar. Tansport vositalari nomi: 트램, 버스, 탄크, 버트 kabilar.

Dunyoqarash, nazariya va ijtimoiy-siyosiy soha terminlari: 리더, 스피커, 러카우트, 유니어니즘, 도미니언, 레이버리스트 kabilar. Iqtisodiy soha va savdo-

sotiqqa oid: 브러커, 와우처, 메케팅, 홀딩, 콘설팅, 딜러, 메네저, 비즈니스 kabilar. Tibbiyot sohasiga oid: 스트레스, 쇼크, 히닌kabilar. Matbaachilik (noshirlik)ka oid: 프린터, 스캔, 프레쓰, 로타프린트 kabilar.

Rasmiy domiralardagi uchrashuv, yig‘in nomi: 미팅, 브리핑 kabi. Texnika, texnik vosita va jihoz nomlari: 터미널, 아우터카, 블루밍, 크레킹, 타이머, 블로크, 불더저, 왜건, 콤바인, 니펠 kabilar. Sport sohasiga oid: 배드민턴, 카트, 마츠, 모토볼, 레그비, 스포트, 라운드, 텐니스, 핸드볼, 게임, 골인, 랄리, 타임 kabilar. Axborot texnologiyalari, telegraf (aloqa tizimi) sohasiga oid: 디스플레이어, 프린터, 모니터, 파일, 디스크, 텔레크스, 카트리즈, 팍스, 인터넷 kabilar. Pul birligi nomlari: 달러, 유로, 실링kabilar.

Hajm-o‘lchov birligi: 리터, 킬로미터, 센티메터 kabi.

Pedagogika, psixologiya va maorifga oid: 아이르츠, 토픽, 트레닝, 테스트, 케이스 Zoologiya: 고릴라, 캥구루, 브륱러 kabilar. Jurnalistika sohasiga oid: 인터뷰, 레퍼터 kabilar.

Adabiyot, san’at, musiqaga oid: 트릴러, 유머, 디자인, 뮤비, 프로듀서, 자즈, 팝, 쇼 Tilshunoslikka oid: 인너베이션, 워라퓩 Narsa-buyum otlari: 텐트, 컨테이너, 램프, 핸드백 Yel-yog‘in otlari:수나미, 태풍 Jarayon otlari: 모니터링, 코닝, 브리핑 kabilar.

O‘quv quroli: 패날, 노트북, 볼펜 kabilar.

Kasb, hunarmandchilik va boshqa biror harakat bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti: 커우버이, 바맨, 비즈니스맨, 리크사, 외트래스 kabilar.

Insonlarning shakl-ko‘rinishi: 리리푸트kabilar.

Insonlarning ruhiy holati: 좀비 kabilar.

Insonlarning xarakter-xususiyati belgisi: 홀레리크, 센티멘탈 kabilar.

Dengizchilikka oid terminlar: 버트, 아쿠아리움, 아쿠알랑 kabilar

Temir yo‘lga oid: 텐더, 렐스 kabi.

Narkotik modda nomlari: 마약, 도핑 kabi.

Terrorizm va qo‘paruvchilikka oid: 강그스터, 로켓, 테러 kabilar.

Binokorlik sohasidagi: 엘리베이터, 에스커레이터 kabilar.

Misol uchun inglizcha o‘zlashma leksemalar orasida maishiy, savdo-sotiq borasidagilari ham o‘ziga xos bo‘lib, 슈퍼마켓 leksemasi hozirda neologizmlik xususiyatni yo‘qotib, zamonaviy qatlamga o‘tgan deyish mumkin. Savdo maskani uyasiga kiruvchi 마트, 슈퍼마켓, 메가마트, 쇼핑몰 (몰 ing. “mall” – xiyobon) leksemalari mavjud bo‘lib, 메가마트 leksemasi neologizm xarakteriga ega. Bu leksemalar o‘ziga xos ma’noviy farqlanishga ega bo‘lib, bu farqlanish qaysi turdagi savdo mahsulotlarini sotish, umumiy yer maydoni, omborxonasi maydoni, bir vaqtning o‘zida qancha xaridorni qabul qila olishi, xizmat ko‘rsata olishi, kassa apparatlari soni, sotuvchilar miqdori, kerakli mahsulotlarni qancha miqdorda yetkazib bera olish qobiliyati kabilar bilan ham farqlanadi. Ularning o‘zaro farqini quyida kuzatishimiz mumkin.

Eng yirik savdo maskani bo‘lgan 쇼핑몰 hisoblanib, uning umumiy yer maydoni 1000 kv.m. dan 100 000 kv.m. gacha o‘zgarib turadi. Xorijiy davlatlarda uning moll deb ataladigan varianti mavjud bo‘lib, uning ichkarisida mashinalar yurishiga ruxsat etilmaydi. Moll, asosan, yirik magazinlar qatoridan tashkil topib, o‘rni bilan ular orasida galereya, restoran, kafe, sartaroshxona, kinoteatr kabilar ham mijozlarga xizmat ko‘rsatib turadi.

Keyingi savdo maskani 메가마트ning yer maydoni 3000 kv.m. atrofida bo‘lib, omborxonasining maydoni esa 1000 kv.m. bo‘lishi talab etiladi.

Savdo maskanlari ichida keng tarqalgan turlaridan biri 슈퍼마켓ning umumiy yer maydoni 400 kv.m.dan 1500 kv.m. gacha yetadi, omborxonasi 250 kv.m.dan 600 kv.m. gacha cho‘ziladi.

Hozirda eng keng tarqalgan turlaridan yana biri 마트 savdo maskani esa 200 kv.m. dan 600 kv.m.gacha yetadi. Shuningdek, yuqoridagilardan tashqari katta yoki kichik turdagi savdo maskanlari nomi ham koreys tilida uchrab turadi

Ko‘rinadiki, savdo maskanlari sifatida sanalgan 마트, 메가마트, 슈퍼마켓, 몰 kabi leksemalar uchrab turadi. Bu leksemalar leksik-semantik xususiyatiga ko‘ra o‘zaro graduonimik (darajalanish) munosabatni tashkil etadi.

Inglizcha o‘zlashma leksemalar, asosan, ot, o‘rni bilan, boshqa turkum doirasida leksik-semantik munosabatlarga ega bo‘ladi.

Koreys tili leksikasidan o‘rin olgan inglizcha o‘zlashma so‘zlar semantikasidagi o‘zgarishlar sezilarli darajada bo‘lib, ular polisemantik xususiyatga ega bo‘lishdan tashqari, so‘z ma’nosining kengayishi, koreyscha so‘z yasalishida faol qatnashishi kabi til hodisalari jarayonida yetakchi mavqe egallaydi.

“Koreys tiliga o‘zlashgan inglizcha so‘zlarning izohli lug‘ati”da 2350 dan ortiq so‘z, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qo‘llanayotgan neologizmlar, “Inglizcha-koreyscha- axborot texnologiyalari va internetga oid qisqacha atamalar lug‘ati” kabi inglizcha o‘zlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksema koreys tiliga o‘zlashganini aniq aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

.1. Jo In – hwa. Koreys tili izohli lug‘ati. – T: KOICA 2011.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 5 jldi. T., 2006-2008.
3. 국어사전.-서울.-1999.
4. 새한노사전. -한국외국어대학교출판부.- 2008.
5. http://daum.net

MAKTABDA SHEVAGA XOS SO‘ZLARNI O‘QITISHDAGI MUAMMO VA YECHIM

Abdiyeva Mohinur Bozorovna
Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi
85- umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
Telefon: +998(99)6715342 abdiyeva_97@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab o‘quvchilariga shevaga xos so‘zlarni o‘rgatishdagi ayrim tavsiyalar haqida. Maqola shevaga xos so‘zlarni o‘rgatishda leksik xususiyatlar, shevalar tasnifi, o‘quv mashg‘ulotining samarali tashkil qilinishini qamrab olgan.

Kalit so‘zlar: sheva, lahja, leksik birlik, qarluq, o‘g‘uz, qipchoq, texnologiya.

Bugungi kun shiddat bilan rivojlanmoqda. Zamonga mos fan-texnika o‘sishi ham jadallashmoqda. Yurtimizda maktab ta’limiga, xususan, maktablarni zamon talablariga moslashtirish, ularni bugungi kunga mos ravishda jihozlash hamda intelektual salohiyati yuqori bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashga jiddiy e’tibor qaratilyapti. Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq ustoz-murabbiylarning jamiyatdagi nufuzi, martabasi oshdi. Bunga javoban o‘z kasbining fidoyilari fan sirlarini yoshlarga hech tolmasdan o‘rgatib kelyapti.

Maktablarda ona tili fanini o‘qitishdan asosiy e’tibor o‘quvchining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Tilshunoslikning barcha bo‘limlari kabi leksikologiya bo‘limini o‘qish o‘quvchi uchun juda qiziqarli. Mazkur bo‘limda so‘z va uning shakl, ma’no munosabatlari, shevaga xos so‘zlar o‘rganiladi. Shevaga xos so‘zlar mavzusini o‘quvchi katta qiziqish bilan o‘rganadi. O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. Prof. Y.D.Polivanov asrimiz birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida o‘zining ilmiy ishlarida ma’lumot bergan edi. O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, uni o‘rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, til va adabiyot o‘qituvchisi uchun amaliy ahamiyatga molikdir. Hozirgi zamon jonli sheva va etnografizmlari yozma yodgorliklarda, shuningdek, hozirgi adabiy tilimizda ham uchramaydigan ko‘pgina so‘z va so‘z formalari, lug‘aviy birliklarni o‘zida saqlab qolganki, ularni asosli ravishda o‘rganish tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashda yordam beradi.

Ona tili fanini o‘qitishda shevaga oid bilimlarni chuqur bilish talab etiladi. Sababiki, 5-sinf ona tili darsligida shevaga xos so‘zlar mavzusi bor. Mazkur mavzuda shevaga xos so‘zlar milliy boyligimiz ekanligi, ularning adabiy tilimiz shakllanishi uchun asos vazifasini bajarishini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Bizga ma’lumki, o‘zbek tili qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalariga ajratiladi. Bu lahjalar leksik, morfologik, fonetik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Shevaga xos so‘zlar mavzusida bir nechta mashqlar berilgan bo‘lib, namunalar asosan, o‘g‘uz va qarluq lahjasiga oid. Bu misollarni ko‘rgan o‘quvchi ongida bunday so‘zlar bizning jonli tilimizda kamunum, degan xulosaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bizningcha, ushbu mavzudagi leksik misollarni quyidagi jadval asosida bersa, maqsadga muvofiq bo‘lardi:

O‘g‘uz	Qipchoq	Qarluq
Uchak	Mayak	Shoti
Ay		Dovuchcha
Go‘rmak		G‘o‘ra
Qarindja		
Yumirta		

Ko‘rib turganingizdek, qipchoq shevasiga oid bitta leksik vosita berilgan xolos. Ammo bizning shevada ham bunday misollarni minglab topish mumkin. Qolaversa, badiiy asarlardan gapning o‘zi yoki kichik matn olinsa, yangi mavzuni tushunib olishda yengillik paydo bo‘ladi. Har qanday nutq birligida ham so‘z ma’nosini tahlil qilishda kontekstdan, ya’ni matndan anglashilgan holatda amalga oshiriladi. Shevaga oid birlikka tushunmagan o‘quvchi kontekstdan ilg‘ab olishi oson kechadi. Masalan: Bolalar daraxtga shoti qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar. Shoti so‘zini tushunmagan bola gapdan bilishi mumkinki, shoti – narvon (558-mashq). Mana shu holatlar inobatga olinsa, 5-sinf o‘quvchisi ongida shevaga xos so‘zlar haqida to‘liq tushuncha hosil bo‘ladi va tilimizda sheva elementlari ko‘p uchrashiga amin bo‘ladi. Masalaga yana bir tomondan qarasak, yoshlar o‘z ota-bobosi so‘zlashgan tilda so‘zlashdan faqatgina faxranadi.

Shevaga xos so‘zlar mavzusiga doir nazariy bilimlarni berish, darslikdagi mashqlarni bajartirish bilan bir qatorda o‘quvchilarga turli ijodiy topshiriqlarni “Kim tez va to‘g‘ri bajaradi?”, “Kim zukko va topqir” kabi ta’limiy o‘yinlarni zamonaviy texnologiyalar asosida bajartirish yaxshi samara beradi. Didaktik o‘yinli texnologiyalar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan bo‘ladi. Darsda interfaol metodlardan foydalanish mavzularning o‘qitish sifatini oshirish va o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish guruh yoki jamoa tarkibida ishlash ko‘nikmlarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ham ta’limiy mohiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ajdodlarimiz tomonidan so‘zlashib kelingan shevalarimiz bizning milliy boyligimiz. Mana shu boylikni asarash, ularni o‘quvchi yoshlar ongiga singdirish hamda milliy tilimizga hurmat ruhida tarbiyalash biz o‘qituvchilarning oldida turgan vazifamizdir. Zero, milliy tilni yo‘qotmak o‘zligimizni yo‘qotmakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov SH. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1978.
2. To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2004.
3. Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. Toshkent, 1969.
4. N.Mahmudov va boshqalar. Ona tili, 5-sinflar uchun darslik. – T.: “Ma’naviyat”, 2015.

O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISHIDA ICHKI VA TASHQI MANBALARNING AHAMIYATI

Abdullayeva Muhayyo
Namangan viloyati Norin tumani
Ona tili va adabiyoti fani uslubchisi
+998973724969
fnematjonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili leksikasining ichki va tashqi imkoniyatlar asosida boyib borishi, uning tarixiy qatlamlari, o‘z va o‘zlashgan so‘zlar haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, maqoladan maktablarda ona tili va adabiyoti fanlarini o‘qitishda foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: ichki manba, tashqi manba, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, olinma so‘zlar.

O‘zbek tilining leksikasi fan-texnika, san’at, ishlab chiqarishning taraqqiyoti bilan bog‘liq holda boyib boradi. Bu taraqqiyot natijalari tilning lug‘at tarkibida namoyon bo‘ladi. Tilning lug‘at tarkibi ikki manba asosida boyib boradi:

Ichki manba

Tashqi manba

O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida ya’ni yangi so‘zlar hosil qilish orqali boyish ichki manba hisoblanadi. O‘zbek tili leksikasining ichki imkoniyatlari asosida boyib boorish imkoniyatlari juda keng. Ichki manba asosida boyish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshadi:

1)ilgari qo‘llanilib keyin iste’moldan chiqib ketgan so‘zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: *vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman* kabi.

Bunday so‘zlar hozirgi lug‘at tarkibimizda ko‘plab topiladi.

2)so‘z yasovchi qo‘shimchalar va so‘zlarni qo‘shish yordamida yangi so‘z yasash: *uyali telefon, omonatchi, pudratchi, bojxona* va boshqalar;

3)dialectal so‘zlarni faollashtirish ya’ni shevalardan adabiy tilga so‘z olish: *mengzamoq*-(Xorazm) – *o‘xshatmoq, qiyoslamoq*, *tenglashtirmoq* ma’nosida. Shevalardan so‘z olish, asosan, kasb-hunarga oid so‘zlar, adabiy tilde mavjud bo‘lmagan so‘zlar hisobiga bo‘ladi. Masalan, dehqonchilikka oid yaxob (qishda yerlarni sug‘orish), qirqim(chorvadorlikda qo‘ylarning yungini qirqish) kabilar shevalardan adabiy tilga olingan.

O‘zbek tili leksikasi tashqi manba asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan so‘z olmasdan faqat o‘z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta til yo‘q. o‘zbek tili ham bundan mustasno emas. Faqat ma’lum zarurat tufayli yangi tushuncha ifodalovchi o‘z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo‘lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz Alisher Navoiy, Mahmud Koshg‘ariylar ham bunga da’vat qilishgan.

Keyingi davrlarda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so‘zlar yangi tushunchalar bilan birgalikda kirib keldi. Masalan, *monitoring, diler, skaner* kabi. Bularning hammasi o‘zbek tili leksik imkoniyatlarini kengaytirib boyitmoqda.

Boshqa tillardan so‘z olish ikki usul bilan o‘zlashtiriladi:

So‘zni aynan olish yo‘li bilan

Kalkalab olish yo‘li bilan

So‘zni aynan olish yo‘li bilan tojik, arab tillaridan, shuningdek, rus tillaridan, rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan ko‘proq o‘zlashtirilgan. Masalan, *sinch, devor, rubob,kitob, maktab, daraxt, traktor, sport* kabi.

Kalkalab o‘zlashtirishda so‘z aynan olinmaydi, balki so‘zning ma’nosi o‘zlashtiriladi. Ikkinchi tildagi so‘zning ma’nosi shu so‘zning morfemik tarkibidan qismma qism nusxa

ko‘chirish orqali ifoda etiladi. Kalkalab o‘zlashtirish ham ikki turga bo‘linadi:

To‘liq kalka. Bu usulda o‘zlashtirilayotgan so‘zning barcha qismlari o‘z til materiallaridan tuziladi. Masalan: *polugramatnыy- chalasavod*

Yarim kalka. Bu usulda o‘zlashtirilayotgan so‘zning bir qismi aynan saqlanib, bir qismi o‘z til orqali beriladi. *Traktorist- traktorchi* kabi.

Tilning tarixiytaraqqiyoti davomida uning barcha bo‘limlarida, jumladan, leksikasida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Bunda tildagi ba’zi so‘zlar eskirib, iste’moldan chiqib ketadi, yoki yangi tushunchalarni nomlovchi so‘zlar paydo bo‘ladi. Bu tilning qatlamlarini yuzaga keltiradi. Tilimizda zamonaviy qatlam eskirgan qatlam va yangi qatlam mavjud.

Xulosa qilib aytganda, davr taraqqiyotidagi barcha o‘zgarishlar tilda namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida har qanday tilning lug‘at tarkibida aksini topadi. O‘zbek tilining ichki va tashqi imkoniyatlar asosida boyish yo‘llarini o‘quvchilarga o‘rgatish bugungi zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili, T. 2005
2. N. Erkaboyeva O‘zbek tilidan ma’ruzalar matni, t. 2009
3. Library.ziyonet.uz

O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA SHAXSNI RIVOJLANTIRUVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI.

Achilova Shahnoza
Jizzax viloyati Mirzacho‘l tuman
5 – maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Tel.+99894 571 86 26

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili ta’limida shaxsni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya va ularda qo‘llaniladigan usullarning ahamiyati haqida fikr bildiriladi. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda zamonaviy ta’limiy usullar tarmoqlariga misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar; Kompetensiya, interfaol, texnologiya, shaxs, tarmoqlash, intensivlash, nutq texnikasi.

O‘quvchi shaxsini tarbiyalash «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», ayniqsa, hozirgi kompetensiyaviy ta’lim yondashuvida o‘qituvchilar zimmasiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshrish jarayoni o‘quvchilarni o‘qitishga yangicha yondashishni, o‘qituvchilarning o‘z kasbiga va o‘quvchlarga o‘ta talabchanlik bilan munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

Ta’limdagi yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati har bir fan doirasida, zamon sinovidan o‘tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o‘z isbotini topmoqda.

Shu o‘rinda o‘zbek tili ta’limida shaxsni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarning o‘rnini alohida ta’kidlash joizdir. O‘zbek tili darslarini tashkil etishda turli yangi pedagogik usullarni qo‘llash o‘qituvchidan mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha fikrlashni talab etadi. O‘zbek tilida shaxsni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarda qo‘llanuvchi usullarni quyidagicha tarmoqlash maqsadga muvofiqdir.

Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarida qo‘llaniladigan usullar: «Aqliy hujum», «Klaster», «3/3, 4/4,5/5…..», «Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim», «Zinama - zina», «Mozaika», «Zakovatli zukko».

O‘quv tarbiya jarayonini faollashtirish va intensivlash asosidagi pedagogik texnologiyalarda qo‘llanadigan usullar: «Muammoli ta’lim», «Debat», «Baxs - munozara», «Tanqidiy fikrlash», «IMEN», «SWOT tahlil», «Blits - so‘rov », «Dalillangan esse».

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarida qo‘llaniladigan usullar: «Savol javob», «Suhbat», «Zig - zag», «Bumerang», «Charxpalak», «Nuqtai nazaring bo‘lsin ».

O‘quv tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalarda qo‘llaniladigan usullar: «Loyihalashtirish», «Fikriy hujum», «Rolli o‘yinlar», «Arra», «O‘z o‘rningni top». Ushbu texnologiya usullarini o‘zbek tili dars jarayoniga tatbiq etish ko‘p jihatdan muhit, sharoit, ko‘nikma va kuzatishlar bilan bog‘liqdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim mazmunini boyitishga

oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim..Ular ta’lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga mustahkam didaktik asos bo‘la oladi,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidaxmedov N.”Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari”.-T. RTM.2000
2. G‘ulomova M.X.,Sobirova N.K.”Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari-T.2009
3. veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI ORFOEPIYA VA ORFOGRAFIYA QOIDALARIGA AMAL QILISHGA O‘RGATISH

Allambergenova Nigora
Qonliko‘l tumanidagi
2-sonli maktab o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi,
“Yil o‘qituvchisi-2019” ko‘rik-kanlovi qatnashchisi
+998912713505

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishning maqsad va vazifalari, ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o‘quvchilar nutqida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf qilish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: orfoepiya, orfografiya, x va h undoahlari, nutqiy malaka, maktab dasliklari.

Mamlakatimiz turli sohalarda kundan-kunga o‘sib, rivojlanib bormoqda. Ayniqsa ta‘lim sohasiga berilayotgan e’tibor ham oshib bormoqda. Xususan, davlat tilining o‘qitilishida uchraydigan muammolarni bartaraf qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shundan kelib chiqib har bir o‘qituvchi oldiga o‘quvchilarda nutqiy malakalarni ehtiyoj darajasida shakllantira olish zarurati ko‘ndalang qo‘yilmoqda. Har bir o‘quvchi o‘z ona tilida ravon gapira oladi. Istalgan muloqat vaziyatiga mos so‘zlarni (xoh rasmiy, xoh og‘zaki) nutq bo‘lsin jozibali, ta’sirchan ifodalay olishadi. Ammo ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilining o‘qitilishi bir qancha muammolarga duchor bo‘lmoqda. Darslarni o‘tish davomida ta‘lim boshqa tillarda o‘qitiladigan maktablarda ayrim tovushlarning talaffuzi, ularning yozishlari o‘quvchilarimizda qiyinchiliklar tug‘dirilmoqda. Kuzatishlarimizdan ma‘lumki, o‘ unlisining talaffuzida o‘zgachalik bor. Aksariyat hollarda i-e, u-o‘, h-x tovushlari e’tirof etgan so‘zlarni o‘quvchilarimizning yozishi va aytishida xatoliklar uchraydi. Qoraqalpoq tilida h tovushi ko‘p qo‘llanilmaganligi uchun o‘quvchilarimiz x va h undoshlarini qo‘llashda qiynalishadi. X va h undoshlarining imlosining murakkabligi barchamizning tashvishga soladi. Shu paytgacha eng samarali usul sifatida ushbu harflar bilan yoziluvchi so‘zlarni yodlab qolishni ta‘kidlamoqdamiz. Ammo bundan soddaroq usul talaffuz bilan bog‘liq.

Maktabda o‘quvchiga o‘zbek tili darslarida faqat grammatika qoidalarini yodlatish mumkin emas. O‘quvchilarga harflar farqini tushuntirib, mashqlar yordamida ifodalab berishimiz shart. Buning uchun biz o‘zimiz o‘quvchilarga og‘zaki nutqni ravon o‘rganishga chorlashimiz kerak.

O‘zbek tili bilan ona tilini o‘qitishning maqsad va vazifalari bir-biridan ma‘lum ma‘noda farq qiladi. O‘quvchi nutq so‘zlashni oilada maktabda o‘rganadi. Hatto ayirimlari maktabga bog‘chadan o‘qish va yozishni o‘rganib keladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish va yozishni o‘rganib, yuqori sinfga o‘tadi. Endi u nimani o‘rganishi kerak? Grammatikanimi? Darsda doim ham grammatika qoidalari asosida gapirmaydi. O‘quvchilarda o‘zi bilmagan hollarda nutqida ot, ega, kesim hatto qo‘shma gap-u ko‘chirma gaplarni ifoda maqsadiga ko‘ra qo‘llana olishiga qiynaladilar.

Biz o‘qituvchilar 2-sinfdan boshlab harflar imlosi va talaffuzini tog‘ri qo‘llashini, gap tuzishda gap bo‘laklaridan tog‘ri foydalanishga o‘rgatib borishimiz kerak . O‘quvchiga adabiy talaffuzini, imloviy savodxonligini, mantiqiy fikrlashni, o‘z fikrini turli shakllarda ravon va ta‘sirchan ifodalay olishni o‘rgatishimiz lozim.

“O‘zbek-tili” darsliklari ta‘lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, asosan, ona tilida so‘zlovchi o‘quvchilar doirasida cheklanib qolgan o‘zbek tilini o‘qitishdan asosiy maqsad shunchaki o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularga grammatikaga oid nazariy ma‘lumotlarni shunchaki o‘rgatish emas, balki nutqini

oshirishdir. Biz o‘rgatayotgan 2-4-sinf darsliklarida asosan so‘z boyligi, talaffuz va imlo ustida ish olib borishga qaratilgan, ya‘ni so‘z shakllarini tarkiban anglash va grammatik qo‘shimchalarini ongli ravishda amaliy o‘zlashtirish ko‘zda tutilmagan. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamlarida (2017-yil 14-son) e‘lon qilingan “Umumiy o‘rta ta‘limda ong ta‘lim standartlari” da o‘zbek tilini o‘qitishning maqsad va vazifalari sirasiga shunday deyiladi: “o‘quvchilarning o‘zbek tilida og‘zaki va yozma nutq savodxonligini rivojlantirishiga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish”. Bu degani o‘zbek tili ta‘limi mazmunida o‘quvchilarga o‘zbek tili grammatikasidan sistemali kurs emas, balki nutqiy kompetensiyani hosil qilishning lingvistik asoslarini o‘rgatishni ko‘zda tutish kerak.

Tavsiyalar: O‘zbek tili darslarida ham huddi biror chet tilini o‘rgangandek, avvalo, talaffuzi qiyin tovushlar ustida jiddiy ishlash kerak. Bu o‘rinda talaffuz holati aks etgan oksilografik rasmlardan (ayrimlari qiyosiy bo‘ladi), asosan, maxsus fonetik mashqlardan unumli foydalanish samara beradi. Adabiy talaffuzga o‘rgatishning eng samarali yo‘li o‘qituvchining o‘zi tanlagan matnni qayta o‘qib yoki yoddan aytib berishidir. Bu usuldan to‘laqonli foydalanish uchun o‘zbek tili fani o‘qituvchilarning talaffuzi talabga javob berishi zarur.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini jozibali, ta‘sirchan ifodalay olishi uchun imkoniyatlar yaratib berish. O‘quvchilarga tovushlarning talaffuzini to‘gri foydalanishga, imlo qoidalarini yaxshi o‘zlashtirishga o‘qituvchi o‘rnak bo‘lushi, o‘quvchilar nutqidagi xatoilarni doimiy tuzatib, ko‘oroq badiiy kitoblar o‘qishga chorlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”dan 2017-yil 14-son.
2. G‘.Hamroev. “Adabiy talaffuz – madaniyat belgisi” // “Ma‘rifat” gazetasi 2019-yil 48-son.
3. R.Yoldashev. “O‘zbek tili darsliklari”// “Ma‘rifat” gazetasi 2019-yil 42-son.

LUG‘AT USTIDA ISHLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Anorqulova Hayotxon Rahmonovna
Sirdaryo viloyati Guliston tumani
2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Tel: +998993651372

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilar lug‘atini boyitishning metodik shartlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z, so‘z birikmasi, mavhum tushunchalar, leksika, jargon so‘zlar

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi. Maktablarda lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8-10 ta yangi so‘zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so‘zni qo‘shishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim.

2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirishi;
2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishi;
3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirishi;
4) ayrim frazeologik, birliklarning ma’nosini o‘zlashtirishi.

3. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi. Adabiy til me’yori degan tushunchani o‘zlashtirgach, o‘quvchilar yuqorida izohlangan so‘zlar o‘rniga adabiy tildagi so‘zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalarni mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so‘zlar, so‘zlashuv tilda ishlatiladigan sodda so‘z va iboralar o‘quvchilarning faol lug‘atidan chiqa boshlaydi.

O‘quvchilar lug‘ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi.

Atrof-muhitni, tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o‘yini va o‘qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatini kuzatish. Tabiat qo‘yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko‘pgina yangi nom va iboralarni o‘rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o‘tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so‘zlar ma’nosiga aniqlik kiritiladi.

O‘quvchilar lug‘atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o‘rganish darslari ko‘pgina so‘z va atamalarni o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so‘zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o‘quvchilar lug‘ati tartibga solinadi. Lug‘atni boyitishda turli lug‘atlar juda foydali qo‘llanmadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
2. www.ziyonet.uz

ENERGIZING ACTIVITIES AND WARM UPS IN TEACHING ENGLISH.

Arzimova Rita Maxsetovna
Qoraqalpog'istan Respublikasi Kegeyli tumani
8-sonli maktab ingliz tili o'qituvchisi
Tel:+998913818502
ritaarzymova@gmail.com

Abstract: The importance of energizing activities and warm ups in teaching pupils. How to use the warm ups and energizing exercises.
Key words: Warm ups, Icebreakers.

It is very important to use energizing activities such as warmers and icebreakers in teaching English.Some teachers use short games and activities on a daily basis,and others use them only when the need arises.Print out some of the ideas,activities and worksheets and place them in special file or notebook to keep with you at all times.You never know when you might need to pull something fun and new out of your teaching hat.Warmers help your learners put aside their daily distractionsand focus on English. Warmers also encourage the group participation which can build a sense community within the group.We have warm ups such as brainstorm,question of the day,describe the picture,show and tell,hot seat.

An Icebreaker should be related to the subject or the purpose of the meeting If a collaborative learning environment is needed for a trainig project, then an icebreaker exercises that promotes collaboation could be chosen.If the subject of the meeting is reading books,then yhe subject of the meeting could be introduced through an exercise that revolves around participant's favourite books. Activities at the beginning of the lesson deserve more attention than they usually receive.In fact,the initial activities that start the class are very important for the following reasons:

1. Warm Ups set the tone of the lesson. For example,an activity that students find too difficult or confusing can prove discouraging. Comparea fun activity which raisesenergy levels.

2. Warm Ups get students to begin thinking and focusing on English.It may have been a few days,a week,or even longer since they last used English.A little time here will improve receptivity later.

3. Warm Ups provide a transition onto the topic.An activity at beginning of the lesson activates pre-existing knowledge on a subject,and may even get students to use some of the ideas,vocabulary,or even grammar important to the lesson.

4. WarmUps allow the teacher important opportunities to access character and ability. After all,some students work well together,and others don't.During the initial activity,the teacher can determine who will form the best groups for subsequent activities.

Some teachers see warmers,ice-breakers and fillers as basically different ways of say the same thing.In fact,they are quite different.While ice-breakers are usually meant to help students get to know each other better,the objective of warmers is to get them ready for a certain topic or task.

An icebreaker should be related to the purpose of the meeting.If a collaborative learning environment is needed for a training project,then an ice-breaker exercise that promotes collaboration could be chosen.Ice-breakers in a professional setting should not require people to reveal personal information or touch other people, as this may be stressful.They should not embarrass the participants or make them feel compelled to participate.They should also not disrespect . At the end of a well-chosen ice-breaker exercise, the faciliator

should be able to summarize for the group what was learned during the exercise.People who dislike ice-breakers may be reacting to previous experience with irrelevant,pointless,or poorly designed ice-breakers.They may also showing aspects of their personality,as people with different abilities or leaning styles.Ice-breakers can be effective way of starting a training session or team-building event.An interactive and often fun session run before the main proceeding, they help people get to know each other.

If such a session is well-desined and well-faciliated,it can really help get things off to great start.By getting to know each other,getting to know the facilitators,and learning about the objectives of the event, people can become more engaged in the proceedings and so contribute more effectively and successful outcomes.So at the ending I say you choose the correct way of starting your lesson not to end.If you find the right way of starting it will continue itself and be very interesting for you and your learners.

References:

1. www.britishcouncil.org
2. www.taechingenglish.com
3. www.learningenglish.com

RASMIY YOZISHMALAR VA ULARNI YOZISH ETIKETI

Azimova Anora Saydulla qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti II bosqich magistri
Telefon: +9989(93)1069426
anora.azimova94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola nutq uslublaridan bo'lgan rasmiy uslubning asosiy xususiyatlari va unga mansub rasmiy xatlar va rasmiy yozishmalarning muhim jihatlari va ularning asosiy turlari haqida. Shu bilan bir qatorda, davlat idoralari va tashkilotlarda rasmiy yozishmalarni yozishda yo'l qo'yiladigan asosiy kamchiliklar va ularni to'g'ri tashkillashtirishda bizga yordam beradigan odob-axloq qoidalarini ham o'z ichiga olgan.

Tayanch so'zlar: rasmiy uslub, diplomatik uslub, qonunchilik uslubi, boshqaruv uslubi, rasmiy yozishmalar, neytral ohang, semantik aniqlik.

Nutq uslublari ichida aniq bir qolipga ega, aynan belgilangan so'zlar to'plami ishlatiladigan yagona uslub bu rasmiy uslubdir. Rasmiy uslub bu davlat organlari, hukumat idoralarida va tashkilotlarda hujjatlarni rasmiylashtirishda yoki ularni to'ldirishda ishlatiladi.

Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:

1. Huquqiy munosabatlarga oid: qonun fuqarolik va jinoyat aktlari, nizom, shartnoma va boshqalar.

2. Idoraviy-ma'muriy shaklga oid: dalolatnoma, buyruq va farmoyishlar, turli ish qog'ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma'lumotnoma kabi).

3. Diplomatik munosabatlarga doir: bayonot, nota, bitim, memorandum va boshqalar.[1]

Ishbilarmonlik nutqining ko'lami va tegishli matnlarning stilistik o'ziga xosligiga qarab, odatda kichik uslub farqlanadi:

1) diplomatik (hujjatlar turlari: xalqaro shartnomalar, bitimlar, konvensiyalar, memorandumlar, eslatmalar, kommunikatlar va boshqalar. Og'zaki shakllar deyarli qo'llanilmaydi);

2) qonunchilik (hujjatlar, farmonlar, fuqarolik, jinoiy va boshqa davlat ahamiyatiga molik hujjatlarning turlari; asosiy og'zaki shakl sud nutqi);

3) boshqaruv (hujjatlar turlari: nizomlar, shartnomalar, buyruqlar, ko'rsatmalar, ko'rsatmalar, tavsiflar, ishonchnomalar, kvitansiyalar va boshqalar. Og'zaki shakllar - hisobot, nutq, rasmiy telefon orqali suhbat, og'zaki buyruq).

Diplomatik uslub. Ushbu turdagi xalqaro munosabatlar sohasiga xizmat qiladi. Diplomatik uslub-uslublarni hujjatlashtirish sohasi qonun va boshqa pastki uslublarga qaraganda ko'proq.

Qonunchilik uslubi. Huquqiy hujjatlar boshqa uslubdagi hujjatlarga qaraganda ko'proq stilistik va lingvistik bir xillikka ega. Ushbu matnlarda yuridik atamalarning keng qo'llanilishini ta'kidlash mumkin.

Qonunchilik uslubida mavhum lug'atlardan foydalaniladi va ekspressiv-emotsional til vositalari, baholovchi lug'atlar deyarli mavjud emas. Parazit, jinoiy kabi baholash so'zlari huquqiy matnlarda terminologik ma'noga ega bo'ladi. Ko'plab antonimlar mavjud, chunki qonunchilik nutqida qarama-qarshi manfaatlar, ziddiyatlar va tushunchalar tushunchalari aks etadi: huquq va majburiyatlar, mehnat va bo'sh vaqt, shaxsiy va jamoat, da'vogar va sudlanuvchi, jinoyat va jazo, nikohni ro'yxatdan o'tkazish va ajralish, farzand asrab olish va ota-ona huquqlaridan mahrum qilish, ixtiyoriy va majburan, ushlab turing va ayblaning.

[1] Маҳмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б. 3.

Boshqaruv uslubi. Boshqaruv uslubining doirasi turli xil ma'muriy - idoraviy, ishlab chiqarish munosabatlaridir. Boshqaruv uslubidagi hujjatlar turlari kompozitsion, stilistik va lingvistik munosabatlarda juda katta farq qiladi.

Boshqaruv uslubi matnlarida neytral va kitobiy lug'atlar bilan bir qatorda rasmiy-ishbilarmonlik uslubidagi ranglar bilan so'zlar va turg'un iboralar qo'llaniladi (quyida imzo qo'yilgan, tegishli, uy-joy solig'i, bir martalik nafaqa, xabar berish).[1]

Rasmiy yozishmalar har bir tashkilotda ishlatiladi va bunday xatlar bilan ishlash ishchilardan alohida bilim va ko'nikmani talab qiladi. Zero, ularning har birining o'z strukturasi, qo'llanishdagi maqsadi mavjud.

Xatlarni bajaradigan vazifasiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

1. Javob xatni talab qiluvchi xatlar (da'vo xatlar, so'rov xatlar, iltimos xatlar)

2. Javob xatni talab qilmaydigan xatlar (ilova xat, eslatma xat, tasdiq xat, axborot xat, kafolat xat va boshqalar).[2]

Ishbilarmonlik yozishmalar - bu o'z nomidan va o'z lavozimiga ko'ra har qanday rasmiy shaxs tomonidan yuborilgan har qanday xat yoki boshqa yozishmalar shaklini qamrab oluvchi biznes aloqalarining yozma shakli.

Rasmiy yozishmalar 3 asosiy turga bo'linadi:

1. Turli mamlakatlarning davlat idoralari, elchixonalar va xorijiy vakolatxonalar o'rtasidagi rasmiy hujjatlar (memorandumlar, ishonchli ma'lumotlar). Ushbu turdagi yozishmalar diplomatik amaliyotda qo'llaniladi.

2. Rasmiy xarakterga ega bo'lgan va korxona, tashkilot va hokimiyat o'rtasida biznes aloqalarni tashkil etishda keng foydalaniladigan biznes (savdo, biznes, mehnat) xatlar.

3. Tashkilotning ichki boshqaruvining ajralmas qismi sifatida ofis xatlari. Ular orasida xatlar, rasmiy, tushuntirish va memorandumlar, telegrammalar, fakslar, elektron pochta va boshqa ma'lumotlarni uzatish shakllari mavjud.

Bundan tashqari, rasmiy yozishmalar ikki turga bo'linishi mumkin:

- kiruvchi (tashkilot tomonidan biznes sheriklari, etkazib beruvchilar va boshqalar tomonidan olingan);
- ketgan (to'g'ridan-to'g'ri tashkilotda shakllantiriladi va tashqi muhitga yuboriladi).[3]

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni ta'kidlash joizki, rasmiy yozishmalar har qanday tashkilot uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Ularsiz hech qanday shartnomalar imzolanmaydi, biror-bir tadbirlar amalga oshirilmaydi yoki umuman hech qanday rejalar hayotga tatbiq etilmaydi. Rasmiy yozishmalar go'yo barcha eshiklarni ochishga qodir kalit misolidir. Biroq o'z qonun-qoidasiga muvofiq yozilgan rasmiy xatlargina shunday xususiyatga ega. Agarda rasmiy xatlar yoki yozishmalarda qandaydir xatoliklarga yo'l qo'yilsa, ular albatta o'z kuchini yo'qotadi. Shuning uchun ham, rasmiy yozishmalarni yozish etiketini o'rganish aslo zarar qilmaydi.

Rasmiy yozishmalar odob-axloq normasi taqdimot tilining muayyan uslubi bo'lib, u quyidagicha farq qiladi:

Tez-tez takrorlanadigan, nutqning bir xilligi.

Ushbu tushuntirish varianti sizga aniqroq, ancha tushunarliroq gapirishga imkon beradi. Bu xat matnini boshqacha tushunishni istisno qiladi. Birinchidan, aniq biznes xabarini yozishga, ikkinchidan, keyingi, hatto harflarni sotishga vaqtni tejashga imkon beradigan ma'lum bir iboralar to'plamiga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

---

[1] Веселов П. В. Современное деловое письмо. – М.- 1990. – 150 с.

[2] http://hozir.org/download/rasmiy-va-shaxsiy-xat-ularning-farqlari.doc

[3] Домащенко Г.А., В.А. Коробова, В.В. Костина Учебное пособие «Российский заочный институт текстильной и легкой промышленности» - Москва,2007, - 120-123 с.

Neytral ohang.

Axborotni mantiqiy ravishda taqdim etish muhimdir. Rasmiy yozishmalardagi dalillarni hissiy baholash notoʻgʻri. Ogʻzaki nutq iboralari, dialektik iboralarni, soʻzlarni, biron bir aralashuvni eslatib oʻtish mumkin emas. Yozish jarayonida aytilgan faktlarning xolisligini ta'minlash, ularni aniq mantiqiy ketma-ketlikda qurish muhimdir.

Semantik aniqlik.

Rasmiy xatlarining ma'noli mazmuni ularning amaliy va hatto huquqiy ahamiyatini ta'minlaydi. Shu sababli, adresat yuboruvchini tushunishi uchun toʻgʻri soʻzlarni tanlash juda muhimdir. Koʻp ma'noli soʻzlarni matnga kiritmaslik yaxshiroqdir. Bunday holda, adresat xatning mazmunini boshqacha tarzda tushunishi mumkin.

Haqiqiy materiallarni tanlash.

Rasmiy xatdagi ma'lumotlar, yangi axborotga ega boʻlishi va eng muhimi, sinchkovlik bilan tekshirilishi kerak. Bunday holda, faktlar ehtiyotkorlik bilan tanlanishi kerak, faqat ma'lum bir ish uchun muhim boʻlgan narsalarni koʻrsatish kerak. Muhim boʻlmagan dalillarni koʻrsatib, bir xil turdagi ma'lumotlarni uzatish mumkin emas.[1]

Rasmiy yozishmalarni tashkillashtirishning ham bir qator shartlari mavjud:

Xatda aniq manzil koʻrsatilishi shart;

Xatni aynan bir shaxsga yoʻllash kerak ya'ni xat shaxsiylashtiriladi;

Xatni albatta salomlashishdan boshlang, agar bu biznes xati boʻlsa;

Salomlashgandan soʻng yozayotgan odamingizga murojaat qiling;

Keyingi bosqichda albatta yozishdan maqsadingizni qisqacha bayonini bering;

Xatingizda qoʻpol, doʻq-poʻpisaga asoslangan soʻzlardan yoki jumlalardan foydalanmang, hattoki ogohlantirish mazmunidagi jumlalarni qoʻllashda ham ehtiyot boʻling, ayniqsa soʻrovlar muloyim tarzda beriladi;

Xatni olganligi haqidagi xabarni kutayotganligingizni eslatib oʻting va javob xati uchun oldindan minnatdorchilik bildirishni unutmang;

Xatni imzolash bilan yakunlang;

Agarda xatga qoʻshimcha birorta hujjat yoki shartnoma joʻnatsangiz, uni xatingizga ilova sifatida kiritib oʻting.

Demak, rasmiy yozishmalar boshqa xatlardan farqli oʻlaroq jiddiy mazmunga ega va shaklan mukammal boʻlmogʻi shart. Bunday turdagi xatlarni yozish yozuvchidan yuksak mahorat talab etadi. Har qanday ishbilarmon shaxs ushbu turga mansub yozishmalarni farqini, ularni yozish qonun-qoidalarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Веселов П. В. Современное деловое письмо. – М.- 1990
2. Домащенко Г.А., В.А. Коробова, В.В. Костина Учебное пособие «Российский заочный институт текстильной и легкой промышленности» - Москва, 2007
3. Маҳмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998
4. http://hozir.org/download/rasmiy-va-shaxsiy-xat-ularning-farqlari.doc
5. https://zobiki.ru/uz/malyjj-biznes/etiket-v-delovoi-perepiske-kratko-pravila-i-etiket-delovoi-perepiski/

[1] https://zobiki.ru/uz/malyjj-biznes/etiket-v-delovoi-perepiske-kratko-pravila-i-etiket-delovoi-perepiski/

EFFECTIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE IN THE CLASSROOM

Berdimbetova Nazira Turkmenbaevna
Republic of Karakalpakstan, Khodjeyli region
Teacher of school 8
Phone number:+99890 651 24 17 berdimbetova77@mail.ru

Abstract: The article is devoted to the importance and opportunities of using interactive technologies in English language teaching according to modern requirements. What we give our students should be necessary and useful to them. They are not interested in doing and training things they will never come across in their real life or work situations. No matter whatever the age and the cultural background of the students, teaching methods become crucial to make the learning of the lesson fruitful. Teachers play an important role in designing teaching techniques through years of teaching experience and training. This paper aims at pointing out some effective teaching methodology focussing attention on the characteristic features, teacher-student role and example of a lesson in the classroom.

Keywords: Interactive technologies, Methodology of teaching, Word Bank, Miming.

In more than a decade years of teaching experience, I have found English language classroom, a great challenge. English teachers deal with a number of issues such as students" age, attitude, intelligence factor, confidence level and motivation. Teachers have to handle the language classroom carefully without hurting the sentiments and the shortcomings that may make a student feel low in front of others. Thus teachers have to work out a teaching methodology that may bring out the maximum for students to grasp the contents easily and make the teaching-learning sessions meaningful. In recent years, language teachers and researchers have focussed their attention in observing and developing approaches and strategies that leads to an effective learning process in acquiring English as a foreign language. In order to make learning process smooth and effective, language teachers have to design various teaching methods out of their personal teaching experience and training. There are various language teaching techniques that help students to understand more clearly and participate in the learning process more actively.

a) o‘qish mexanizmini hosil qilish; b) og‘zaki o‘qish texnikasini o‘stirish; c) o‘qiganini tushunishga o‘rgatish. Bu jarayonning o‘ziga xosligi shundaki, bu ish avval to‘la o‘rganilgan leksik-grammatik, material asosida tekstlarni ovoz chiqarib o‘qish orqali amalga oshiradi. Boshlang‘ich bosqichda yozma nutqni o‘stirish ingliz tili xusni-xati og‘zaki nutqda o‘zlashtirilgan so‘zlarni yozishni o‘rganish bilan xarakterlanadi. Chet tili o‘qitishning og‘zaki ilgarilab ketish tamoyiliga ko‘ra til materialini o‘rganish og‘zaki nutqda va o‘qishda bir vaqtda olib borilmaydi. Bu bosqichda til materialini o‘rganish quyidagicha olib boriladi: tinglab tushunish – gapirish – o‘qish – yozish.Bundan ko‘rinib turibdiki boshlang‘ich bosqichda nutq faoliyati turining og‘zaki nutqiy harakterga ega turlariga ko‘proq e’tibor beriladi. Chet tili o‘qitishning boshlang‘ich bosqichda «og‘zaki kirish qism» degan atama tez-tez uchrab turadi.

Og‘zaki ilgarilab ketish davrida ish og‘zaki asosga ko‘rilgani uchun ham uni ko‘proq

yoritib o‘tilgani maqsadga muvofiqdir, bu davrdagi ish, asosan quyidagilardan iborat: a) o‘quvchilarda to‘g‘ri inglizcha talaffuz ko‘nikmalarini o‘stirish va o‘rganilayotgan til materialini o‘z ichiga olgan grammatik strukturalarni intonatsion jihatdan to‘g‘ri tuslanishiga erishish; b) Grammatik strukturalarni tinglab tushunish va gapirish jarayonida o‘rganib, ularni boshlang‘ich bosqichda o‘rganish uchun tanlab olingan leksik material bilan to‘ldirish hamda savol-javob harakteriga ega bo‘lgan mashqlar yordamida to‘g‘ri talaffuz qilishga va og‘zaki nutqda qo‘llashga o‘rgatish; c)Leksik birliklardan grammatik strukturalarni o‘rganishda uning ayrim qismlarining o‘rnini almashtirib turli gaplar tuzish va o‘rin almashtiruvchi mashqlar yordamida nutq faoliyatining boshqa turlarini o‘rganish uchun zamin tayyorlovchi vosita sifatida foydalanish; d)Ingliz tili alfavitidagi kirish kursiga ingliz tili xarflarini, xarf birliklarini yozilishi va o‘qilishini o‘rganish. Garchi og‘zaki nutq kirish kursiga ingliz tili xarflarini, xarf birikmalarini va ayrim so‘z va gaplarni yozish kiritilsa ham bu og‘zaki ilgarilab ketishi tamoyiliga zid bo‘lmaydi.

Boshlang‘ich bosqichda o‘qishning asosan ovoz chiqarib o‘qish turiga keng o‘rin ajratilgan. O‘qish uchun ajratilgan tekstlar ham eng sodda va oddiydan asta-sekin murakkablashib bordi. Lekin shuni aytish kerakki, boshlang‘ich bosqichlardagi ish faoliyati asosan og‘zaki nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishiga qaramay ingliz tilida og‘zaki nutq o‘stirish masalasini xal qila olmaydi. U haqiqiy og‘zaki nutq ustida ishlash uchun faqat tayyorgarlik bosqichini o‘taydi. Ushbu bosqichda og‘zaki nutq ustida ishlashning asosiy og‘irligi o‘quvchilarning alohida gaplar emas, balki bog‘liq gaplar ham tuzishlariga imkon beruvchi ma’lum leksik birliklarni egallab olgan davriga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari o‘quvchilar boshlang‘ich bosqichda The Present in definite Tense., The Past in definite Tense. , The Future Tense in definite Tense kabi fe’l zamonlarini yaxshi bilishlari va fe’l shakllaridan ushbu zamonlarda yorqin foydalana oladigan bo‘lishlari talab etiladi. O‘quvchilar otlarni birlikda va ko‘plikda ishlatilishini, hozirgi noaniq zamonda kelgan fe’lning III shaxs birlikdagi shakliga «s» yoki «es» qo‘shimchalarini qo‘shilishini, gaplarning so‘roq, inkor va buyruq shakllarini ham boshlang‘ich boshqichda o‘qish davrida egallaydilar. Agar o‘quvchilar oddiy savollarga javob bera olmasalar va ular faqat bir xil grammatik konstruktsiya yordamidagina gaplar tuzsalar biz ularning bu nutqini haqiqiy ingliz tili nutqi deb qabul qilmasligimiz kerak. Bundan tashqari oddiy so‘roqlarga javob berish ham ingliz tilida nutqni egallash degan narsani bildirmaydi.Ingliz tili talaffuzi ustida ishlash va uni o‘stirish o‘quvchilar nutqini tovush va intonatsion tuzilishni o‘z ichiga oladi. Bu davrda o‘quvchilarning ingliz tilidagi talaffuziga bo‘lgan diqqat e’tibor sira ham susaymasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chet tili o‘qitish metodikasi. Maruzalar matni.
2. Jamol Jalolov „Chet til o‘qitish metodikasi”.

CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA BARQAROR BIRIKMALAR

Mamadjonova Gulnora Odiljonovna
Namangan viloyati Chortoq tumanidagi
48- umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
Tel: 99899-655-92-35

Annotatsiya: Ushbu maqola barcha ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari uchun barqaror birikmalarni ya‘ni iboralar mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatishda katta yordam beradi deb o‘ylayman. Bu orqali o‘quvchilarni kitobxonlikka badiiy asarlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Asardagi iboralarni topish uchun o‘quvchi asarni qo‘lga oladi va uni o‘qishni boshlaydi. Biz esa dars jarayonida fanlararo bog‘lanishga erishgan bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: Barqaror birikma, ibora, maqollar, frazeologiya.

Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun so‘zlar yordamidagina emas, balki bir necha so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Frazeologizmlar (Iboralar)
2. Maqol va matallar
3. Aforizmlar.

Ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topgan ,yaxlit bir ko‘chma ma‘no ifodalaydigan, ta‘sirchanlikka ega bo‘lgan va ma‘nosi bir so‘zga teng keladigan so‘zlar yoki gaplar ibora deyiladi.Iboralar gap ichida bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va yaxlit ko‘rinishda bitta gap bo‘lagi bo‘lib keladi

Masalan: Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan -yuvosh, kapalagi uchib ketdi - cho‘chidi, og‘zing qani desa qulog‘ini ko‘rsatadi -lapashang. Iboralar ko‘proq so‘zlashuv nutqda va badiiy asarlarda ishlatiladi. Undan unumli foydalanish nutqning ta‘sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o‘rganadigan bo‘limi frazeologiya deb ataladi.

O‘zbek adabiyotining atoqli hamoyondasi Abdulhamid Cho‘lpon ham o‘zining “Kecha va Kunduz” asarida iboralardan unumli foydalangan. Bu yozuvchining serqirra ijodkor ekanligi ni ko‘rsatib turadi. Asarda adib sifatida o‘zbek xalqining turmushida boshlangan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy o‘zgarishlarni , yuragini o‘rtagan hayotiy muammolarni zo‘r mahorat bilan bayon etadi . Asardagi voqealar tasvirida yozuvchi qahramonlar nutqida iboralardan , maqol va matallardan ustalik bilan foydalangan . Asardan olingan parchalarga nazar solamiz Asarning 1- bobi 23-sahifasida Onaning ko‘ngli yumshoq bo‘ladi degan ibora rahmdil so‘ziga teng keladi.

31-sahifada. So‘fi hech narsa demay o‘rnidan turdi. Yana damini chiqarmasdan, ichkariga tomon bir—ikki qadam bosdi. Damini chiqarmasdan- indamay so‘ziga teng.

38-sahifa. O‘ylabroq javob bermoq uchun ko‘ngilning talvasaga tushmasligi darkor. Ko‘ngilni talvasaga tushishi- bezovta so‘ziga teng.

57-sahifa. “Boshini ko‘tarib qolsa,men o‘zim xabar qilaman”-deyman. Boshini ko‘tarib qolsa- tuzalsa so‘ziga teng keladi.

63-sahifa. Biz kelganda hammangiz dong qotib uxlagan edingiz. Dong qotib-qattiq uxlamoq. 64-sahifa Enaxonning onasi o‘z qizini xoli topib Zebi haqidagi fikrni izhor qildi. Izhor qildi- aytdi.

73- sahifa To‘ra bu kulishni Miryoqubning xursand va rozi ekaniga yo‘ydi va ko‘ngli o‘rniga tushdi. Ko‘ngli o‘rniga tushmoq- xotirjam bo‘lmoq.

83-sahifa. Shu chog‘da Zebining ko‘nglidan og‘ir bir tosh ko‘chgan edi. Ko‘nglidan og‘ir tosh ko‘chmoq-yengillashmoq ma‘nosiga teng so‘zdir.

91-sahifa. Bechoraning uyi kuyibdi. Uyi kiyibdi- xonavayron bo‘lmoq.

114-sahifa Gapning rosti yuragi betlab so‘rolmadi. Yuragi betlab-qo‘rqib.

117-sahifa.O‘ziga bino qoyganlarning aldanishi yomon bo‘ladi. O‘ziga bino qo‘ymoq-kibrli so‘ziga teng ma‘noga ega bo‘ladi.

150-sahifa. Nima balo senga ko‘ngli tushib qolganmi? Ko‘ngli tushmoq-yoqtirmoq.

211-sahifa. Og‘zingga paxta tiqdingmi hammang. Og‘ziga paxta tiqmoq –jim turmoq so‘ziga teng. Asarda bunday iboralar juda ko‘p qo‘llangan. Bundan tashqari asarda maqollardan ham unumli foydalanilgan. Asar boshida Hamal keldi, amal keldi. “Olma pish, og‘zimga tush”. “echkiga o‘lim, qassobga yog‘ qayg‘usi”,”Kichkina mitti ,xon xo‘jani yiqitdi”, “Shoshilmasang yetasan”,”Ertaga xudo poshsho”, “Bilgan bilmagandan yaxshi”,”Tashi yaltiroq,ichi qaltiroq”, “O‘rgangan ko‘ngil, o‘rtansa qo‘ymas” kabi maqollar o‘quvchini fikrlashga o‘rgatadi. Cho‘lponning bu asari o‘quvchilarni milliy o‘zlikni anglashga , ozod va obod vatanni sevishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini singdirishda katta ahamiyatga ega. Iboralar mavzusini o‘rganish orqali o‘quvchilarni badiiy adabiyot bilan oshno bo‘lishga , kitobxonlikka yetaklaydi. Kitob bilan oshno bo‘lgan kishidan faqat yaxshilik qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili 2012. Abiturentlar uchun qo‘llanma. Muallif: Madrim Hamrayev. Toshkent 2012.
2. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining talabalari uchun darslik. 2-kitob. Muallif: A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova. Toshkent-”ILM ZIYO”-2015.
3. “Yana oldim sozimni” Asarlar to‘plami . Muallif Cho‘lpon. Toshkent-1991 yil.
4. Adabiyot darsligi. 2- qism. 11-sinf. B. To‘xliyev, B. Karimov, K. Usmonova. – Toshkent-2018.

SINXRON TARJIMANING AFZALLIKLARI, KAMCHILIKLARI VA MUAMMOLARI

Sh.Maxmudova
Samarqand davlat chet tillar insitituti talabasi
Telifon: +998944712497
shakhlocha97@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqola tarjima usullari orasida keng tarqalgan, ogʻzaki tarjima shaklining bir koʻrinishi boʻlgan - sinxron tarjima sohasi hamda uning afzallik va kamchiliklari xususida. Qolaversa ushbu maqolada sinxron tarjimaning kelib chiqishi, ommalashishi, hamda bugungi kunga kelib ilmiy anjuman va konferensiyalarda foydalaniladigan asosiy tarjima turi sifatida shakillanganligi va uning shunday darajaga yetishiga qanday omillar ta'sir koʻrsatganligi, bu tarjima usulining yutuq-kamchiliklari, qanday muammolarga zudlik bilan yechim topilishi kerakligi haqida soʻz boradi.

Annotation: this article is about simultaneous translation which is one of the widespread translation methods and its advantages and disadvantages, furthermore it includes information about the origin and development of simultaneous interpreting and its wide usage in different conferences and meetings, there are the main reasons in the article why it is being continually used and why it has become so popular all over the world. It has also some problems that have to be overcome in the near future.

Аннотация: Эта статья о синхронном переводе, который является одним из широко распространенных методов перевода, его преимуществах и недостатках, кроме того, статья включает информацию о происхождении и развитии синхронного перевода и его широком использовании на различных конференциях и совещаниях, в статье приводятся основные причины постоянного использования и причин его популярности во всем мире. Этот вид перевода также имеет некоторые проблемы, которые должны быть преодолены в ближайшем будущем.

Kalit soʻzlar: Sinxron tarjimaning kelib chiqishi, uning ommalashishi va rivojlanishi, ilk bor qoʻllanilishi, bu tarjima turida uchraydigan kamchiliklar, hal qilinishi kerak boʻlgan muammo va masalalar, yutuqlar, boshqa tarjima turlari (ketma ket tarjima) dan farqi va boshqalar.

Key words: the origin of simultaneous interpretation, its development and and initial usage, pros and cons, problems and their possible solutions, the difference between simultaneous translation and other methods of interpretation(consecutive translation)

Ключевые слова: происхождение синхронного перевода, его развитие и первоначальное использование, плюсы и минусы, проблемы и возможные пути их решения, разница между переводом и другими методами перевода (последовательный перевод)

Sinxron tarjima - tarjimaning ogʻzaki shakli boʻlib, bunda tarjimon maxsus uskunalar (maxsus yigʻma xona, mikrafon va quloqchinlar) dan foydalangan holda toʻgʻridan toʻgri, notiqning nutqini boʻlmasdan, buzmasdan hech qanday qoʻshimchalar yoki ortiqcha fikr qoʻshmasdan tinglovchiga yetkazib berishi kerak boʻladi ya'ni tarjimondan tinglovchida nutqni notiqdan eshitayotgandlik taasuurotini qoldirish talab etiladi. Sinxron tarjima tarixi yaqin oʻtmishga borib taqaladi undan keng koʻlamda foydalanish atigi oʻtgan asrning 50 yillariga toʻgʻri keladi, shu oʻrinda nega ketma-ket tarjimadan foydalanish ancha avval boshlangan-u sinxron tarjimaning keng yoyilishi uchun buncha koʻp vaqt talab qilindi degan haqli savol tugʻulishi tabiiy, buning sababi- sinxron tarjimani amalga oshirish ostida katta mehnat yotadi, shuning uchun ham buni koʻpchilik imkonsiz ish deb hisobladi va un-

ing tarqalish doirasini anchaga toraytirib yubordi. Hattoki, sinxron tarjima 2-jahon urushi yakunlangach 1946-yili Germaniyada uyushtirilgan Nyurenberg harbiy sudi[1] - fashistlarning jinoyatini sud qilish jarayonida turli millat vakillari ishtirok etganligi bois vaqtni tejash va hammaga bir vaqtning o‘zida ma’lumotlarni yetkazish maqsadida foydalanilgan va bu yetarlicha samara bergan bo‘lsada, urushdan keyingi yillarda bu sohani rivojlantirishga urungan shaxslarning ishlariga halal berish hollari va sinxron tarjimaning unumli ekanligiga shubha bilan qaragan odamlar soni ko‘p bo‘ldi, biroq sinxron tarjima o‘ziga bildirilgan ishonchni oqlay oldi, shundan so‘nggina aynan o‘sha bu tarjima usulini foydasiz va imkonsiz deb hisoblagan shaxslarning o‘zlari sinxron tarjimonlar tayyorlash markazlarining ochilishiga homiylik qilib ularning faoliyatiga ko‘mak bera boshlashdi natijada esa, bu sohadan foydalanish tendensiyasining anchagina o‘sishiga ko‘mak berishdi. Tez orada xalqaro konferensiyalarda sinxron tarjimadan foydalanilishi hech kim uchun yangilik bo‘lmay qoldi. Sinxron tajima shunchalik ko‘p mehnat, izlanish, o‘qish-o‘rganishni talab qiladiki, ba’zi bir insonlar sinxron tarjimani “sehrgarlik san’ati”, tarjimonlarni esa “sehrgarlar” deb hisoblashadi, bu qaysidir tomondan haqiqatga ham o‘xshab ketadi, chunki buni hamma ham eplay olmaydi, faqatgina kuchli iroda, bilim va zakovat sohiblarigina bunday murakkab va mushkul ishning uddasidan chiqa oladilar xolos. Bugungi kunda deyarli hamma ilmiy anjumanlar o‘tkaziladigan konferensiya zallarida sinxron tarjima uskuna va jihozlarnini uchratishimiz mumkin, bu esa hozirgi paytda sinxron tarjimadan foydalanish anchagina rivojlanganligidan dark berib turibdi, buning sababi esa bu tarjima turining boshqa tarjima turlaridan ajralib turadigan afzallik va ustunliklarining mavjudligidadir. Bu ustunliklar esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Sinxron tarjima vaqtni tejab konferinsiyaning bir maromda borishini hamda tinglovchilarning diqqatini ushlab turshni, ular qanday fikrda ekanliklarini yuz qiyofasidan, imo-ishoralaridan bilib olishni ta’minlab beradi (aynan mana shu xususiyat sinxron tarjimaning ketma ket tarjimadan asosiy ustunligi hisoblanadi)
2. Ishtirokchilar istaklarini qondirishga xizmat qiladi, masalan, kimdir ma’lumotlarni o‘z ona tilida eshitishni afzal ko‘rsa yana kimdir boshqa bir tilga qiziqqanligi yoki o‘rganishni xohlaganligi bois boshqa til orqali informatsiya qabul qilishni xohlashadi, bu tajima turidan foydalanish esa tadbir qatnashuvchilariga xohlagan tilni eshitish apparatlari orqali o‘zlari tanlash imkonini yaratib beradi
3. Ishtirokchilarga boshqa tadbir qatnashchilarining fikrini bilish, kerak bo‘lsa bu borada fikr-mulohazalarini almashish imkoniyatini yaratib beradi
4. Qatnashuvchilar hohlagan paytda notiqdan tushunmagan narsalari haqida so‘rashlari mumkinligi ular o‘rtasida iliqlik va yaqinlikni paydo qilib tadbirning yanada qiziqarliroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Aynan mana shu xususiyatlarni o‘zida mujassam qilganligi uchun ham og‘zaki tarjimaning bu turidan foydalanish kundan kunga ommalashmoqda. Biroq, har bir sohadagi singari bu sohada ham bir qator kamchilklar, hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar mavjudki, ular o‘z yechimini kutmoqda, bu mavzuga doir muammolar va nuqsonlar esa quyidagilardir:

1. Bu sohada faoliyat olib boradigan malakali, tajribali mutaxasis-kadrlarning soni unchlik ko‘pni tashkil qilmaydi, natijada, bu sohaning rivojlanish imkoniyati cheklanadi
2. Bu jarayon ko‘p energiya va mehnatni talab qilganligi bois tarjimonlarning narxi juda baland, qolaversa, jihoz va uskunalarining sotib olinishi, ularning sozligi nazoratlari uchun ancha mablag‘ talab etiladi
3. Ba’zan tarjima jarayonida ma’lumotlarning shoshib noto‘g‘ri yetkazilishi natijasida ko‘plab tadbir ishtirokchilari noto‘g‘ri informatsiya olishadi bu esa anjuman

[1] Francesca Gaiba “ The origins of Simultaneous interpretation: The Nuremberg trial”

qatnashuvchilarining noroziligiga sabab bo‘ladi

4. Bu borada texnik muammolarni ham aytib o‘tmaslikning iloji yo‘q, ba’zan tarjima jarayonida uskunalarning nosozligi yoki ularning to‘g‘ri joylashtirilmaganligi bois turli shovqinlar, uzulishlar sodir bo‘ladi bu esa tinglovchini diqqatini bo‘lib ma’lumotlarni yaxshi qabul qilolmasligiga sabab bo‘lishi mumkin

5. Yangi soha bo‘lganligi bois foydalansa bo‘ladigan adabiyotlar sonining cheklangaligi ham bu sohadagi muammolardan biri hisoblanadi

6. Tarjimani amalga oshirish uchun bir vaqtning o‘zida bir nechta mutaxasis-tarjimon(kamida3-4 kishi) hamda ko‘plab kuzatuvchilarning jalb qilinishi

Yuqorida keltirilgan masala va muammolarni bartaraf qilish bo‘yicha bugun turli davlatlarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda, umid qilamizki yaqin kelajakda bu sohada yetishib chiqadigan yuksak zakovatli, tajribali, mutaxasislarimiz soni ancha ko‘pni tashkil qiladi va ular birgalikda qolgan muammolarni hal qilish bo‘yicha mukammal ish-rejalar ishlab chiqishadi va sohaning rivoji uchun o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, tarjmaning bu noyob turi o‘zida bir talay afzalliklarni mujassamlashtirish bilan bir qatorda yaqin kelajakda yechimini topishi kerak bo‘lgan muammolarni ham jamlagan, shu bois ham bir yo‘sinda to‘xtab qolish kerak emas, balki uning gullab yashnashi yana ko‘p yillar insoniyatga xizmat qilishi uchun qo‘limizdan kelgancha harakat qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.R Ismatullayeva “Sinxron tarjima masalalari” ma’ruza matnlari,- T.:Toshkent,2013
2. I.G‘ofurov “Tarjima nazariyasi”,-T.:Toshkent,2012
3. X.X Hamidov “Tarjimashunoslik”ma’ruzalar matni,- T.:Toshkent,2012
4. E.Ochilov “Tarjimashunoslikning nazariy masalalari” uslubiy qo‘llanma,-T.:Toshkent,2017
5. Franz Po‘chhaker “simultaneous interpreting”,-2012
6. Francesca Gaiba “The origins of Simultaneous interpretation: the Nuremberg trial”,-T.: University of Ottawa press,1998
7. Lynn Visson “From Russian into English: An introduction to simultaneous interpretation”,-T.: Focus,1999

ONA TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Nasullayeva Karima Bo'ribekovna
Xovos tuman 14-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.
Telefon raqami: +998998653123
Rahmonberdiyeva Gulchehra Yuldashbayevna
Xovos tuman 25-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda yangicha usullardan foydalanish, fan tizimiga zamonaviy yondashish va innovatsiyalar kiritish, dars jarayonida turli pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda o'quvchilarning dasrga qiziqishlarini ortishini, diqqatini jamlashini, mustaqil fikr yurita olishini haqida qisqacha mazmuni yoritilgan.

Tayanch so'zlar: pedagogik texnologiyalar, ta'lim metodlari, ta'lim jarayoni.

Har bir ilm va san'atning borib taqaladigan boshlanish joyi bor.
Shu boshlanish joyga yaqinlashgan sari, to o'ziga borib yetguncha soddalashib boradi.
(Abu Rayhon Beruniy)

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgach jahonning rivojlangan mamlakatlari kabi o'quv texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Milliy tarbiya tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda.

Modellashtirilgan dars real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan modelini sinfxonada yaratish va ularda o'quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olinishini ko'zda tutuvchi metodlar majmuidir.

Hamkorlikda o'rganish o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metodlar majmuidir. O'rganishning tadqiqot-izlanish modeli o'quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo'naltiradigan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metodlar majmui hisoblanadi.

O'zimizning ona tilini o'qitishda yangicha usullardan foydalanish, fan tizimiga zamonaviy yondashish va innovatsiyalar kiritish bugungi kunning muhim masalalarida biri hisoblanmoqda.

"Innovatsiya"- inglizcha yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z nutqida "Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshqarishimiz kerak",deya ta'kidlaganlari bejiz emas, albatta.

Shunday ekan ta'lim tizimidagi innovatsiyalar eng muhim yangiliklardan biri hisoblanadi. Ona tili fanining o'ziga xos jozibasi, sehri, chuqur olamini o'quvchilar ongiga singdirishda o'qituvchidan juda katta malaka, bilim, tajriba talab qiladi. Bu bilimlarning barchasi mehnat orqali amalga oshiriladi. Ta'lim olishning hamkorlikda o'rganish modeli o'quvchilarning guruhlarida mustaqil ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metodlar majmuidan iborat. Hamkorlikda o'rganish "ta'lim beruvchi-ta'lim oluvchi" dialogidan voz kechishni va "ta'lim beruvchi - guruh-ta'lim oluvchi" ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. Hamkorlikda guruhlarda ishlash orqali o'rganish guruh a'zolari va guruhlar o'rtasida ta'lim oluvchilarning faoliyatini, ularning mustaqilligini, bir-birlari bilan

muloqotda bo‘lish, hamkorlikda ishlash, o‘zaro bog‘liq munosabatlarda mas’uliyatini sezish kabi ko‘nikmalarni egallashni ta‘minlaydi.

Modellashtirilgan dars real hayotdagi voqea hodisalarni o‘yin shaklida loyihalashtirib, undagi asosiy muammoni hal etishga qaratilgan yo‘l - yo‘riq va usullardan iborat modeldir. Modelashtirilgan dars-ta’lim oluvchining real hayotdagi hodisalarni tasavvur qilish asosida, unda ishtirok etishi hisobiga malaka, ko‘nikma va tajribalarni o‘zlashtirish jarayoni hisoblanadi.

O‘yinni real hayot bilan solishtirib, ular o‘rtasida bog‘lanish o‘rnatish ham dars samaradorligini oshiradi. O‘yin ijtimoiy tajribani to‘plash va uzatishdan iborat bo‘lib, u amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq-atvor normalari va qoidalari orqali amaliy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi. O‘yin metodlarining asosiy maqsadi tinglovchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O‘yin har xil muammolarni hal etishdagi imitatsion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

Ta’lim olishning tadqiqot-izlanish shakli o‘quvchilarni izlanishga, yangiliklarga undovchi jarayonlarni hosil bo‘lishga yordam beradi. Tadqiqot o‘quvchilarga inson xatti-harakatiga nisbatan savollar qo‘yishni o‘rganish va ularga javoblarni esa faktlarni jiddiy tahlil qilish yordamida topishga ko‘maklashadi. Tadqiqot o‘quvchilarda savol qo‘yish jarayonida va javob qidirishda qiziqish uyg‘otishni nazarda tutadi. Muammolarni aniqlashda va berilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish davomida o‘quvchilar hissiyotlarga berilishdan chetlanishga va ob‘ektiv yondashuvga o‘rganadilar. Ular har qanday bilim nisbiy ekanligini yangi ma‘lumotlar paydo bo‘lishi bilan o‘zgarishini mohiyatan tushunib yetadilar. O‘quvchilar o‘zlarining taxminlarini tekshirish va boshqalarni tasdiqlash, turli xil axborotlar va mantiqlarni qo‘llashni o‘rganadilar.

Tadqiqot modeli bo‘yicha tashkil etilgan dars bosqichlari darsda o‘quvchiga qiziqish uyg‘otadigan muammo yoki savol qo‘yiladi. O‘quvchilarga shu masalini yechish haqida gipoteza taklif qilinishi mumkin yoki o‘quvchilarning o‘zlari gipotezalarni ilgari surishadi. O‘quvchilar o‘zlari shu muammo haqida kerakli ma‘lumotlarni topshiradi. Turli adabiyotlarni o‘qib, jadval, grafik, xaritalarni o‘rganib, o‘z tadqiqotlarini amalga oshirishda. Olingan ma‘lumotlarga asoslanib, o‘quvchilar qo‘yilgan muammoni yechish haqida xulosa qilishadi. O‘quvchilar ilgari surilgan gipotezalarni tekshirishadilar yoki yangi gipotezani shakllantiradilar.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida seminar mashg‘ulotlarining uch turi farqlanadi: seminaroldi mashg‘uloti, seminar va maxsus seminar. Seminaroldi mashg‘ulotlari, asosan, o‘quvchilarni mustaqil ishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o‘tkaziladi. Unda adabiyotlar, ma‘lumotnoma-adabiyotlar va boshqa manbalar bilan ishlash usullari o‘rgatiladi, o‘quvchilarni boshlang‘ich shaklda ilmiy-tadqiqot ishlariga o‘tishga hozirlaydi. Seminaroldi mashg‘ulotlari seminar mashg‘ulotlarining tayyorgarlik shakli hisoblanadi va odatda birinchi kurslarda o‘tkaziladi. Seminaroldi mashg‘ulotlarida o‘qituvchi yetakchilik qiladi, chunki o‘quvchilar muayyan ixtisoslik bo‘yicha o‘quv ishlariga ham e‘tibor beradilar, shuning uchun ham yetarli darajada tashabbus ko‘rsata olmaydilar.

Seminar mashg‘ulotlarida seminaroldi mashg‘ulotlariga nisbatan o‘ta muhim vazifalar hal qilinadi. Masalan, ayrim seminarlar tematik bog‘langan muayyan muntazam kursni chuqur o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi. Boshqalari esa biror mavzuni yoki kursning alohida va nihoyatda muhim va umumiy bo‘lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqishga bashlangan bo‘ladi.

Seminar mashg‘ulotlari davomida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yaqin aloqa, ya‘ni ular o‘rtasida ikki tomonlama do‘stona aloqa o‘rnatiladi. Bu esa tarbiyaviy - ma‘rifiy ahamiyatga molik bo‘ladi: o‘qituvchi o‘quvchilar bilan uzoq vaqt yaqin aloqada bo‘ladi,

ma‘ruza guruhlariga nisbatan o‘quvchilarning kichik guruhlarida jonli suhbat olib boriladi. O‘zaro fikr almashiladi, turlicha qarashlarni ifoda etadi.

Bugungi kunda ona tili darslarida interaktiv usullar yani, ochiq havoda dars o‘tish, induktiv tavsifiy, savol-javob, munozara, bumerang o‘yin usullari yetakchi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Ona tili darslarida turli rasmlardan, boshqotirmalardan, tarqatma-didaktik materiallardan, munozarali jadvallardan, o‘bek maqoli, hikmatli so‘zlaridan, Hadisi sharifdan unumli foydalanish, shuningdek, tadrijiy ravishda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi, dastxati bilan ishlab borish eng asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yo‘ldoshev J.G, Usmonov S Ilg‘or pedagogic texnologiyalar. T.O‘qituvchi, 2004 yil
2. To‘xliyev B va boshqalar Til va adabiyot ta’limning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent. 2011 yil
3. Azizho‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. TDPU. 2006 yil
4. Internet ma’lumotlar.

NEW APPROACHES AND METHODS OF LANGUAGE TEACHING

Babajanova Nilufar Tajimuratovna
Teacher of Tashkent Financial institute
Telefon:+998974046195
babajanovanilufar911@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqola lingvistikada xorijiy tillarni o‘qitishga zamonaviy yondashuv, o‘qib tushunish, yozish, eshitib tushunish, va gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishning ilg‘or metodlariga bag‘ishlangan.

Аннотация: Данная статья посвящена современным подходам к преподаванию иностранных языков в лингвистике, передовым методам развития навыков чтения, письма, восприятия на слух и разговорный речи.

Annotation: This article is dedicated to modern approaches to teaching foreign languages in linguistics, advanced methods of developing reading , writing, listening and speaking skills.

Kalit so‘zlar: lingvistika, kommunikativ yondashuv, eshitib tushunish, gapirish, o‘qish, yozish ko‘nikmalari.

Ключевые слова: лингвистика, коммуникативный подход, навыки восприятия на слух, чтения, письма, речи.

Key words: linguistics, communicative approach, listening, speaking, reading, writing skils.

The general theory of language which is based upon the specific theories or grammars of languages is called linguistics. It is clear that linguistics is a science which studies language. Linguists observe and gather the facts of language, which can be confirmed by analyses and tests. Since the main function of language is to communicate ideas, feelings and emotions, the linguists learn how the message is expressed and transmitted to the listener. Among the applications of linguistics language teaching , language testing and teaching of literature are of primary consideration for us. Linguistics has presented a new understanding in language teaching providing a theoretical base. The approaches, methods nd techniques that are adopted in language teaching are now global in our age. The two most important approaches, structural and communicative , have their base in structural linguistics and sociolinguistics respectively. Structural linguistics made the discovery that listening and speaking skills precede reading and writing skills. Modern syllabuses, now, lay more emphasis on teaching listening and speaking skills in the beginning stages of language learning. Now the teaching of language starts from the smallest unit, phoneme, and leads the learner to the highest unit, sentence, systematically. Selection and gradation of lexical items and structures is a special feature of modern language teaching. Communicative approach increases the value of language using in the social context. It forbids artificiality and emphasize the functional aspect of language. In other words, whereas structural approach is primarily concerned with form and usage, communicative approach with function and use. The new methods that have stemmed from these approaches are Audio-lingual method, Situational method and Audio-visual method . All these methods have replaced the age-old Grammar- Translation Method, Direct Method and Lecture Method. Modern linguistics has enabled language teachers to frame syllabuses to give equal value to the four skills and the three elements of language.

Contrastive linguistics studies the structures of two languages at phonological , morphological , syntactic and semantic levels. It tries to show the similarities and differences in the structures of the languages . It has been seen that learners transfer the knowledge of their mother tongue while learning the second language. The transfer is positive if there is similarity and negative if there is difference. The teacher remediates the mistakes caused

by the negative transfer. For example , Uzbek language do not have articles which are very frequent in English. That's why at the beginning of learning English language some students come across difficulties in using and understanding articles.

Many linguistic experts have supported the idea of integration of the four language skills namely - listening, reading, writing and speaking. Further the access to diverse technology has revolutionized both teaching and learning practices. The present era assigns importance to initiate new tech savvy trends that will make teaching and learning of English language fascinating and fruitful. Students must have a clear knowledge of the linguistic, phonological, cultural, functional and interactive skills. In a classroom we can effectively make use of four important language skills namely – Listening, Speaking , Reading and Writing. Listening is hearing, understanding, remembering, interpreting, evaluating, and responding. Effective listening is only accomplished through constant effort. A teacher can enhance listening skills in the following ways. a) When the students are exposed to the lessons being taught by the teacher b) By encouraging students to listen to inspiring speeches c) Through interactive discussions d) Arranging educative movies or even e) By staging dramas.

Speaking is an intellectually productive skill in the oral mode. This implies being able to speak in a correct, conversational language which can make the speaker's purpose clear to the listener without any ambiguity. Though proficiency in each skill is necessary to become a well-rounded communicator, the ability to speak skillfully provides the speaker with several distinct advantages. The capacity to put words together in an evocative way –to reflect thoughts, opinions, and feelings provides the speaker with important advantages. Rather than leading students to pure rote memorization, providing a rich environment where meaningful communication takes place is aspired. Teachers can promote efficient speaking skills by the following methods - a) Recitation from the text or from memory. b) Lessons in phonetics or meaningful communication c) Narrate stories, experiences, brainstorming, group discussion and interviews. With this aim, various speaking activities such as those listed can contribute a great deal in developing fundamental interactive skills necessary for life. These activities make students more active in the learning process and at the same time make their learning more consequential. Reading is a complex cognitive process that involves students to recognize individual words and to put a string of words together in a relevant context. Students can imbibe the quality of effective reading by working out comprehension exercises or by reading the texts aloud . They learn that depending on the syntactic composition of the sentence and the overall paragraph theme, the semantic of each word may shift and bear new meaning. Writing should not be viewed as a separate and distinctive instructional topic as it is not a linear process. While, reading may be the key to basic skills, writing is the heart of the matter. Reading enables readers to read words to others and to be a passive recipient of information. Writing, however, sets the learner free. Writing allows writers to express their own views and has a cathartic influence as the learners are given leeway to articulate their opinion. The objective of writing lessons should be to persuade freedom of writing style and not to teach writing formula.

All in all, the main objective of teaching methods is to equip learners with competences that allow to communicate with other speakers of foreign language in a respectful manner. In addition, learners learn how to deal with and understand a variety of different text forms and media, being equipped with strategies and tools that will help them with their current and future language learning process.

References :

1. Celce – Murcia, M.(Ed.)(2001). Teaching English as a second or foreign language. Boston: Heinle & Heinle.

2. Jim Scrivener. "Learning Teaching". (2006)

3. Pat Grogan. English pronunciation. Longman-London, 2000,57 pages

ONA TILI DARSLARIDA KO‘CHMA MA’NO VA ULARNING TURLARINI O‘QUVCHILARGA O‘RGATISH

Nurinbayeva Munojatxon Abdukaxarovna
Andijon viloyati Jalaquduq tumani
7-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Telefon:(97)994 19 81

Annotatsiya. Maqolada ona tili darslarida ko‘chma ma’no va ularning turlarini o‘quvchilarga o‘rgatish yuzasida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’no ko‘chish turlari ,metafora,metonimiya ,sinekdoxa.

Ma’lumki, nutqni ko‘chma ma’no va ularning turlarisiz tasavvur etish qiyin.So‘zlar o‘z ma’nosi bilan bartaraf bo‘lsalar ham, ammo uslubiy ma’no ifodalashi uchun ularning ma’nosi kontekstda ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi.Gulning chiroyli belgisi odamga(gul yuz),o‘rin joyga(gulbog‘), biror harakatga (qo‘li gul) ko‘chiriladi, natijada gul so‘zi qo‘shimcha uslubiy mazmun oladi. So‘zning o‘z ma’nosidan ko‘chishi, uslubiy mazmun olishi ko‘proq badiiy uslub, ba’zan publitsistik uslub va o‘rni bilan og‘zaki so‘zlashuv tilida uchraydi.

Borliqdagi narsa hodisa, belgi- xususiyat, harakat -holat nomlari ma’lum bir asosga ko‘ra boshqa narsa- hodisa, belgi-xususiyat, harakat- holat nomi sifatida ham qo‘llaniladi. Bunday vaziyatda bitta nom bir necha narsa –hodisa, belgi -xususiyat ,harakat- holatlarning nomi sifatida hizmat qiladi.Masalan, burun so‘zi “tirik organizmning yuz qismidan bo‘rtib chiqqan nafas olish organi’’ ma’nosini ifodalaydi, shu bilan birga, burun,, yerning suvlikka tomon bo‘rtib chiqqan qismi’’ ma’nosini ham bildiradi.Predmetlar o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlik (yuz qismdan bo‘rtib chiqqan burun bilan yer qirg‘og‘ining dengiz yoki okeanga qarab bo‘rtib chiqishi o;rtasidagi o‘xshashlik) birining nomini ikkinchisi ornida qo‘llashga asos bo‘lgan.

So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishiga ma’no ko‘chishi deyiladi. Ma’no ko‘chishining nima asosda ro‘yobga chiqishiga ko‘ra metafora, metonimiya, sinekdoxa singari turlari mavjud.

So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanish usullari quyidagicha: I.Metafora (ko‘chirish)

Bir narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi boshqasiga o‘zaro tashqi yoki ichki o‘xshashlik asosida ko‘chirilishi metafora deyiladi.

a) bir narsaning nomi boshqa narsaga o‘xshashlik asosida ko‘chiriladi:majnuntolning sochi, ko‘chaning boshi, qozonning qulog‘i, egarning qoshi, uzukning ko‘zi, qumg‘onning burni, o‘choqning og‘zi, arraning tishi, kitobning yuzi, ariqning labi.

Metofora bo‘yicha darslikdagi mashqlar quyidagicha bajariladi:

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi… Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklariqizlarning mayda o‘rilgan kokillaridayselkillab tushmoqqa boshladi.

Tahlil: Ushbu matnda ko‘chimlar talaygina. Unda insonga xos dildirash (sovqotish), qitiqlash kabi xususiyatlar insondan boshqa narsalarga metafora, ya‘ni o‘xshashlik asosida ko‘chirilgan. Bunda harakat o‘xshashligi ham kuzatilgan:

5. Bahor sevinchi ko‘ngillarni qitiqlay boshladi.
6. Tabiatning dildiragan tanasiga qon yugurdi.
7. Tollarning sochpopuklari selkillab tushmoqqa boshladi.

II. Metonimiya (qayta nomlash)

Metonimiya (yunoncha «qayta nomlash», «nomini almashtirish») narsa yoki hodisalarning makon va zamonda o‘zaro bog‘liqligi, doimiy aloqadorligi asosida birining nomi ikkinchisiga

ko‘chishidir. Bunda narsa, harakat va belgi o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlik emas, balki doimiy aloqadorlikning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi.

III. Sinekdoxa (birgalikda anglash)

Butun orqali qismni yoki qism orqali butunni ifodalash, anglatish sinekdoxa deyiladi. Uning ikki turi mavjud.

1) bo‘lak (qism) orqali butunni ifodalash: Bitta tuyoq bilan olti qorinni boqib kelyapman.

Diqqat!!! Soch, bosh, ko‘z, qosh, quloq, og‘iz, burun, qorin, mo‘ylov, soqol, oyoq, qo‘l, yurak, jigar, til, bo‘g‘iz, tomoq, lab, tish kabi tana a’zolari orqali shaxs ma’nosi anglashilishi ham sinekdoxa asosida ma’no ko‘chishiga asoslangan bo‘ladi .Do‘ppi boshimga tor keldi.

2) Butun orqali bo‘lak (qism) ni ifodalash: Besh qo‘l barobar emas. Olma archayotib qo‘lini kesdi. G‘ildirakni yurg‘izing, bozordan u-bu olib kelaylik. Urush ko‘plarning yostig‘ini quritdi.

Darslikdagimatnlarda metonimiya va sinekdoxa yo‘li bilan hosil bo‘lgan ko‘chma ma’nolarquyidagicha izohlanadi:

1. Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo‘lingizga suv berib, qizingizning choklarini tikishib, xizmatingizni qilib yotardim! (Cho‘lpon)

2. O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,

Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir. (E.Vohidov)

3. Bashirjon yoniga ag‘darildi: «Rahmatli chol to‘g‘ri aytarkan. Undan-ku, bir tirnoq — men qoldim. Yaxshimi-yomonmi, har qalay, ismini familiya qilib yuribman». (N.Aminov)

Matnda qo‘llangan metonimiyalar:

qizingizning *choklari* – tikayotgan matolari (kiyimlik yoki ko‘rpalik)

O‘zbek *Navoiyni* (Navoiy asarlarini) o‘qimay qo‘ysa;

Matnda qo‘llangan sinekdoxa:

bir tirnoq (farzand ma’nosida) — men qoldim.

Shunday qilib ,o‘quvchilarga ko‘chma ma’no va ularning turlarini o‘rgatish ona tili o‘qitishning eng muhim tamoyillaridan biri bo‘lib ,uni amalda qo‘llash bilimlarning puxta bo‘lishini ta’minlaydi,nutq malakalarining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi kun dolzarb muammolari sirasiga kiradigan vazifalar-o‘quvchi shaxsini kamol toptirish ,har bir aytgan gapini suhbatdoshiga tushunarli qilib yetkazib beradigan,zarur bo‘lsa, asoslab bera oladigan mustaqil fikrlovchi ,dunyoqarashi keng barkamol insonni tarbiyalash ,uning nutq madaniyatini shakllantirish ,shu maqsadda so‘z boyligini oshirish ,so‘zdan hamda grammatik vositalar beradigan uslubiy imkoniyatlardan o‘z o‘rnida foydalanish malakasini hosil qilish vazifalari ona tili o‘qituvchilariga katta mas’uliyat yuklaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Nargiza Erkaboyeva.O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami.,,Yosh kuch” Toshkent-2019.

2. N.M.Mahmudov va boshq.Ona tili:O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus ,kasb –hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent:,,O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’’ Davlat ilmiy nashriyoti,2018.

EFFECTIVE TEACHING METHODS

Pirnazarova Aziza Abdulhakimovna
Teacher, school №9, Gulistan district, Sirdarya region,
Uzbekistan Telephone: +998972754620 aziza1987@mail.ru

Abstract: The article discusses the problems on teaching foreign languages in Uzbekistan. The main learning skills are developed and assessed according to the world standards in order to prepare learners and future specialists answering the demands of CEFR requirements.

Key words: foreign languages, teaching system, learning skills, teaching methods.

Learning foreign languages in Uzbekistan has become very important since the first days of the Independence of our country. There is a great importance to understand up-to-date English. The First President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov signed a decree “On measures to further improve foreign language learning system”. It is noted that in the framework of the Law of the Republic of Uzbekistan “On education” and the National Programme for Training in the country, a comprehensive foreign language teaching system, aimed at creating harmoniously developed, highly educated, modern-thinking young generation,further integration of the country to the world community, has been created. Reforming the system of teaching is to put biggest responsibilities in front of teachers who teach at schools, at universities, and colleges. Modifying the teaching system involving CEFR is also the main factor to enrich the teaching foreign language. Main learning skills are developed and assessed according to the world standards in order to prepare our learners and future specialists answering the demands of CEFR requirements.

When materials developers design teaching materials some pitfalls may occur and they may affect negatively and cause to distract learners’ attention. Moreover, investigating unknown features of teaching modes deeply and practicing it in teaching process improve and lose the drawback of medium quality organized materials. In order to answer the modern language teaching requirements, teachers are to be informed about even subtle aspects of materials developing and how to use teaching methods with different types of learners.

Using different methods in classes. A teaching strategy is the method used to deliver information in the classroom, online, or in some other medium. Effective teaching strategies help to make students active about a topic, increase their curiosity on details, engage students in learning and on task, develop critical thinking skills, and, in general, enable and enhance the learning of course content. The goal of using teaching strategies is to facilitate learning process, to motivate learners and engage them in learning, to help them focus on the information or course books. There are many strategies and no one can choose only one strategy to teach a language; each strategy is devoted to increase one aspect; hence all teaching methods are used cooperatively. It is important to vary instruction to not only keep the students’ interest, but also to allow them to interact with content in various learning styles. In the classroom in the accompanying photograph, different instructional, pictured strategies can make a teacher’s lesson more effective in reaching a wide range of learners. No two teachers are alike, and any teacher with classroom teaching experience will agree that their style of teaching is uniquely their own. An effective teaching styles engages students in the learning process and helps them develop critical thinking skills. Traditional teaching styles have evolved with the advent of differentiated instruction, prompting teachers to adjust their styles toward students’ learning needs.

Types of language learners and teaching methods. As teachers use various methods in teaching languages, learners also have different styles of learning the particular subject.

Learning style is an individual's natural or habitual pattern of acquiring and processing information in learning situations. Individuals differ from each other with the ways in how they learn. The concept about individualized learning styles originated in the 1970s, and has greatly influenced education. According to the researches that teachers should assess their students so as to know students' modes of learning and adapt their teaching strategies to best fit their students' learning styles. There are three modalities of learners: visual, auditory, and kinesthetic.

Visual Learners acquire ideas, concepts, data and other information in association with images, graphic structures and techniques. Such learners learn better when they see illustrations, have strong memory in visualizing. Graphic organizers are visual representations of knowledge, concepts, thoughts, or ideas. To show the relationships between the parts, the symbols are linked with each other; words can be used to further clarify meaning. By representing information spatially and with images, students are able to focus on meaning, reorganize and group similar ideas easily, make better use of their visual memory.

Auditory Learning is a learning style in which a person learns through listening. An auditory learner depends on hearing and speaking as a main way of learning. Auditory learners must be able to hear what is being said in order to understand and may have difficulty with instructions that are written. They also use their listening and repeating skills to sort through the information that is sent to them.

Teachers might use these techniques to instruct auditory learners: verbal direction,

group discussions, verbal reinforcement, group activities, reading aloud, and putting information into a rhythmic pattern such as a rap, poem, or song.

Kinesthetic Learning (also known as tactile learning) is a learning style in which learning takes place by the student carrying out a physical activity, rather than listening to a lecture or watching a demonstration. Tactile-kinesthetic learners make up about five percent of the population. When learning, it helps for these students to move around; this increases the students' understanding, with learners generally getting better marks in exams when they can do so. Kinesthetic learners usually succeed in activities such as chemistry experiments, sporting activities, art and acting; they also may listen to music while learning or studying. It is common for kinesthetic learners to focus on two different things at the same time,remembering things in relation to what they were doing. They possess good eye hand coordination. In kinesthetic learning, learning occurs by the learner using their body to express a thought, an idea or a concept (in any field). A teaching strategy comprises the principles and methods used for instruction. Commonly used teaching methods may include lecture, class participation, demonstration, project-based learning or memorization, but some combination of these usually results in the most effective strategy. Mainly teachers choose teaching strategies depending on the given information or the objective that should be implemented, skill that is being taught and these strategies may be influenced by students' learning styles, aptitudes, skills, and enthusiasm towards subjects. Any two teachers never choose the same strategies, because their classroom and learner‘s knowledge level require different teaching approaches. An effective teaching style engages students in the learning process and helps them develop critical thinking skills. The following list of teaching styles highlights the five main strategies teachers use in the classroom, as well as the benefits and potential pitfalls of each respective teaching method.

Conclusion. When teachers know who the good and less good students are, they can form different groups. While one group is working on a piece of language study (e.g. the past continuous), the other group might be reading a story or doing Internet-based research. Later, while the better group or groups are discussing a topic, the weaker group or groups might be doing a parallel writing exercise, or sitting round a CD player listening to an

audio track. This is an example of differentiation - in other words, treating some students differently from others.

Many teachers, faced with students at different levels, adopt a mixture of solutions such as the ones we have suggested here. However, it is vitally important that this is done in a supportive and non-judgmental manner. Students should not be made to feel in any way inferior, but rather should have the benefits of different treatment explained to them. Furthermore, we should be sensitive to their wishes

so that if they do not want to be treated differently, we should work either to persuade them of its benefits or, perhaps, accede to their wishes.

Used literature

1. Block, D. Some thoughts on DIY material design. ELT Journal, 1991.
2. Dulay, Burt and Krashen. Edited by Brian Tomlinson. Materials Development in Language Teaching, Second Edition, Excerpt. Cambridge University Press. 1982
3. Harben, P. T in the language classroom: What is the teacher's role? On
CALL in the 21st century. London: IATEFL. 2001
4. Maftoon, P. Language needs identification
5. Williams, M., & Burden, R. Psychology for language teachers.

FE'L SO'Z TURKUMI BO'YICHA MULOHAZALAR

Qadirova Qizlarxon Komuljonovna
Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani
19-maktab o'qituvchisi
Telefon:+998999654228
qizlarxon1989@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fe'l so'z turkumida vazifa shakllari hamda zamon shakllari orasidagi shakldoshlik xususiyatlarni inobatga olib, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qismi bo'lgan yetakchi fe'l tarkibidagi –(i)b, -a//-y shakllarini olgan fe'lda ravishdoshlik xususiyatining mavjud emasligi; sifatdoshning zamon shaklini ko'rsata olish xarakteri va zamon shakllari bilan shakldoshligini farqlash xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Fe'l, ko'makchi fe'l, qo'shimcha, zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchalari, ravishdosh, sifatdosh .

Ma'lumki, fe'l so'z turkumi nima qilmoq?, nima bo'lmoq? So'roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakat va holatini atab kelgan so'z turkumidir.

Fe'llar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe'l maxsus shakllarga ega bo'ladi. Turli gap bo'laklari vazifasida kelishi uchun xoslangan fe'l shakllari *fe'lning vazifa shakllari* sanaladi. Fe'lning sof fe'l shakli (o'qidi), harakat nomi shakli (o'qimoq,o'qish), sifatdosh shakli (o'qigan, oqar), ravishdosh shakli (o'qib, kelgach) kabi to'rtta vazifa shakli bor.

Fe'lning munosabat shakllariga 6-sinf ona tili darsligida zamon, mayl va shaxs-son shakllari kiritilgan. Fe'lning vazifa shakllari –(i)b, -a//-y, -gan, (-kan, -qan) shakllarini ham zamon va mayl shakllaridan farqlash yo'1-yo'riqlarini ko'rsatib berilsa maktab o'quvchilari uchun tushunarli bo'lar edi.

Bu qo'shimchalar litsey ona tili darsliklarida shakldosh qo'shimchalar deb qaraladi. Lekin ba'zi o'rinlarda o'z fikrimizga o'zimiz qarshi chiqamiz.

Bizga shu ma'lumki, fe'lning vazifa shakli bo'lgan ravishdosh qo'shimchalari

-(i)b, -a//-y qo'shimchalaridir. Ravishdosh fe'lning ravishga xoslangan shaklidir. Demak, u ravish bajargan sintaktik vazifani bajarib keladi. va qay holatda?, qanday? so'roqlariga javob bo'ladi. Asosi fe'l bo'lgani sabab, fe'lning vazifa shakli deb ataymiz. Ammo o'tgan zamon qo'shimchasi –(i)b, mayl qo'shimchalari

-a// -y shakllaridan qanday farqlaymiz. Ko'makchi fe'llarga bog'lanib keluvchi yetakchi fe'llar tarkibidagi –(i)b, -a// -y shakllarida ravishdoshni ifodalovchi belgi ko'rinmaydi. Chunki ravishdosh –(i)b, -a//-y shakllarini olib, ravish bajargan sintaktik vazifani bajarishi kerak. Lekin yetakchi fe'l tarkibidagi " –(i)b, -a//-y shakllariga qo'shilib degan" fikrimizga o'zimiz qarshi chiqqan bo'lamiz. Bu qo'shimchalarda zamonga xos qo'shimchalar vazifasi, ravishdoshning vazifasiga qaraganda ko'proq kuzatiladi.

O'qib chiqdi-nima qildi? So'rog'iga javob bo'lganida –(i)b shaklini o'tgan zamon shakli; *yugurib keldi* birikmasida esa qay holatda so'rog'iga javob bo'lganida ravishdosh deb qarasak, fikrimizga qarshi chiqmagan bo'lardik. Yetakchi fe'l tarkibidagi –(i)b, -a//-y shakllari ravishdoshlik vazifasidan kechib, ko'proq zamonga xos belgini mazmunidan ifodalamoqda.

O'qib chiqdi- o'tgan zamon

O'qib chiqyapti- oldin bajarilib, hali davom etayotgan hozirgi zamon.

O'qib chiqadi- oldin maqsad etib qo'yilgan, hali bajarilmagan kelasi zamon.

Bu qo'shimchalar ravishdosh vazifasini bajarganida ravish bajargan vazifadan voz

kechmasligi kerak. Aks holda, unda ravishga xos belgini qanday ko‘rsatamiz.

Yugurib keldi- birikmasi ravishdoshni ifodalaydi, ravish bajargan vazifani bajaradi, qay holatda keldi?- yugurib, lekin yetakchi fe’llar tarkibidagi –(i)b, -a//-y

shakllari faqat ravishdosh qo‘shimchasi –(i)b, -a//-y shakllari bilan shakldoshlikni saqlab qolgan, xolos.

Sifatdosh fe’lning sifatga xoslangan shakli, u fe’lning vazifa shakli bo‘lgani uchun zamon ma‘nosini bildiradi. Lekin zamon qo‘shimchasi -gan, -kan, -qan, -(a)r shakllaridan farqi aytib o‘tilmaydi. Shu o‘rinda maktab darsliklarida -gan, -kan, - qan sifatdosh shakllari o‘tgan zamon shakllari bilan shakldoshligi, -(a)r shaklining kelasi zamon shakli ekanligi bilan shakldoshligi 6-sinf ona tili maktab darsligida ham, ta’kidlab o‘tilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

O‘qigan bola- birikmasida sifat bajargan vazifani bildirib, qanday?, qaysi? so‘roqlarini olganda sifatdosh vazifasida kelgani, *bola o‘qigan*- gapida esa sifatdosh yo‘q ekanligi, -*gan* shakli o‘tgan zamon shakli bo‘lib faqat shakldoshligi “Eslab qoling”da berilsa, o‘quvchilarga tushunarli bo‘lardi.

Yozgan bola- qaysi bola? sifatdosh +ot; *Bola yozgan* - bola nima qilgan ? ot+sof fe’l; *Oqar daryo* - qanday daryo? sifatdosh+ot; *Daryo oqar*- daryo nima qilar? ot+sof fe’l.

Sifatdosh sifatga xos belgini, ravishdosh esa ravishga xos belgini o‘zida saqlab qolsa sifatdosh va ravishdosh bo‘lib qolishi, bunday belgini saqlab qolmaganda esa zamon qo‘shimchasi ekanligi maktab darsliklarida ifodalansa tushunish o‘quvchilarda oson bo‘lardi. O‘quvchilaming ikkilanishlari kuzatilmasdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili 6-sinf uchun darslik.-Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi-2017.
2. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent: “Ilm ziyo”-2010.

INGLIZ TILI FANINI O‘QITISHDA ROLLI O‘YINLARNING O‘RNI

Qodirova Shalola Rustamovna
Buxoro tuman 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi
Telefon:+99890-514-2141
lolapar6@gmail.com

Annatatsiya: Mazkur maqola ingli tili fanini o‘qitish jarayonida rolli o‘yinlarning o‘rni,uning ahamiyati xususida nazariy fikrlar berilgan hamda ingliz tilini o‘qitishda ta’lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etishda pedagogik qo‘llay olish haqida mulohaza yurutildi.

Kalit so‘zlar: Rolli o‘yinlar, innovatsion metodlar, samaradorlik, til to‘sig‘i, ko‘nikma, sahna ko‘rinishi, emotsional holat, aktiv ishtirok.

Yurtimizda chet tillarni o‘rganishni yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qaroriga muvofiq so‘nggi yillarda chet tillarini shuningdek ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yuqori darajada oshdi va davr talabiga aylandi. Bunga davlatimizning mustaqillikdan keyin chet tilini rivojlantirishga qaratilgan yuqoridagi farmon, chora va tadbirlar ham sabab bo‘lmoqda. Bu esa biz ingliz tili o‘qituvchilari oldiga katta ma’suliyat yuklamoqdakim ular oldiga o‘quvchilarning ingliz tiliga qiziqishini yanada oshirish uchun ingliz tili darslari davomida turli innovatsion metodlardan, texnik va amaliy vositalardan foydalanishni taqazo etmoqda.

Shunday metodlardan biri bu dars jarayonini yanada mahsuldor tashkil etuvchi turli xil o‘yinlardir. Dars davomida har xil o‘yinlar o‘ynatib turish sinfda fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passiv o‘quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Shuningdek o‘quvchilarning ustozlariga bo‘lgan hurmatini oshiradi. Shunday samarali o‘yinlardan biri- rolli o‘yinlardir. Rolli o‘yinlar bu real hayotimizdagi turli situatsiyalarni ingliz tilini o‘rganish jarayonida tadbiq etishdir. Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishda yordam beradi. Men ham darslarim mobaynida rolli o‘yinlardan juda ko‘p foydalanaman. Masalan:o‘quvchilarning kelajakdagi rejalari haqida suhbat kabi situatsiyalarni o‘quvchilarga berishimiz mumkun. Ushbu jarayonda o‘quvchilar sahna ko‘rinishlarini ijro etadilar. Do‘konda biror bir narsa harid qilishga doir situatsiya haqidagi sahna ko‘rinishida dialoglardan foydalanadilar.

Ushbu jarayonlarda o‘quvchilar sahna ko‘rinishlarini tashkil etadilar, rol ijro qiladilar. Bunday hayotiy rolli o‘yinlar dars jarayonida til muhitini yaratadi, o‘quvchilarni fikrlashga va o‘z fikrini ingliz tilini erkin bayon qilishga undaydi. Rolli o‘yinlarga ishtirok etish jarayonida o‘quvchilarning ingliz tilida so‘zlashish, tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Rolli o‘yinlarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida o‘quvchilarning leksik, grammatik va talaffuzdagi xatolarini to‘g‘irlashadi. Dars davomida rolli o‘yinlardan foydalanish bir vaqtning o‘zida barcha ko‘nikmalarni:o‘qish, tinglash, grammatik, so‘zlashishni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta’minlaydi. Bundan tashqari rolli o‘yinlar o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishga qiziqishini oshiradi. Bundan tashqari dars jarayonida rolli o‘yinlar o‘quvchilarning ingliz tilini qunt bilan o‘rganishga qiziqishini yanada oshiradi va dars jarayoniga jonli, quvnoq, do‘stona, birdamlik muhitini yaratadi. Bu esa ingliz tili darslarini ham yuqori sinflarda, ham boshlang‘ich sinflarda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.
2.www.britishencyclopedia.com.

РУС ТИЛШУНОСЛИГИДА НОРМА ТАЛҚИНИ

Ходжаева Гулшод Бахадировна
Урганч давлат университети ўқитувчиси
Телефон:+998(97)3639353
asalcha-80@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақолада рус тилшунослигида норма талқини ҳақида фикр юритилади

Калит сўзлар: норма, норматив, нутқ маданияти, адабий тил.

Рус тилшунослигида норма тарихини таҳлил қилиш жараёнида шу нарса маълум бўлдики, тил нормасининг илмий аниқланиши норматив грамматикалар, риторикага оид асарлар ва луғатлар яратишлардан бошланганлигини кузатамиз. Рус тили норматив грамматикасининг яратилиши М . В. Ломоносов номи билан боғлиқдир. Унинг “ Россия грамматикаси ” ва “ Риторика ” [1] каби ишларида рус тили норматив грамматикаси ва стилистикасининг асослари яратилди.

М. В. Ломоносовнинг бу илмий ишлари “ тил нормаси ” назарияси учун рус тилшунослиги тарихида илк босқич , биринчи қадам бўлиб ҳисобланади. Бу ҳақда С.П. Обнорский шундай ёзади: “ Тил нормаси ҳақидаги Ломоносов томонидан яратилган ғоянинг асосий негизи норма тушунчаси ривожланишининг кейинги тақдирини белгилади ва ҳозирги тилимизнинг жонли асоси бўлиб хизмат қилмоқда”[2].

Рус тилшунослигида инқилобдан олдин норма масалалари билан жуда кам шуғулланадилар. Тил нормаси ҳақидаги фикрлар А. Х. Востоков , Я. Г. Грот, А. А. Потебня ва бошқаларнинг илмий ишларида у ёки бу дражада ўз аксини топди , холос.

Тил нормаси назариясига асримиз бошларида муносиб ҳисса қўшган тилшунос В. И. Чернишевдир.[3] У нормадаги вариантдорлик ҳақида гапириб, тилда эски ва янги , асл ва ўзлашган, китобий

(ёзма) ва оғзаки , умумхалқ ва диалектик формалар мавжудлигини ва улар ўзаро узвий боғлиқлигини асосли равишда исботлади.

Тилшунослар А. М. Пешковский, С. П . Обнорский, Л. В. Шчерба, Г. О . Винокур, Л. П. Якубинский , Е. Д. Поливанов, В. В. Виноградов, Е. С. Истрина ва бошқалар ўз диққатини тил ва нутқ маданияти масалаларига ва тил нормасининг илмий – назарий муаммоларига қаратди.

Рус нутқи маданияти ва рус тили нормаси бўйича баракали илмий ишларни амалга оширган С. И. Ожегов , Ф. П. Филин , Б . Н . Головин , В . Г. Костомаров, Л .И . Скворцовларнинг ишларида тўпланган барча амалий тажрибалар умумлаштирилди , тил нормаси ва нутқ маданиятининг долзарб назарий муаммолари кун тартибига қўйилди ва бу муаммоларни ечишнинг қулай ва нуфузли йўлларини топишга ҳаракат қилинди . Тил нормасининг ўрганилишини тилшунослар Э. Бегматов ва А . Маматовлар қуйидаги йўналишларга ажратади :

1. Нормани тилнинг систем – структур имкониятларининг ўрганилиши билан

[1] Ломоносов М.В. Полное собрание сочинений. Т.7. Труды по филологии. 1739- 1758.-М.-Л.: 1952

[2] Обнорский С. П. Ломоносов и русский литературный язык . Избранные работы по русскому языку. М.: 1960

[3] Чернышев В.И . Правильность и чистота русской речи . Опыт русской стилистической грамматики . М. : 1913

боғлиқ ҳолда (В. Ф . Ицкович , В .П . Филин , Н . Н . Семенюк , Л . П . Крисин ва бошқалар) таҳлил қилиш ;

2. Нормани адабий тил ижтимоий вазифасининг кенгайиши ва унинг функционал ранг – баранглигининг ўсиши билан боғлиқ ҳолда

(К. А. Долинин , Э. Г . Ризель , К. С . Горбачевич ва бошқалар) ўрганиш;

3. Нормани адабий тилнинг баъзи социологик жиҳатлари билан боғлиқ ҳолда (М . М . Гухман , Н . Н . Семенюк , А .А . Леонтьев , А . А. Касаткин ва бошқалар) кузатиш ;

4. Нормани нутқ маданияти масалари билан боғлиқ ҳолда (В . В . Виноградов , Л. В. Шчерба, Б . Н . Головин , Г. О . Винокур, В . Г. Костомаров, Л .И . Скворцов ва бошқалар) ўрганиш ;

5. Нормани тилнинг руҳий (психологик) ва алоқавий (коммуникатив) жиҳатлари билан боғлаган ҳолда (В . Г. Костомаров, А .А . Леонтьев , Б . Н . Головин ва бошқалар) таҳлил қилиш ва бошқалар.

Чет эл тилшунослари , шунингдек рус тилшунослигида лисоний норма бўйича олиб борилган тадқиқотлар, улардаги илмий хулосалар туркий халқлар тилларидаги , жумладан ўзбек тилидаги адабий норма хусусиятларини ўрганишга назарий таянч бўлиб хизмат қилди .

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ломоносов М.В. Полное собрание сочинений. Т.7. Труды по филологии. 1739-1758.-М.-Л.: 1952

2. Обнорский С. П. Ломоносов и русский литературный язык . Избранные работы по русскому языку. М.: 1960

3. Чернышев В.И . Правильность и чистота русской речи . Опыт русской стилистической грамматики . М. : 1913

4. Бегматов Э . , Маматов А . Адабий норма назарияси . 1– қисм . Т . : 1997 , 42–43 б

АЛИШЕР НАВОИЙ „ХАМСА»СИДА ПОЭТИК ШАКЛ ВА МАЗМУН УЙГУНЛИГИ.

Шоймардонова Гулибарно Шермамат кизи.
ТДПУ талабаси. 103-РН 1-боскич.
Телефон номер: +99891 459 33 64.

Аннотация: Ушбу маколада буйук мутафаккир шоир Алишер Навоийнинг беш достондан иборат булган ,,Хамса” асари хакида маьлумотлар берилган. Бундан ташкари Навоийнинг бошка куплаб асарлари ва уларнинг бугунги кунда тутган мухим урни хакида хам мулохазалар юритилган.

Таянч сузлар: Алишер Навоий, Хамса, Муфрадот, Хайрат ул-аброр, Фарход ва Ширин, Лайли ва Мажнун, Сабъайи саййор, Садди Искандарий, Хусрав, Бахром, Абдурахмон Жомий, Султон Хусайн, Астробод, Назм ул-жавохир

Мустакиллик даври халкимиз маънавий олами учун ижобий узгаришларга бой булди. Истиклолнинг дастлабки йилларидаёк улуг мутафаккир Алишер Навоий хазратларининг йигирма томлик мукаммал асарлар туплами нашри амалга ошди. Мумтоз адабийотимизнинг узига хос яратилиш анъаналари, улардаги мукаддима кисмлар, илохий ва тасаввуфий тушунчаларнинг аслича берила бошлангани кувонарли ходиса эди, албатта.

Жумладан, Навоий ,,Хамса”си достонларининг тулик матнини укиш имконияти яратилгани тахсинга лойик булди.Натижада Алишер Навоийнинг мукаммал асарлари асосида янги-янги тадкикотлар, ёхуд мустакил юрт маънавиятига хос янги талкинлар юзага кела бошлади. Дарсликлар ва укув кулланмаларда мумтоз талкинлар асосида тузилди ва бу янгиланиш давом этаётир.

Навоий асарларига мурожаат хам шу маънода тобора кенгаймокда. Бирок бир хакикатни инкор килиб булмайди. Навоийни хамон адабиётшунослару мутахассис навоийшунослар тушуна билади. Кенг китобхонлар оммаси эса бу улуг мутафаккирнинг асарларидаги тасаввуфий-ирфоний, мажозий, ижтимоий-сиёсий карашларини мохиятан тулик тушуниб етмайдилар.

Навоий ижодини тушунишнинг бир йули эса бу улуг ижодкор асарларини биографик усулда, яъни муаллиф асарига унинг таржимаи холи, яшаган даври нуктаи назаридан ёндашиб урганиш зарурияти дир.

Алишер Навоий ,,Хамса”си бир-бири билан ич-ичидан мустахкам богланган бешта достонни камраб олувчи яхлит асардир. Буюк шоир унда уз даврининг барча долзарб муаммо ва масалаларини каламга олишга интилган. Шунинг баробарида уз хаёти билан боглик айрим ходисаларни хам асарлари мазмунига баъзан билиб, баъзан билмай сингдириб юборган.

Алишер Навоий мансуб адабий хаётда шеърий асарлардан газал, касида, насрий асарлар ёзишга хам кизикиш кучли эди. Алишер Навоий форсий девонига 373 муаммо киритган. Шундай адабий майллар туфайли 1485 муаммо ёзиш коидалари хакида махсус ,,Муфрадот” асарини яратди.

Алишер Навоийда узбек тилида ,,Хамса”-беш достон яратиш максади ёшлигидан булган. Бу максадини 1483-1485 йилларда амалга оширди. Асар узбек адабиёти шухратини оламга ёйиб, жахон адабиётининг дурдоналаридан бирига айланди.

Улуг шоир ижодининг шох асари ,,Хамса” 5 достондан иборат. Булар ,,Хайрат ул-аброр”(,,Яхшилар хайрати”), ,,Фарход ва Ширин”, ,,Лайли ва Мажнун”, ,,Сабъайи сайёр”(,,Етти сайёра”), ,,Садди Искандарий”(,,Искандар девори”) достонларидир. Форс адабиётидаги хамсачиликка жавоб сифатида узбек тилида биринчи маротаба

яратилган Алишер Навоий ,,Хамса"си бу тилнинг чексиз имкониятларини амалда исбот этди. 52 минг мисрадан иборат бу бешлик 15-а. ислом тафаккурининг борлик ва табиат, инсон ва жамият, ахлок ва камолот хакидаги узига хос комуси эди.

Шоир вокеаларни кадим Шарк тарихининг Хусрав, Бахром, Искандар каби номлари афсоналар билан чулганган шахслар, Лайли ва Мажнун каби ошиклар хаётидан олди. Уларга янги мазмун берди, туркона рух киритди. Даврнинг дардли масалаларини, авлодларнинг орзу ва армонларини кутариб чикди. ,,Хамса" замондошларига нихоятда зур таъсир курсатди. Абдурахмон Жомий уни хаяжон билан олкишлади. Султон Хусайн эса шоирни узининг ок отига миндириб, жиловдорлик килди.

Алишер Навоийнинг ишкий мавзуда ёзган шеърларининг узига хос хусусиятларидан яна бири шундаки, улардаги куп гоя ва тимсоллар, тасвирий деталлар анъанавий характерга эга. Шу билан бирга ишк ва ишкий образлар талкинида хам бошка мумтоз ижодкорлар сингари Алишер Навоий рамзийликка куп урин беради. ,,Ёр"- бу дунё гузалигина эмас, унингча, бу- бутун борликни яратган ва хамма нарсани харакатга келтириб турган Аллох хамдир. Шоир узининг тасаввуфий шеърларида ёрнинг коши, кузи, зулфи, сочи деганда Аллохнинг куч-кудрати, мехри, олий даражадаги гузалликларини кузда тутади. Алишер Навоийнинг барча лирик жанрларга оид шеърлари юксак махорат билан ёзилган булиб, инсон манфаатларига, унинг эътикодини мустахкамлашга, рухини согломлаштиришга хизмат килади. Унинг фалсафий, ахлокий мазмундаги хаёт нафаси уфуриб турган хар бир шеъри бу жанрнинг улмас намуналаридир.

,,Хамса"дан кейин Навоий яна бир сара асарлар яратди. 1485 й. узининг машхур ,,Назм ул-жавохир" асарини бунда биринчи халифалардан булмиш Хазрат Алининг 266 та хикматли гапи рубойи тарона шаклида баён этилган.

Уша давр китобхонлари, шу жумладан, тарихчи Хондамир бу асарга гоят юксак бахолаган. Алишер Навоийнинг инсонпарварлик фаолияти, илгор карашлари унинг обру- эътибори халк орасида тобора ортиб бориши уз манфаатларини кузлаган сарой аъёнлари хакида норозилик тутдирди. Улар шоир билан подшо орасига нифок солишга уринишган. Натижада 1487 й.да Хусайн Бойкаро Алишер Навоийни вазифасидан бушатади ва вазир вазифасини Мухаммад эгаллайди. Навоий эса Астрободга хоким килиб тайинланади.

Навоий хокимлик килган 2 йил давомида Астробод шахри ва вилояти ободонланиб, кушни давлатлар билан яхши муносабатлар урнатилади, савдо ишлари юлга куйилади.

Алишер Навоий Хусайн Бойкарони адолатли, маърифатли хукмдор киёфасида куриш орзуси билан яшади.

Алишер Навоий хамиша купрок ижодий ва илмий ишлар билан шугулланиш, бу борадаги режаларини амалга ошириш хаёли билан яшарди. Хаёт эса унинг режаларига уз тузатишларини киритар эди. 1488 й.Саййид Хасан Ардашер, 1492 й. Жомий, 1493 й. олим ва шоир Пахлавон Мухаммад бирин-кетин хаётдан куз юмдилар.

Навоий узи учун кадрдон булган бу инсонлар хотирасини абадийлаштириш, уларга уз хурматини изхор этиш учун ,,Холоти Саййид Хасан Ардашер", ,,Хамсат ул-мутахаййирин"(,,Беш хайрат"), ,,Холоти Пахлавон Мухаммад" номли рисолаларини ёзди.

Астрободда ёза бошлаган ,,Тарихи мулуки Ажам"(,,Ажам подшохлари тарихи") асарини тугаллади (1489). 1490 й. у узига замондош шоирлар хакида Жомийнинг ,,Бахористон", Давлатшох Самаркандийнинг ,,Тазкират уш-шуаро" асарлари шаклида ,,Мажолис ун-нафоис"(,,Нафислар мажмуаси") тазкирасини тузишга киришиб, 1492 й.да тугаллади. Шу вактнинг узида Алишер Навоий узбек тилида шеърият назарияси, аникроги, аруз вазни коидалари хакида ,,Мезон ул-авзон"(,,Вазнлар улчови") илмий кулланмасини яратди.

Буюк инсонпарвар Алишер Навоий урта асрдаги Уйгониш даврининг бошка улуг зотлари сингари бутун хаёти билан хакикий инсон кандай булиши лозимлигини курсатди. У уз давридаги нохакликка, адолатсизликка карши курашди, амалдорларнинг уз вазифаларини суистеъмол килишларини ва таъмагирликларини фош этди, ожиз, мухтож кишиларни уз химоясига олди.

Навоий ижодига шоир биографияси нуктаи назаридан нигох ташлар эканмиз: ,,Шоир ижоди хар доим у яшаган даврнинг энг мухим масалаларини камраб олган ва уларга жавоб берган''. Шу жихатдан улар бадиий ижоддаги замонавийликнинг ёркин тимсоли була олади. Навоийни англашда, унинг асарлари мохиятини чукур тугунишда энг макбул метод эканини тулик намоён этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каюмов А. Асарлар 1-жилд, 2-китоб, Ишк водийси чечаклари, ,,Лайли ва Мажнун''. Етти саёхатчи, ,,Садди Искандарий'', Тошкент, ,,Мумтоз суз'', 2008.- Б.400.
2. Каюмов А. Асарлар. 10 томлик. 4 том.- Б.368.
3. Шарафиддинов А. Алишер Навоий. Т. 1939.
4. Хайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танкидий карашлари. Т.1959.
5. Жалолов Т. ,,Хамса'' талкинлари. Т. 1960.
6. Зохидов В. Улуг шоир ижодининг калби. Т. 1969.
7. Рустамов А. Навоийнинг бадиий махорати. Т. 1979.

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA QO‘LLANGANN O‘ZBEK LIMNGVOMADANIYATIGA XOS METAFORALAR

Ziyatova Nafosat
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi. tel: 998-91-332-03-31

Annotatsiya: Har bir xalq tilida yaratilgan badiiy asarlarda xalq tarixi, mentaliteti, madaniyati aks etadi. Va ana shu xususiyatlar o‘z navbatida lingvokulturologik tahlilni taqozo etadi. Maqolada O‘tkir Hoshimov asarlarida qo‘llangan lingvomadaniy birlik sifatidagi metaforalarni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:lingvokulturologiya, metaforalar, milliy-madaniy xususiyat, asardagi ahamiyati.

Metafora–biror predmet nomini o‘xshashlik asosida shaxs yoki boshqa predmetlarga nisbatan qo‘llashdir. Ayrim hayvon, osimlik, predmet nomlari insonga yoki aksincha predmetga nisbatan qo‘llanib, insonning yoki predmetninig turli xislat-xususiytalarini tasvisrlashda qo‘llanadi. Bu ifodalanayotgan fikrning emotsionalligini oshiradi.[1] O‘tkir Hoshimov asarlarida o‘zbek xalqining milliy xususiyatlari nihoyatda teran aks ettirilgan. Shuning uchun quyida linvokulturologiya obyekti bo‘la oladigam metaforalarni talil qilamiz. Bunday metaforalar faqat shu tilgagina xos bo‘lib, xalqning milliy –madaniy boyligi sanaladi:*–Shaftoli yeysanmi?– U qo‘lidagi kattakon **zarg‘aldoq** shaftolini uzatdi. [2.32-b.]* **Zarg‘aldoq** bosh ma’noda–chumchuqsimonlar turkumiga kiruvchi, qanotlari qoramtir, o‘zi sariq sayroqi qush. Uning shu rangiga nisbiy qiyos asosida ba’zida shu ko‘risnish, xildagi tusga moyil rang-tus o‘rnida qo‘llanadi: *zarg‘aldoq rang gul, zarg‘aldoq shaftoli* kabi.[5.](2.140-b.) Bu kabi qo‘llanish mazkur so‘zning milliy-madaniy semantik xususiyatidandir. Chunki tabiatda minglab ranglar bor. Ba’zi ranglarni ifodalshda tabiatda mavjud turli o‘simliklar, ma’dan, ba’zi narsa- predmetlar nomi ham shularga xos o‘z rangini ifodalashda xizmat qiladi.

Faqatgina shu xalq tomonidan rang ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanadigan ko‘chma ma’nodagi so‘z-metaforalar lingvokulturologik ahamiyatga ega. Masalan: *Qulog‘imga shumtaka bolalarning qiy-chuvi kirgandek bo‘ldi. ...Orif oqsoqol bunaqa adabsiz “taka”larni tarbiyalagan ota-onasi bilan shunaqa gaplashib, shunaqangi tanobini tortib qo‘ydiki, endi ashula aytishmaydi.* [2. 276-b.] So‘zlashuv tilida ***shumtaka*** nihoyatda sho‘x, to‘polonchi bolaga nisbatan qo‘llanadi. Bu qo‘shma so‘z “o‘ta sho‘x, to‘polonchi ma’nosini bildiruvchi” *shum* va *taka* (ya’ni “erkak echki”) so‘zlaridan hosil bo‘lgan.Iikkinchi gapdagi “taka” metaforasi ham aynan ana shu ma’noda. *Shumtaka* va *taka* so‘ zlari metaforik ma’noda o‘zbek lingvomadaniyatida aynan juda sho‘x yosh (o‘g‘il) bola(lar)ga nisbatan qo‘llanadi.

*...Qani**, popuklar,**-deydi qandaydir tantanavor ohangda.-Dasturxonga marhamat. Uyalmanglar, tasadduqlar!* [3.68-b.] Popuk bosh ma’noda ”narsalarga bezak uchun taqiladigan bir bog‘lam tola, pat, ip va sh.k.” Bu qizaloqlarga erkalash ma’nosida aytilgan. *Tola, pat, ip* bu kabilar tarkibida ”yumshoqlik” semasi bor. Bu sema asosida ”muloyimlik”, ”mayinlik” ma’nosi yuzaga kelgan. Metaforik ma’noda shaxsga ko‘chirilganda ”bezak” semasi asosidagi ”chiroy, husn, ko‘rk”semalari kuchaygan va ”buyum” semasi ham chetlashib, ”muloyimlik”, ”mayinlik” semasi bo‘rttirilgan. Natijada xalqda yosh qizlarga nisbatan ijobiy munosabat ifodalovchi so‘z sifatida qo‘llanadi.

*Bay-bay-bay, o‘zi **jinqarcha** bo‘lsayam, shunaqa zahar qiz-ki, xuddi Zulayho opangizga o‘xhsaydi.* [4] Bu misoldagi ***jinqarcha*** so‘zi ham ko‘chma ma’noda. *Jinqarcha* (shevada) *chittak* degani. Chittak leksemasida *“parranda”, “kichkina”* semalari bilan birga” *kuchsiz”, “yengil kun ko‘ruvchi*” kabi yo‘ldosh semalar ham bor. Ana shu sema bu so‘zning salbiy

ma'noda qo'llanishiga asos bo'lgan. Shaxsga nisbatan qo'llanib, ko'chma" *tirmizak;hali yosh qo'lidan ish kelmaydigan "(*kesatiq) [5]. (4.113-b.) ma'nosida qo'llangan. Xalqda bu metaforadan salbiy munosabat ifodalashda qo'llanadi.

Mendan oldingi o'rindiqda ***quralay*** *ko'zlari katta-katta, qisqa kesilgan sochi tiniq yuziga xo'p yarashgan ko'hlik juvon o'tirar, yonidagi ro'mol o'ragan o'rta yashar xotin bilan gaplashardi.* [4.203-b.] ***Quralay*** aslida *"kiyik yoki ohularning yosh bolasi".* ***Quralay*** *ko'z* birikuvida ko'chma metaforik "*quralayning ko'ziga o'xshash ko'zli*" ma'nosini ifodalaydi.

Insonning dunyoni bilishida metaforadan foydalanishi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa turg'un o'xshatishlar tilda tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiritiladi. Har bir lingvomadaniyatda shu xalqning mentalitetini, uning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi metaforalari mavjud bo'ladi. Muomala jarayonida qo'llanilgan metaforalar vositasida so'zlovchi mansub bo'lgan xalqning milliy-ma'naviy xususiyatlari, ijtimoiy turmush tarzi va dunyoqarashi, e'tiqodi, an'analari va urf-odatlari bilan bog'liq jihatlar ham aks etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya.T.: 2019.102-b.
2. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. T. "Meriyus". 2011.
3. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari.T.:2018.
4. O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. Hikoyalar va qissalar: Qalbingga quloq sol. T.:2013. www.ziyouz.com kutubxonasi
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik 2-,3-,4-,5-jildlari.O'zME n-ti.:T.:2006-2008.

РОЛЬ ШКОЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Матёкубова Юлдузхон Курбоновна
Учительница русского языка и литературы
школы №25 города Ургенча
Хорезмской области
Телефон: +998(93)7400955
matyoqubova@mailm.ru

Аннотация: Описаны традиции школы, обеспечивающие результативность нравственного воспитания, такие как традиции календарные даты, события дни и акции.

Ключевые слова: школа, традиции, подрастающее поколение.

Начать статью хотелось бы с вопроса, а что такое школа? Для каждого это личный вопрос, но с другой стороны и очень общий. Мы все учились в школах, кто-то любил свою школ, кто-то – нет. Но у каждого в жизни обучение в школе – большой участок жизни. И чтобы он был интересным, запоминающимся, полезным, мы должны возрождать школьные традиции, без которых каждая школа становится “бедной” и не очень интересной как для учащихся, так и для учителей.

Понятие “традиция” генетически восходит к лат.traditio, к глаголу tradere, означающему “передавать”.

Традиции и обычаи созданы творческим гением народа,близки и дороги ему, веками служили и служат людям. Каждый народ имеет свои исторически сложившиеся традиции и обычаи, разные по уровню и глубине своего идейного содержания в зависимости от исторических судеб народа. Последнее время наши печать, радио и телевидение стали уделять столько внимания традициям и обычаям, что есть даже опасность впасть в другую крайность.

Традиции, традиционная – это все то, что передается из поколения в поколение. Такая передача так или иначе происходит всегда и везде, имеет место во всех сферах жизни общества, например производственные, трудовые, культурные, нравственные, бытовые, семейные и другие традиции.В традициях и обычаях прошлого много умного, интересного и красочного.

Воспитание у подростающего поколения правилного отношения к культурному наследию прошлого – одно из важнейших звеньев воспитательной работы, которое содействует развитию у людей чувства любви, уважительного отношения ко всему тому, что доставляет людям радость, веселье, эстетическое наслаждение. Это трудовые традиции, мудрые народные праздники, почтительное отношение к женщине, к старшим, к их жизненному опыту.

Традиции выполняют информационные функции. Все новое в жизни, положительный опыт данного поколения, ставший традиционным, передается как ценное достояние следующему поколению. Традиция и культура это единое целое. Культура, как приводящая и сберегающая природу человека, сберегающая природу человека, направлена на происхождение. Т.е. она направлена не только соответствие с сегодняшним днем, но и на согласование с прошлым. Описывая интеграцию культуры и традиции, сохранение культурных традиций мы должны также использовать данную интеграцию в практике работы с подрастающим поколением. Практика является отправной точкой любой теории. И нам бы хотелось рассказать о традициях, которые исползуются и постоянно углубляются в школе №25 города Ургенча. История нашей школы №25 богата традициями, так как без соблюдения преемственности поколений невозможно было бы создать

тот творческий потенциал, которым гордится школа.Одной из главных традиций мы считаем бережное и чуткое отношение к ветеранам Великий Отечественной Войны. Каждый год в нашей школе проводится рейд “Память”, в рамках которого учащиеся осуществляют сбор сведений о ветеранах войны, проживающих в городе, готовят поздравительные мероприятия, которые приурочены ко Дню пожилых людей, Новому году, Дню Победы. Школа гордится и учениками, которые составляют “золотой фонд” школы – победителями и призёрами олимпиад разного уровня. Для них мы готовим поздравительный концерт, на котором чествуем победителей.

Одна из главных традиционных особенностей нашей школы – это желание наших школьников участвовать в жизни их школы, начиная от подготовки и участия в олимпиадах до организации и проведения внеклассных мероприятий: концертов, встреч, круглых столов, турниров.

В нашем школе традиционно проводятся мероприятия, направленные на развитие личности ребенка, его самоорганизацию и самореализацию, которые стали школьными традициями. Это: День знаний, День учителей, Новогодние праздники, День защитников Отечества, Мамин день. Каждое мероприятие имеет свою изюминку, свое содержание и форму, которые год от года совершенствуются. Ребята сами планируют, разрабатывают и участвуют в реализации этих проектов. “День открытых дверей” для родителей так же стал традицией в нашей школе. Учителя готовят открытые уроки в нестандартной форме, внеклассные мероприятия, спортивные соревнования, родительские собрания. Подведение итогов проходит за круглым столом, который собирает как учителей, так и активных детей и родителей.

Не менее красочно ежегодно проходит и Бал Осени. Каждый класс составляет осенний букет, готовит театрализованные представление, в котором с удоволсвием принимают участие не только дети, но и родители. Все проходят в костюмах “Осени”. Свои впечаления дети выражают в стихах, сочинениях, рисунках. По традиции Новогодний праздник в школе проходит в школе проходит в виде театрализованного путешествия в мир сказок, где все главные роли исполняют ребята 2-4-х классов и самые активные родители. Общешкольный праздник продолжается в каждом классе. Одни ребята выезжают на природу в гости к Деду Морозу,где их ждёт встреча со сказочными героями, шутками,играми и конечно, подарками.Не всегда дети узнают в этих героях своих родителей. Другие – ставят новогодние сказки с песнями, танцами в классе, заканчивается праздник чаепитием.

Каждый класс готовит внеклассное мероприятие для параллели по своему усмотрению, исходя из индивидуального плана класса. Это могут быть: викторины, конкурсы, блицтурниры, КВНы, соревнования,”Умники и умницы”. Никто не остаётся в стороне. Результаты работ представляются на выставке, которую с удовольствием рассматривают учителя, ученики школы и их родители. На заключительном празднике подводятся итоги декады по номинациям. Классы награждаются грамотами, памятными подарками.

Сохранение традиций, их приумножение – это та конкретная педагогическая деятельность, которая работает на главную цель современного образования через сохранение традиций, культуры мы стараемся растить нравственно здоровее молодое поколение граждан нашей страны.

Список литературы:

1.Сапаров Б.Б. Роль национального наследия и ценностей в формировании самосознания.

2.Алиев А. Народные традиции, обычаи и их роль в формировании нового человека.

EFFECTIVE METHODS FOR TEACHING ENGLISH

Suleymanova Zulfiya Abatovna
Qoraqolpog'iston Respublikasi Chimboy tumani
37-son maktabining ingliz tili fan o'qituvchisi
Telefon: 998913751635
zulfias@gmail.com

Annotation: This article discusses about effective methods of teaching English, to motivate pupils to use the language effectively, how to improve learners speaking skills, body language, and gestures as well as using authentic materials in the classroom.

Keywords: Methods, speaking skills, body language, gesture, authentic materials, different pictures, motivation.

As a language teacher it is very important to know yourself and your students. Not only your subject matter is important but also your students' cultural background and other personal factors emotional and psychological are equally important.

Since beginning of my career as an English teacher, I have had a question in my mind about how to develop my students' language skills and how to make them better at things that they have never done before. Having different students with different abilities and intelligence tends to be demanding work. Some of the best English lessons are often the result of a teacher who only knows English and therefore forces the students to speak English to communicate.

Every teacher wishes his/ her students to continue speaking in English even if they make mistakes.

Thus, I do my best to contact the class in English which is more challenging for me. To make my lessons brightly and overcome the language difficulty I started to use different teaching methods. For instance, before the starting lessons I prepared some easy questions about friends, family, self- introduction cards or free time activities which served as guidance for conversation.

It was a mingling activity during which they had to interview everybody. They soon realized that using easier words while speaking was the best approach for new speakers of English.

Another important skill you will need to master to start successfully teaching English as a foreign language is the ability to use body gestures and signs effectively. Many students find that they learn a new language better when they are forced to speak only English in the classroom. By refusing to use your student's native language, you force them to learn English by first using your body language and gestures to teach them new words , and then using what they've learned to build even more knowledge. This pattern of learning closely mimics the way babies and infants learn a language, and therefore this method of teaching often "sticks" better than using rote memorization of English words.

In order for children to learn English effectively, it is understandable that children should be encouraged to speak and listen as much as possible. Therefore, teacher delivered "lecture" style lesson does not effectively allow for language development. Instead, children can explore, utilize or reinforce their newly learned vocabulary and grammar with their peers. This can occur in pairs, small groups of 3 or 4 or larger groups depending on the activity and the desired outcomes. In these arrangements, children are often less inhibited than in a potentially "intimidating" whole class situation, so are more willing to speak without to fear of making possible mistakes. In these scenarios, staff generally circulates among the

groups, monitoring and providing support and encouragement as necessary.

Instead of creating artificial language teaching materials that usually make students bored, language teachers can use real life items in the classroom in a way similar to the one they were designed for.

So, if you study travelling issues you may engage your students to explore the life insurance booklet or air tickets that you saved from your summer trip and build your lesson based on these, integrating needed grammar and vocabulary. If you use authentic sources, it creates greater interest and variety in the material that learners deal with the classroom. Authentic materials extended language learning to life, and ensures that learning is more meaningful, and , consequently easy for students.

While teaching we can explain new vocabulary with real objects , when using realia the interaction becomes higher than when I show the pictures or slides of this kind. You can demonstrate other topics with real objects, such as when we study the five senses such as sight, hearing, taste, smell and touch. In order to check the taste we can give to pupils sweets with various taste and pupils should eat them with closed eyes and they try to guess the taste or in order to check tactile ability we will use long socks with different objects in them and their task is to recognize the objects though touching.

It is actually difficult to say which teaching method is effective unless used in a classroom of students with different need, learning experience, intellectual levels, cultural background and attitude towards learning English as a second language. Sometimes more than one method is used to bring out the desired results in the language classroom where communication becomes the key factor of teaching-learning process. Unless students learn to utilize the classroom method to express thoughts and feelings outside into the real world situations, the learning cannot be successful no matter whatever teaching method is applied in English as a second language classroom. Teacher-student role becomes the Centre in bringing out the maximum within the limited time in a classroom.

6-SINF INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL O‘RGANISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASHQLARI VA IJODIY ISHLASHGA O‘RGATISH

Xorazm viloyati Urganch tumani
24-sonli maktabning ingliz tili o‘qituvchisi
Abdullayeva Muborak Polatjonovna
97-527-19-95

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-sinf ingliz tili darslarida mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish mashqlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’lumot almashinuv mashqlari, eslatmalar, ijodiy ish**.**

Annotation: This article provides information about exercises for developing self-studying in English lessons for 6th grades.

Key words: Information exchange exercises, reminders, creative work.

Darsliklarda mualliflar mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida turli-tuman mashqlarni kiritishga harakat qildilar. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ishlash turlichadir. U lug‘at, jadvallardan foydalanish, o‘ziga qayd qilib qo‘yish, harflarning o‘qilish qoidalariga murojaat qilish, Grammatik ma’lumotlardan foydalanish kabilarni o‘z ichiga oladi. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish mashqlari o‘quvchilarga amaliy ishlash usullarini o‘rgatadi va ularni mustaqil ishlashga tayyorlaydi. **Ma’lumot almashinuv mashqlari (Information gap)** Ma’lumot almashinuv mashqlari bevosita muloqotni og‘zaki nutqni rivojlantirishga hizmat qiladi.Haqiqiy hayotda kimningdir bizdan nimani so‘ramoqchi ekanligini yoki kimningdir qanday javob berishini biz aniq bilmaymiz. Ma’lumot almashinuv mashqlarida o‘quvchilar so‘rash va javob berish orqali ma’lumot almashishlari kerak bo‘ladi. Faqatgina muvaffaqiyatli ma’lumot orqaligina ular kerakli ma’lumotlardan foydalanib vazifani bajarishadi.

O‘quvchilar o‘zlaridagi ma’lumotlarni bir-biriga ko‘rsatmasliklari juda muhim. Bir-biriga o‘z ma’lumotini ko‘rsatmasliklarini ta’minlash maqsadida bu mashq odatda darslikning ikki joyida berilgan holda qismlarga bo‘linadi, **A** o‘quvchi o‘z qismida yo‘q ma’lumot, rasmlardagi o‘xshashlik, farq va boshqalar to‘g‘risida savollar so‘raydi. **B** o‘quvchi **A** o‘quvchining savollariga o‘z qismida berilgan ma’lumotga ko‘ra javob beradi.So‘ngra **B** o‘quvchi **A** o‘quvchidan savol so‘raydi. **Eslatmalar(Remember Boxes)** Bular darslik sahifalarining quyi qismida joylashgan bo‘lib yangi til materialini o‘zida mujassamlashtirgan. Ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars maqsadini tezda ilg‘ab olishlariga o‘ng‘ay. Yangi til yoki qurilmani tanishtirishdan oldin yoki keyin o‘qituvchilarga o‘quvchilarning e’tiborini eslatmadagi misollarga qaratishi tavsiya etiladi.

Ijodiy ish: Ijodiy ish bu kursning muhim qismidir. U har bir bo‘limdagi yakuniy dars bo‘lib, oldingi beshta darsda o‘rganilgan bilimga asoslangan. Ijodiy ish o‘quvchilarga o‘z bilimi darajasida ishlashga imkon beradi. Vazifani bajarish davomida kuchli o‘quvchilar ko‘proq va murakkabroq, o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar esa qisqa va oddiy ishlarni bajaradi. Ijodiy ish davomida o‘quvchilar yozish jarayoniga tortiladi. Bunda ular mavzu yuzasidan fikrlar, qaydlar yozadilar. Ijodiy ishlarni har doim bir xil guruhlarda tashkil etish maqsadga muvofiq, chunki o‘quvchilar bir-biri bilan muntazam hamkorlikda ish olib borishadi. O‘qituvchi uchun ijodiy ish darslari yuzasidan batafsil uslubiy tavsiya “ Oqituvchi uchun metodik qo‘llanma ” da berildi. Ijodiy ish davomida tayyorlangan plakatlardan ota-onalarga bolalarning ingliz tilini qay darajada o‘zlashtirayotganliklarini ko‘rsatish uchun ham foydalanishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

12. Ingliz tilidan metodik qo‘llanma
13. Ingliz tilidan ma’ruzalar matni

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH.

Abdurahimova Mashrabxon Mahmudovna.
Farg'ona shahar Chet tillarini o'qitishga ixtisoslashtirilgan
davlat umumta'lim maktab – internati
ona tili va adabiyot o'qituvchisi.
Tel:+998907757888

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida foydalaniladigan interfaol usullar va ularning mazmun mohiyati izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy uslub, so'zlashuv uslubi, bilim, ko'nikma, malaka, "Idrok xaritasi", "Mazmun va mohiyat" metodlari.

Barchamizga ma'lumki, ona tili va adabiyot fani ta'lim tizimining poydevori bo'lib, o'quvchilarning boshqa fanlarni o'zlashtirishi unga bog'liq bo'ladi va ona tili o'qituvchisi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm – fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm – fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Boshqa xorijiy tilni yaxshi o'rganmoqchi bo'lgan kishi avvalo, o'z ona tilini mukammal bilishi, e'zozlashi, qadrlashi lozim.

Shunday ekan, o'z tilini mukammal bilgan kishi boshqa xorijiy tillarni o'rganishga kirishishi tabiiy hol. Buning uchun ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'z darslarida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib, o'quvchilarning fanga va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishi lozim. Ona tili va adabiyot o'qituvchisining mahorati o'z o'quvchilarini ta'lim jarayoniga faol ravishda jalb qila olish darajasi va ularning mustaqil aqliy va amaliy darslarini to'g'ri tashkil qilishi bilan belgilanadi. Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlashi hech kimga sir emas. O'qitish jarayonida noan'anaviy ta'lim usullaridan: "Aqliy hujum", "Debat", "Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul", "Klaster", "Muammoli vaziyat", "Idrok xaritasi", "Mazmun va mohiyat", "Izohli test" usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda o'quv materiallarini bayon qilish emas, balki, o'quvchilarning faol ijodiy ishlashini tashkil qila olish muhimdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bolalar ko'proq eshitganidan ko'ra, ko'rganiga ishonishadi. Demak, biz o'qituvchilarning vazifamiz faqat aytib o'tish yoki ta'kidlash emas, balki aytganlarimizni ko'rsatib ham berishimiz lozim. O'z tajribamdan kelib chiqib, ona tili va adabiyot darslarida quyidagi interfaol usullardan foydalanishni tavsiya etaman:

"Idrok xaritasi" metodi. Bu usul ona tili va adabiyot darslarida har bir bo'limni o'tayotgan vaqtimizda katta samara beradi. Bundan tashqari takrorlash darslarida ham bu metoddan to'liq foydalanish lozim. Bu metod o'quvchilarda tasavvur qilish va fikrlarni tizimlashtirish, o'tilayotgan mavzudagi bosh g'oyalar yoki asosiy tushunchalarni izohlashga yordam beradi.

"Mazmun va mohiyat" usuli. Bu usulni ona tili va adabiyot darslarida o'tilgan mavzuni nazorat qilishda yoki yangi mavzuni mustahkamlashda qo'llash mumkin. Bu usulni amalga oshirishning afzalligi shundaki, sinfdagi har bir o'quvchining ishtiroki ta'minlanadi. Mazmun, ya'ni tayanch tushuncha o'qituvchi tomonidan beriladi. Bunda ko'rgazmadan yoki

monitordan foydalanish mumkin. Mohiyat esa, sinf o‘quvchilari tomonidan ochib beriladi. Masalan, 10 sinfda ona tili darsida “Uslublar” mavzusini o‘tishda bu usul qo‘l keladi. Dastlab, mazmun beriladi.

1-guruh. So‘zlashuv uslubi.

2-guruh. Publitsistik uslub.

3-guruh. Badiiy uslub.

So‘ngra, mohiyat izohlanadi, har bir guruh o‘z rejasiga doir ma’lumot beradi, bergan ma’lumotlarini misollar orqali izohlaydi. Guruhlardagi har bir o‘quvchi aniq, lo‘nda ma’lumot aytadi, bunda tezkorlik bilan ish ko‘rish talab etiladi.

Adabiyot darslarida ham bu usulni qo‘llash yaxshi samara beradi. Masalan, 10-sinfda berilgan “Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi” mavzusini o‘tishda bu usuldan foydalanish mumkin. Mazmun beriladi.

1-guruh. Boburning yoshlik yillari.

2-guruh. Shoh va shoirning faoliyati.

3-guruh. Boburning ijodi.

Mohiyat bosqichida har bir guruh o‘z rejasini izohlab beradi. Bu usulni qo‘llash uchun oldindan o‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan tayyorlanib kelish topshirig‘i beriladi. Bu usul orqali o‘quvchilarda izlanuvchanlik, yangi mavzuni o‘rganish uchun qiziquvchanlik sifatlari shakllantiriladi. “Mazmun va mohiyat” usulini qo‘llashdan kutiladigan natija:

O‘quvchilarning tashabbuskorligi ortadi;

O‘quvchilar mavzu yuzasidan keng ko‘lamli tushuncha va ma’lumotlarga ega bo‘ladi;

Darsda har bir o‘quvchining ishtiroki ta’minlanadi;

Yangi mavzuga o‘quvchilar oldindan tayyorlanib, ma’lumotlar yig‘ishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, ularni mustaqil bilim olishga undaydi va dars samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. G‘afurov. Ona tili o‘qitish prinsplari va metodlari. T. O‘qituvchi. 1992
2. Mengliyev B. Xoliyorov O‘. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. T- 2013

MAKTABDA ONA TILI FANINI O‘QITISHDA YANGI INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH VA BUNDA DARSLIKLARNING O‘RNI

D.Ahmadjonova
Namangan viloyati, Mingbuloq tumanidagi
38-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Telefon: +998993978901
dilrabo ahmadjonova318@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda ona tili fanini o‘qitishda yangi innovatsiyalardan va tilni o‘qitishdagi chet el tajribalaridan foydalanish, darslarda xalqaro baholash shakllaridan foydalanish ona tili ta‘limida ham o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, IELTS, PISA, grammatika, integratsiya, xalqaro baholash tizimi.

Filologiya fanlari, barchamizga ma‘lumki, til sohasi hisoblanadi. Maktablarda rus tili, ingliz tili, fransuz tili va shu kabi xorijiy tillarni o‘rgatuvchi fanlarda asosiy, birlamchi e‘tibor xorijiy tillarning lug‘at tarkibi, grammatikasini o‘rgatishga qaratilgan bo‘ladi. Ana shu ko‘nikmalarga ega bo‘lgandan keyingina o‘quvchi bu tilda ravon, nuqsonsiz so‘zlay olish malakalarini shakllantirib boradi.

Filologiya fanlari ichida yana bir til borki, bu ham bo‘lsa o‘quvchiga tanish bo‘lgan o‘z ona tilidir. Biz bu maqolamizda maktablarda ona tilini o‘qitishda ayrim innovatsion yondashuvlarni o‘rtoqlashmoqchimiz.

Barchamizga ma‘lumki, maktablarda ona tili fani 1-sinfdan boshlab to 11-sinfga qadar o‘qitiladi.Vaholangki, o‘quvchi maktabga kelgunga qadar bu tilni o‘zlashtirgan, bu tilda bemalol so‘zlasha oladi. Fanni o‘qitishdan maqsad o‘quvchi o‘z ona tilida ravon so‘zlash, mustaqil fikrlash, o‘z mustaqil fikrini bayon qila olish, nutq madaniyatiga ega bo‘lish va kundalik hayotda undan to‘laqonli foydalana olishi nazarda tutiladi. Ona tili fanining asosiy maqsadi o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish, o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish malakalarini hosil qilishdir.

Ona tilini o‘rgatish, albatta, til fanining turli sohalariga oid qoidalarni o‘rgatish bilan boshlanadi. Bular asta-sekin pastdan yuqoriga qarab murakkablashib boradi. Bu esa o‘quvchini fandan biroz uzoqlashtiradi. Ona tili o‘qituvchilarining oldida bir soat dars jarayonida qator vazifalar ko‘ndalang turadi:

-o‘quvchida nutq madaniyatini shakllantirish;
-mustaqil fikrlashga o‘rgatish;
-o‘quvchini husnixat bilan yozishiga erishish;
-uy vazifalari tahlili;
-o‘tilgan mavzuga oid bilimlarni takrorlash;
-darslikda berilgan yangi mavzuni o‘quvchiga tushuntirish;
-mavzuni qay darajada o‘quvchilar o‘zlashtirganini sinash;
-darslikda berilgan mashqlarni o‘quvchilar bilan birgalikda bajarish;

Albatta, bularning barchasi kerak. Qirq besh daqiqada o‘qituvchi barchasiga ulgirishga harakat qiladi.

Ko‘p yillar ona tili fanidan yuqori sinf o‘quvchilariga dars berish jarayonida ayrim xulosalarga keldim. Hozirgi ona tili darsliklarini qisman o‘zgartirib, yuqori natijalarga erishish mumkin.

Amaldagi 6-sinf ona tili darsligiga e‘tibor bersak, uy vazifasi sifatida, asosan, o‘quvchiga

Bu borada o'tib borayotgan joriy yil davomida bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha, faol tadbirkorlikni, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yuzasidan Dasturda belgilangan vazifalarning bajarilib kelinayotgani, og'ir ijtimoiy sharoitdagi xotin- qizlarga, nogironlarga, kam ta'minlangan oilalarga, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan onalarga, uy - joyga muhtoj oilalarni arzon uy- joylar bilan ta'minlab, bolalar va o'smirlarni adabiyotlar bilan ta'minlashlarida qator ishlarning amalga oshirilayotgani bu tom ma'noda yuqorida nomma - nom sanab, sharhlab o'tilgan Qonun hujjatlariga asoslangan ularning amaliy ijrosidir.

Ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimining yangi soha sifatida viloyatimizda boshqarmasi tashkil etilib, ushbu sohaning ham qonunlarda ko'rsatilgan yangi Nizomda belgilangan tartib bo'yicha olib borilayotganligi barchaga ma'qul kelmoqda.

O'rta ta'lim maktablarida ham bunday rivojlanishlar, yangiliklar yaratishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shunga asoslangan holda boshlang'ich sinf o'qituvchisi Davlat ta'lim standarti bo'yicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko'nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Shu boisdan ham boshlang'ich sinflar o'quv jarayonidagi bir xillikka barham berish dars jarayonini turli - tumanligini, rang - barangligini ta'minlash maqsadida ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng joriy etishga mo'ljallangan o'quv - metodik qo'llanmalarni yaratish va tadbiq qilish davr talabidir. Shu bilan birga dars jarayonida maxsus tayyorlangan multimediali ilovalardan, videolavhalardan, turli animatsion materiallardan foydalanib o'quv jarayoni tashkil qilinganda, o'quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va tez tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, dars davomida o'quvchilar charchab qolmasligi va zerikmasliklari uchun musiqali dam olish daqiqalari ham tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Xuddi

shunday, boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida didaktik o‘yin va boshqotirmalardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘quv jarayonini axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda shakllantirish o‘qituvchidan o‘quvchiga o‘qituvchining ishtirokisiz mustaqil holda amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan elementlarni, didaktik materiallarni berish uzluksiz tarzda ketma - ket kechadigan jarayondir. Boshlang‘ich sinflarda kompyuterli o‘qitish - predmetlar muhitini elementlarini o‘zgartiruvchi va boyituvchi sifatida qarladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida aynan bunday yoshda bolaning aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechadi, uning intellektual salohiyatini rivojlanishi uchun fundament yaratiladi.

Davlatimiz rahbarining ta’sis etgan siyosatlarining, viloyatimizda amaliy ijrosining ta’mini sifatida hammasi, bolajonlar va yoshlarimizning ertangi kamolotlari uchun xizmat qilayotganligining e’tirof etilishidir. Albatta bu kabi innovatsion g‘oyalarni tadbiq qilish, tadbirlar o‘tkazilib kelinayotganligi olijanob ishlar sirasiga kirgizilib, zero kelajagi porloq O‘zbekistonimizga faqat va faqat birlashish, ribojlanish va taraqqiyot yarashadi desak, hech ham xato gapirmagan hisoblanib, yuksalib borayotgan hur diyorimizda bayramlar izidan bayramlar bo‘laversin, biz kattalar esa bolalar, yoshlar va umumxalqimiz koriga yarashdek baxtlarga erishsakkina, oldimizda turgan o‘z burch va mas’uliyatlarimizni bajargan hisoblanamiz!

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. “ Boshlang‘ich ta’lim “ jurnali.
2. “ Ma’rifat” jurnali.
3. “ Boshlang‘ich sinflar metodikasi” o‘quv qo‘llanma.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

Namangan viloyat, To‘raqorg‘on tumani
46 maktab ona-tili va adabiyot o‘qituvchisi
Qoraboyeva Rayhonoy Borijonovna,
tel:937763849.

Annotatsiya: Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalar qo‘llanganda, o‘quvchilar qiziqishining ortishiga, bilimlarning ko‘nikmaga aylanishiga, bilim sifat-samaradorligining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, rivojlantiruvchi ta’lim

Hozirgi zamon ta’limining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchi shaxsini rivojlantirishdir. Rivojlantiruvchi ta’lim ma’lum bir vaqtda, o‘quvchining ta’limiy, tarbiyaviy, ma’naviy, ruhiy va jismoniy rivojlantirish hamda uni tez o‘zgaruvchan dunyoda jamiyatga, hayotga moslashuvini ta’minlovchi ta’lim nazariyasi hisoblanadi. O‘z kelajagini o‘ylagan har bir davlat jamiyat hayotidagi shaxsga taalluqli barcha ijtimoiy ta’sirlarni insonning rivojlanishi uchun, uning o‘zligini anglashi va namoyon qila olishi uchun maqsadli ravishda yo‘naltira olgan bo‘lishi kerak. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalar qo‘llanganda, o‘quvchilar qiziqishining ortishiga, bilimlarning ko‘nikmaga aylanishiga, bilim sifat-samaradorligining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy ta’limning ayrim texnologiya va usullari:

Texnologiyalar	Usullar
“Bumerang”	“Aqliy hujum”
“FSMU”	“Guruhlarda ishlash”
“Venn” diagrammasi	“Rolli o‘yin”
“Baliq skleti”	“Ishbilarmonlik o‘yini”
“Elpig‘ich”	“Refleksiya”
“Zanjir”	“Taqdimot”
“Zinama-zina”	“Galereya”
“6x6x6”	“T jadval”
Texnologiyalar	Usullar
“Bumerang”	“Aqliy hujum”
“FSMU”	“Guruhlarda ishlash”

“IKKI QISMLI KUNDALIK” TEXNOLOGIYaSI - bu pedagogik texnologiya bo‘lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o‘qib chiqilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga imkon beradi.

Maqsad: o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otish, yozma nutqni rivojlantirish.

O‘tkazish bosqichlari:

1-bosqich. O‘quvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan matn o‘qish uchun taklif etiladi.

2-bosqich. Hamma matn bilan tanishganiga ishonch xosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lish so‘raladi.

3-bosqich. O‘quvchilarga, daftarni chap tomoniga muallif tsitatalar (g‘oyalari, fikrlari)ni yoqqanlarini (yoki yoqmaganlarini) yozishlari aytiladi.

4-bosqich. O‘ng tomonga o‘quvchi mazkur tsitataga berilgan o‘zini izohini yozadi, ya’ni o‘qilgan matn haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi.

5-bosqich. Topshiriqni shu qismi tugagandan keyin o‘quvchilarga (o‘z xohishiga ko‘ra) bittadan tsitatalarni va ularga yozilgan izohni o‘qish taklif etiladi. TSitata va ularning izohi o‘qilayotganda savol berish yoki mazkur tsitataga o‘z izohini berishga ruxsat etiladi.

6-bosqich. O‘quvchilar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlar) bo‘lib ham ishlashlari mumkin.

Namuna: Adabiyot darsi 5-sinf o‘quv dasturida berilgan Oybekning “O‘zbekiston” she’rini o‘tishda “Ikki qismli kundalik” texnologiyasi asosida she’rning mohiyatini oddiy yo‘llar bilan o‘quvchiga yetkazishi mumkin.

Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi,
Bir o‘lkaki, qishlarida shivillar bahor
Bir o‘lkaki, sal ko‘rmasa, quyosh sog‘inar…
Bir o‘lkaki, g‘ayratidan asabi chaqnar.

Yuqorida keltirilgan bosqichlar asosida ish yuritiladi, o‘quvchilar 2 bosqichga ko‘ra, daftarlarini vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lib, 3 bosqichga ko‘ra chap tomoniga muallif g‘oyalari-tuprog‘ida oltin gullaydi, qishlarda shivirlar bahor kabi so‘zlarni yozishlari aytiladi. 4-bosqichga ko‘ra, o‘ng tomonga o‘quvchi mazkur so‘zlar izohini yozadi, ya’ni o‘qilgan she’r haqidagi fikrlarini umumlashtirib aytadi. Bunda o‘quvchilar guruh bo‘lib ishlashlari ham mumkin. O‘quvchilarning faoliyati o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi kerak. Chunki o‘quvchining fikrlash olami va vatanini bilish, o‘zligini kashf etish borasida o‘zlaricha fikr yuritadilar, taxlil qiladilar, munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o‘quvchining ish quroli darslik sanaladi. SHe’r mazmunini yaxshi tushungan o‘quvchilar she’rni oson yodlashga erishadi.

“ZINAMA-ZINA” TEXNOLOGIYASI – bu texnologiyani o‘tkazish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga rangli kartochkalar yordamida teng sonli kichik guruhlarga ajratadi. Har bir kichik guruh uchun sardorlar tayyorlanadi. Sardorlar mavzu savollarini olib, o‘quvchilarga birma-bir berib boradi. Agar guruh 6 ta o‘quvchidan tashkil topgan bo‘lsa, har bir o‘quvchi savolga javob berishi lozim. Savollar guruh sardorlari tomonidan o‘quvchilarning javoblarini nozorat qilinadi. O‘quvchilar har bir to‘g‘ri javob uchun bir balldan to‘plab jami 5 ballgacha ball to‘plashi mumkin. SHundan so‘ng, o‘qituvchi o‘quvchilarning to‘plagan baliga qarab qayta guruhlaydi. Har bir guruh o‘zlarining iqtidoriga qarab turli xildagi topshiriqlarni beradi. O‘quvchilar bu topshiriqlarni bajarib bo‘lgandan so‘ng, o‘zaro savol javob o‘tkazadilar har bir guruh o‘z topshiriqlarini ko‘rgazmali qurollar asosida bayon etadi. Topshiriqni mukammal bajargan kichik guruhlarda g‘oliblar aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.

ВЛИЯНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ВОЗРАСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА ОВЛАДЕНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Турсунова Ойгул Ибрагимовна,
учитель русского языка и литературы
общеобразовательной школы №5
Карманинского района Наваийской области

Аннотация: Сегодня знание иностранных языков уже не роскошь, а необходимость, возможностей для их изучения предостаточно, не говоря уже о методиках преподавания. В данной статье излагается о влиянии психологических и возрастных особенностей младших школьников на овладение иностранного языка.

Ключевые слова и понятия: психология, закономерности психического отражения, развитие ребенка, двуязычное окружение, механизм овладения языком, психологическая ситуация, необходимость играть, психофизиологические возрастные особенности детей.

Определенное содержание обучения иностранному языку невозможно без обращения к психологии - науке о закономерностях психического отражения действительности в сознании человека, исследующей душевные свойства, мыслительную деятельность и состояние индивида в зависимости от условий, в которых они появляются. Психология занимается строением деятельности человека и ее формированием.

При обучении детей иностранному языку необходимо помнить, что «психолого-педагогическая концепция, на которой строилось обучение иностранным языкам в разных странах, основывалась на существовавшей до недавнего времени теории усвоения ребенком языка. Согласно этой теории ребенок овладевает языком в результате подражания речи взрослых, имитативным путем без целенаправленного обучения. Иными словами, никто не расчленяет для ребенка поток речи на единицы усвоения, не дозирует речевые образцы, не выстраивает их в определенную последовательность, не объясняет правил грамматики - и, тем не менее, нормально развивающийся ребенок к пяти-шести годам уже настолько овладевает этой сложнейшей грамматикой, что строит самостоятельные высказывания, успешно решая коммуникативные задачи, а к семи-восьми в речи ребенка появляются сложные предложения, тексты значительной длины». И вторым языком согласно этой теории ребенок овладевает так же как первым, - спонтанно, без вычленения правил, благодаря необыкновенной способности к имитации, которая утрачивается с годами.

Доказательство - развитие ребенка в двуязычном окружении. Но имитация не является основным механизмом овладения языком в детстве - возможность самостоятельного построения высказывания достигается за счет огромной (разумеется, неосознанной) аналитической работы ребенка, которые не столько имитирует, сколько расчленяет и обобщает все, что видит и слышит и выводит системы правил, которые определяют выражение индивидуальных мыслей, интенций ребенка. «Все дети независимо от конкретных особенностей родного языка (а такие материалы получены на основе более чем 40 языков различных систем) проходят этап так называемой сверхгенерализации. Образования типа «ребенки», «зажгала свет», «у рыбов нет зубов» в речи русских детей, «corned» «goed», «footies» в речи малень-

ких носителей английского языка – все это говорит о том, что ребенок открыл правило («вот так надо делать, когда много») и желает действовать вместе с этим обобщенным правилом.

Иногда говорят, что ребенок действует по аналогии, но что это такое и какова психологическая природа действий по аналогии? «Всякая аналогия – как утверждал выдающийся психолог А.Р. Лурия, - предполагает обобщение». Но в конце концов какая разница, по каким механизмам происходит овладение языком в детстве? Если этим овладением управляют бессознательные обобщающие процессы, может быть они включаются при столкновении ребенка со вторым иностранным языком? Ответ на этот вопрос становится ясным, если мы представим психологический фон овладения родным языком. Какой двигатель «запускает» процессы, заставляющие ребенка из всех звуков, которые он слышит вокруг вычленить как значимые только фонематические, смыслоразличительные противопоставления системы родного языка? Почему маленькие дети за короткое время запоминают сотни слов?

Дело в том, что аналогичная психологическая ситуация возникает в случае, когда английский язык выполняет в жизни ребенка те же социальные функции, что и первый, например, необходимость играть с иноязычным партнером, общаться с бабушкой, которая говорит на английском языке и т.д.

В таких условиях ребенок действительно быстрее и успешнее взрослого научится говорить на английском языке и существует мнение, что усвоенное в детстве усваивается навсегда. Но стоит чуть сузить сферу иноязычного общения, как исчезают навыки и умения иноязычного общения, которыми ребенок успешно оперировал, а с исчезновением этой сферы на продолжительное время эти навыки редуцируются практически до нуля. Результатами исследования овладения вторым языком в детстве и анализ существующей практики обучения позволяет выдвинуть новые требования к построению обучения у школьников начальной школы иностранным языкам.

Все исследования подтверждают, что обучение должно быть ориентированно на психофизиологические возрастные особенности детей.

Было показано, что специальные занятия можно проводить с трех до десяти лет, до трех бессмысленно, после десяти - бесполезно надеяться на положительный результат, который возможен лишь для незначительной части учеников, тех, кто обладает коммуникативными и лингвистическими способностями выше среднего уровня. Лучше всего начинать обучение с 6-7 лет, когда система родного языка ребенком уже достаточно хорошо освоена, а к новому языку он относится сознательно. Именно в этом возрасте еще мало штампов речевого поведения, легко по-новому «кодировать» свои мысли, нет больших трудностей при вступлении в контакт на иностранном языке. Если методическая система построена достаточно грамотно с лингводидактической и психолингвистической точек зрения, то успех в овладении предлагаемым ограниченным языковым материалом и создание необходимых предпосылок для дальнейшего освоения любого иностранного языка обеспечены практически всем детям.

Поскольку раннее обучение приносит отдаленные положительные результаты, то лучше сделать его относительно дешевым. Ответственность за это также несут создатели методики обучения иностранному языку на начальном этапе.

Таким образом, обучение иностранному языку в раннем возрасте - это не мода, а необходимость. Необходимость, воспитывающая совершенно иное отношение к языку. Все это зависит в первую очередь от того, на каком уровне, с какими целями и с каким отношением ребенку это преподносит преподаватель. В раннем возрасте 6-7 лет, ребенка необходимо заинтересовать нововведением, только в этом случае можно будет добиться самых положительных результатов в обучении иностранному языку.

Список литературы:

1. Амонашвили Ш.А. Психологические особенности усвоения второго языка школьниками. Иностранная литература в школе. - №2, М.: 1996. -С. 52.
2. Кувшинкин В.И. Методика обучения иностранному языку. - М.:Просв., 2000.-С. 250.
3. Лурия А.Р. Обучение иностранному языку в начальной школе. - М.:1999.-С. 29.

ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ORQALI MA’NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA IMKONIYATLARI

Наманган вилояти, Наманган шахри
58-ДИУМ она тили ва адабиёти фани
укитувчиси Уринова Сайёра Холмирзаевна
тел.раками :91180581

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma’naviyatini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ma’naviy-ahloqiy tarbiyasini shakllantirishga erishish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, axborot texnologiyalari, rivojlantirish, shakllantirish, ta’lim texnologiyalari, o‘quvchi ma’naviyati.

Axborot — kommunikatsion texnologiyalari barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham izchillik bilan kirib kelmoqda. Jumladan, axborotlashtirilgan multimediali ta’lim texnologiyalarini boshlang‘ich ta‘limga joriy etish orqali o‘tiladigan fanlar mazmunini o‘quvchilar ongiga to‘liq va mukammal ravishda singdirish, innovatsion vositalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari boshlang‘ich ta’limda multimedia vositalaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos afzalliklari ham bor. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

— ta’limda ko‘rgazmalilik eng asosiy o‘rinlardan birini egallaydi;

— o‘quvchini izlanishga undaydi;

— o‘quvchi ta’lim jarayonini bir vaqtning o‘zida ko‘radi, uni eshitadi, o‘quvchilarga kengroq qamrovdagi va kattaroq hajmdagi materiallarni tezroq yetkazib beriladi;

— o‘quvchi tafakkurini faollashtiradi;

— mashg‘ulotlarni jonli va muloqotli tarzda olib borishga imkoniyat tug‘iladi;

— o‘z-o‘zini namoyish etish imkoniyatini beradi, ta’lim mazmunini yoritishda animatsiyalardan foydalanishning keng imkoniyatlari yaratiladi.

Shuning bilan birga, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning va o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy tarbiyasi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, shu orqali jamiyat ma’naviyatini shakllantirishga erishish mumkin. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsion vositalaridan foydalanish jarayonida o‘quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirib, uni mustahkamlab borish lozim. Boshlang‘ich ta’limda ona tili fani mazmuniga Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur, an’ana va milliy qadriyatlarimizni o‘quvchilar ongiga singdirish hamda muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, saranjom-sarishtalik, odobli, mehnatsevar bo‘lish kabi insoniy sifatlarni shakllantirib borish lozim. O‘quvchilarga ma’naviy tarbiya berishni quyidagi uch yo‘nalishda olib borgan ma’qul:

1. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishga ijobiy ta’sirlar.
2. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishga salbiy ta’sirlar va ularni bartaraf etish.
3. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishning multimediali ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va undan amaliyotda keng foydalanishga erishish.

Shuningdek, multimedia usuli ta’lim samaradorligini oshirishda quyidagi ta’limiy va tarbiyaviy afzalliklarga ega: axborotning xilma-xilligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi; “Inson — kompyuter” interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng bo‘ladi va undan har tomonlama axborotlarni oladi; o‘quvchilar tafakkurini faollashtiradi; turli fikr va mulohazalarga

diqqatni jalb qilishni o‘rganadi; yangi fikr-mulohazani bildirishga va o‘zlashtirishga ruhan tayyor bo‘ladi.

Donishmandlarimiz aytganidek: “O‘qitish — ikki barobar o‘qish demakdir”. Demak, har bir o‘qituvchi-murabbiy bu o‘gitga amal qilar ekan, aslo kam bo‘lmaydi. Eng katta farq esa hozirgi kun o‘qituvchisining ish faoliyati innovatsion axborot texnologiya dunyosi, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni borligida.O‘qituvchilik kasbining qator mas’uliyatlarini sanab o‘tish mumkin. Bular qatoriga bola ruhiyatini o‘rganish, undagi salbiy jihatlarga qarshi kurasha olish, o‘quvchilari qalbida o‘z faniga qiziqish uyg‘otish barobarida Vatanga, oilaga, ota-onaga, do‘stlariga nisbatan mehr-muhabbatli qila olish, har bir o‘quvchining oilaviy sharoitini o‘rganib, otaonasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabilarni kiritish mumkin.

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi har bir inson uchun hayotda bilishi shart hisoblangan to‘g‘ri so‘zlash, ifodali o‘qish, o‘z fikrini mustaqil bildira olish, og‘zaki va yozma nutq hamda savodxonlikning imkon qadar yuqori darajasini egallashlarida ko‘prik vazifasini bajaradi. Bu ham uning zimmasidagi mas’uliyatning bir ko‘rinishidir.

Ta’lim mazmunini boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishda pedagogik omillarni ham ko‘plab topsa bo‘ladi. Ular ta’lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga mustahkam didaktik asos bo‘la oladi va ularni ta’lim mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o‘ziga xos innovatsion jarayon bo‘lib, bunda o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. — T.: RTM, 2000. — 46 b.

2. G‘ulomova M. X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o‘quv jarayonida (tezislar to‘plami). — T.: 2009. — 106 b.

О МЕТОДИЧЕСКИХ ПРИЁМАХ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ РЕАЛИЗАЦИЮ МЕТОДА ТВОРЧЕСКОГО ЧТЕНИЯ

Умерова Дилфуза Турабовна,
учитель русского языка и литературы
общеобразовательной школы №9
Канимехского района Навоийской области

Аннотация: В данной статье излагается методические приёмы, обеспечивающие реализацию метода творческого чтения, о совершенствовании образовательной деятельности в аспекте приобщения учащихся к чтению.

Ключевые слова и понятия: читательская культура, развитие технологий и инноваций, чтение, общечеловеческие ценности, книги, творческое чтение, современная библиотека, информация, читательские потребности.

Понятие читательской культуры довольно многозначно и допускает различные трактовки. С движением общества вперед, с развитием технологий и инноваций, отношение к «великому и могучему русскому языку» совсем не должное, а подчас - безответственное. Самобытный язык нашего народа, отточенный, красивый, богатый, язык русских писателей и поэтов испытывает трудные времена. Большую опасность представляет снижение интереса населения к чтению, следствием чего является дальнейшая деградация современного русского языка, утрата общечеловеческих ценностей, исключение книги как мощного транслятора знаний и жизненного опыта.

Читательские предпочтения школьников убеждают в возрастающей значимости влияния семьи, дома на развитие личности ученика. Не следует забывать о влиянии книжного рынка и языка телевидения на характер восприятия литературы и переработку художественной информации. Налицо и позитивные, и негативные тенденции. Поэтому многие учителя озабочены преодолением разрыва между изучением литературы под руководством преподавателя и самостоятельным чтением ученика.

Совершенствование образовательной деятельности в аспекте приобщения учащихся к чтению должно проходить в рамках обязательных учебных предметов, внеклассной работы, самообразовательной деятельности учащихся с учетом принципа социо-культуросообразности и практико-ориентированности; учитывать принципы интерактивности, рефлексивности, позволяющие учащимся самим выстраивать свои образовательные траектории и преобразовывать информацию общего характера в личное знание.

В системе методов Н.И.Кудряшева назван метод творческого чтения. Целью его является активизация художественного восприятия и в начале изучения произведения, и после анализа. Методические приемы, обеспечивающие реализацию метода творческого чтения: выразительное чтение, комментированное чтение, беседа, творческие задания по личным впечатлениям, постановка на уроке учебной проблемы. Виды учебной деятельности школьников: чтение, заучивание, слушание, составление планов, рассказывание, создание отзывов, рассматривание иллюстраций. В целом речь идет о первой ступени в логике познания литературы.

Со следующей ступенью в логике познавательной деятельности связан эвристический метод. Более углубленный анализ текста неизбежно связывается с изучением элементов науки о литературе. Расширяется содержание изучаемого материала, идет поиск разрешения проблем. Данный метод чаще всего осуществляется в эвристической беседе. Приемы: построение логически четкой системы вопросов, что поможет

осуществить самостоятельное добывание знаний, построение системы заданий по тексту, постановка проблем. Виды деятельности: подбор материала из художественного произведения, пересказ с элементами анализа текста, анализ эпизода, анализ образа-персонажа, составление плана к выступлению, к сочинению, постановка проблемы.

Большое значение для поддержки и развития чтения имеет школьная библиотека, которая должна превратиться в территорию гостеприимного пространства для интеллектуально-досуговой деятельности с современным дизайном, удобным временем обслуживания. Современная библиотека должна представить юным читателям информационное пространство в упорядоченном виде и научить пользоваться его информационными ресурсами.

Библиотека, привлекая учащихся к чтению и предоставляя доступ к жизненно важной информации, способствует интеграции в социокультурную среду и повышению уровня социальной защищенности формирующейся личности.

В настоящее время крупные библиотеки проводят различные исследования, которые дают полное представления о читательском облике и состоянии читателя. В итоге собираются обширные данные о диагнозе читательских потребностей, о мотивах обращения с изданиями, проследить основные тенденции чтения типичные для современного этапа культурного уровня.

Литература:

1. Бабаева З.С., Назарова Ш.И. УМК «Методика преподавания русского языка и литературного чтения». – Т., 2017
2. Белоногов Г.Г. Компьютерная лингвистика и перспективные информационные технологии. – М.: Русский мир, 2004
3. Магдиева С.С. Современные технологии преподавания литературы. -Т., Фан ва технология. 2012. –137с.

O‘ZBEK TILNING LUG‘AT BOYLIGI.

Yunusova Muqaddam O‘ktamovna
Farg‘ona shahar 21-IDUM
davlat fani o‘qituvchisi
tel: 93-649-46-61
e-mail:yunusova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada lugatning o‘zbek tili uchun ahamiyati, o‘zbek tilida lug‘atlarning o‘rni va qo‘llanilishi, termin va terminoligiya xususida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, lug‘at, lg‘atshunoslik, tilning lug‘at tarkibi

Tilning lug‘at boyligi uning hozirgi holati va tarixan bosib o‘tgan yo‘li nuqtai nazaridan hamda tasnifiy va qiyosiy o‘rganilishi mumkin. Tilning hozirgi holati va uning tarixiy bosib o‘tgan yo‘li jihatidan leksikologiya ikki turga : sinxronik (zamonaviy) va geoxronik (tarixiy) leksikologiya ajratiladi. Tilning lug‘ati tasnifiy va qiyosiy o‘rganilishi mumkin. Ayrim olingan tilning lug‘at boyligini har tomonlama o‘rganish tasnifiy leksikologiya ikki yoki undan ortiq tillarning lug‘at boyligini qiyosiy o‘rganish, qiyosiy leksikologiya deb yuritiladi. Leksikologiya leksikani o‘rganadi, leksika esa so‘zlardan iborat bo‘lishi, so‘zning semantik strukturasi shu so‘zga xos ma’no (ma’nolar va qo‘shimcha ottenkalar)dan iborat bo‘ladi.

So‘zning semantik strukturasi va u bilan bog‘liq hodisalarini o‘rganuvchi soha semasiologiya deyiladi. Har qanday so‘z paydo bo‘lishdayoq o‘z shakli (fonetik strukturasi) va ma’nosiga ega bo‘ladi. Boshqacha aytganda, har qanday so‘z shakl va ma’no butunligiga egadir: uy, daraxt, qovun, achchiq, yaxshi, kecha, ishla, xursand, albatta uchun va hokazo.

Tildagi barcha so‘zlar ma’noli bo‘lsa-da, lekin ular ma’noning eng umumiy xususiyatlariga ko‘ra ham o‘zaro farqlanadi. Masalan: tildagi barcha so‘zlarning asosiy qismi ob’ektiv borliqdagi narsa, belgi yoki xarakat haqidagi tushunchani bildiradi: paxta, suv, oq, tekis, ushlamoq, yugurmoq kabi. Boshqa so‘zlar esa, ya’ni yordamchi so‘zlar, shuningdek, undov va taqlid so‘zlar tushuncha ifodalamaydi. Tushuncha ifodalaydigan so‘zlargina leksik ma’noga ega bo‘ladi. Leksikologiyada xuddi shu tipdagi so‘zlar, semisiologiya bahsida esa shu tipdagi so‘zlarning ma’nosi va u bilan bog‘liq hodisalar o‘rganiladi. Har qanday so‘z paydo bo‘lishdayoq o‘z ma’nosi va tovush qiyofasiga ega bo‘ladi. Demak, har qanday so‘z avvalo, tovush va ma’no birligiga ega bo‘ladi. Shu narsa so‘zning fonetik va semantik tomoni. So‘zning semantik tuzilishini biz quyidagi misol orqali ko‘rishimiz mumkin. Tuya – o‘rkachli, chidamli, haybatli, ish hayvoni, sekin xarakatlanuvchi. Tuya-hayvon – arkisema (semema) sememalar semalardan hosil bo‘ladi. Leksema esa sememadan hosil bo‘ladi. Arkisema – har qanday sememaga xos bo‘lgan dastlabki belgilarning ifodalanishi. Har qanday leksema denotativ ma’nosidan konnatativ o‘tish jarayonida uning semalari tarkibidagi eng xarakterli xususiyatlari saqlanadi.

2. Tilning terminologik birliklarini

Terminologiya tilshunoslikning terminologik birliklarini o‘rganuvchi sohadir. Terminologiya termini tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llanadi:

Tildagi terminologik birliklarning jami ma’nosida va

Shunday birliklarni o‘rganuvchi soha ma’nosida.

Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma’no ifodalaydigan til birligi terminologik birlik yoki terminologiya esa terminologik birliklar sostavini o‘rganadi. Lug‘atsostavida til birligi so‘z bo‘lsa, terminologiya sostavida esa terminologizm til birligidir. Tilning lug‘at boyligi leksika va terminologiyadan iboratdir. So‘z ham terminologizm ham lug‘aviy birlik hisoblanadi. Terminologizmlar so‘z birikmasi yoki gap tilida bo‘lsa-

da, lekin ular nutq birligi bo‘lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi va lug‘aviy birlik sifatida ko‘p jihatdan so‘zlarga yaqin turadi, so‘zlarga xos bo‘lgan juda ko‘p xususiyatlar terminologizmlarga ham xosdir. Terminologizmlar so‘z birikmasi yoki gaplar kabi nutq protsessida hosil bo‘lmaydi, balki ular, xuddi so‘zlar kabi, tilda tayyor holda bo‘ladi. Demak, terminologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi. Masalan, tomdan tarasha tushganday, aravani quruq olib qochmoq, kapalagi uchib ketdi kabilar tilda tayyor holdagi lug‘aviy birliklardir.

Terminologizmlar ham xuddi so‘zlar kabi, shakl va ma’no butunligiga ega. So‘zning shakliy tomonini tovushlar hosil etsa, terminologizmning shakliy tomonini so‘zlar hosil etadi: yoqlamoq-yon bosmoq, rahmdil-ko‘ngli bo‘sh kabi. Terminologizmning komponentlari faqat shakl-tovush tomoni bilan so‘z holida bo‘ladi. Terminologizm tarkibida u ma’no butunligiga ega bo‘lmaydi. Shu sababli terminologizm sostavidagi biror so‘z iste’moldan chiqqan bo‘lsa ham terminologizm yo‘qolmaydi, boshqa til birligiga aytaylik, so‘zga aylanmaydi. Shuningdek uning ma’nosi ham o‘zgarmaydi.

Terminologizmning komponentlari o‘zicha shakl va ma’no butunligiga ega emasligidan, ya’ni haqiqiy ma’noda so‘z emasligidan terminologik birliklarga nisbatan “birikma” terminini qo‘llash, ularni “turg‘un so‘z birikmasi” deb atash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Terminologizm leksik birlik hisoblanuvchi so‘z birikmasidan tamomila farqlanuvchi alohida til birligidir. Shuning uchun ham bunday birliklarga nisbatan “frazeologizm” terminini qo‘llayverish ma’qul.

Terminologizm lug‘aviy birlik bo‘lganidan, xuddi so‘zlar kabi, gapda bir bo‘lak vazifasida keladi. Masalan, ko‘z ochib yumguncha necha ming piyoda va suvori kishilar paydo bo‘ldi.

Keltirgan faktlarning hammasi terminologizmlarning sintaktik birlik bo‘lgan so‘z birikmasidan tubdan farqlanish, uning lug‘aviy birlik ekanini ko‘rsatadi, lug‘aviy birlik sifatida esa terminologizmlar so‘zlarga xos bir qator xususiyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: O‘zMU, 2013
2. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009

ЛЕКСИКА ТУРЛАРИ ВА УНИНГ ЧЕТ ТИЛИНИ ЎРГАНИШДАГИ РОЛИ.

Ўролова Дилфуза Сайдалиевна,
Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси,
Телефон рақами: +998(91)6219662
dilfuza.uralova@inbox.ru

Аннотация. Ушбу мақолада лексика турлари ва уларнинг чет тилини ўрганишда ўрни ўрнатилган. Мақолада лексикология фани хақида қисқача маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: лексикология, фан, луғат, моҳият, шакл, соха.

Унинг номи кўрсатишича (*лексикология* атамаси грекча *lexis* сўзлари бирикмасидан келиб чиққан бўлиб, «сўз» ва *logos* эса «фан» маъносини англатади), лексикология-кенг маънодаги сўзлар ҳақидаги фандир. Бу жуда оддий таърифдан бошлаб, бошқаларни тақдим этишда, унинг «сўз» қисми билан ёки унинг «фан» қисми билан боғлиқ бўлган турли жиҳатларни кенгайтиришда уринишлар бўлган. Шундай қилиб, инглиз тилидаги умумий луғатларда топилган лексикологиянинг баъзи таърифлари қуйидагиларни ўз ичига олади:

"... сўзларнинг шакли, маъноси ва хулқ-атворини ўрганиш" (The New Oxford Dictionary of English, 2005);

"... сўзларнинг моҳияти ва қўлланилиши билан боғлиқ тилшуносликнинг бир бўлими" (Merriam Webster's Collegiate Dictionary, 2003);

"...тилнинг лексик компоненти билан шуғулланадиган тилшунослик бўлими" (American Heritage College Dictionary, 2002).

Кўплаб тилшунослар ўз тадқиқотларида лексикологиянинг турли таърифларини ҳам тақдим этишган. Bejan ва Asandei лексикология "тилшуносликнинг маълум бир тилнинг сўз бойлиги ва сўзларнинг асосий тил бирликлари сифатидаги хусусиятлари билан шуғулланувчи қисмидир", деб ҳисоблашади. Mc Artur эса лексикологияни "сўз ва унинг элементларининг табиати, маъноси, тарихи ва ишлатилиши билан боғлиқ бўлган тил ўрганиш соҳаси ва кўпинча лексикографиянинг танқидий тавсифи", деб билади. Бир пайтнинг ўзида Jackson ва Amvela уни сўз бойлиги ёки лексикани ўрганиш, яъни (грекчадан lexis, "сўз", сўзларнинг lexikos) деб ҳисоблайди".

Сўзларнинг лексикологиянинг ўрганиш объектини ифодалаши ҳақида умумий келишув мавжудлигини кўрганимиздан сўнг, сўзларнинг ўзи нима деган саволга жавоб бериш фойдали бўлади.

Лексикологиядан фарқли ўлароқ, сўзга жуда аниқ таърифлар берилмаган, аниқликнинг йўқлиги унга ёндашилган қирраларнинг кўплигидан келиб чиққан. Bloomfeld 1 9 2 6 йили сўз "минимум эркин шакл", ҳамда маъно етказиш учун мустақил равишда фойдаланиш мумкин бўлган энг кичик мазмунли лингвистик бирлиги, дебтаклиф киритганидан сўнг мунозаралар янада қизиб кетди. Мисол учун, child-бу ёлғиз ўзи маъно етказадиган кичик бирликларга бўлинмайдиган сўз; биз childishсўзини у билан солиштирсак, иккинчи мустақил мазмунли childсўзи ва -ishқўшимчасига эга бўламизки, биро-бир инглиз тилида сўзлашувчи ёпиқ холда ишлатиладиган баъзи маъно ташишга қодирлигини тан олмайди (гарчи, Oxford English Dictionaryга кўра, у худди "биро нарсанинг маълум фазилатларга эга бўлиши"ни англатади.

Бир сўз билан тушунилган нарсаларни ёритиб беришга бўлган ҳаракатлардан бири Katambaга тегишли бўлиб, у "сўз" атамаси ишлатилиши мумкин бўлган бир қатор турли ҳолатларни тан олиш бўйича тушунтиришларини асослайди. Тушунтиришларни тўғри бажаришдан олдин, у "сўз шакли", "нутқ ёки ёзувдаги сўзни тушунадиган ёки

ифодаловчи жисмоний шакл" атамасини фойдали равишда жорий қилади.

Сўзни танишнинг энг осон усули ёзма тилда иккита бўш жой ўртасида юзага келадиган ҳарфлар (ва орфографик белгилар) сатрларини кўриб чиқишдир. Шу нуқтаи-назардан қараганда, сўз орфографик сўз деб ҳисобланиши мумкин.

Бироқ, бу ёндашув худди оддийга ўхшаб туюлиши мумкин, аслида эса у универсал эмас. Сўзларнинг ёзилишида мослашувчанлик даражаси мавжуд. Макон билан ажратилган бўлиш ёки ажралмаслик ўз-ўзидан сўзлар ҳолатининг ишончли белгиси бўлмаслиги мумкин. Мисол учун, қўшма сўзлар, қаттиқ ёки Тирели бўлса (масалан, blackboard, schoolboy, bedroom or mother-in-law, forget-me-not), тилшуносликда клитик гуруҳлар сифатида маълум бўлган орфографик мезон асосида сўз бирикмаларининг ягона бирликлари сифатида тўғри аниқланиши мумкин эмас. Клитик гуруҳ ўзлаштирилган сўз ва клитикнинг ўзидан ташкил топади. Инглиз тилида икки синфли клитиклар бор: 1 синф клитик - бу 'sқаратқич келишиги, ва 2 синф клитик - бу shall / will, are, am, had/wouldкўмакчи феълларининг 'll, 're, 'm, 'dқисқартмаси, хамда not инкор юкламасининг n'tқисқартмасидир. Бу клитикларнинг барчаси тўлиқ сўзларгаилова қилинади, лекин сўзларўзвазифасини бажармайди (қисқарган шакллари тўлиқ лексик унсурлар бўлса ҳам). Клитикларнинг сўз мақомига мос келмаслиги учун яна бир сабаб фонологик характерга эга - товушлар гуруҳи инглиз тилида сўз учун қўлланилиши учун улар орасида унли товуш бўлиши керак. Сўзлар ўз вазифасини бажармайдиган унлиларни ўз ичига олиши керак бўлган талаб, клитикалар мустақил сўзлар сифатида фаолият кўрсата олмайди.

Сўзлар физик объект сифатида нафақат ёзма, балки нутқда ҳам мавжуд. Шу нуқтаи-назардан кўриниб турибдики, улар фонологик сўзлар сифатида маълум.

Оғзаки сўзларни таниш, аввало, ёзма сўз чегараларидаги аниқланадиган танаффусларнинг энди нутқда мавжуд эмаслиги туфайли уларнинг ёзма равишда тан олинишидан кўра қийинроқ вазифа бўлиб туюлади. Гапирилганда сўзлар бир-биридан аниқ ажратилмайди, улар бир-бирига ёпишади. Ҳолбуки, индивидуал сўзлар ёзувда бирор маконга тенглаша оладиган пауза билан ажратилган нутқ оқимида дискрет тарзда ажралиб турмаса ҳам, сўзловчилар уларни аниқлай оладилар. Нутқни таниш борасида ёзилган юзлаб саҳифалар мавжуд, аммо бу мақсад учун тингловчининг бир қатор шовқинни эшитиши билан оғзаки сўзни аниқлаш жараёни фонетик босқичдан бошланади, деб айтиш кифоя қилади.

Лексикология сўз-шакл ва сўзларни лексик унсурлар ёки лексемалар сифатида фарқлайди. Лексема луғатларда учрайдиган ва муайян мазмунга эга бўлган турли вариантларга эга абстракт тушунчадир. Сўз-шакллар тилдан фойдаланганда биз ёзадиган (орфографик сўзлар) ёки сўзлайдиган (фонологик сўзлар) конкрет объектлардир. Бир лексема билан унинг сўз шакллари ўртасидаги муносабат, Katambaга кўра, реализация, вакиллик ёки намоён бўлади. Масалан, ringлексемаси луғатларда шундай юзага келади ва тил аслида қуйидаги сўз шаклларидан бири билан ишлатилганда ифодаланиши мумкин: ring, rang, rung, rings, ringing. Good лексемаси ҳақиқий нутқ ёки ёзувда good, better, the best деб намоён бўлиши мумкин. Child лексемаси child ёки children каби амалга ошиши мумкин ва ҳоказо.

Сўз шакллари ва лексемалар ўртасидаги фарқни тушуниш қийин эмас. Бу масала, биз, тил фойдаланувчилар сифатида, ҳатто жуда эрта ёшдан хабардормиз ва хазил-мутойиба ҳамда кундалик ҳаётда ноаниқлик билан боғлиқ сўз-ўйини билан фарқланади. Ladybird Book of Jokes and Rhymes китобида, Youngs қуйидаги ҳазил, таклиф, сўз шакллари сифатида лексик унсурлар ва сўзлар ўртасидаги фарқни жуда аниқ тарзда тасвирлайди:

'Waiter, do you serve shrimps?'

(“Официант, сизқисқичбақаларгахизматқиласизми?”)

‘We serve anyone, sir. We don’t mind what size you are!’

(“Биз ҳаммага хизмат қиламиз, сэр. Хажмингиздан қатъий назар!)

Ҳазил-мутойиба сўз шаклидаги қисқичбақанинг алоқасиз сезгилари билан икки хил лексемага мансуб бўлиши мумкинлигини эътироф этиш ётади: бир маъноси “ейиш мумкин бўлган, узун, озғин қисқичбақасимон” ва бошқа маъноси, оғзаки инглиз тилида “озғин одам”ни англатади. “Хизмат кўрсатиш” сўзи икки талқин берилиши мумкин: “овқатни етказиш”ва “кимнидир дастурхонда кутмоқ”. Бу сўзларнинг ҳар бирининг 1 ва 2 маъноларини бирлаштирсак, қисқа суҳбатнинг бутунлай бошқа маъноларини оламиз. Шундай қилиб, сўз-ўйини бир хил сўз шаклининг жуда фарқли маънолари билан икки хил лексемани ифодалашидан келиб чиқадиган лексик ноаниқликни келтириб чиқаради.

Грамматикжиҳатданкўрилгансўзларсинтаксисдамуҳимрольўйнайди, чункижумлал арсўзларнингсатрлариниўзичигаолади. Сўз муайян маъно ва маълум морфологик ва синтактик хусусиятларга эга бўлган лексик элемент сифатида грамматик сўз деб юритилади.

Лексеманинг бир хил сўз-шакли турли грамматик сўзлар, тилшуносликда синкретизм деб номланувчи ҳодиса сифатида ишлатилиши мумкин. Қуйидаги (1) ва (2) гапларни кўриб чиқсак:

She paid the telephone bill yesterday. (У кеча телефон хақини тўлади.)

She has paid the telephone bill., (У телефон хақини тўлади)

Pay феълининг бир хил сўз шакли, яъни ҳар икки гапда“paid”, гарчи гапда (1), “paid” сўзи, грамматик сўз сифатида ҳаракатнинг ўтган замонда, қолаверса, гапда (2) аниқ пайт ҳоли бўлиб ўтганлигини билдирса-да, ҳаракатнинг яқинда тугалланганлигини кўрсатади. Гапда (1), “paid”грамматик жиҳатдан“pay”феълининг ўтган замон сифатдоши сифатида тасвирланади, гапда (2) шу феълнинг ўтган замон сифатдоши сифатида тасвирланади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ҳошимов Ў., Ёқубов И.. Инглиз тили ўқитиш методикаси. – Т.: “Шарқ”, 2003.

2. Charlotte Bronte. Jane Eyre. London, 1992. –P. 93-95.

3. Рогова Г.В., Верещагина И.Н.. Методика обучения английскому языку на начальном этапе средней школы. – М., 1988.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони. Тошкент ш.,2017 – йил, 30 – сентябрь.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони. Тошкент ш.,2017 – йил, 30 – сентябр.

YUQORI SINF O‘QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH YO‘LLARI.

Shamsiddinov Mirzanazar
Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani
24-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
tel 94 506 58 76
nbannaev@.mail.ru

Annotasiya: Maqolada yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha besh tashabbus va shundan kelib chiqib o‘quvchi yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi yoshlar, kitobxonlik, kitob, badiiy adabiyot, ma’naviyat, kutubxona, mutolaa, ijod,

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish” bo‘yicha 5 ta muxim tashabbusining qabul qilindi. Mazkur tashabbusning 4- bo‘limi “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha” tizimli ishlarni tashkil etish to‘g‘risida.

Kitobga oshno dillar yomonlikdan yiroq bo‘ladi. Kitob insonlarni ezgulika, mehroqibatga da’vat etadi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltiradi. Shu bois maktab yoshidanoq o‘g‘ilqizlarni kitobga oshno qilish, mutolaaga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bunda asosiy mas’uliyat maktablarimizda faoliyat oib borayotgan ona tili va adabiyotio‘qituvchilari zimmasiga tushadi. Ayniqsa, yuqori sinfda internet, uyali aloqa vositalariga raqobatlashish, bolalarni kitob o‘qishga chorlash oson kechmaydi.

Yuqori sinf o‘quv chilari qalbida kitobga mehr uyg‘otish uchun pedagogning ozi yuqori kasbiy mahoratli, nutqi ravon, mavzulrni optimal yo‘llar bilan tushuntira oluvchi, ijodkor vatashabbuskor, o‘quvchilar bilan ta’limiy hamkorlikda ishlay oladigan, ularni mustaqil va mantiqiy fikrlashga yo‘naltiruvchi bo‘lishi kerak. Darslarda, to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning yoshi va qiziqishiga mos kitoblarni mutolaa qilish, badiiy asarlardan so‘zlab berish, voqealarni his ettira olish, Vatanni tarannum etuvchi she’rlar, yaxshilik, mehroqibat, odobaxloq, kamtarlik, mehnatsevarlik singari insoniy fazilatlarni tarbiyalovchi maqol va hikmatlarni ifodali yoddan aytib berish o‘quvchini mazkur adiblarning ijodiga nazar solishga chorlaydi.

Maktabda yoki maktablararo “Kitobxonlik kechalari”, davra suhbatlarini o‘tkazish ham ijobiy natija beradi. Masalan, tadbirlarda “Mendataassurot qoldirgan asar”,“Mening sevimli adibim”, “So‘nggi o‘qigan kitobim” kabi mavzularda o‘qilgan asarlarni o‘zbek tilida so‘zlab berishga odatlantirish bolalarning qobiliyatini yuzaga chiqarib, notiqlik va savodxonligini oshiradi, eng muhimi, adabiyotga qiziqtiradi. Dars mavzuga oid qo‘shimcha manbalar, axborot, ko‘rgazmalar bilanboyitilsa, samaradorlik yanada ortadi. Misol uchun, “Abdulla Qahhorning hayoti va ijodiy faoliyati”ni yoritishda dastlab darslik materiallariustida ishlansa, so‘ng dibning ijodiy qirralarini ochuvchi yangi ma’lumotlar berish lozim.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida ham adabiyotimiz go‘zal namunalari orqali o‘zbek tilining boyligi, go‘zalligi, jozibasi va mukammalligini ochib berish o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Muayyan mavzu bo‘yicha mustaqil ravishda axborot to‘plash topshirig‘ining yuklatilishi, tabiiyki, ularni bosma va elektron kitoblarga murojaat qilishga undaydi.

Umumta'limmaktablari o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishda quyidagi yondashuvlarga tayanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiy o'qish darslarini qo'shimcha manbalar va axborotlar bilan boyit;

Darslarda "Mutolaa daqiqasi"ni tashkil etish;

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini o'tkazish;

Mavzular yuzasidan yozma topshiriqlarni bajartirish (matn yaratish, bayon yozish, taassurotlarni yozma ifoda etish);

- mashg'ulotlarda turli dars shakllari va pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish;
- fan to'garaklarida she'riy asarlarni ifodali o'qish, badiiy asarlarni tahlil etishga o'rgatish;
- o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos badiiy, ma'rifiy, ilmiyommabop kitoblarni mustaqil mutolaa qilish uchuntavsiya etib borish;
- tarjima, izohli, imlo va atama lug'atlaridan foydalanishni o'rgatish;

Gazeta va jurnallarni muntazam o'qib borishni yo'lga qo'yish;

- o'quvchilarda mustaqil axborot izlash va taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirish (axborotni saralashga odatlantirish);

Kutubxonalarga sayohat uyushtirish va yangi nashrlar bilan muntazam tanishtirib borish;

Belgilangan sanalarda o'qilgan asarlar yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish;

Shoir va yozuvchilarning tavallud kuni munosabati bilan tadbirlar o'tkazish;

- o'quvchilar o'rtasida "She'rxonlik kechalari","Eng kitobxon o'quvchi", "Mening kutubxonam" kabi ko'rik-tanlovlar va badiiy kechalar o'tkazish;

-ota-onalar bilan aloqani mustahkamlash. Yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirishning eng muhim vositasi kitobdir. Shunday ekan, biz pedagoglar boshlang'ich sinflardan boshlab, bolalarni adabiyot, kitob bilan oshno etib, ularda mustaqil mutolaa ko'nikmalarini shakllantirib borishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yo'ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon: O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. – 200 b.

2. Ibrohimova I. Kitob bilan yashar ko'ngil bo'stoni // Vatanparvar. 2017. 31-mart.

ЎЗБЕКИСТОНДА БИЗНЕС ТУРИЗМ СОҲАСИДА САЁҲАТ ТАССУРОТИ ВА МАНЗИЛГОҲ ТАСВИРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИГА ДОИР

Гавҳарой Исроилжон қизи
Андижон давлат университети, Хорижий тиллар факультети
+998914889545; gavharoy7575@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада бизнес туризми соҳасида саёҳат тасаввури ва манзилгоҳ тассуротларни шаклланиши, танланиши ва яратиш тамойиллари, уларнининг туристлар учун муҳимлиги ҳақида фикрлар баён этилган. Ўзбекистондаги манзилгоҳлар ҳусусиятлари ёритилган.

Калит сўзлар: саёҳат, мантиқий, самарали, умумий, манзилгоҳ тасвири, шаклдорллик тасвири, манзилгоҳ эслатмаси.

Annotation: In this article described about the formation, selection, and creation of travel image and destination image, its importance for tourists in the field of business tourism. Here, written about peculiarities of the destinations in Uzbekistan.

Key words: Travel, cognitive, effective, overall, destination image, formation image, destination perception.

Саёҳатчилар учун туристик манзилгоҳларни тавсия этиш, барча туризм соҳаси ривожланган мамлакатларда бизнесни ривожлантириш билан чамбарчас боғлиқ. Туристик манзилгоҳлар саёҳатчиларга янги ва янги мамлакатларда манзиллар билан танишишни ҳамда уларни эслаб қолишни, тажриба ортириш каби имкониятларни яратиши сир эмас. Албатта, саёҳатга бормоқчи бўлган турист, саёҳат учун ташриф буюраётган мамлакатдаги манзилгоҳлар ва уларда туристлар учун яратилган имкониятлар билан яқиндан танишиб чиққандан сўнгина ўша давлатга саёҳаттга боради. Мамнуният билан тан олишимиз керакки, Ўзбекитсонга ҳам дунёнинг барча томонларидан туристлар оқими келиб турибди. Бу ҳолат юртимизда туризм бизнесини ривожланаётганини ва бу соҳада кўплаб, бунёдкорлик ва амалий ишлар бажарилаётганини гувоҳимиз.

Туризм, худди, дунё иқтисодиётини энг ривожланган саноатларининг муҳим секторларидан бўлган автомобил, пўлат, кўмир, ва ҳаказолар билан бир қаторда иқтисодий фаолиятни ривожлантириш учун барча эҳтиёжни, туристларни жалб этишни ва уларнинг заруратларини амалда бажаришнинг энг узун ва самарали йўлидир. Туризм бизнесида манзилгоҳ тасвири жуда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, саёҳатчиларни доимий ва такрорий саёҳат қилишларига сабаб бўлади. Туризмни ривожланишида кўплаб манзилгоҳларни аниқлаш ва туристлар учун тайёрлаш, имкониятларни яратиш, манзилгоҳларни танлаш ҳуқуқи эркинлигини таъминлаш бизнес туризмни ривожланиш шакллари ҳисобланади. Шунингдек, савдо марказларини очиш ва сифатли маҳсулотлар билан таъминлаш ҳам туристларни бораётган манзилларида кучли тасаввур ҳосил қилади, Масалан: Лондон, Малайзиа ва Дубай каби йирик туризм ривожланган мамлакатларида савдо марказларини мисол тариқасида келтиришимиз мумкин. Ҳозирги даврда, туризм соҳасида туристлар оқимини потенциал ортишида манзилгоҳларни танлаш бўйича у ёки бу манзилгоҳлар ва улар ўртасида мусобақа бошланди. Шундай экан, манзилгоҳ тасвири ҳақидаги тушунчаларни тушуниш учун саёҳатчиларга туристик манзилгоҳларни туристлар эҳтиёжига қараб танланиш-

ни ва бозор иқтисодиёти стратегияларига тўла риоя қилинадиган ҳолатлар мавжуд манзилгоҳларни танлаш имконияти яратилиши шарт.

Туризм манзилгоҳлари тасвири юзасидан илмий ишлар тадқиқи, эрамизнинг 1970 йилларидан бошланган бўлиб, илк бора туристларни манзилгоҳларга потенциал тарзда қамраш учун сўровномалар ўтказиш орқали аниқланиши Ҳантнинг 1971 йилдаги диссертациясида ўз аскини топган.**[3. 13(3):1-7].** Унинг унумли ишлари, туризм соҳасида манзилгоҳ тасвири ва саёҳат одоби кейинчалик Мауо **[2. pp.211-217.]** ва Гунн ишларида тадқиқ этилди. **[3. p.45].**

4. Wallace, M. (1982). Teaching vocabulary. London: Heinemann Educational Books. Revista de Lenguas para Fines Especificos, 15/16 (2009-2010)

ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIIYATI

Ro'ziboyeva Parizoda Murodali qizi,
ToshDO'TAU o'zbek filologiyasi fakulteti I bosqich talabasi,
Parizodaruziboyeva@gmail.com (91) 154-06-44

Anotatsiya. Bugun o'zbek adabiyotida hikoyachilik ancha yuksak darajada taraqqiy etmoqda.O'zbek yozuvchularining hikoyalari,romanlari chet el ommaviy axborot vositalarida ham chop etilyapti,ularning ijod namunalari xalqaro mukofotlarga loyiq topilmoqda. Bu esa, o'zbek nasrining yanada ravnaq topayotganidan darak beradi.Bugun o'zining hikoyalari,romasnlari,o'z qarashlari va o'zining takrorlanmas uslubiga ega bo'lgan ijodkor Isajon Sulton ham ana shunday e'tirof etib kelinayotgan yozuvchilardan hisoblanadi.Biz Isajon Sulton hikoyalarini mutoala qilar ekanmiz ijodrorning falsafiy yondashuviga, voqealarning izchilligiga, kutilmagan kulliminatsiyaga, o'ziga xos samimiyatga va hikoyalarning ixcham, xalqona tilda bayon etilganiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'z: falsafiylik, milliy g'urur, o'zbek xarakteri, kulminatsiya, animizm, xarakterli yondashuv, syujet chizig'i, an'anaviylik.

Ijodkor ko'ngil kishisi. U og'irdan-da og'ir kiprigini ko'ngil siyohiga botirib asarlar yozadi. Ijodkor cho'g' bilan, olov bilan yozadi.Qog'oz yonmasa, unga qo'shilib qalb yonmasa, vujud yonmasa u yozganlarini g'ijimlaydi-da bir chetga uloqtiradi.Aslida har bir uloqtirilgan sahifalarda yangi bir qalb nolasi, yonish uchun asos bo'ladi.Inson zoti borki, so'z shaydosi, adabiyotga tashna.Shunday tashnalik kezlarida yaxshi she'rmi, hikoyami, biror badiiy asarnimi o'qishga o'zimizda ehtiyoj sezamiz.O'ylanamiz kimga, qaysi ijodkorga murojat qilsam ekan deb.Avvallari Isajon Sulton desa bir nima deyishga o'ylanardim.Qarashlarim boshqacha edi.Balki asarlari, hikoyalari bilan to'liq tanishib chiqmaganim boisdir.Bugun men mana shu adabiyotga tashnalik kunlarimda taniqli va iste'doli, qalami o'tkir ijodkor Isajon Sultonning hikoyalariga murojat qildim.Quyida bu ijodkorning hikoyalari haqida anglaganlarimni siz bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Men anglagan ijodkor nafaqat yaxshi yozuvchi, balki mohir tarjimon ham ekan!

Bugun Isajon Sultonning "Qismat", "Ayriliq", "Bog'i Eram", "Farishta", "Qo'riqchi", "Oydinbuloq", "Ozor", "Qo'riqchi", "Shamolli kecha" va bir qancha hikoyalari o'z o'quvchilarini topib ulgurgan, hatto xalqaro mukofotlarga ham sazovor bo'lgan.2011-yil adibning "Qismat" hikoyasi AQSHning Chikago shahrida o'tkazilgan xalqaro adabiy konkursda g'olib deb topilishi bu nafaqat adibning, balki o'zbek adabiyotining yana bir yutug'i desak yanglishmagan bo'lamiz.Dastlab adibding aynan shu "Qismat " hikoyasi haqida fikrlarimni bayon etsam.

Xalqimizda "Otang o'tirgan uyning tomiga chiqma", "Ona qarg'ishi do'q, ota qarg'ishi o'q", -degan bir qancHa maqolar bor.Shu o'rinda:

"Ota qarg'ishidir olmos,
Gar tegsa yiqitmay qolmas,
Olloh ham panohga olmas,
Otasini yig'latganni", -degan qo'shiq yodimga tushdi. Nega bu misollarni keltiryapti, dersiz.Sababi shuki, bu hikoya qahramonlarini bir shaxs-ota birlashtirib turadi.Voqealar rivoji ham aynan otaga borib taqaladi. Ota hamisha aziz, so'zi-so'z, gapi gap.U oila boshlig'i. Asarda otaning bosh qahramonligi balki shuning uchundir.Ammo bu hikoyada otaning fe'l-atvoridagi qusurlar, otaning ayoliga, farzandlarini nisbatan qilgan adolatsizligi, mehrsizligi, zug'umi haqida so'z yuritiladi. Hikoyada tabiat tasviri, o'xshatishlar o'z o'rnida

qo‘llangan. Asosiysi tasvirda yolg‘on yo‘q.Oddiy bir qishloqdagi o‘zbekning hovlisi.Bunda o‘zbek harakteri ham ochib berilgan. Nonning muqadasligi, uning ushog‘i, ham nonligi, onalarimiz uni erkalab og‘zimizga solishlari ro‘yi-rost.

Ijodkorning o‘ziga xos uslubi bor.Hikoyalarida diologlar kamdan kam holatda uchraydi. Adib har bir qahramonini, har bir detalni gapirtirishga urinadi. Har biri o‘z tilidan gapiradi. Yana hammani birlashtirib turadigan narsa bu –baliq.Kichik o‘g‘il ham, katta o‘g‘il ham, o‘rtancha o‘g‘il ham baliqni o‘zlarining siri deb biladi.O‘zlaricha u bilan suhbatlashadi. Onaning ko‘ziga o‘sha baliq davoligi ayon bo‘ladi.Ota –baliq bo‘lib tirilgani haqida bilishadi.Uni onaga qovurib berishadi.Ayanchlisi katta o‘g‘il otasini kuyishidan rohatlanadi. Bor dardini to‘kib soladi.Onasiga bergan azoblari, kaltaklaganlari, Og‘liga ketmon otganda yelkasining o‘pirilganligi, bola bo‘lib erkalanolmaganligi, otam bor deb kerilolmaganligi bir umr qo‘rqib yashaganligi, bir gal ukasini tomga otib yuborgani, olib kelganini “Ma, pishirib ye, zaharingga ” deb otganlari hamma –hammasini eslaydi.Otasining jizzillab yonayotganidan , azoblar, qiynoqlar tugaganidan quvonadi. Otaning xarakteri bir qarashda Said Ahmadning “Ufq bo‘sag‘asida” nomli asari qahramoni Inoyat oqsaqolni eslatadi. Uning farzanga nisbatan mehrsizligi, qahr-g‘azabi,ziqnaligi, o‘zini deb yashashi har ikki qahramonning o‘xshashliklaridir ehtimol.Isajon Sulton hikoyalarida animizm yaqqol sezilib turadi.Bunday holatlar deyarli Har bir hikoyadi uchraydi. Masalan:

“Farishta” hikoyasida – Farishta, “Oydinbuloq”da-Parizod, “Ozor”da –it egasi, “ Shamolli kecha” da-jin, jodugar… “Qismat” hikoyasida kichik o‘g‘il baliqni pishirganida achinadi, yig‘laydi.Sababi, u baliqning katta bo‘lishi, haqiqiy tilla baliqqa aylanishini kutib, unga tilaklarini aytmoqchi edi.Shu o‘rinda o‘ylayman: Bola tilla baliqdan nimani so‘raga bo‘lardi? Menimcha har bir bola pok qalbi, beg‘ubor ko‘ngli bilan otasini qaytishini , qaytganda ham mehribon, uni, onasini , akalarini urmaydigan, erkalatadigan otasini qaytib kelishi, onasini ko‘zlari tuzalishi va baxtli hayot kechirishini so‘ragan bo‘lardi.Ammo ota jazosini oldi.Chunki otasi ichib kelganda do‘pposlagan, otasi esa yiqilgan, yiqilganda bo‘yraning cho‘pi kirib ketgan, otasi uni “qamishday qurigin, iloyo” deb qarg‘agandi.Oxir shunday ham bo‘ldi.Ota iymoni uchun kurashdi, og‘il esa halovati uchun. “Otangga ne qilsang bolangdan tortasan” deb bejiz aytishmagan.Xulosa qilib aytganda ota hamisha quyosh, hamisha nur taratishi, mehr ulashishi kerak.U o‘zida ulug‘vorlikni, oqko‘ngillikni nomoyon eta olishi, ayoli, farzandlari suyana oladigan bo‘lishi kerak!

Yana shunisi ahamiyatliki, Isajon Sulton hikoyalari xalqchilligi bilan, xalqona ohanglar uyg‘unligibilan, hikoyalari orqali millatning, xalqning turmushi, o‘ru-o‘ylarini, ko‘ngil kechinmalarini ishonarli ifodalashi bilan boshqalardan farq qiladi.

“Ayriliq” hikoyasida ham e‘tiborimni tortgan jihatlar ko‘p bo‘ldi.

“-Ochig‘i, chor tarixini yaxshi bilmayman-deb tan oladi Osobist-o‘zim bir kambag‘al oila farzandiman.

-Bilish kerak,-deydi Katta- bilib ol , Osobist” mana shu birgina “bilish kerak” degani tarixsiz kelajak yo‘q ekanligini anglatish, har bir millat vakili boy bo‘ladimi, kambag‘al bo‘ladimi tarixni bilish uning yelkasidagi mas’uliyatni anglatmayaptimi?!

Yana shunisi ham ahamiyatliki chegara ham, ayriliq ham, cheklovlar ham, zug‘um ham xalqqa xos urf-odat, an’ana, mehr-muhabbat, oqibat, ona yer, ona tuproq tushunchasini yo‘q qila olmasligi, iymoniga, vijdoniga sodiq, xudosiga ishongan har qanday millat har qachon, har qanday kurashda o‘zib chiqishini ko‘rishimiz mumkin.

“Ayriliq, ayriliq, omon ayriliq
Har bir darddan o‘lar yomon ayriliq ”.

Baxshining bu qo‘shig‘i odatda to‘ylarda aytilardi.Ammo u buni azada , oqsoqolning azasida kuyladi.Sabab nima?Nima uchun shunday?

O‘ylaymanki, baxshi bu qo‘shig‘i bilan xalqni uyg‘otishga urinyapti.Agar o‘zlikdan, millatdan, milliy g‘ururdan ayrilsak , bu o‘limdan og‘ir, ey turk eli,uyg‘oning, o‘zlikni , erkni yovga bermang deyotgandek nazarimda.Ijodkor baxshining bu qo‘shig‘i keyinchalik butun turkiy xalqlar qo‘shig‘iga aylanib ketdi, deydi.Sababi har birining dardi bir edi, ularning jon tomiri, ildizi , suv ichgan irmoqlari bir edi.Bu xalqlar bir biridan suv ichar edi.

Adib har bir predmetni jonlantirishga, huddi odamlardek so‘zlatishga qodir.Odatda kuchuk vovulllaydi.Ammo bu “Ozor ” hikoyasida kuchuk odamlardek so‘zlaydi.To‘g‘ri ining so‘zlarini , gaplarini o‘sha voqeada ishtirok etayotgan kishilar tushunmas, ammo o‘quvchilar anglab yetadi.Kuchuk-sadoqat timsoli.Bu keng yoritilgan mavzu.Bir qarashda u Erkin Vohidovning “Vafo” she‘rini yodga soladi:

“Otasidan ayrilsa agar,
Buncha kuymas odam bolasi.
Yolg‘on edi kechagi yig‘ilar,
Rost edi shu itning nolasi”

Ammo bu hikoya voqea qamrovining kengligi, qahramonlar harakteri bilan ajralib turadi.Bu hikoyada peyzaj ham jonli tasvirlangan.Hikoyada kuchukni quturgan deb gumon qilishadi.Balki kuchuk egasiga nisbatan odamlarning mehrsizligi, sadoqatsizligi, saxtaligidan quturgandir.

“Otang seni o‘n yeti yil boqqan edi.Lekin otangdan yuz chandonini qilib qo‘ygan xo‘jangga qaramading”, -bu kuchuk tilidan uy bekasiga aytilgan gaplar edi.Ota bilan erning boqishini tenglab bo‘larmikan?Xalqimizda:” ota uyidagi qattiq non podsho dasturxonidagi obi nondan afzal “, -degan gap bor . Balki ijodkor bu fikri bilan ayolning qay darajada e‘tiborsizligi, mehrsizligi, vafosizligini anglatmoqchi bo‘lgandir.Shuning uchun qo‘llagandir bu jumlani.

Sadoqat shunday narsaki u murdani tiriltirishga qodir, -deyish mumkin. Yor-birodarlar kuchukni otishmoqchi bo‘lganda , egasi kuchuk ko‘ziga ko‘rinadi va uni o‘z yoniga chorlaydi.Isajon Sulton hikoyalarida shaxsiy an’anaviylik bor.Bunda ham har bir qahramon o‘z nomidan so‘zlaydi.Bu hikoyalarining br-biriga o‘xshash va boshqa ijodkorlardan farqli jihatidir.Bu hikoyada yana inson harakteridagi qusurlar, o‘lgandan keyin e’zozlash, yasamalik, soxtalik ham alohida takidlangan.

Sadoqatni his etish uchun sadoqatli bo‘lish kerak emasmi?Insonning sadoqatli bo‘lmagani bu kuchukning aybi emas.Ular kuchukni o‘tib o‘ldirish barobarida sadoqatni otdi, mayidning dunyosi bilan tiriklik bog‘lanib turgan ipni uzdi.Ular sadoqatni o‘ldirdi. Qabrga qalblaridek tosh o‘rnatdi…

Adibning har bior asari xalqchil, dardchil.Ularning tag zamirida chuqur falsafa bor .Uni anglab yetish uchun yaxshi ustoz yoki kuchli bilim kerak bo‘ladi.Asosiysi adibning takrorlanmas o‘z uslubi, o‘z “men”i bor.

“Shamolli kecha” hikoyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u qishloq hayotini, bolalikni, bolaning ko‘ngil kechinmalari, bola psixologiyasini yaqqol nomoyon etgan hikoya, deyish mumkin. “Sandallar ustida qurutlar, turshaklar, vassalarga behi, olma, anor, uzum boshlari osilgan…”.

“Ota dalada.Bola mol-holga qarab, o‘tinlarni maydaladi.Qizaloq katta qozonga suv isitib tandirdagi kuldan qo‘shibkir yuvdi.” Bunday tasvir faqatgina qishloqda bo‘ladi.Shuningdek, bolalikdagi o‘yinlar, bala harakteridagi dev, pari, jinlarga, afsonalarga ishonuvchanlik, maqtanchoqlik, bolalarcha g‘urur ham e‘tibordan chetta qolmaydi.

Qo‘rqinch tasviri…Bu beixtiyor Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasini eslatadi. Insonda sevinch, shodlik har-xil bo‘lishi mumkin, ammo qo‘rquv bir xil bo‘ladi.Qo‘rquvdagi dil kechinmalari o‘xshash bo‘ladi.Asardagi bu holat o‘quvchiga ham ko‘chadi.Bir lahxa bo‘lsada voqea ichiga kiradi.Aka –singil bilan shalolli ko‘chada yuguradi.Aka singlisining chaqiriqlariga e‘tabor bermaganda o‘quvchi ham akani birgalikda chaqiradi.Buvilar,

onalar nutqida o‘xshashlik uchraydi.Balki bu onaning, ayol zotining qalb kechinmalari o‘xshashligidan dalolar, desak yanglishmaymiz menimcha.Hikoya “Moboda topgan taqdirda ham … qay ahvolda toparkin.. Topa olarmikin?”, -deya yakunlanadi.Hikoyaning so‘roq bilan tugashi –bu har bir o‘quvchini mustaqil fikr yuritishga, xayol dunyosiga chalg‘ishga majbur etadi.Ijodkor asari davomida o‘quvchini ham baxsga chorlaydi.O‘zi ham tinchimaydi, o‘quvchini ham tinchitmaydi.Mana asl ijodkor qanday bo‘lishi kerak?!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Davron kutubxonasi.
2. Isajon Sulton hikoyalari.
3. Ziyonet internet sayti.

KESIMLIK VA PREDIKATIVLIKNING O‘ZARO MUNOSABATI

Saidova Qunduzxon
O‘zDJTU Magistratura bo‘limi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar Qo‘ldoshev Akrom Mahmudovich

Anatatsiya: Bu maqola predikativlik va kesimlik munosabatlarini turli olimlar tomonidan berilgan tadqiqi, hozirgi zamon tilshunosligidagi o‘rni va ilmiy izlanuvchining shaxsiy fikrlarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: mazmuniy, mantiqiy, grammatik predikat, kesim, obyekt, subyekt.

Predikativlik sof mantiqiy kategorya bo‘lib, harakat va uning sohibi kabi voqelikdagi munosabatlarning munosabatlarning inson ongida aks etishidir. Kesimlik esa sof morfologik tushuncha hisoplanib, uni predikativlik tushunchasidan farqlash zarur. Predikativlik asosida hukm yotadi. Shuning uchun ham u gapning Grammatik asosini belgilashga hizmat qilmaydi. Hukm tafakkurning muayyan bir shakli, uni umumlashtiradi. Hukmda voqelik ya’ni predmet va hodisalar yakka yakka holda emas balki o‘zaro munosabatda bir biri bilan bog‘liq holda aks etadi.

Kesim o‘zida predikativlikni aks ettirgan, gapning uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy bo‘lakdir. Kesim gapning markaziy bo‘lagi bo‘lganligidan gapning butun tavsifi –grammatik kategoryalari: tasdiq, inkorlik, shahs (personallik), zamon (temporallik), kommunikativ maqsad vahakozolar kesimga qarab belgilanadi. Kesim gap qurilishida uyushtiruvchanlik rolini o‘ynaydi. Qolgan bo‘laklar kengaytiruvchilari hisoplanadi.

Darhaqiqat, kesim gapning asosini tashklil qiladi. Kesimning bir o‘zi ham boshqa bo‘laklarsiz ham gapni tashkil qilishi, egasiz ham fikr ifodalashi mumkin. Biz buni so‘z gaplar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Bu jihatdan ega ham kesimning subyekt valentligini to‘ldiruvchi bo‘lak gap tuzilishini kengaytiruvchi hisoplanadi. Kesim predikativ shaklga ega bo‘lganligi uchun gapda boshqa bo‘laklarga nisbatan emas, balki bevosita belgilanadi. Gapning yangi ahborot tashuvchi qismi ham kesim sanaladi. Demak, kesim ham uyushturuvchi markaz ham axborot markazidir.

Predikativlik va kesimlik munosabatlarini turli olimlar turli talqin qilishadi. A.G‘ulomovning fikriga ko‘ra predikativlikni kesim ko‘rsatadi, biroq bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki har qanday holatda ham predikativlik mantiqiy hodisadir. Zero, unda mantiqiy omil birlamchi hisoblanadi. Uning asosida esa hukm yotadi. Shuning uchun ham u gapning grammatik asosini belgilashga xizmat qilmaydi. Bu fikrni tadqiqotchi-olima M.Abuzalova ham o‘zining dissertatsiyasida tasdiqlaydi: “Predikativlik sof mantiqiy kategoriya bo‘lib, harakat va uning sohibi kabi voqelikdagi munosabatlarning inson ongida aks etishidir.

Kesimlik kategoriyasi predikativlik kategoriyasidan mohiyatan farq qiladi.

Rus tilshunosi V.V.Vinagradov ta’limotiga ko‘ra Predikativlikni tashuvchi muhim bo‘lak kesim sanaladi. Shuning uchun gapda ko‘p hollarda ega tushib qolishi mumkinligi, lekin kesimning hech qachon tushib qolmasligi, kesimsiz gap bo‘lmasligi bayon etiladi. Bu fikri bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Bu g‘oya hozirgi o‘zbek tilshunoslari tomonidan o‘zbek tili materiallari asosida rivojlantirilmoqda. A.M.Peshkovskiy asarida yorqin namoyon bo‘ldi. U gapning xarakterli belgisi “kesimlik” ekanini ta’kidlagan holda, uning grammatik kategoriya ekanini, kategoriya bo‘lganda ham gap uchun eng muhim kategoriya ekanini, unda nutq bilan fikr qorishib ketishini, kesimlik fe’llik asosida qurilishini aytadi. An’anaviy tilshunoslikda mantiqdagi hukm tuzilishiga gap orqali ifodalangan predikativlik tuzilishini izomorf holda tushunish natijasida ega bilan kesim gapning struktur asosi,

predikativ markazi deb qaraladi.

Yurchenko V.S Predikativlik shakllari kesimga qo‘shilishi, shuning uchun kesimsiz gap bo‘lmasligi, kesim gap bo‘lagi emas, gapning o‘zi, gapning yadrosi, eng kichik gap ekanligi ta’kidlab o‘tgan.

Gapning eng muhim belgisi predikat ekan, ana shu ma’noni ifodalovchi eng kichik birlik gap sanaladi. Kesim predikativ ma’no va predikativ shaklga ega bo‘lgan eng kichik birlik sifatida gapning bo‘lagi emas, balki gapning o‘zidir.

Kesimning gap bo‘lagi emas, balki eng kichik gap ekanligi quyidagi asoslar bilan belgilanadi:

– birinchidan, shu kungacha gap bo‘lagi tobe munosabatda bo‘lgan ikki sintaktik birlikning tobe vaziyatda turgan qismiga nisbatan belgilangan. Birikma doirasida tobe qismning sintaktik funksiyasi doimo aniq, hokim qismniki esa noaniq, uning sintaktik funksiyasi sintagmatik zanjirning keyingi halqasida boshqa uzvga tobe vaziyatda bo‘lganda aniq bo‘ladi. Bu nuqtai nazardan, kesim sintagmatik munosabatda tobe pozitsiya orqali belgilanmaydi, chunki u hech qachon tobe pozitsiyada turmaydi. Kesim boshqalarga nisbatanlanmagan holda predikativ shaklni olgan sintaktik birlik sifatida aniq belgilanadi;

– ikkinchidan, gap va uning bo‘lagi tushunchasidan kelib chiqilsa, birinchisi butunni, ikkinchisi esa uning qismini bildiradi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan yondashilsa, ega, to‘ldiruvchi, hol singari sintaktik birliklar eng kichik gapning kengaytiruvchilari sifatida uning qismlari sanaladi. Kesim esa bu bo‘laklar bilan kengayish imkoniyatiga ega bo‘lgan eng kichik gapdir.

N.Mahmudov, A.Nurmonovlar fikriga ko‘ra, kesimning shakl va mazmuni o‘rtasidagi munosabati deganda kesim va predikat o‘rtasidagi munosabat nazarda tutiladi. Predikat va kesimlik tushunchalari o‘zaro mazmun va shakl tomonidir. Predikat faqatgina predikativlik shakllari orqali ifodalangandagina, kesimning ma’no tomoni bo‘lib keladi. Predikat ham mazmuniy ham mantiqiy tushunchadir. Mantiqiy tushuncha sifatida predikat-fikrni subyekt belgisini bildiruvchi qismi. Mazmuniy tushuncha sifatida har qanday sintaktik qurilmaning markazi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. A.Nurmonov, N.Mahmudov. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. (2004)

2. Ayub G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi (A.G‘ulomov tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlanadi. (2004)

INGLIZ TILI FANINI O‘QITISHDA SAMARADOR USULLAR

To‘rayeva Hayotxon Maribjonovna
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
50 - sonli maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi
Elektron pochta: dilmurod23911@gmail.com
Tel: +998 93 058-49-39

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o‘rganishning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Ingliz tilini o‘qitishda qo‘l keladiga samarador usullar tahlili keltirilgan. Professor tadqiqotchilar tavsiya etgan metodlar hamda muallif ilmiy faoliyati davomida samarali deb bilgan usullar taqqoslangan. Ushbu maqola mustaqil til o‘rganuvchilar hamda yosh til o‘rgatuvchilar uchun kichik metodik tavsiya bo‘la oladi.

Kalit so‘z: til, grammatik struktura, tinglab tushunish, muloqot, tavsiya, metod, harakatli o‘yinlar, innovatsion texnologiyalar.

Annotation: In this article there is discussed the importance of learning language nowadays. There presented the effective methods that are used while teaching English. There compared the methods which were recommended by professors and the author whose methods were considered to be effective during the scientific research. This article can be a little methological recommendation for independent language learners and youth teachers.

Key words: language, grammar structure, listening skills, conversation, recommendation, method, innovative techlologies and activities.

Til bilgan el biladi, deydilar. Bugungi kunda til o‘rganish jarayoni eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Alloma Ali Bey til eng olis nishonni ham ura oladigan qurol ekanini aytib o‘tgan. Chindan ham bir necha tilni bilish kishini ahli dunyo bilan yaqinlashtiradi, uzoqni yaqin qiladi, barcha faylasuf-u olimlarning asarlari bilan tanishish imkoniyatini yaratadi.

Tilni tez va puxta o‘rgatishning bir necha muvaffaqiyatli usullari mavjud bo‘lib, pedagog dars jarayonida quyidagi usullardan o‘rni bilan foydalanib borsa, maqsadli bo‘ladi. Mutaxassislar fikricha, dars jarayonida AKTdan foydalanish, harakatli o‘yinlarni qo‘llash, musiqali daqiqa o‘tkazish kutilgan natija beradi.

XXI asr — asr ulkan axborot asri, raqamli iqtisodiyot davri, g‘oyat globallashib borayotgan palla. Demak, bugungi kunni texnikasiz tasavvur qila olmaymiz. Yosh avlodni ta’limga jalb qilishda ham texnika yutuqlaridan foydalana bilishimiz zarur. Boisi asrimiz yoshlari bilimga chanqoq, zamon bilan hamnafas. O‘qituvchi har bir darsni taqdimot asosida o‘tsa, o‘quvchining dars jarayonidagi faolligi o‘rtadi, til o‘rganishga qiziqishi kuchayadi. Ma’lumotlarni o‘zlashtirishda ko‘z xotirasi ham muhim ahamiyat kasb etishini yodda tutish kerak.

Harakatli o‘yinlar ham samaradorligi bilan metodlar ichida o‘z o‘rniga ega. Bu usul o‘quvchilarda bir necha imkoniyatlarni yaratadi. Inson qachon faol holatda bo‘lsa, maqsadga oson erishadi. Shu bois harakatli o‘yinlar har qanday til o‘rganuvchini faollikka chorlaydi, jarayonga kirishiini ta’minlaydi. Harakatli o‘yinlar o‘rganuvchi tashabbuskorligini oshiradi, xotirasini kuchaytiradi. Bugungi kunda harakatli o‘yinlarning “Duck Duck Goose”, “What’s Missing”, “Find the object”, “Hot Potato” turlari ommalashgan.

Dars jarayonida musiqali daqiqa o‘tkazish jahon pedagogik amaliyotida keng

qo‘llanmoqda. O‘rganish mobaynida erkinlikni ta’minlash, kelishuvchanlik va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini uyg‘otadi. Ularning yoshini inobatga olib, turli qo‘shiqlar ayttirib yoki sho‘x kuy yozilgan audio disk yordamida o‘quvchilarni daqiqalik raqsga chorlash ham kayfiyatni ko‘taradi.

Shuningdek, tilni o‘qitishda eng mashhur quyidagi 3 ta usuldan ham foydalanish mumkin: “Grammatik struktura (grammar teaching)”, “Tinglab tushunish (Audio lingual method)”, “Muloqot jarayonida til o‘rganish (Communicative language teaching)”. Bu usullarni quyidagi jadval bilan farqlashimiz va solishtirishimiz mumkin. Grammatik yondashuv bo‘yicha tilshunos olim professor Davidning 1998-yil “English language teaching” jurnalida e’lon qilingan “Grammar teaching in context” nomli maqolasida grammatikani o‘rgatishda “Grammar translation (grammatik tarjima)” metodi haqida o‘z mulohazalarini bayon qiladi. Ushbu metod ko‘p yillardan buyon til o‘rganishning eng ko‘p tarqalgan metodidir. O‘quvchilar gap va ularning tuzilish tarkibini o‘rganadilar va ular asosida misollar keltiradilar.

Grammatik struktura asosida gaplarni o‘z ona tiliga yoki ularni o‘rganilayotgan til grammatik strukturasiga ko‘ra o‘sha tilga tarjima qilib ko‘radilar. Grammatik tarjima darslarida o‘qituvchi o‘quvchining ona tilida, ya’ni fikrlash tilida qoidalarni tushuntiradi va bir nechta misollar keltirilgam mashqlar beradi. Unutmaslik lozimki, egallangan bilim mashqlar yordamida mustahkamlanadi. O‘quvchilar misollar ustida ishlaydilar. E’tibor ko‘proq o‘qish va yozuv ko‘nikmalariga qaratiladi Biroq tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalariga kam e’tibor qaratiladi. Bunda o‘quvchiga qaraganda o‘qituvchining faolligi birinchi o‘ringa chiqadi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, “Grammatik tarjima” metodining nufuzi tushib bormoqda. Chunki o‘quvchilar har doimgidek berilgan gaplarni ona tiiga tarjima qiladilar, qoidalarni yod oladilar. Bu esa o‘rganilayotgan tilda muloqotni cheklab quyishga olib keladi. O‘z-o‘zidan gapirish ko‘nikmasi shakllanmay qoladi.

Tarjimada ikki til o‘rtasida o‘xshash va farqli jihatlar kuzatiladi, bu esa tushunmovchiliklar keltirib chiqaradi. Grammar translation metodiga misol keltiraylik. Masalan, uchun o‘qituvchi likes/dislikes+GERUNDY strukturasini o‘quvchilarga tushuntiradi va doskaga “Lobar kitob o‘qishni yoqtiradi” degan gapni yozadi. O‘quvchilardan uni ingliz tiliga tarjima qilishlarini so‘raydi. O‘quvchilarning tarjima qilishlarini kuzatadi, xatolar to‘g‘irlanadi va kitobda berilga mashqlarni shu tarzda bajarishlarini so‘raydi.

Yana bir usul “Audio lingual metod”i o‘quvchilarda tinglab gapirish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. ALM metodiNoan Komsky asos solga behaviorism(o‘zini tutish) nazariyasiga bog‘liq. 1970-yilda o‘qituvchilar ALMdan foydalanishni to‘xtatganlarida, u quyidagi mantiqiy savol bilan murojaat etgandi :

—Why can we all say new things that we have never heard before? (Qanday qilib barchamiz oldin hech qachon eshitmagan narsalarimizni ayta olamiz?)

ALMdan hali-hanuz darslarda foydalanib kelinadi. Chunki ko‘p o‘quvchi va o‘qituvchilar tez-tez takrorlash, o‘rganish muvaffaqiyat kaliti ekaniga ishonadilar.

“Muloqot jarayonida til o‘rganish (Communicative language teaching)” metodi ham sinalgan va samarali usullardan biri hisoblanadi. Boisi o‘quvchi olgan bilimlarini muloqot jarayonida amalda qo‘llay boshlaydi. Avvaliga ko‘plab xatolar qilishi mumkin, lekin kamchiliklarni o‘z vaqtida tuzatib borsa, tilni o‘rganish tezlashadi.

Xullas, til o‘rgatuvchi qay usuldan foydalanmasin, barchasi til o‘rgatishga xizmat qilishi kerak. Innovatsion texnologiyaning vazifasi boshqa millatga mansub bo‘lgan turli tarbiya

ko‘nikmalari, ijodiy izlanish metodlari, AKTni chuqur bilish malakalarini o‘rganishdan iborat. Umumta’lim maktab o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatgichini yuksaltirish uchun o‘qituvchi-pedagoglar ta’lim jarayoniga zamonaviy dastur va ijodiy metodlarni olib kitishi va o‘zi ham faol qo‘llashi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. ─Toshkent: Fan, 2006.

2. Michael Berman, Games for Language learning . UK, Cambridge university Press, 1984.

3. Mirzayeva G. Ulug‘larning so‘zlari, so‘zlarning ulug‘lari. Toshkent: Nasaf, 2010.

TAHLIL, TAHLIL VA YANA TAHLIL!

Tosheva Obida Murodovna
Buxoro viloyati Romitan tumani
23-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Tel: +998936555111 Pochta: romitan_paxta.@ mail.ru

Annotatsiya: Ona tili darslari o'quvchini o'z ona tilini sevishga, so'z boyligini oshirishga, so'zning keng imkoniyatlaridan foydalana olishga o'rgatadi. Bu borada ona tili darslarida tahlil metodi juda qo'l keladi. Biz quyidagi maqolamizda tahlilning turli ko'rinishlaridan darsda qay darajada foydalanish mumkinligi haqida fikr yuritamiz. Ona tili darslarida tahlilning muhim ahamiyati shundaki o'quvchi mavzuni shu orqali nozik nuqtalarini anglab yeta oladi.

Kalit so'zlar: tahlil, morfologik, sintaktik, morfemik, fonetik, gap bo'laklari, so'z turkumlari, qo'shimchalar, tovushlar.

"Haqiqat bahslarda tug'iladi", - deyishadi. Albatta, bahs-munozara ilmni yuksaltirishning asosi. U kishini teranroq fikrlashga, ilmini oshirishga undovchi vosita. Moziy sahifalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, turli mavzulardagi mashvaratlar, navoiyxonlik, bedilxonlik-u fuzuliyxonlik kechalari bejiz tashkil etilmagan. Aslida ham o'z fikrida sobit, ilmi donish, aql-u zakovati ila har qanday davrada o'zini ko'rsata oladigan yoshlar har bir davrning talabi. Zamon qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, ilmi bor odam hech qachon uyalib qolmagan. Men tavsiya etmoqchi bo'lgan metod o'quvchilarni dars jarayonida bahslarga chorlab, fikrini uyg'otishga undasa ne ajab.

Tahlil metodi. To'gri, ancha "qadimiy" usullardan (Zero meni va mening yoshimdagilarni shu usul bilan ustozlarimiz ona tili sirlaridan bahramand etishgan). Ammo tahlil usuli bugungi kun talabidagi innovatsion metodlar soyasida biroz ko'rinmay ketgandek, nazarimda. "Yangi yor topganda do'stlar eskidan kechmoq kerak" qabilida ish yurityapmizmi, yoki bu metodni qo'llasak, darslarimiz eskicha bo'lib qoladi deb hisoblaganimiz uchunmi unga kamdan kam murojaat etyapmiz. Ona tili darslarida tahlil g'oyat beqiyos o'ringa ega. Chunki tahlil o'quvchining diqqatini jamlashga yordam beradi. Mavzuni har tomonlama o'ylab ko'rishga undaydi.

Tahlilning bir necha turlari mavjud. Fonetik, sintaktik, morfemik, morfologik, tahlillar shular jumlasidandir. 5-sinf ona tili darsligining asosiy mavzulari sintaksis va fonetikadan iborat. Shu sababli 5-sinflarga fonetik va sintaktik tahlilni qo'llash o'rinli.

Gap bo'laklari mavzusiga 5-sinfda atroflicha to'xtalib o'tilgan. O'quvchi boshlang'ich sinfdanoq bosh bo'laklar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Ammo 3-sinf darsligidagi "Ikkinchi darajali bo'laklar ostiga to'lqinli chiziq chiziladi" tarzidagi qoidadan bo'lak fikr berilmaganligi bu borada o'quvchilar bilan ko'proq ishlash zarurligini ko'rsatib turibdi. 5-sinfga kelgan o'quvchining "Men kitob o'qiyman " tarzidagi gapdan ikkita ega(men va kitob)ni topib qo'yishi ham shundan. Chunki uning nazdida ikkita bosh kelishikdagi so'z berilgan. Tushum kelishigining belgisiz shakli haqida ma'lumotga ega emas. Shuning uchun o'quvchilarga so'zga so'roq berishni o'rgatish lozim. Har darsda bajarilayotgan mashqlarni sinf taxtasiga yozayotganda chiroyli yozuv mashqi qilish bilan birga sintaktik tahlil qilib borish kerak. Masalan: Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, yomon bilan yursang, qolarsan uyatga gapini tahlil qilib ko'ramiz. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, yomon bilan yursang, qolarsan uyatga gapida yursang, yetarsan, yursang,

qolarsan so‘zlari kesim; yaxshi bilan, murodga , uyatga so‘zlari to‘ldiruvchi vazifasida kelyapti. Gap tahlilidan so‘ng o‘quvchiga yana qo‘shimcha quyidagi savollarni berish mumkin: gapda ega qani? (Ega yashirinib kelgan) to‘ldiruvchi qaysi so‘z turkumiga bog‘langan? (fe‘lga bog‘langan) gapdagi to‘ldiruvchilar qaysi kelishik shakli bilan ifodalangan? (Jo‘nalish kelishigi) va boshqalar. O‘quv yili oxirigacha qanday mavzu o‘tilishidan qat‘iy nazar hech bo‘lmaganda bitta mashq sintaktik tahlil etib borilsa, 8-sinfga kelib o‘quvchi gap tarkibidan aniqlovchili, to‘ldiruvchili, holli birikmalarni bemalol ajrata oladi.

Fonetika bo‘limi yuqori sinf darsliklaridan faqat 5-sinfda berib o‘tilgan, xolos. Ammo oliy ta‘limga kirish testlarining katta qismi shu mavzuga tegib o‘tib ketadi. Shu sababli fonetik tahlil g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Mashqlar tahlil etilayotganda gap tarkibida faqat jarangli yoki jarangsiz undoshdan tarkib topgan so‘zlar, portlovchi undoshdan keyin kelgan burun tovushi qaysi so‘z tarkibida uchraydi, qaysi so‘z tarkibidagi lab-tish undoshlarining o‘rin almashishi so‘z qo‘llash bilan bog‘liq xatoni yuzaga keltiradi kabi savollar orqali o‘quvchini fikrlashga undash mumkin. Ana shunday fonetik tahlillarni doimiy qo‘llab turish nutq tovushlari tasnifining oson yodda saqlab qolinishiga yordam beradi. Zero, takrorlash bilimning onasidir.

6-sinfda morfologik, morfemik tahlillarni fonetik sintaktik tahlillarga qo‘shib olib borish kerak. Keling, quyidagi gapni tahlil qilib ko‘ramiz.

Men gilosman, quloq sol,
Rangim ol-u, totim bol.
Topsang qo‘shalog‘imni
Qulog‘ingga taqib ol. (E. Vohidov) (6-sinf 182-mashq).

Morfemik tahlil: gilosman - gilos asos, -man bog‘lama. Rangim –rang asos, -im egalik qo‘shimchasi, totim – tot asos, -im egalik qo‘shimchasi. Topsang – top asos, -sa shart mayli qo‘shimchasi, -ng shaxs-son shakli. Qo‘shalog‘imni – qo‘sh asos, -aloq otga xos lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha, -im egalik qo‘shimchasi, -ni – tushum kelishigi shakli. Qulog‘ingga – quloq asos, -ing egalik qo‘shimchasi, -ga jo‘nalish kelishigi shakli. Taqib - taq asos, -ib ravishdosh shakli qo‘shimchasi. Gap tarkibida 1 ta yasama so‘z mavjud – quloq sol(ot+fe‘l=qo‘shma fe‘l kompozitsion yasalish). Morfologik tahlil: men – olmosh, gilosman – ot, quloq sol – qo‘shma fe‘l, rangim- ot, ol – sifat, -u – bog‘lovchi, totim – ot, bol – ot, topsang – fe‘l, qo‘shaloq – ot, qulog‘ingga – ot, taqib ol – fe‘l (ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi).

Bu morfemik, morfologik tahlillarni fonetik, sintaktik tahlillarga ulab quyidagicha savollar bilan o‘quvchiga murojaat qilish mumkin: necha o‘rinda ham burun, ham lab-lab undoshi bo‘lib keladigan undosh va bir unlidan iborat qo‘shimcha mavjud?(3o‘rinda –im) Asosi sifat so‘z turkumiga oid so‘z qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelyapti?(Kesim) Berilgan qo‘shma gap nechta sodda gapdan iborat? (6ta sodda gap) ulardan nechtasi sodda yig‘iq gap? (4ta) Gap tarkibida nechta ot kesim, nechta fe‘l kesim mavjud? (3ta ot kesim, 3ta fe‘l kesim) Omonimlikni yuzaga keltirgan qo‘shimchalar qaysi so‘z turkumiga xos? (Qulog‘ing – ot, topsang – fe‘l) va boshqalar. Gap tarkibidagi fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar soni nechta? (2ta qulog‘ingga, qo‘shalog‘imni so‘zlarida q tovushi g‘ga almashgan).

Bu kabi savollar o‘quvchini kengroq mushohada yuritishga, mavzu bo‘yicha bahsga kirishishga, ko‘proq narsani xotirasida saqlanib qolishiga yordam beradi. Shu darajadagi savollarga darsda javob bera olgan o‘quvchiga hech qanday qo‘shimcha darslarning ham

hojati bo‘lmaydi. Yeti o‘lchab bir kes degan maqolni ona tili darslarimizda yetti xil o‘lchab javob berishga yo‘naltirsak qanday soz ish bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. I. A. Karimov “Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyotning omili”. T:. “O‘zbekiston” 1995.
2. I.A.Karimov ,,Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori’’. T:. ,,Sharq’’ 1997,
3. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. 6-sinf Ona tili darsligi. “Tasvir” – 2017
4. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. 7-sinf Ona tili darsligi. “Ma‘naviyat” 2017
5. http: // www.ziyonet.uz
6. http: // www.uzedu.uz

REASONS OF ENGLISH BECOMING AS A TODAY'S GLOBAL LANGUAGE

Turayeva Maftuna Boboyorovna
Termez State University, Foreign Languages Faculty
(maftunaboboyorovna@gmail.com)

Annotation: This article reports on the causes of English how to become as a today's language. It focuses on the main factors how it is fundamental to select each reason to clarify the role of English as a global language. It aims at instilling knowledge on the main sources of English usage around the world. Also, the article gives information about the list of core types of reasons.

Key words: global, power, counter-culture movement, the snowball effect, "easy to learn".

The term "global" is being used increasingly nowadays. It is a means of demonstrating that English is spoken in every part of the world. English may not be spoken language all around the world, but it is an official language in a large number of countries. It is also very important for whom works in global workface because English is the international language of business, science, commerce, medicine and many other key areas. It is also the language of international communication, the media, and the internet. The renowned linguist, David Crystal, suggests that a language because of the power of the people who speak it. The "power" of English was initially based on political and military factors , most notably the expansion of the British Empire. Later the role of English as the language of scientific, industrial, financial and economic revolutions further increased its influence. Even in diplomacy, where French once ruled supreme, English is now dominant in most regions of the world. Knowing English increases a lot of chances of getting a good job in a multinational company within home country or for finding work abroad.

There are a lot of factors causing English to become as a global means of communication.

The British Empire. The first and most obvious reason that English became widespread in the first place is because of the British Empire. Before colonizing around a quarter of the planet, Britons were the only ones speaking English, and the language was confined to the British Isles. But once they started doing trade with places like Asia and Africa, colonizing and settling around the globe, the language naturally spread. However, it was mainly used in administration and business dealings—locals were still speaking their native languages for the most part. But when it came to getting an education that was done in English. So English then became an elitist language of sorts, spoken by those who were educated in literature, philosophy and poetry, much like French was back when it was the most widely spoken language.

Post-war USA. The world after the first two world wars was a vulnerable and changing one. American businesses were booming and started doing trade all over the world much like Great Britain had done in the previous century. This bolstered the use of English as the language of global trade. But at the same time, American culture was being exported heavily through music and film. The advent of jazz, rock n' roll and other popular music from both the USA and UK infiltrated the culture of people everywhere, making English more than just the language of business, but the language of entertainment for the masses. Hollywood was

also booming with popular films exported worldwide, and then in the 1960's the counter-culture movement arrived with social change and the hippie movement sweeping across the USA and Europe. Which brings to the next point:

The coolness factor. English is used across the world to signify a certain lifestyle or culture linked to American-style success or entertainment, or sometimes to signify a certain British quality. Advertisers use it all over the world in multi-national markets to sell their products in this way. But, it is also the most common language used in the film and music industry. Big-budget movies and everyone's favorite classic films are mostly produced in English. In music, if a band wants to become popular or famous, they will produce their work in English as well. Maybe it's because English will reach a wider audience, or maybe because English is taken more seriously as an element of good pop music. And then there are sports—American-invented sports today like BMX and skateboarding, and even basketball, have an entire vocabulary in English, and many of the best athletes in those fields are English-speaking—even if they have been recruited from abroad!

Technology. At the same time that the USA was becoming the world's business superpower, the internet was also invented in the USA. This created an entire lexicon for computers and technology that was invented in English. Computer keyboards are suited for writing languages using the Latin alphabet, and the hardware for all our smart technology uses English words that have become commonly used around the world, as there was no other alternative in place when the technology spread like fire to the corners of the Earth. The world of science is also dominated by English for much the same reason: historically, universities publishing important research were doing so in English, and as a scientist today, any serious publication must be done in English. With science and technology playing such a big role in our lives today, English will not be going anywhere soon.

Business. In the modern business world, English is widely used for all the international business, trade and commerce. As a global language, English serves the purposes of the multi-national companies' needs and it is being used as a tool of communication between one business organization and the other. Using the latest technologies in business, the mode of communication such as emails, letters, documentations, video, fax, telephone, etc. are mainly done in English. Graddol (1997) says, "About 80% people use English while they are in Europe. Not only in Europe, it is also used in global business which is happened under the control of World Trade Organization (WTO). [2]

The Internet. The widespread of English as an international language and with the advent of the internet as a mode of fast communication channel which has no boundaries, both are mutually enforcing novel trends and bringing tremendous changes in this age of globalization. Since the inception of the internet, it has brought drastic changes and revolutionized the ways of people's communication and their learning of their English language in the global context. The internet has become an important linguistic medium as computer-mediated communication which is one of the main factors of globalization. The internet has become essential for every aspect of human life including the learning of languages. In 1960s, a new term 'global village' was coined by McLuhan (1962) and he further says, "Electronic communication will unite the world because "the medium is the message". [3]

The snowball effect. Now that English is so widespread across the internet, on the radio, in schools and in the business world, it is hard to escape. It is well known that in order to get a good job in today's global market, speaking English is becoming a requirement more often than not. That's why students and more adults than ever are taking private lessons,

taking language immersion holidays and studying English to become as fluent as they can. It is not a guarantee of success, but it certainly does help!

Some people cite other reasons for the popularity of the English language, such as that it is "easy to learn" or that is evolves with our changing times. Some people long for the days when every country spoke their own language, and English was an eccentricity for language experts. But one thing is fairly certain: English will continue to grow as the world's dominant language.

Used literatures:

1. David Crystal (2003)"English as a global language: Cambridge: Cambridge University Press. (1997), 212 pp.

2. Graddol.D (1997). "The Future of English?" (PDF). UK: The British Council. Archived from the original (PDF) on 19 February 2007. Retrieved 15 April 2007. [3]. McLuhan, M. (1962). The Gutenberg Galaxy: The Making of Typographic Man. Toronto: University of Toronto Press.

ONA TILI DARSLARIDA XATOLAR USTIDA ISHLASH MAVZUSI YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR

Xamidova Malika Abdirasulovna
Toshkent shahar Uchtepa tumani 193-maktab o'qituvchisi
Telefon: +998(93)511 13 66
Xolmurodov280@gmail.com

Annotatsiya: Ona tili darslarida yozma ish tahlillari ustida ishlash, o'quvchining yozma nutqidagi xato va kamchiliklarni aniqlash, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intilishidagi metodik tavsiyalar.

Kalit so'zlar: til, nutq, yozma nutq, og'zaki va yozma, yozma ishlar, xatolar ustida ishlash, metodik yordam,usul,bilim,ko'nikma, malaka

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimiz uchun ulkan taraqqiyot, rivojlanish, bitmas-tuganmas boy bisotini namoyish etish omili bo'ldi. Kishilardagi barcha yaxshi fazilatlar-tilning mahsuli. Ona tilini sevish, uni puxta o'rganish, hosil qilingan malakalarni adabiy talaffuz va imlo qoidalariga muvofiq holda amalda to'g'ri qo'llay bilish madaniylik belgisi hisoblanadi. Ona tilimiz-avlodlarni avlodlarga, asrlarni asrlarga bog'lovchi vositadir. Ona tilini mukammal o'rganish jarayonida o'quvchilar uning serviqor qudratini bilib oladilar[1]. Shunday ekan, ona tili fanini o'qitishdan asosiy maqsadimiz o'quvchilarda ona tilida fikrini to'g'ri, aniq, ravshan va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda tuza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismidir. Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili darslarining asosiy vazifasi sanaladi. Biz-o'qituvchilar yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda bilimli va egallagan bilimini sharoitga mos ravishda qo'llay oladigan tadbirkor kishilarni yetkazib bermog'imiz zarur. Chunki bilimlining bilimi omborda yotgan sara urug' bo'lsa, tadbirkorning bilimi yerga ekilgan dondir, deydilar[2]. Mana shu har bir sohaning tadbirkori bo'lgani kabi nutq tadbirkorligi bilimlarini o'quvchilar ongiga singdirish ona tili darslarining bosh vazifasidir.

Shunday ekan, avvalo, o'quvchilarga ona tili darslari orqali til va nutq tushunchalarini o'rganishini ta'minlashimiz lozim. Tilning lug'at tarkibi va grammatik qurilishi haqida yetarli bilimga ega bo'lmay turib, yozma nutqni oshirish mumkin emas. Yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri qurish va so'zlarni o'rinli qo'llash uchun nazariy bilim bilan birga uzluksiz mashq olib borish muhim o'rin tutadi. Chunki uzluksiz mashq qilib borish natijasidagina yozma nutq sohasida muhim ko'nikma va malakalarga ega bo'lish mumkin. Grammatik qoidalarning yetarli o'zlashtirilmasligi, yozma nutqda ifodalash malakasining yetishmasligi yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'yilishining asosiy sababidir. Shuning uchun nutqni o'stirish bevosita tilning grammatik qurilishini va lug'at tarkibini mukammal o'zlashtirish bilan bog'liq. Badiiy asarlarni muntazam o'qib borish, ulardan zarur joylarini ko'chirib olish, parchalar yodlash, matn yuzasidan turli yozma ishlar olib borish yozma nutqni o'stirishga yordam beradi.

---

[1] Jalolova L. Yozma nutq o'stirish metodikasi.(ma'ruza matni), Andijon, 2009
[2] Jalolova L. Yozma nutq o'stirish metodikasi.(ma'ruza matni),Andijon, 2009

O‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishda yozma ishlarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yozma ishlar o‘quvchini mustaqil fikrlashga, o‘ylashga, izlanishga undaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ijodiylikni, fikrni aniq, lo‘nda va qisqa, tushunarli bayon qilishda yordam beradi. Buning natijasi esa o‘qituvchining yaxshi dars o‘tishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Har bir o‘qituvchining eng birinchi asosiy vazifasi sifatli dars o‘tib, yaxshi tarbiya berishi hamda darsning muqaddasligini mas’uliyat bilan anglashi lozim. O‘quvchilarning egallashi zarur bo‘lgan bilim,ko‘nikma va malaka elementlarini shakllantirish dars maqsadlari orqali belgilab olinadi. Mana shu darslar davomida yozma ishlar o‘tkazilib borilganda, o‘quvchilar xatolarga yo‘l qo‘yilishi ko‘zga tashlanadi. Qo‘yilgan xatolarni bartaraf etish esa ustozlarning zimmasida bo‘ladi. Buni yozma ish tahlil darslarida kuzatishimiz mumkin. Ya’ni xatolar qaysidir mavzularni o‘zlashtira olmaganida, mavzularning qiyinlik darajasidadir. Biz, o‘qituvchilar, ko‘pincha, yozma ishlardan so‘ng xatolar ustida ishlashda yuzaki yondashib ish ko‘ramiz. Bu esa o‘quvchilarning bilimida bo‘shliq paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan xatolar ustida ishlashda bir nechta tavsiyalarni tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Yozma ishlarda xatoga yo‘l qo‘ygan o‘quvchi ustozining tuzatishlariga, albatta, e’tibor qaratadi. Biroq bu “ko‘zdan kechirish” keyingi gal o‘quvchining shu so‘zni xatosiz yozishiga asos bo‘lolmaydi. Shunday ekan, “Xatolar ustida ishlash” soatlari qanday tashkil qilinsa, bola shu xatoni keyingi gal takrorlamasligiga va imlo savodxonligining yaxshilanishiga erishish mumkin?

Yozma ishda yo‘l qo‘yilgan xato o‘quvchi yoshi va sinfidan kelib chiqib, u bilishi zarur deb qaralgan biror mavzuni yaxshi o‘zlashtirmagani yoki tushunmaganini bildiradi. Tovushlarni almashtirish yoki xato gapiradigan bola, albatta, diktantda ham o‘sha so‘zlarni xato yozadi. Tazyiq ostida bo‘lib, kimdandir yoki nimadandir muntazam qo‘rqib yurgan o‘quvchi ham so‘zlarni oxirida harflarni qoldirib ketadi. Avvalo, o‘quvchi orqali yo‘l qo‘yilgan xatolarning guruhlanishi joizdir. Bu guruhlar quyidagilarda ko‘rinadi.

Grafik xatolar : Harf elementlarini tashlab ketish,harflarni tushurib qoldirish, ularning o‘rinlarinin almashtirish holati.

So‘z o‘zagidagi xatolar: jarangli va jarangsiz undoshlarni almashtirish, yonma- yon kelgan bir xil undoshlarning birina tashlab ketish, talaffuzda tushib qolgan undoshlarni yozuvda ham tashlab ketish holati.

So‘z va shakl yasovchi qo‘shimchalarni xato yozish: kichraytirish va erkalash,kelishik,egalik qo‘shimchalarni noo‘rin qo‘llash holati.

Bo‘g‘in ko‘chirishdagi xatolar: ko‘p bo‘ginli so‘zlarda, qisqartma so‘zlarda,bir tovushni bildirgan birikmalarda xatoliklar holati.

Bosh harflarni qo‘llashdagi xatolar: atoqli va tashkilot nomlarini bildiruvchi so‘zlarda,muhim tarixiy sanalarda, joy nomlarini bildiruvchi so‘zlarda xatoliklar holati.

Shevaga oid xatolar: sheva so‘zlaridagi xatoliklar holati.

Yuqoridagi xatolarni bartaraf etishda o‘quvchilar bilan xatolar ustida ishlash tahlil darslari orqali bir nechta metodlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tahlil darslari va turli xil metodlar o‘ziga xos saboq. Keyingi nazorat va yozma ishlar uchun namuna vazifasini o‘tashda tengsiz mashg‘ulot sanaladi.

Mavzuga oid metodik yordam

“XATOSINI TOP” usuli. Grafik xatolarni tuzatish mashqlari

-Kartochkaga harf elementlari tushurib qoldirilgan 8-10 tadan so‘z yozilib, o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchilar esa tushurib qoldirilgan harf elementlarini o‘z o‘rniga qo‘yib, daftarlariga ko‘chirib yozadilar. M: Is hoq, komak, soglom…….

“HARFLARNI O‘Z O‘RNIGA QO‘Y” usuli. Kartochkada harflar tushurib yozilgan murakkab so‘zlar berilib, yozma ishlar mustahkamlanadi. M: Mutaf..akir, f..oliyat, mua..lim

“**KETMA-KET**” **usuli.** Tarkibida ketma- ket kelgan bir xil undoshli so‘zlarning yarmini aytib, qolganini o‘quvchining o‘zi yozishi: al- alla, el- ellik, is- issiq, kat- katta,

“**CHALG‘ITMA DIKTANT**” **usuli**. Bu usulda diktant shevada aytiladi. O‘quvchilar adabiy tilda yozadilar. M: O‘lkamizga bahor keldi. Men “Bahor” ko‘chasida yashiyman. Olma foydaliy meva.

“SO‘Z VA HODISALARNI ESLASH”usuli. Sinf o‘quvchilari kichik guruhchalarga birlashtiriladi va har bir guruh bittadan so‘z tanlaydi.

l. Daraxt, paxta so‘zi bilan o‘yin boshlanadi. Dovuchcha, danak, dombira, doira, do‘lana, paxta, piyola, parta, pomidor kabi “d”, “p” harflari bilan boshlanadigan so‘zlar topiladi.

2. Daraxt, paxta so‘zlarining birinchi bo‘g‘iniga da-, pax- bo‘g‘in q‘oshib so‘z hosil qilish.

3. Berilgan so‘zlarga ohangdosh so‘zlar topish: paxta, taxta, shaxta, vaxta, daraxt, karaxt kabi.

4. Berilgan so‘zlar bilan bog‘liq bolgan barcha so‘zlarni eslash: paxta, momiq, chigit, shona, g‘o‘za, ko‘sak; Daraxt, barg, gul, meva, danak, kurtak, tomir, ildiz

5. Berilgan so‘zlar ichidan birini tanlash: paxta, xat, daraxt, xatar.

6. Berilgan so‘zlar bilan bog‘liq birorta hodisani eslash, hikoya, ertak, sarguzasht to‘qishga harakat qilish.

7. Berilgan so‘zlardan “Sinkveyn” tuzish.

Ot Paxta.
Sifat Momiq, oppoq.
Fe‘l O‘sadi, ochiladi, gullaydi.
Gap Paxta qiyg‘os bo‘lib ochildi
Ma‘ nodoshi Oq oltin

“**TOPOG‘ON” usuli** . Tulki, sichqon, mazali non, dush, qochdi, dum, yong‘oq;

2.Xurmo, malla soch, kamon, tush, afsus, daryo, osmon;

3. Taksi, kino, pul, sahifa, chipta, uyalib qoldik, sahna;

4. Ovchi, muzqaymoq, bo‘ri, hayvonot bog‘i, qafas, daraxt

5. Tufli, koptok, erka, oyna, ertak, tosh. Berilgan so‘zlar ishtirokida matn tuzing va unga sarlavha toping.

“KIM KO‘P SO‘Z TUZADI usuli O‘quvchilarga biror harf (tovush)ga oid so‘zlar topish vazifasi yuklatiladi. Bu harf (tovush) so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida kelishi lozimligi vazifasi beriladi. Masalan, „a“ tovushiga oid so‘zlar toping. So‘z boshida: ayiq, asal,.... So‘z orasida : sariq, maktab..... So‘z oxirida: bog‘cha, chana... kabi.

“T” jadval texnologiyasi . Berilgan bo‘g‘inlarga bittadan harf qo‘shib, so‘zlar hosil qilish: far...,far..., far.. dar... dar...va h.z

“HAMKORLIK KVADRATI” usuli. Hamkorlik texnologiyasi pedagog bilan o‘quvchi o‘rtasida tenglik, demokratik hamda sub’yektlar orasidagi o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Pedagog bilan o‘quvchi hamkor va ijodkor sifatida ish yuritib, birgalikda mashg‘ulot mazmuni, maqsadini aniqlaydilar va birgalikda baholaydilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xatolarni bartaraf etishning ahamiyati bolalarda o‘qituvchi tomonidan berilayotgan bilim, ko‘nikma, malakalar kengaytiriladi.Yuqoridagi usullar ustoz aytayotgan so‘zni eshitadi, his qiladi, uni ko‘rib turgan harflari yordamida o‘z qo‘li bilan yozadi va o‘zlashtiriladi, xotirasida yaxshi saqlab qolishiga yordam

beradi. Bolalarga singdirilayotgan bilim, ko‘nikma, malakalar orqali ularda axloqiylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi sifatlari shakllantiriladi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi yozma nutqidagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. Shu tariqa o‘quvchi bilimidagi bo‘shliq bartaraf etilib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yunusov Q.A. Ona tili darslarida ta’limiy o‘yinlar. Andijon. 2005
2. Jalolova L. Yozma nutq o‘stirish metodikasi.(ma’ruza matni), Andijon, 2009
3. To‘xlieva B.,Shamsieva M., Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.

XALQ OG'ZAKI IJODIDA JANRLARNING VUJUDGA KELISHI VA DIFFUZIYASI MASALASI.

Xudoyorov Asliddin Xusanovich
Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich magistranti Tel:+998974338693

Butun boshli millatning tartixiy o'tmishi, o'ziga xosligini ko'rsatuvchi eng asosiy vosita-uning folkloridir. Xalq og'zaki ijodi, asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan, xalq turmush tarzi, orzu-umidlari, intilishlarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos badiiy voqe'likdir. O'zining dastlabki yaratilish davridanoq xalq og'zaki ijodi xalqning yozilmagan tarixiga aylandi. "Og'zaki ijod", "xalq og'zaki ijodi", "og'zaki adabiyot" kabi nomlar bilan atalgan badiiy adabiyotning ilk namunalari xalq o'tmishi, hayot tarzini ko'rsatib beruvchi, qolaversa, yosh avlodni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Yozuv paydo bo'lgach, o'zida so'z san'ati asarlarini yaratish iqtidorini his qilgan, xalq orasidan chiqqan odamlar bevosita xalq og'zaki adabiyotiga suyangan holda individual – yakka shaxs ijodini yaratdilar. Badiiy adabiyotning bu yo'nalishi shakllanib rivojlangach, yozma adabiyot tushunchasi paydo bo'ldi. Yaratilish uslubiga ko'ra farq qiluvchi og'zaki va yozma adabiyot bir-birini inkor qilmaydi, aksincha , ijodiy hamkorlikni davom ettiraverdi. Ammo shu bilan birga, har bir adabiyot o'ziga xos xususiyatlarini ham yo'qotmadi. Xalq og'zaki ijodi o'ziga xos badiiy xususiyatlatri bilan bir qatorda janriy bo'linishlarga ham ega. Yunon mutafakkiri Aristotel "Poetika"asarida dastavval adabiy asarlarni uch yirik guruhga bo'lib tasnif qiladi. Aristotel qarashlarini davom etttirgan adabiyotshunoslar ham badiiy ijodni uch yirik tur, ya'ni epos, lirika va dramaga ajratishadi.[1. 22-bet.] Xalq og'zaki ijodini ham yozma adabiyotga asoslangan holda uch asosiy turga bo'lish mumkin. Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, folklor yozma adabiyotdan farq qiladi. Shu boisdan ham uni yuqoridagi uch tur doirasida chegaralash biroz imkonsizday ko'rinadi. Zero yuqorida qayd etilgan uch adabiy tur o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra guruhlangan va janrlar ham shunga muvofiq ravishda turlar tarkibiga kiradi. Xalq og'zaki ijodida shunday janrlar ham borki, ularni har uchala turga ham kiritish imkonsiz. Professor Bahodir Sarimsoqov ana shu jihatlarni inobatga olgan holda, faqat folklorga xos bo'lgan maqol, topishmoq, turli xildagi aytimlar, olqish va qarg'ishlar alohida tur sifatida ajratib ko'rsatilmog'i kerakligiga urg'u beradi.[2. 87-bet.] O'z mulohazalarini asoslagan holda olim folklor asarlarni quyidagi tur va janrlarga bo'lishni muvofiq topadi:

Epos: afsona, naql rivoyat, ertak, doston, terma, qo'shiqlar, latifa, lof;

Lirika: sevgi muhabbat qo'shiqlari,marosim qo'shiqlari,laparlar;

Drama: og'zaki dramma, kulgi hikoya, qo'g'irchoqbozlik, askiya;

Maxsus tur: oddiy o'tirish olqishlari, qarg'ish, so'kish, maqol, matal topishmoq va boshqa holdagi yumuq iboralar.[2. 88-bet.]

«O'zbek folklorining epik janrlari» asarida ham B.Sarimsoqov o'zbek folklorining doston va ertak janrlarini o'rganishda muammoli tahlil yo'lidan borgan. Unda ertak va dostonning janr xususiyatlari, tasnifi, tarixiy taraqqiyoti, janrlararo munosabat va diffuziyasi kabi masalalar muammoli tadqiq etilgan. Mazkur asardan o'rin olgan «Epik janrlar diffuziyasi» nomli qariyb 60 betli salmoqli maqolasida olim o'zbek folklorshunosligida jiddiy tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalalarga e'tibor qaratadi. Bunda u mif va ertak, mif va epos munosabatlarini chuqur tadqiq etib, mifning folklor janri emasligi, uning diffuziyaga uchrashi bevosita ertak, afsona, epos kabi janrlar uchun keng imkoniyatlar yaratganini e'tirof etadi.

Uning fikricha, mif u yoki bu narsa, hodisaning yo ibtidosini, yo intihosini izohlashga xizmat qiluvchi kichik naqllardan iboratdir. Olim mifning yuzaga kelishini insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlari – ibtidoiy jamoa tuzumi bilan bog‘lab, keyinchalik insoniyat ongi, bilim doirasi, tajribasining ortishi bilan asta-sekin inqirozga yuz tutgan, deb ko‘rsatadi. Biroq mif o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketmagan, balki u epik qolip sifatida folklorning juda ko‘p janrlariga asos bo‘lganini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Olim bu tadqiqotida o‘zbek folklori epik janrlarining diffuziyasi natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarning tarixiy asoslari va nazariy qonuniyatlarini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Mifologiyadagi makon va zamon tushunchasi bilan ertakdagi makon va zamon o‘rtasidagi yaqinlik, tashqi jihatdan mushtaraklik, shu bilan birga tafovut ham diffuziya samarasi hisoblanadi[3. 97-bet.]. B.Sarimsoqov mif va xalq eposi diffuziyasi masalasi yuzasidan bildirgan fikrlarida eposdagi mifologik fakt keskin ijtimoiy talqinga aylangan holda aks etadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, romantik hamda kitobiy asosdagi xalq dostonlarining syujeti genetik jihatdan ko‘proq afsonaga, rivoyat, ertak kabi boshqa epik janrlarga borib taqaladi. “Bunday tipdagi dostonlarda, albatta, epos taraqqiyotining turli bosqichlari bilan bog‘liq holda mifologik asos o‘zining shakliy hamda funksional xossalarini qahramonlik eposiga qaraganda nisbatan tiniq saqlab qoladi” [3. 95-bet.], deb olim mazkur tipdagi dostonlarda uchraydigan tipologik obrazlarga ajdar, dev, uchar ot (G‘irot), semurg‘, maston, yalmog‘iz kampir kabilarni kiritadi. SHu asosida romanik hamda kitobiy dostonlar qahramonlik eposiga o‘xshab xalqning real qahramonona o‘tmishi sifatida emas, balki xalq ideallari ifodasi sifatida qabul qilinishini ko‘rsatadi. O‘zbek folklorining janrlar tizimi o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy tamoyillar umumiyligiga, shuningdek, ularning tarixan taraqqiy etgan o‘zaro munosabatlariga va janrlar taraqqiyotidagi umumiylikka bog‘liq holda kechadi. Folklor siarsiga kiruvchi janrlar o‘z mohiyatini ifoda etuvchi xarakterli, hamda boshqalaridan farq qiluvchi xususiyatlari mavjud bo‘lishi bilan bir qatorda, ularni umumlashtiruvchi jihatlar ham mavjud. Bunday umumiylik ularni yaxlit bir sitemaga birlashishlariga yordam beradi. Bunday mushtarakliklar sirasida quyidagilarni ko‘rish mumkin:

Folklor janrlari uchun soddalik, qisqalik, ixchamlik, qahramonlar ahloqiy bahosining aniqligi;

O‘zbek folkloridagi barcha janrlar g‘oyaviy mohiyatiga ko‘ra o‘zaro mushtarak bo‘lib, ularning hammasi xalq hayoti, ruhiyati, orzu-umidlari, intilishlari, shodlik va musibatlari o‘z aksini topadi;

Bundan tashqari folklor janrlari badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi, tasvir ob’ektiga ko‘ra ham bir-biriga yaqinlikni tashkil etadi.

Folklor asarlarda g‘oyaviy mushtaraklikni ham ko‘rish mumkin. Aniqroq aytganda, voqelikni ifodalashdagi vazifasining mushtarakligi ularda mavzu, sujet hamohangligiga olib keladi.

Folklor janrlari munosabatlari murakkab jarayon bo‘lib, u o‘zaro ta’sir, bir-biriga muvofiqlashish va bir-birini boyitish tarzida kechadi. Biz yuqorida mif va epos misolida keltirgan folklorshunos olim B.Sarimsoqov tadqiqotlari ham ayni ana shu murakkab jarayonlarni izohlashga xizmat qiladi. Folklor janrlarni o‘rganish, ularni tur va janrlarga ajratish jarayonida ular o‘rtasida genetik aloqa mavjudligini ham ko‘rish mumkin.Aniqroq aytganda, folklordagi har bir janrning yuzaga kelishida ikkinchi bir janr manba bo‘lib xizmat qiladi. Masalan lirik va epik asarlarga xos bo‘lgan xususiyatlarning umumlashmasi sifatida liro-epik degan yirik tur yuzaga keladi va bu turga kiruvchi asarlar ham lirik, ham epik xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Bundan tashqari, ayrim folklor asarlarning yuzaga kelishi uchun ikkinchi bir janr asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan ayrim dostonlar yuzaga kelishi uchun ertaklar asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Folklor janrlarining yana bir o‘ziga xos munosabati shundaki, bunday asarlar tarkibida boshqa folklor janrlari ham uchraydi.

Xususan, ertaklar tarkibida topishmoqlar, dostonlar tarkibida esa maqollar uchrashi holatlarini ko‘rish mumkin.Foklor janrlari tarixiy taqdirida ham o‘zaro mushtaraklik mavjud. O‘zbek folklori janrlari birdaniga va bir vaqtda vujudga kelmagan. Folklorning eng qadimiy jnrlari-mif, afsona, rivoyat, shuningdek, mavsumiy-marosim qo‘shiqlari, ulardan keyin bosqichda esa, ertak, doston, maqol va topishmoq, ulardan keyin latifa, lof, xalq drammasi, askiya kabi janrlar tizimi o‘z taraqqiyoti davomida rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aristotel “ Poetika”, Belinskiy “Adabiy orzular”
2. Саримсоқов Б.Ўзбек фольклорининг жанрлар состави // Ўзбек фольклори очерклари.3томлик, 1-том.Т.: Фан,1988, 64-85 бетлар
3. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. — Т.: Фан, 1981. 123-бет
4. Mirzayev T, Safarov O, O‘rayev D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent,: “Aloqachi”, 2008 – y.
5. Mirzayev T, Safarov O, O‘rayev D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent,: “Aloqachi”, 2008 – y.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA NOAN’ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Yangiboyeva Gulzira, Yangiboyeva Nafisa
Amudaryo tumani 16-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabining ingliz tili o‘qituvchilari
+998993172924, +998973592468

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta’limidagi ingliz tili darslarini tashkil etishda samarali va kafolatli natijalar berishga qaratilgan innovatsion o‘qitish usullari haqida fikr yuritilgan hamda bu metodlarni qo‘llashning o‘ziga xos muhim xususiyatlari ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: innovatsiya, modifikatsiya, ijodiy topshiriq, word o‘ynlari, multimedia.

Hozirgi kunda ingliz tilini oddiy an’anaviy usullarda o‘qitish kutilgan natija bermaydi. Ingliz tilini o‘rganish uchun poydevor faqat harflar va so‘zlar, qoidalar o‘qitishning oddiy usullaridan foydalanib o‘qitish mumkin. Ammo keyin faqat qoidalarni o‘rgatish aksariyat o‘quvchilar uchun zerikarli bo‘lib qoladi. Shu sababli ularning tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi pasayadi. Yuqori sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatish haqida gap ketganda, an’anaviy usullar odatda innovatsion usullardan past natijalarga olib keladi.

Hikoyalardan foydalanish

Tilni o‘rgatishda hikoyalardan foydalanish, hikoyalar o‘quvchilarning qiziqishini orttiradi. Chunki hikoyaning oxirini har bir o‘quvchi bilishni istaydi. Ammo o‘qituvchilar o‘quvchilarning bilish darajasini baholash jarayonini savollar orqali amalga oshiradi. Odatda bu unchalik samarali emas, balki buni oddiy mavzu sifatida qabul qilishadi. Aksincha hikoyaning o‘ziga murojaat qilish kerak, o‘quvchilar bilan birga hikoya ichida sodir bo‘layotgan voqealarni tasavvur qilishga yordam berish kerak. Baholash uchun savollar berish o‘quvchilar tasavvurining butun g‘oyasini yo‘q qiladi, o‘quvchilar hikoyaga javob olish uchun o‘rganishlari kerak bo‘lgan narsa sifatida qarashadi. Hikoya ularga tilni o‘rganishga yordam beradi, chunki uni ular xohlagan dialog asosida talqin etishadi. O‘zlari hikoyalardan ko‘chiradilar, shuningdek o‘quvchilar o‘zlariga oson bo‘lishi uchun o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Interfaol va ijodiy yondashadilar. Ular ko‘proq harakatlar, dialoglar qo‘shishi, tugashini o‘zgartirishi, qiziqarli burilishlar keltirishi mumkin. Modifikatsiya qanchalik ijodiy bo‘lsa, jamoaga berilgan ballar shuncha ko‘p bo‘ladi. Bu esa shaxsiyatni rivojlantirishga va ularga guruh o‘yinchisi sifatida ishlashga yordam beradi. O‘quvchining tilni qanday o‘rganayotganligi haqida. Masalan: O‘qituvchi an’anaviy savol-javob usullaridan foydalangan bo‘lsa, o‘quvchi esa ularga javob bersa hech qachon Brutusning chuqur his-tuyg‘ularini, Kassusning ayyorligini va Antonining sadoqatini anglamaydi. Urush fojeasini, Antonining nutqidagi yorqinlik va hikoyaning boshqa shu kabi jihatlari his qilmaydi. Shekspir yozgan ajoyib asarlarning jozibasini tushuna olmaydi. Tuyg‘ular hikoyani anglashga yordam beradi bu jihat ular uchun juda muhimdir. O‘quvchilar o‘zlarini hikoya muhitiga olib kirishlari kerak va o‘zlarini hikoya ichida hisoblashlari kerak. Ushbu jarayon butun tilni o‘qitishning juda samarali usuli bo‘lishdan tashqari juda ko‘p foyda keltiradi. Bu o‘quvchilarning ingliz yozuvchilarining asarlariga qiziqishini oshiradi. Butun jarayon qiziqarli va umuman zerikarli emas. Demak, bu o‘quv jarayonining to‘liqligini ta’minlaydi.

Suhbatlar orqali ta’lim berish

Suhbatlar bu tilni o‘qitishning eng foydali usulidir. O‘quvchi boshqalar bilan suhbatlar yoki tinglash orqali ma’lumot qabul qiladi. O‘quvchilarga hech qachon qoidalar o‘rgatilmaydi, ammo baribir uning ma’nosini tushunishga qodir bo‘lishadi uni kundalik hayotda ishlatishni tabiiy ravishda o‘rganadi. Faqat suhbatlar yordamida tilni o‘rganishadi. Shu sababli suhbatlar o‘quv jarayonining juda muhim qismini tashkil qiladi. Jumlalar tuzilishi grammatika qoidalar

bilan to‘liq o‘rgatiladigan narsa emas. Ularga intuitiv ravishda o‘rgatish kerak. Bu mumkin faqat ko‘p o‘qish va ko‘p tinglash orqali ro‘y beradi. Bunga har bir suhbatda erishish mumkin. Mavzu o‘quvchilarga birinchi marta yozma shaklda berilishi kerak. Mavzu bilan tanishganidan so‘ng fikrlari shakllanadi va bu haqda suhbatlashish yoki gapirish istagi paydi bo‘ladi. Suhbatlar qachon qiziqarli bo‘ladi? O‘quvchini suhbatda ishtirok etishga undaydi? Ushbu suhbatlar umumiy bo‘lishi kerak. O‘quvchilar suhbatni o‘zlari amalga oshirishi kerak. Xuddi do‘stlar bir-birlari bilan gaplashayotganday. Shunda o‘quvchi o‘z nutqini namoyon qila oladi. Bu eng yaxshi usul. Bu jarayon biroz vaqt talab qilishi mumkin, ammo tilni o‘rgatishda u eng samarali hisoblanadi.

O‘yinlar orqali dars berish

Bu juda qiziqarli o‘qitish usuli. O‘quvchilar va bolalar odatda o‘yinlarni yoqtirishadi va ularni ko‘proq o‘ynashni xohlaydi. An’anaviy usullar bilan o‘qitishdan o‘yinlar bilan o‘qitish alohida ajralib turadi. O‘quvchilar o‘qish uchun o‘tirishdan ko‘ra ko‘proq o‘yin o‘ynashga ko‘proq moyil bo‘lishadi. Har qanday mantiqiy fikrlash muammoni hal qilish uchun ikkala birlashtirishga majbur qiladi. O‘yinlar o‘rganish qismida qiziqishni tomonni saqlashga yordam beradi, chunki g‘alaba qozonish istagi juda kuchli. Ta’lim jarayonining turli tomonlarini o‘z ichiga olgan o‘quv jarayonini deyarli kun davomida davom ettirish mumkin.

Word o‘yinlari

Har qanday tilning eng muhim qismi bu so‘z birikmasi. So‘zlarning ma’nosini tushunish uchun va ulardan kundalik hayotda foydalanish juda qiyin ishdir va o‘yinlar o‘quvchilarga buni yengishga yordam beradi. Ko‘plab o‘yinlar aynan shu maqsadlar uchun ishlab chiqilgan. Ushbu o‘yinlar so‘zlarga asoslanib, o‘quvchilarga so‘z boyligini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu juda oddiy o‘yinlar bo‘lishi ham mumkin. Oddiy diktant tanlovi, sinonim kabi o‘quvchilarning so‘z bazasini yaxshilashda yordam beradigan musobaqalar, so‘zlar jumboqlari, anagramlar va topishmoqlar. Ushbu o‘yinlarning barchasi juda o‘ziga xos bo‘lib, ko‘p narsalarga yordam beradi. biz o‘qituvchilar ham so‘z boyligimizni yangilab borishimiz kerak, chunki o‘quvchi yangi so‘z eshitganda birinchi savol - bu “bu nima?, “uning ma’nosi? ”va shu tarzda so‘z boyligi yaxshilanadi. Shunda tez-tez lug‘atga murojaat qilishiga sabab qolmaydi.

Musobaqalar orqali o‘qitish

Ko‘pincha munozaralar va tushuntirishlar singari musobaqalar ham o‘quvchilarga ko‘p yordam beradi. Musobaqalarning bir yo‘nalishi sifatida tilni o‘rganish ularni eng yaxshi suhbatlarda ushlab turadi. Bu o‘z fikrlarini bildirish va yaxshi so‘z boyligidan foydalanish uchun eng yaxshi jumlalar tuzilishi uchun yordam beradi. Bu ularga tilni o‘rganishda yordam beradigan juda muhim vositadir.

Ijodiy topshiriqlar

Hozirgacha biz muhokama qilgan texnikalarning aksariyati ko‘p harakatlarni talab qiladi. Ushbu usul o‘qituvchidan ko‘p kuch talab qiladi. Topshiriqlar talabalarga nimanidir bilib olishga yordam beradi. O‘zlari va ko‘p hollarda ular biron-bir narsani tadqiq qilishlari kerak, keyin bu haqda biror narsa yozishlari kerak. Bu usul samarali bo‘lsa-da, ko‘p vaqtni zerikarli qiladi. Ushbu yondashuv usuli mos keladigan fanlar bor. Garchi tillar haqida gap ketganda, o‘quvchilarga oldin biror matn topshirish kerak. ulardan shu matn bilan tanishganidan so‘ng ijodiy tarzda davom ettirishlarini so‘rash lozim. Agar o‘quvchilarga shunchaki “hikoya yoki she’r yoki hisobot yozish” kabi topshiriqlar berilsa, ko‘pchilik o‘quvchilar buni bajara olishmaydi, chunki hamma ham hikoya qila olmaydi.

Multimedia yordamida o‘qitish

Qo‘shiqlar, filmlar, seriallar, jurnallar, gazetalar kabi multimedia manbalari juda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu usul o‘rganishning oxirgi bosqichlarida qo‘llanilishi kerak. Ko‘pincha ingliz

tilini grammatik jihatdan to‘g‘ri tushunishi juda muhimdir. Ammo filmlar, ko‘rsatuvlarda tilning ushbu shaklidan foydalanmaydilar. Shuning uchun multimedia yordamidan ehtiyotkorlik bilan foydalangan ma’quldir. Qo‘shiqlar- bu his-tuyg‘ularni bildirishning eng oson usuli. Qo‘shiq va filmlarni bog‘lang, o‘quvchilarga iboralarning ma’nosini, tasvir vositalardan foydalanishni tushunishga yordam beradi. Gazeta va kitoblarni, romanlarni o‘qishning an’anaviy usullari ham o‘qitishning juda yaxshi usulidir. An’anaviy usullar ba’zi bir innovatsion g‘oyalar bilan birgalikda o‘zgartirilganda, butun ta’lim va o‘quv jarayoni boyitilgan va samarali o‘qishda muvaffaqiyat qozonishni kafolatlaydi. Bularning barchasi ingliz tilini o‘qitishning innovatsion va ijodiy usullari.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tillar bizning hayotimizda juda muhim rol o‘ynaydi. Ular bizning his-tuyg‘ularimizni ifoda etishga yordam beradi. Biz xohlagan narsani tushuntirishga, muloqot qilishimizga yordam beradi va shuning uchun kimligimizni ifoda etishda asosiy vositalardir. Shunday qilib tilni bilish va uni to‘g‘ri ishlatish juda muhim. Interfaol usulda o‘qitish yoki an’anaviy usullarda o‘qitish o‘qituvchining zimmasidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iriskulov A.T va boshqalar Kid’s English pupil‘s book 2-sinf. –Toshkent “O‘zbekiston”, 2014

2. Passov Ye.I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. – M.: Prosveщenie, 1991

3. Xoshimov O‘. Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – T., 2003.

4. Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: 1999. - 212 b

5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003. - 174 b.

ABDULLA AVLONIYNING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI

Yusupova Shirin Karimbayevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Qo'ng'irot tumani 41-sonli umumta'lim
maktabi, o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
Telefon: +998933680121

Annotatsiya: Maqolada A.Avloniyning ta'lim-tarbiyaviy qarashlari va uning ilmiy-pedagogik ahamiyati o'rganilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Avloniy asarlarini o'rgatish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogika, metodika, xorijiy tajriba, milliy dastur, samaradorlik.

O'zbek xalqining olis tarixiy o'tmishiga nazar solsak, ajdodlarimiz yoshlar ta'lim-tarbiyasini yuksaltirishga doimo jiddiy e'tibor qaratib kelgan. Yusuf Xos Hojib, Imom al Buxoriy, Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi buyuk ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari buning yorqin misoli sanaladi. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda ta'lim-tarbiya jarayoni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri, samarali bo'lishi pedagogning mahorati bilan bog'liqdir. Globallashuv davri deb qaralayotgan bugungi kunda tarbiya masalasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun oila-maktab-mahalla hamkorligi muhim vosita sanaladi.

Ma'rifatparvar ijodkor Abdulla Avloniy: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur" degan edi.

Buyuk ma'rifatparvarning bu qarashlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunimiz uchun yanada dolzarbdir. Chunki ta'lim-tarbiya bu– kelajak poydevori sanaladi. Shu ma'noda, ta'lim-tarbiya tizimini mustahkamlashdan istiqbolli kelajakni tasavvur qilib ham, shuningdek, ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "…Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" deya ta'kidlagan edi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-sinf Adabiyot darsligida Abdulla Avloniyning tarjimayi holi, "Vatan" hamda "Vatanni suymak" asarlari berilgan.

O'zbek pedagogikasi tarixida A.Avloniy pedagogikani eng birinchilardan bo'lib, "bola tarbiyasining fani" deb ataydi. Bu bilan u pedadagogika fanini chuqur bilganligidan dalolat beradi. "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Axloq", "Tarbiya", "Yaxshi xulqlar", "Yomon xulqlar" deb nomlangan qismlarga ajratilishida ham katta ma'no-mohiyat mavjud.

Asarda bola uchun tarbiyani tug'ilgan kunidan boshlagan ma'qul deya ta'kidlab, bola tarbiyasini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

Tarbiya zamoni;

Badan tarbiyasi;

Fikr tarbiyasi;

Axloq tarbiyasi

Tarbiya zamoni qismida tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur degan savolga javobni uy bekasi ona vazifasi, ikkinchi maktab vazifasidur deydi. Badan tarbiyasi qismida esa, insonga o'qib, o'rganmoq uchun kasalsiz tana lozimligini ta'kidlaydi. Sog'lom qilib o'stirish ota-onaning burchidir. Fikr tarbiyasi uchun esa o'qituvchi va muallimlar mas'ulligini aytib

o‘tadi.

Avloniy so‘zlashuv odobiga ham alohida e’tibor berib, insonning qadr-qimmatini belgilashdagi mohiyatiga yuqori baho berib, “So‘z insonning daraja kamolini, ilm-fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozusidir” – deydi. Shuningdek, “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurg‘on, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan” ekanligini e’tirof etadi.

Abdulla Avloniyning “Yomonliq jazosi” hikoyatida Qosim ismli bolaning fojiali taqdiri haqida hikoya qiladi. Hikoyada bola ota-onasining so‘ziga kirmasdan nuqul yolg‘on gapirishi, bolalar bilan urushib har kuni kiyim-boshini yirtib kelib, onasining mehmon uchun asrab yurgan taomlarini yeb, onasi so‘ragan paytda, mushuk yegandir deb yolg‘on gapirishini aytib o‘tadi. Hikoya so‘nggida esa, otasi bolasini sinash uchun stol ustiga bir tangani qo‘yib, o‘zini uxlaganga solib yotganida Qosim tangani og‘ziga solib, otasi ushlab olmoqchi bo‘lganda esa, tangani yutib yuborib, halqumiga tiqilib jon beradi.

Ushbu qisqagina hikoya orqali o‘quvchilarni yolg‘on gapirmaslikka, yomon ish qilmaslikka, har bir yomon odamning yomon ishi bir kuni boshiga yetishi muqarrar ekanligini tushuntirib o‘tadi.

“Ittifoq” hikoyatida esa, har bir odam birgalikda ittifoq bo‘lib birlashsalar, barcha yomonliklardan ustun kelishi g‘oyasini ilgari suradi. Bunda chumolilar haqida aytib, ular kichkina jonzot bo‘lishiga qaramasdan nihoyatda g‘ayratli va ittifoq bo‘lib yashaydigan hayvondir. O‘z ichida podshohlari va kattalari, askarlari ham bo‘ladi, kattalari nima buyursa shuni qiladi. Agar bitta dushman bostirib keladigan bo‘lsa, hammasi birgalashib unga hujum qilishi oqibatida dushman qochishini aytib o‘tib, yung juda mayda, agar uni birgalashib arqon qiladigan bo‘lsa, filni ham bog‘lash mumkin deya xulosa qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari, o‘zbek xalqining turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning boy pedagogik merosi maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatli manbalarning biri bo‘lib sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjuman, T., 2017
2. Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar”. I jild, T., 2006.
3. Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar”. II jild, T., 2006.

ИНГЛИЗ ТИЛИНИ САМАРАЛИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРИ ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Абдуллаева Фаёза Наимжоновна
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
Тошкент ахборот технологиялари университети ассистенти
Телефон:+998(90) 975 23 77
faithfullady.2330.1991@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада ҳозирги глобаллашув пайтида чет тилини ўқитишнинг янги инновацион технологилар ёрдамида ҳамда тез ва осон тушунтиришга ёрдам берадиган усуллар ҳақида айтиб ўтилган. Техник ОТМларда таҳсил олаётган талабаларга компютер дастурларидан фойдаланиб дарс ўтиш афзалликлари келтирилган.

Abstract: This article outlines new ways of teaching foreign languages in today's globalization, with the help of new innovative technologies, and how they can be quickly and easily explained. Students of technical universities have the advantage of using computer software.

Калит сўзлари: инновацион, глобаллашув, цивилизация, ахборот, матн, коммуникация, комбинация, интерфаол, тенденция, проектор.

Ҳозирги глобаллашув даврида илм-фан, техника ҳам шиддат билан ўсиб бормоқда. Ҳар бир соҳада тараққиёт илгари қадам ташламоқда. Хусусан, илм-фанда ҳам катта ўзгаришлар, сезиларли ютуқларга эришилмоқда. Ҳар бир фанни янги инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиб ўқувчи-талабаларга етказиб бериш бугунги кундаги таълимнинг асосий талабларидан бири ҳисобланади.

Олий таълим муассасаларида мутахассислар тайёрланаётган соҳа йўналишларидан келиб чиққан ҳолда, инлиз тили ўқитиш жараёнида қўшимча матнлар технологиясини қўллаш бўлажак мутахассисларни тил ўрганиш имкониятларини оширади. Бунда муқобиллик усулларидан ҳам фойдаланиш мумкин, яъни бошқа давлатларнинг таълим тизимидаги муқобил услубларини қабул қилиш йўли билан ўқувчи талабаларга бўлган талабни қондириш, башоратлашга юқорида қайд этилган барча ёндашувлардан турли комбинацияларда фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Чет тили фани тўрт аспектга (ўқиш, ёзиш, тинглаб тушуниш ва гапириш) бўлиниб, уларнинг ҳар бири бўйича алоҳида тушунча ва кўникмалар берилмоқда. Таълим технологиялари, бу таълим жараёнида замонавий ахборот технологияларидан унумли фойдаланишдир. Шунингдек, таълим жараёнига замонавий инновацион технологияларини олиб кириш орқали таълим сифати ва самарадорлигини оширишни назарда тутади. Хусусан, чет тилини ўрганишда бундай ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг бир қанча афзалликлари мавжуддир. Тил ўрганиш ва ўқитишда замонавий технологиянинг роли беқиёсдир. Технологик воситалардан фойдаланиш чет тили ўрганишнинг ҳар бир аспестида қўл келади. Масалан, тинглаб тушуниш учун, албатта компьютер, плеер, CD дискларсиз бу жараённи амалга ошириш мумкин эмас. Тинглаб тушуниш тил ўрганишнинг энг муҳим қисмларидан биридир. Бунда ўқувчи-талабалар бир пайтнинг ўзида сўзловчининг талаффузи, грамматик қоидаларга риоя қилганлиги, сўз бойлиги ва унинг маъноларига эътибор бериши талаб қилинади. Таълим жараёнида замонавий технологиялардан фойдаланишда ўқувчи-талабалар ҳам ахборот - коммуникацион технологияларни яхши билиши ва улардан фойдалана олиши

муҳим омил ҳисобланади.

Чет тилини замонавий технологиялардан фойдаланиб ўргатиш ва ўрганиш энг самарадор усуллардан биридир. Бу жараёнда, жумладан:

- компьютерлардан фойдаланганда ўқувчи-талабалар чет тилидаги видео роликларни, намойишларни, диалогларни кино ёки мультфильмларни ҳам кўриши, ҳам эшитиши мумкин;

- чет тилидаги радио эшиттиришлар ва телевидениедаги дастурларни эшитиш ва томоша қилиш мумкин;

- CD плеерлардан фойдаланиш мумкин. Бу техник воситалардан фойдаланиш ўқувчиларнинг чет тилини ўрганишлари жараёнини қизиқарлироқ ва самаралироқ бўлишини таъминлайди.

Таълим жараёнига замонавий - коммуникацион технологияларни олиб кириш, улардан мақсадли ва тўғри, унумли фойдаланиш, улар орқали ўқувчида чет тилига бўлган қизиқишни орттириш, ўқитиш самарадорлигини ошириш энг муҳим масала ҳисобланади. Бу орқали таълимнинг инновацион технологияларидан фойдаланишга имконият туғилади ва талаб ортади. Бугунги кунда инновацион таълим технологияларининг бир неча хил усуллари мавжуд. Улардан дарсларда мавзуни ёритишда кенг ва турли усулларидан фойдаланилса, дарснинг самарадорлиги юқори бўлади ва ўқувчи-талабаларининг дарсга бўлган қизиқишларининг ортиши ҳам таъминланади.

Ҳозирги кунда таълим жараёнида тақдимот фильмлари яратиш имконини берувчи кўплаб дастурий воситалардан фойданилмоқда. Бундай дастурлар бир-биридан қуйидаги жиҳатлар билан фарқланади. Булар, фойдаланувчи учун максимал қулай бўлган мулоқот интерфейсининг мавжудлиги, компьютер параметрларига қўядиган талаблари ва кўп вазифалилиги, яъни дастур доирасида тақдимот фильмларидан ташқари тест синовларини ўтказиш, интерфаол ўқитиш дастурларини ярата олиши.

Чет тилларини самарали ўқитишда, жумладан uvScreenCamera, Adobe Captivate каби дастурий воситалари имкониятларидан фойдаланиш орқали ижобий натижаларга эришиш мумкин. Қуйида қисқача ушбу дастурларнинг имкониятлари билан танишиб чиқамиз.

uvScreenCamera – экранда кечаётган барча ҳодисаларни, курсор ва сичқонча ҳаракатини эслаб қолада ва овозни ҳам ёзиб боради, яна жуда кам ҳажм эгаллайдиган .uvf ва .exe форматли файлларга сақлайди.

Ушбу дастурда тақдимот фильмини ёзиш учун оддий ҳолатда қуйидаги ҳаракатларни бажариш зарур:

- uvScreenCamerani ишга тушириш;

- талаб компьютерда ўрганиши ёки кўриши керак бўлган барча ҳаракатларни бажариш;

- uvScreenCamerani ишини тўхтатиш.

Ҳосил қилинган фильмларни UVF, UVCAB, EXE каби форматларда ёки Microsoft AVI, Macromedia Flash (*.swf), GIF- анимация дастурлари форматида сақлаш.

- uvScreenCamera ёрдамида ёзилган фильмлар қуйидаги устунликларга эга бўлади:

- ихчам ҳажмга эга эканлиги - 40Кб...200Кб / 1 мин (ёки 5 мин ... 25 мин / 1 Мб) овозсиз.

- экраннинг юқори рухсат этилганлигида тасвирнинг юқори сифатга эга эканлиги (1024 x 768 x 32 да 10 кадр/сек.

- компьютер параметрларига қўядиган талабларининг катта эмаслиги.

- Windows XP / 7 / 8/10 ларнинг барчасида ишлай олиш.

Профессор-ўқитувчилар чет тилини ўқитиш жараёнида ушбу дастур орқали мавзуга

доир турли ҳил қизиқарли роликлар тайёрлашлари бу эса талабаларни фанга бўлган қизиқишларини ортиши ҳамда кўриб ўрганиш самарадорлигини оширади. Шундай қилиб, чет тилини ўрганишга эҳтиёж юқори бўлган бир даврда, таълим жараёнида замонавий ахборот технологияларидан, инновацион таълим технологияларидан унумли фойдаланиш бу жараённи самарали бўлишига олиб келади. Ўзбекистон олий ўқув юртлари, шу жумладан техник олий ўқув юртларида компьютер техникалари билан жиҳозланган аудиторияларда чет тили машғулотларини унумли ўтказишда юқорида келтирилган дастурий воситалардан фойдаланиб мавзуга доир қизиқарли материаллар тайёрлаш орқали ижобий натижаларга эришиш мумкин.

Истеъдодли ёшларимизнинг ўз қизиққан соҳаларида етук мутахассислар бўлишлари учун, авваламбор чет тилини жумладан, инглиз тилини мукаммал билишлари зарур. Демак, технологияларни жорий қилиш, ўқитиш услубларини давр талабига жавоб беришини таъминлаш педагог-олимларнинг кечиктириб бўлмас асосий вазифаларидир. Чет тилини ўрганиш ҳозирги давр талаби экан, ўсиб келаётган ёш авлодга тил ўрганишнинг янги услубларини, ўқиш жараёнига тавсия этиш олимлар, мутахассислар олдида турган долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Инглиз тилига ўқитишда янги ғоялар, технологиялардан фойдаланилгандагина ривожланишга, тараққиётга эришиш мумкин бўлади. Машғулотлар жараёнида уларга амал қилинса, яхши самара бериши шубҳасиздир. Қўшимча матн ўқитиш технологиясидан фойдаланишдан мақсад, таълим олишда энг умумий ғоялар билан ўқувчиларни таништиришдан иборатдир. Бу технология шахсга йўналтирилган ёндашувни акс еттиради, ҳар бир ўқувчининг билим, малака ва кўникмаларни эгаллашларигина емас, балки унинг ривожланиш индивидуал хусусиятларини ҳисобга олгандагина унумли, ижобий натижаларга эришиш мумкиндир. Барча соҳаларга чуқур кириб бораётган ахборот коммуникация технологияларидан инглиз тилини ўқитишда ҳам кенг фойдаланиш ўзининг самарасини бериши аниқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Петер Сердюков, (2017) “Innovation in education: what works, what doesn‘t work, and what to do about it?”, Journal of Research in Innovative Teaching & Learning, Vol. 10 Issue 1, pp 4-33, https://doi.org/10.1108/JRIT-10-2016-0007.

2. Hoffman A., Hoizhuter J. (2012). “The evolution of higher education: innovation as natural selection”, in Hoffman A. and Spangehi S. (Eds), Innovation in Higher Education: Igniting the Spark for Success, American Council on Education, Rowman & Littlefield Publishers Inc., Lanham, MD, pp 3-15.

3. Cornali F. (2012), “Effectiveness and efficiency of educational resources”, Evaluation Practices, Indicators and Rhetoric, Vol. 2 No. #, pp. 255-260, available at: www.SciRP.org/journal/sm.

4. Vieluf et al., (2012), Teaching Practices and Pedagogical Innovation. Evidence from TALIS, OECD Publishing, Paris, available at: www.oecd.org/edu/school/TalisCeri%20 2012%20(tppi)-Ebook.pdf

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ТРАДИЦИОННЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Ахорова Амира Аминовна
Самарканд Давлат Чет Тиллар Институти
Магистранти
Телефон:998(90)4489458
amiraaxrorova126@gmail.ru

Аннотация. В статье рассматриваются несколько традиционных и инновационных методов из практики преподавания и мнения специалистов, которые помогают учителям иностранных языков эффективно проводить занятия и мотивировать учащихся к изучению иностранных языков.

Ключевые слова: лекция, перевод текста, метод «тихого» обучения, кластер, проектная методика, метод «ролевой игры».

В рамках процесса глобализации с каждым днём необходимость изучения иностранных языков становится все более очевидной. При обучении иностранному языку особое место занимают занятия, способствующие развитию личностных качеств, стимулирующих развитие и обеспечивающих формирование интереса к изучению иностранного языка. В настоящее время существует очень много методов и подходов при обучении иностранным языкам. Но следует отметить, что методы преподавания иностранных языков постоянно меняется. Как справедливо отмечает видный ученый-лингвист А.А. Миролюбов, невозможно заинтересовать учащихся, повысить их мотивацию, пробудить их интерес, опираясь лишь на старые методы [1988, с.78]. Перед тем как их сравнивать и прийти к конечному мнению давайте сравним их между собой.

Традиционный метод. Лекция- это метод, посредством которого лектор передает словесно ту или иную практическую и теоретическую тему в развернутом виде. Чтобы проводить лекции преподаватель не только должен владеть хорошо темой, но и иметь огромный практический и педагогический опыт. Именно поэтому читать лекции может только хорошо подготовленный специалист своей области.

По своему содержанию и характеру лекции подразделяются на следующие виды:

1. Вводная лекция
2.Обзорная лекция
3.Проблемная лекция
4. Информационная лекция

Вводная лекция проводится студентам, которые вообще не знакомы с той или иной лекцией, это знакомство студентов с целым разделом, изучаемого предмета. Обзорная лекция, направлена на обобщение и расширение знаний студентов по тому или иному предмету. Проблемная лекция проводится для привлечения внимания студентов на решение противоречивых проблем. Информационная лекция характеризуется лишь тем, что педагог должен излагать информацию в устном виде и ознакомить с темой всех учащихся. Лекции обычно проводятся для студентов в высших учебных заведениях и студентам приходится слушать целую речь лектора до конца пары, в течении 1-1,5часов. Это сильно утомляет не только лектора, но и учащихся тоже. От начала до конца урока лектор словесным путем освещает тему и тем самым студенты должны слушать и делать себе заметки, для того чтобы, во время семинара они могли бы и ответить.

Перевод текста. Ученикам дается текст и учитель задает задание перевести его от начала до конца. Перевод текста может осуществляться:

- в устной
- в письменной форме

В устной форме ученики один за другим читают текст и переводят устно на русский язык, тем самым, развивая, свою речь. Это тоже очень эффективно улучшает не только слушание, но и чтение учащихся.

В письменной форме учитель дает задание учащимся перевести им текст в письменной речи, но перед тем как им дать такое он ознакомит с новыми словами, которые есть в тексте и в течении 20-25 минут ученики переводят текст по смыслу. После чего учитель задает вопросы, касающиеся текста. Ученики отвечают.

Еще одним из традиционных методов преподавания является «метод коммуникативных заданий», который представляет собой решение коммуникативных задач. В ходе занятия учитель дает определенное задание по пройденной теме, учащиеся выполняют речевые и неречевые действия, тем самым вступают в контакт друг с другом и пытаются найти правильные пути решения поставленной, учителем задачи. Преимуществом данного метода является не только речевые, но и физические действия, жесты, мимика, что мотивируют учеников не только решить задачу, но и улучшить их разговорную речь. Учебники, предназначенные и составленные в соответствии с данным методом, состоят из коммуникативных заданий в то время как ученики в ходе урока должны решить проблему, поставленной своим учителем.

Кластер – эффективный метод для критического мышления на уроках иностранного языка. Правила очень простые. Учитель в центре ставит тему, а ученики тем самым должны найти всё что касается темы и сделать цепочку между главным и зависимыми словами. Хотелось бы отметить, что система кластеров охватывает большое количество информации. Это идеальный способ сделать наглядными мыслительные процессы учащихся. Иногда кластер еще и называют “наглядным мозговым штурмом”. Этот метод помогает ученикам собраться со своими мыслями в определенном порядке. Считаю, что кластер незаменим при работе с лексикой на уроках иностранного языка. Преимуществом кластера является то, что ученики могут работать с этим методом мне только на интерактивной доске, но и в форме защиты презентации, в парах, в группах, а также индивидуально. В работе с кластерами нужно соблюдать следующие основные правила:

Не бояться записывать всё то, что приходит на ум;

Дать волю воображениям;

Продолжать до тех пор, пока не закончится время, назначенное учителем;

Стараться построить как можно больше связей;

Не следовать по заранее определенному плану.

Метод выглядит простым, но тем не менее является очень эффективным при обучении иностранным языкам.

Инновационный метод. Проектная методика- это индивидуальная и групповая деятельность учащихся, включающая в себя самостоятельную работу по определенной теме в виде презентации, доклада и работы на плакате. Учащимся дается определенная тема, в ходе выполнения которого сталкиваются с рядом проблем, поскольку этот метод является новым для них. Проектная методика применяется на уроках иностранного языка и тем самым включает в себя работу в группах под руководством учителя. Преимуществом проектной методики являются:

- возможность общения учащимися для совместного и своевременного выполнения задания на иностранном языке;
- возможность мотивации в целях победы над остальными группами;
- умение работать с интернет ресурсами и литературой для поиска необходимой

информации;

- развитие самостоятельности у учащихся;
- создание и защита презентации в классе;
-развитие творческих способностей у учащихся.

Считается, что проектную методику лучше использовать для старших классов в школе, но несложные проекты можно применять даже у 7-8 классиков. Для проектирования ученикам следует давать 2-3 урока, в процессе которого учащиеся будут искать информацию и создавать свои презентации, далее планировать как защитить свою работу в классе. В выполнении проекта на уроке участвуют все учащиеся, каждая группа состоит не более 4 человек.

Основную часть работы учащиеся выполняют на уроке. К ним относятся следующие:

- поиск и сбор информации;
- оформление материала самостоятельно;
- презентация проекта;
- подведение итогов.

Задача учителя построить работу таким образом, чтобы учащимся понадобилось дополнительная информация, что способствует самостоятельному поиску материала. Это тем самым приучает учащихся к самостоятельности, демонстрировать свои результаты, защитить свой проект, отвечать на вопросы другой группы, доказывая свою точку зрения и объяснять свой выбор.

Возникает вопрос, с какими трудностями сталкиваются учащиеся при проектировании работы? Учащимся трудно договариваться между собой, так как много людей больше мыслей. Не все участники выполняют свою часть работы. Но все эти трудности преодолимы. Со временем учащиеся привыкнут к этому методу и смогут успешно работать не только в группах, но и индивидуально. Что касается исправления ошибок, то в этом случае учитель, не перебивая, делает заметки себе, т.е. записывает грубые ошибки ученика и в конце урока, при подведении итогов, корректирует ошибки. В целом проектная методика при обучении иностранным языкам является важным этапом не только для развития речевых умений и навыков, но и развития самостоятельности у учащихся.

Следующим инновационным методом является метод «ролевой» игры, который широко известен в Европе. Метод помогает учащимся развивать умение и навыки в области коммуникативной способности. Учитель дает разные темы, например у врача, в магазине или на собеседовании. Работа осуществляется в парах. Учитель дает время на подготовку. Учащиеся выбирают тему и составляют разные диалоги на иностранном языке и тем самым вступают роль. Если выбрали тему «Собеседование» один из учеников выступает в роли работодателя, а другой в роли работника. Затем презентуют свои роли на иностранном языке. Ролевая игра помогает ученикам:

- преодолеть языковые барьеры;
- повышает объем речевой деятельности;
- стимулирует и мотивирует.

В целом метод «ролевой» игры является очень интересным и эффективным при улучшении разговорной речи учащихся на иностранном языке.

В заключении необходимо отметить, что инновационных методов также много, как и традиционных. В процессе преподавания учитель сам решает какой метод ему лучше использовать, так как именно он знаком с аудиторией, оборудованием, количеством учащихся, учебным пособием и способностями учащихся лучше, чем кто-либо другой. Но не стоит забывать, что главной задачей учителя является подготовка все-

сторонне развитых и высококвалифицированных специалистов.

Использованная литература:

1. Азимов Э.Г. «Иностранные языки в школе», 2001, №1, с. 45-50.

2. Барышникова Н.В., Шевченко Т.Д. Технология «SWOT-анализ» как средство обучения иноязычной речи // Иностранные языки в школе, 2011. № 9. С. 72–76.

3. Владимирова Л.П. «Интернет на уроках иностранного языка». «Иностранные языки в школе», 2002, №3, с. 33-41

4. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. // Н.Д. Гальскова. 3-е издание, переработанное и доп. М.: АРКТИ, 2004.

5. Колкер Я.М. и др. Практическая методика обучения иностранному языку: Учебное пособие. Я.М. Колкер, Е.С. Устинова, Т.М. Емалиева. М.: Издательский центр «Академия», 2001.

6. Соловова Е.Н. Автономия учащихся как основа развития современного непрерывного образования личности. // Иностранные языки в школе, 2004.

7. Arnold, N. (2009). Online extensive reading for advanced foreign languages: An evaluation study/ Foreign Language Annals, 42, 103-118

8. Byrnes, H. (2008) Articulating a foreign language sequence through content: Look at the culture standards. Language teaching, 41, 75-78.

9. English Teaching Forum Online, 2009. URL: http://exchanges.state.gov/englishteaching/forum/archives.

10. Thom, N.T. (2008) Using literary texts in language teaching, 24, 95-100.

XITOY VA O‘ZBEK TILLARIDA BELGI-XUSUSIYATINI IFODALOVCHI SO‘ZLAR

Ashurova Mohlaroyim
O‘zDJTU Filologiya fakulteti
Sharq tillari kafedrasi
Filologiya va tillarni o‘qitish
xitoy tili yo‘nalishi 2-bosqich
222-guruh talabasi
Ilmiy maslahatchi: f.f.n., dotsent S.A.Nosirova

Annotatsiya. Mazkur maqolada belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlar va ularning xitoy va o‘zbek tillarida ifodalanishi haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlarning qo‘llanilishi va tuzilishi har ikki tillarda qiyosiy tahlil talqin qilingan.

Tayanch so‘z va birikmalar: xitoy va o‘zbek tillarida belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlar, sodda, qo‘shma, juft, takroriy belgi-xususiyatni bildiragan so‘zlar.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim sohasi eng dolzarb sohalardan biriga aylandi. Ta’lim olishning yangi milliy modelida o‘quvchi, talabalarga yangicha usulda dars berish, ularni izlanishga, mustaqil bilim olishga o‘rgatish, dunyoqarashi keng bo‘lgan kadrlar tayyorlash maqsad qilib qo‘yilgan. Hozirgi kunda o‘zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida –davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san’at sohalarida faol qo‘llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda. Respublikamiz taraqqiyoti kun sayin yuqori pog‘onalarga ko‘tarilib, biz yoshlarning ilmga bo‘lgan salohiyati bilan dunyo sathlarida samarali foydalangan holda dunyo mamlakatlarini o‘rganish Respublikamiz va Xitoy aloqalarining bugungi kunga kelib tobora rivojlanib borishi xitoy tilini o‘rganishga chuqur zaruriyat keltirib chiqarmoqda. Xitoy tilini chuqur o‘rganish, mazkur tilni mukammal egallagan mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalash, xitoy filologiyasiga oid dolzarb masalarni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega vazifa deb qarash mumkin. Hozirgi kunda yosh xitoyshunoslarni qiziqtirayotgan mavzu va turli savollar bilan o‘ylantirayotgan belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlarning har ikki tilda ifodalanishi mazkur maqolaning obyektidir.

Belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlar qanday?, qanaqa?, so‘roqlariga javob bo‘lib predmet va narsalarning belgi-xususiyatini ifodalaydi.

Belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlar tuzilishiga ko‘ra o‘zbek tilida to‘rt guruhga bo‘linadi: sodda, qo‘shma, juft, takroriy.

O‘zbek tilida belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlarning tuzilishi

Sodda	qizil, shirin, go‘zal
Qo‘shma	mehmondo‘st, sheryurak
Juft	katta-kichik, egri-bugri
Takroriy	yap-yangi, kap-katta

Xitoy tilida belgi-xususiyatni bildiradigan so‘zlar tuzilish jihatidan uch guruhga bo‘linadi.

Sodda	大，小， 红，黑。
Yasama	可爱，好受。
Qo‘shma	美丽，便宜，漂亮。

Jadvallardagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkin-ki, belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra o‘zbek va xitoy tillarida turlichadir. O‘zbek tilida to‘rtta guruhga xitoy tilida esa uchta guruhga bo‘linadi. Bu ularning farqli jihatlaridan biridir. Misol uchun可爱 kě ai *yoqimtoy* so‘zini olsak xitoy tilida bu yasama so‘zdir. O‘zbek tilida esa bu sodda tub so‘z hisoblanadi.

Barchamizga ma'lumki, bir asosdan iborat bo'lgan so'zlar sodda belgi-xususiyatni ifodalaydi:白bai *oq*. Yasama belgi-xususiyatni ifodalovchi so'zlar yasovchi qo'shimchaga ega bo'ladi:可爱 kě ai *yoqimtoy* .Ikki va undan ortiq asosdan tashkil topgan so'zlar qo'shma belgi-xususiyatni ifodalovchi so'zlardir. Erksevar, ochko'z, kulrang. Xitoy tilidagi qo'shma belgi-xususiyatni ifodalovchiga kelsa. 漂亮piao liɑng *chiroyli* 漂 piao *chipta*, 亮liang *yorug'* ya'ni ot+sifatdan qo'shma belgi-xususiyatni bildiruvchi so'z hosil qilinyapti.

他的儿子很有修养的

Tā de er zi hěn yǒu xiū yǎng de

Uning o'g'li juda odobli .Ushbu gapda *yǒu xiū yǎng de*有修养的 so'zi belgi-xususiyatni bildiradi.

O'zbek va xitoy tillarida belgi-xususiyatni ifodalovchi so'zlar gap tarkibida otga bog'lanib keladi.

他的母亲诚实的人.

Tā de mǔ qīn cheng shi de ren.

Uning onasi samimiy insondir [1,47]. Ushbu gapda esa belgi-xusiyatni ifodalovchi so'z gapda otga bog'lanib kelishini ko'rishimiz mumkin. Qanday inson deb so'roq bersak ya'ni 诚实的人*cheng shi de ren samimiy inson* deb javob beramiz.

今天天气是凉快的.

Jīn tiān tiān qi shi liang kuai de.

Bugun havo salqin. Bu gapimizda predmetning harorat belgisini ifodalovchi so'z ishtirok etgan ya'ni 凉快的 *liang kuai de salqin* .

O'zbek tilida belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlarning daraja shakllari

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja	Ozaytirma daraja
shirin o'rik	shirinroq	g'oyat shirin	sal shirin
mazali taom	mazaliroq	nihoyatda mazali	sal mazali
toza suv	tozaroq	juda sovuq	sal toza
katta bino	kattaroq	nihoyatda katta	biroz katta

Xitoy tilida belgi-xususiyatni ifodalovchi so'zlarning daraja shakllari

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja	Ozaytirma daraja
高 gāo –*baland*	比 较高 bǐ jiao gāo *balandroq.*	最高zui gāo-*eng baland*	高 一点儿gāo yīdiǎnr *biroz baland*
长 chang *uzun*	比较 长 bǐ jiao chang *uzunroq*	最长zui chang *eng uzun*	长一点儿 chang yīdiǎnr *biroz uzun*
短 duan *qisqa*	比较短 bǐ jiao duan *qisqaroq*	更短geng duan *eng qisqa*	短一点儿 duan yīdiǎnr *biroz qisqa*

Learning strategies are designed plans and activities that students do in the process of learning. The learning strategies are used by the students to improve their own learning comprehension and to determine the successes of learning process. Metacognition is critical for the learning process. It's teaching the why, not just the how. It helps students to be active readers and critical thinkers. What's more, it increases confidence and empowers students to transfer the concepts they learn in the classroom to other disciplines and to real life. Let's take a look at four skills to incorporate metacognition in the secondary classroom:

The importance of the reading skill in academic contexts has made it imperative for researchers to find out how students can be helped to deal with academic reading and writing tasks. Researchers have explored reading strategies that first and second language (L1 and L2) readers used to compensate for their lack of reading proficiency and what they did to increase reading comprehension. Research also shows that there is a positive relationship between students' metacognitive awareness of reading processes and their ability to read and excel academically.

Metacognitive reading strategies encourage readers to get comprehensively the information of the text. It knowingly leads the readers to be aware about another aspect of the reading itself. For instance, while reading the text, the readers are acquired to get the information within the reading text. But, if the readers only read the passage without any knowledge of relevant strategies, then they will get doubtful about what have to do, what have to ignore, what need to skip etc. Another example can be as a student has known numerous reading strategies, but he does not know what time is appropriate to execute those strategies. Then, he employs extensive reading strategy to get the whole information while the time is not

[1] Anderson, N. (2008). Metacognition and good language learners. In C. Griffiths (Ed.), Lessons from good language learners. Cambridge, UK: Cambridge University Press

long enough. Consequently, the student does not get complete information because of a misapplication of reading strategies. Furthermore, the occurrence of misapplication can be rectified by understanding the regulation of cognitive strategies. By means of regulation of metacognitive strategies, hence, the student is able to employ the appropriate strategies, as he needs. This occurrence is in line with previous findings found that metacognitive reading strategies instruction can be effective for adult learners with limited English and literacy skills. Metacognitive reading strategies and reading motivation play a significant role in enhancing reading comprehension.

Reading comprehension can be one of the most important parts for a language learner to master and one of the least favorite topics for teachers to address in the classroom. But most of the students have difficulty with constructing meaning from the written texts. So, as researchers conducted studies in the field of metacognitive reading strategy awareness, they found that metacognitive reading strategy is one of the main important factors to facilitate students' reading comprehension. It can be concluded that universities and schools need to be actively improve metacognitive reading strategies among all students. Research indicates that metacognitive reading strategy awareness promotes both performance and understanding of one's reading comprehension. Research further supports the claim that metacognitive strategies facilitate students' reading comprehension.

Bibliography:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 11.12.2012, 240 (5660)-son

2. Decree of President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev "On Uzbekistan's Development Strategy", February 7, 2017

3. Anderson, N. (2008). Metacognition and good language learners. In C. Griffiths (Ed.), Lessons from good language learners. Cambridge, UK: Cambridge University Press

4. Baker, L. (1991). Metacognition, reading, and science education. In Santa, C., & Alvermann, D. (Eds.), Science Learning: Processes and Applications. International Reading Association, Newark, Delaware.

5. Brown, A. (1987). Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms. In Weinert, F., & Kluwe, R. (Eds.), Metacognition, Motivation, and Understanding (pp. 65-116). Erlbaum, Hillsdale, NJ.

EVFEMIZM VA TIBBIY ETIKA

Ro'zimatova Dilnoza Murodovna
O'zMU, Lingvistika (o'zbek tili)
mutaxassisligi I kurs magistranti
dilnozarozimatova05@gmail.com

Annotatsiya.Ushbu maqolada shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotda lingvokulturologiyaning o'rni,ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan.Tibbiy etika,shifokordagi nutq madaniyati, ayrim terminlarning ishlatilish sabablari izohlangan.

Kalit so 'zlar: tibbiy deontologiya, lingvokulturologiya, evfemizm, tabu, shifokor nutqi

O'zbek tilshunosligida til madaniyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda va lingvistikaning lingvokulturologiya sathi taraqqiy etmoqda. Mazkur yo'nalishning asosiy obyekti madaniyat va til aloqadorligini, ularning o'zaro bog'lanishi, o'zaro ta'sirini bir butun yaxlit tizim sifatida o'rganishdan iborat.Kasbiy sohalar bilan bog'liq nutq ham uslubshunoslik, ham lingvokulturologiya aspektida ishlanishi zarur bo'lgan muammo sanaladi.So'z shifokor bilan bemor aloqasini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadigan, muvaffaqqiyatli davolashga yordam beradigan vositadir.Nutq madaniyati shifokorning umumkasbiy mahorati uchun zaruriy shartlardan biridir.Shuning uchun tibbiy jarayonning doimiy ishtrokchilari, tadqiqodchilar (psixolog, tilshunoslar) doimo tibbiy faoliyatning lingvomadaniy aspektiga qiziqib kelishgan.Tibbiyot sohasining lingvomadaniy aspekti tibbiyot deontologiyasi, psixoterapiya, tibbiy etika masalalari bilan chambarchas bog'liq.

Tibbiyot deontologiyasi – tibbiyot xodimlarining kasbga aloqador etikasi, dori-darmon, umuman, davoning ta'sirini oshirishga qaratilgan xulq- atvor taomillari. Deontologiya, ya'ni kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha 16-asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi L.Bentam tomonidan taomilga kiritilgan.Tibbiyot deontologiyasiga oid ma'lumotlar uzoq tarixga ega.Tibbiyot deontologiyasi shifokor bilan bemor o'rtasidagi, shifokor va uning kasbdoshi o'rtasidagi hamda shifokor va bemorning yaqinlari o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi.Tibbiyot nutqi va unda ishlatiladigan evfemizmlar, ibora va ifodalar o'rganilishi zarur bo'lgan jabhalardan biridir.(1.73)

Shu o'rinda aytish mumkinki, shifokorlar bemorga tashxis qo'yishda uning sog'lig'iga ta'sir etmaydigan tilda yumshatib, muloyimlik bilan kasallikni o'zgacha ifodada aytadilarki, bu tibbiyot ta'limida lingvokulturologiyaning o'z ta'siri borligidan dalolat beradi.Jumladan, shifokor nutqida ayrim evfemizmlarga to'xtalib o'tish lozim, deb topdik.Evfemizm – ifodaga ijobiy yondashuv keltirish maqsadi bilan amalga oshiriladi.

"Evfemizm"- (yunoncha "euphemismos"- yaxshi gapirmoq) narsa –hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'zni qo 'llash (2.33).Tabuga uchragan so'z yoki ibora o'rnida to'g'ridan to'g'ri evfemizm qo'llanadi, ya'ni ma'lum so'zga tabuga uchragan lug'aviy birlikning ma'nosi yuklanadi, u evfemistik ma'no bo'lib qoladi.Tabu so'zi birinchi marta ingliz kapitani J.Kok 1777-yilda Poleneziyadagi Tonga orolida aniqlagan.Tonga tilidagi "ta" belgilamoq, ajratmoq, "pu" butunlay so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "butunlay ajratilgan", "man etmoq", "taqiqlamoq" ma'nosini anglatadi(3.122).

Tibbiyot amaliyotida qo'rquv, uyat, noqulaylik, nafrat kabi salbiy his uyg'otadigan kasallik nomi va u bilan bog'liq voqea-hodisalar ham uchrab turadi.Mana shunday birliklar shifokor nutqida o'z evfemizmiga almashadi.Masalan, *tutqanoq* o'rnida *epilepsiya* so'zini qo'llash uchraydi.Epilepsiya – vaqti-vaqti bilan qisqa muddat, hushdan ketish, tirishish,

g‘ayritabiiy harakatlar qilish bilan kechadigan hurujli kasallik.(1.258)

Siydik tutolmaslik so‘zi o ‘rnida *enurez* so ‘zi ham mutaxassislar tomonidan qo‘llanadi. *Enurez*- kechasi o‘rniga siyib qo‘yish.Ko‘pincha go‘daklar, o‘quvchilar, o ‘smirlarda uchraydi.Aksariyat o‘g‘il bolalarda kuzatiladi.(1.257)

Xuddi shuningdek *qo ‘tir* o‘rnida “*chesotka”,* xalq tilidagi “*pes*” so‘zi o‘rnida mutaxasislar yoki kasalning yaqinlargina tushuna oladigan *vitiligo* “ichketar” o‘rnida *diareya; qisir* so‘zi o‘rnida *bepusht;*, *chot sohasi* o ‘rnida *oraliq yoki chov sohasi; bitlash* o‘rnida *pedikulyoz; aqldan ozish* birikmasi o‘rnida *shizofreniya; xavfli xol* o‘rnida *melanoma* so‘zlarini ishlatish tibbiyot sohasida tez-tez uchraydigan holat.Ushbu o‘rinlarda so‘zlovchi uyat va noqulaylik,qo‘rquv hissini keltirib chiqarmaslik maqsadida nutqida evfemik birliklardan foydalanadi.

Shifokor ayrim kasallik bilan bog‘liq axborotni bemor va uning yaqinlariga yetkazayotganida nihoyatda ehtiyot bo‘lishi lozim, aks holda bu bemorning ruhiyati va salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Lingvistik nuqtayi nazardan nutq qaratilayotgan shaxsning holati, dunyoqarashi, vaziyati, e’tiborga olinishi kerak.Demak, shifokorda lingvomadaniy muloqot tibbiy ta’lim olishni boshlagan paytida shakllantirilib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тиббиет қомусий луғати-Тошкент : Қомуслар бош таҳririяти. -1994.- 291-б
2. N.Mahkamov va b.Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati-Toshkent:”Fan”.-2013.-144-b
3. Sh.Usmanova va b.Madaniyatlararo muloqot.O‘quv qo‘llanma-Toshkent 2017-y.

CHET TILLARNI O‘QITISHDAGI CEFR TALABLARI - BILIM KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Sabirova Zamira Abdullayevna
Xorazm viloyati Xiva tumani.6-son maktabda
Nemis tili fani o‘qituvchisi
Telefon: +998(99)742 67 70

Annotatsiya: Maqolada chet tili,xususan, nemis, ingliz, fransuz tillariga qo‘yilgan umumyevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘rgatish va baholash tartiblarini o‘quvchilar dars davomidagi amaliy jarayon sifatida e’tiborga olingan.

Kalit so‘zlar: Chet tilida nutqiy malakalar: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuvni egallash ko‘mnikmalari, leksik, grammatik, fonetik mashqlarning o‘rni, lingvodidaktika, integrastiya, kommunikativ va kommunikant, tushunchalariga izoh beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarorining tasdig‘i bugungi yosh avlodning jahondagi yetuk oliy o‘quv dargohlarida chet tilida erkin muloqot qilish va har qanday sohada ish faoliyatini olib borishga imkon yaratish maqsadi ko‘zda tutilgan. Zero Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori hamda Xalq ta’limi vazirligining 2013-yil 14-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 163-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur talablari asosida 2013-2016 o‘quv yillari davomida umumta’lim maktablarida chet tillar fanlari o‘qitilishini ta’minlash to‘g‘risidagi bu kabi sayharakatlar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Chet tilida nutqiy malakalar: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuvni egallash ko‘mnikmalari: uzluksiz ta’lim tizimida tillarni o‘rgatish-o‘rganishga alohida e’tibor beriladi. Ko‘nikma tarkibiga kiradigan amaliy qoida ona tili va chet tilda farqlanadigan yoki til ichki interferensiyasini keltirib chiqaradigan chet til hodisalari bo‘yicha beriladi (masalan: artikl, ona tilida yo‘q, otning ko‘plik shakli (birlik shakli leksik birlik hisoblanadi) yoki ingliz tilidagi otning ko‘plik shakli, qaratqish kelishigi, fe’lning sodda hozirgi zamondagi uchinchi shaxs birlik shakli, har uchalasi [z], [s], [iz] qabilida talaffuz etiladi va til ichki interferensiyasiga sabab bo‘ladi. Nemis tilida ham shunga o‘xshagan xolat [z] va [s] tovushlarini ikkala holatda ham s harfi yozilishini talab qiladi, z harfi esa [ts] tovushini beradi. Bundan ko‘rinib turibdiki o‘quvchi tilning leksik va fonetik birliklarni bir vaqtda o‘rganishni egallashi kerak. Har bir tilning o‘rganish grammatik strukturasi mavjud va barcha holatda ham bu struktura barcha yerda tan olinganligi va mukammal qonun qoidalariga egaligi bilan o‘quvchini chalg‘itmaydi va talab doirasida o‘rganishiga imkon yaratadi.

Integrativ yondashuv: Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv jarayonida o‘quvchi avval egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional tajribasini boyitadi. **Kommunikant - muloqotdosh**larning bir-birini tushunishlari chet til bilishning asosiy mezoni hisoblanadi. Kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan **integrativ yondashuv** asosida chet tilini o‘rgatilishidir.

Chet til ta’limida **kommunikativ-kumulyativ** metod tatbiq etiladi. Xorijiy G‘arb lingvodidaktikasi istilohida bu madaniyatlararo muloqot yo‘nalishi nomi bilan yuritiladi. Chet til va madaniyat **yaxlit integrastiyalashgan** holda o‘rgatiladi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga chet til:

1. **amaliy maqsad;**

2. **umumta'limiy maqsad;**
3. **tarbiyaviy maqsad;**
4. **rivojlantiruvchi maqsadda** o'rgatiladi.

Chet til o'qitishning amaliy maqsadi erishish yo'lida umumta'lim maktab kursida chet til o'rgatishning yakuniy amaliy maqsadi – tinglab tushunish va o'qish, ya'ni chet tilda tinglab va o'qib axborot olishdir. **Chet til o'qitish umumta'limiy** maqsadining ro'yobga chiqishida o'rganilayotgan til vositasi orqali foydali hayotiy axborot va til haqidagi yangi sodda ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'zda tutiladi. **Chet til o'qitish tarbiyaviy maqsadi o'quvchi**larga g'oyaviy tarbiya berish, aqliy mehnat malakalarini singdirish, ularning bilish faolligini oshirish mazkur maqsadning mohiyatini tashkil etadi. **Chet til o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi** didaktikadagi rivojlantiruvchi ta'lim ma'nosi bilan hamohang bo'lib, o'quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivastion jihatlarini rivojlantirishni ifodalaydi. Chet tillardan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan leksik birliklar miqdori. I-IV sinflarda o'rganiladigan leksik birliklar aktiv (produktiv) o'zlashtirish uchun mo'ljallanadi. V-VI sinflarda qo'shimsha passiv (resteptiv) leksika ham o'rgatila boshlanadi. VII-IX sinflarda o'qish amaliy maqsad maqomini olishi munosabati bilan passiv leksikani o'rgatishga e'tibor kuchayadi.

Sinflar / Leksik birliklar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
Aktiv (A1, A2)	150	150	100	100	100	100	100	100	100
Aktiv (A1+, A2+)	150	200	150	150	150	150	150	150	150
Passiv	-	-	-	-	100	100	100	100	100
Potenstial	-	-	+	+	+	+	+	+	+
Jami (A1, A2)	150	300	400	500	700	900	1100	1300	1500
Jami (A1+, A2+)	150	350	500	650	900	1050	1300	1550	1800

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Filologiya fanlari blok moduli bo'yicha umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi"- Toshkent-2018
2. "Deutsch Lernen - mit Spass"- M.Sattorov//"O'qituvchi" nashriyoti- Matbaa ijodiy uyi/, Tosh.-2004,b.-38-39.
3. "Deutsch" oliy o'quv yurtlari uchun. O.Jumaniyozov, R.Allayorova, X.Ismoilova, Toshkent,1997.
4. www.ask.Elibrary.com.
5. www.edu.uz internet sayti

TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNS

Sadikova Nodira Urazmetovna
Xorazm viloyati Gurlan tumani 6 –AFCHOIM
Birinchi toifali ingliz tili fani o'qituvchisi
Erkinovam775@gmail.com
tel:+998941190854

Annotation: To explain effective ways of Teaching English to Young Learners
Key words: realia, flexibility of young minds, gestures, follow-up activities

It is the fact that Teaching English to Young Learners plays very significant role in our life. Teaching English to Young learners requires special attention to the study. Critical period 12 or 13 years old will build more proficient speakers of English. It is widely believed that proficiency does not seem only to be dependent on learning English but also it is more dependent on types of program, teaching techniques, curriculum, number of hours spent in English class. It is a fact that early start is not the real solution, teachers of young learners should take advantage of the flexibility of young minds and seeking effective ways of teaching.

I would like to share with you some helpful ideas and ways of teaching which can make a great contribution to the learners development ranging from approximately 5 to 12 years old.

1. Supplement activities with visuals, realia, and movement.

Young learners tend to have short attention spans and a lot of physical energy. As Scott and Ytreberg (1990, 2) describe, "Their own understanding comes through hands and eyes and ears. The physical world is dominant at all times. "One way to capture their attention and keep them engaged in activities is to supplement the activities with lots of brightly colored visuals, toys, puppets, or objects to match the ones used in the stories that you tell or songs that you sing. These can also help make the language input comprehensible and can be used for follow-up activities, such as re-telling stories or guessing games. Included with the concept of visuals are gestures, which are effective for pupils to gain understanding of language. In addition, tapping into children's physical energy is always recommendable, so any time movement around the classroom or even outside can be used with a song, story, game, or activity, do it!

2. Move from activity to activity.

As stated before, young learners have short attention spans. For young pupils, from ages 5 to10 especially, it is a good idea to move quickly from activity to activity. Do not spend more than 10 or 15 minutes on any one activity because children tend to become bored easily. As children get older, their ability to concentrate for longer periods of time increases. So for pupils ages 5–7, you should try to keep activities between 5 and 10 minutes long. It is always possible to revisit an activity later in class or in the next class.

3. Teach in themes.

When you plan a variety of activities, it is important to have them connect to each other in order to support the language learning process. Moving from one activity to others that are related in content and language helps to recycle the language and reinforce students' understanding and use of it. However, moving from activity to activity when the activities are not related to each other can make it easy to lose the focus of the class. If students are presented with a larger context in which to use English to learn and communicate, then attainment of language objectives should come more naturally. Thematic units, which are a series of lessons revolving around the same topic or subject, can create a broader context and allow students to focus more on content and communication than on language structure.

It is a good idea to use thematic unit planning because it builds a larger context within which students can learn language. When teaching English to young learners this way you can incorporate many activities, songs, and stories that build on students' knowledge and recycle language throughout the unit. This gives students plenty of practice using the language learned and helps them scaffold their learning of new language. Common themes for very young learners are animals, friends, and family, or units revolving around a storybook, such as *The Very Hungry Caterpillar* by Eric Carle, which includes food and the days of the week.

4. Use stories and contexts familiar to students.

When choosing materials or themes to use,it is important that you find ones that are appropriate for your students based on their language proficiency and what is of interest to them. Because young learners, especially VYLs, are just beginning to learn content and stories in their native language in school and are still developing cognitively, they may have limited knowledge and experience in the world. This means that the contexts that you use when teaching English, which may be a completely new and foreign language, should be contexts that are familiar to them. Use of stories and contexts that they have experience with in their L1 could help these young learners connect a completely new language with the background knowledge they already have. Teachers could take a favorite story in the L1 and translate it into English for students or even teach the language based on situations that are found in the native country, especially if the materials the teachers have depict English-speaking environments that are unfamiliar to students. This is not to suggest that stories and contexts from the target culture should not be used. Certainly one goal of foreign language instruction is to expose students to new languages and new cultures in order to prepare them to become global citizens in the future..

5. Establish classroom routines in English.

Young learners function well within a structured environment and enjoy repetition of certain routines and activities. Having basic routines in the classroom can help to manage young learners. For example, to get students' attention before reading a story or to get them to quiet down before an activity, the teacher can clap short rhythms for students to repeat. Once the students are settled down, the teacher can start the lesson by singing a short song that students are familiar with, such as the alphabet song or a chant they particularly enjoy. As Cameron(2001, 10) points out, "…we can see how classroom routines, which happen every day may provide opportunities for language development."

Finally, one of the most important ideas to take from this article is the importance of community for learning. Learning a language is never an individual endeavor, and neither is teaching. Although teachers can feel quite isolated in their classrooms, it is important to remember that openness, collaboration, and sharing are the keys to enrich your teaching and your students' learning.

References:

1. Asher, J. 1977. *Learning another language through actions: The complete teacher's guidebook.* Los Gatos, CA: Sky Oaks Productions.

2.Cameron, L. 2001. *Teaching languages to young learners.* Cambridge: Cambridge University Press.

3.Crandall, J. 1998. Collaborate and cooperate: Teacher education for integrating language and content instruction. *English Teaching Forum* 36(1): 2–9

4. Slatterly, M., and J. Willis. 2003. English for primary teachers. Oxford: Oxford University Press.

5. Fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari

CHET TILLARINI O‘QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

TDTU Termiz filiali “Tillar” kafedrasi assistenti
SakbayevaVitaliya Vladimirovna
sakbaevavitalia@gmail.com
TDTU Termiz filiali 10-19 guruhi talabasi
Xushboqov Komil

Annontatsiya: Maqolada chet tillarini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida o‘quvchilar yoki mustaqil o‘rganuvchilarni bilim olish, ularning bilish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil dasturlar va ilovalar oraqli ularning o‘rganayotgan tillarini keng ko‘lamda o‘rganishni o‘z ichiga olgan . Ushbu masalalarni hal qilishda olib borilgan tadqiqotlarga va olingan tajribalar natijalariga binoan, ularni o‘quv jarayoniga tadbiq etish tajribalari keltirilgan va uchraydigan muaommolarni yechimi ifodalangan.

Tayanch so‘zlar: zamonaviy axborot texnologiyalari(ZAT), audio-video, kompyuter, multimedia, EHM dasturlari, eksperiment, analiz, sintez, funksiya, duolingo .

Ilmiy texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida zamonaviy axborot vositalarining ko‘payishi va ta’im tizimlariga kirib borishi, ulardan amalda foydalanish dars samaradorligini oshirishi shubhasizdir. Afsuski, ta’lim tizimida ishlayotgan barcha o‘qituvchilar jumladan mustaqil o‘rganuvchilar o‘rtasida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanmoqda deb bo‘lmaydi. Bunga sabab dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyasi metodikasi barcha fan yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilmaganligidadir. Ayni vaqtda O‘zbekistonda mobil smartfonlarning barcha funksiyalaridan to‘liq foydalanish mustaqil o‘rganuchilar o‘rtasida ommalashmagan deb o‘ylayman.Demak, ta’lim mussasalarida chet tilida qo‘shimcha matnlar o‘qitish texnologiyasini ishlab chiqish va shu maqsadda kasbiy dasturlarni tuzish tamoyillarini amalga oshirishda, chet tillarni chuqur o‘rganishga qaratilgan har bir ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor zarur bo‘ladi. Bu modellashtirilayotgan dasturda konseptual asosni oldindan belgilab olish demakdir. Oliy va o‘rta maxsus ta’limi tizimiga chet tilida kasbiy qo‘shimcha matnlar o‘qitish texnologiyasiga ham yuqorida qayd etilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish masalalarining bir qirrasi deb qarash mumkin. Mutaxassislar tayyorlash jarayonlarida ta’lim tizimi ustuvorligini, jumladan, chet tillar o‘qitish yangi-yangi texnologiya-mexanizmlarini joriy qilishni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, tafakkurning ifodasi, xalqlar o‘rtasidagi aloqa, ma’naviy va boshqa muloqotlar til orqali namoyon bo‘ladi.

O‘quv jarayonining sifati faqatgina axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tadbiq etishning o‘zida ko‘rinmaydi, balki, pedagog zamonaviy axborot texnologiyalarini amalda to‘g‘ri qo‘llaganda, masalalar yechish darsi davomida tushunarli va unumli foydalangandagina ko‘rinadi.

Bunday texnologiyalar ta’lim tizimida o‘z aksini topishi chet tili o‘qitish saviyasini o‘stiradi. Chet tilida, jumladan, ingliz tilida mutoala qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Oliy va o‘rta maxsus ta’limi tizimida mavjud bo‘lgan kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha, shuningdek, ingliz tilini mukammal o‘zlashtirganlarga istiqboldagi ehtiyojlarni belgilash bo‘yicha tarmoqlar metodikasini yaratishimiz (bular Klassifikator, malakali tavsiflar va Davlat ta’lim standartiga muvofiq amalga oshiriladi) lozim.

Ta’lim va tarbiyani kelishish va ularning o‘zaro bog‘liqligi, uzluksiz ta’lim tizimida ingliz tilini o‘zlashtirgan mutaxassislar tayyorlashda izchillikni ta’minlash bunda samarali shakllar

va usullarni, yangi qo‘shimcha matnlar o‘qitish texnologiyasi metodikasini joriy etish va shu kabi boshqa ilg‘or ta’lim uslublaridan keng foydalanish ijobiy natijalar garovidir.

Chet tilida munosabatlar shartlari,nutq, qo‘shimcha kasbiy matnlar o‘rganishning ko‘plab turlarini bilish davr talabi ekanligini ko‘rsatib beradi. Boshqa tillar mohiyatini kamsitmagan holda, ayniqsa, chet tilida muloqot qilishda, nutqini tushunish mutolaa qilish va yozish, nutqiy faoliyat amaliyotida, ixtisoslik, mutaxassisligi bo‘yicha keng tarmoqli va kasbiy adabiyotlarni o‘qishda ularga tushuntirish annotatsiyalar, tezislar, shuningdek, yozma axborot almashish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi va aniqlanadi.

Metodist olimlarimiz, ta’kidlaganlaridek, talabalar matn mazmunini obrazga kirib ifodalash, matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrini bayonidan boshqa, o‘z fikr-mulohazalarini ham suhbat mavzusiga qo‘shimcha tariqasida bayon etishi, o‘quvchini lug‘at boyligini ortishiga chet tilida to‘g‘ri fikrlashga yordam beradi. Bunday uslubdan o‘quv jarayonida to‘g‘ri foydalanilsa, o‘zlashtirishi bo‘yicha ham, o‘qitish muddatlari bo‘yicha ham, chet tilini mukammal o‘rganishda ham ijobiy natijalarga erishishga imkon yaratiladi.

O‘quv jarayoniga yo‘naltirilgan qo‘shimcha matn dasturlari qo‘llanilishi ingliz tili o‘qitish masalasini munosib ravishda hal etishga yaxshi imkon beruvchi metodik yondashuvlarning biridir. Bunday metodika asosida o‘qitishga yondashuvlar hozirgi kunda milliy uslubiyatda keng tarqalib bormoqda.

Mana shu barcha yondashuvlar sof ko‘rinishda emas, turli kombinatsiyalarda foydalanilgan holda namoyon bo‘ladi. Chet tilini o‘qitishda bunday yondashuv e’tibordan chetda qolib ketmasligi zarurligini aytib o‘tish muhim, chunki bu kabi yondashuv texnologiyasi hisobiga boshqa texnologiyalarga qaraganda, qator o‘quv masalalarini ancha muvaffaqiyatli hal etish mumkindir. Kasb-hunar kollejlarida ingliz tili darslarida nutqni rivojlantirish uchun kompyuter texnika vositalari, magnit disklaridan foydalangan holda, turli dasturlar asosida axborotni, matn mazmunini qabul qilish osonlashadi.

Qo‘shimcha matn mohiyatidan kelib chiqib, kompyuter vositasida ta’limiy til o‘rganish bo‘yicha turli o‘yin shaklida yaratilgan dasturlar vositasida tuzilgan kompozitsiyani yozib ko‘rsatish yoki so‘zlab berish taklif etilishi, yoki oldindan ajratib olingan rasmlar yordamida ma’lum vaziyatni yaratish so‘ngra o‘sha kompozitsiyani so‘zlab berish kabilardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, matnning qismlari yoki matndagi mazmun bo‘yicha suhbat o‘tkazish nutqni rivojlantirish uchun foydalidir. Bunda o‘quvchilarda olgan bilimlarini amalda qo‘llashlari uchun so‘z boyliklarini kengaytirish, izlanish faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlari yaratiladi.

Matbuot, davriy nashrlar, ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanib qo‘shimcha matn mavzularini tayyorlash mumkin. Qiziqarli izlanishlar va ilmiy kashfiyotlar haqidagi matnlarni o‘quvchilar qiziqish bilan o‘rganadilar. Matnda tushunishga qiyin bo‘lgan qandaydir so‘z birligi yoki iboralar bo‘lsa, ularni o‘quvchilar tushunib olishlariga yordam beradigan va bir muncha soddalashtirilgan sharkllarini ko‘zda tutish lozim. Bunday ishlar natijasida o‘quvchilar olgan bilimlarini amalda qo‘llash, o‘z bilim doiralarini kengaytirish hamda izlanish jarayonida qatnashish uchun ularda imkoniyat paydo bo‘ladi. Eng quvonarli tomoni til o‘rganish bilan bir qatorda, talabalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga qiziqishlari ortadi.

Chet tilini o‘qitishda yangi g‘oyalar, texnologiyalardan foydalanilgandagina rivojlanishga, taraqqiyotga erishish mumkin bo‘ladi. Mashg‘ulotlar jarayonida ularga amal qilinsa, yaxshi samara berishi shubhasizdir. Qo‘shimcha matn o‘qitish texnologiyasidan foydalanishdan

maqsad, ta'lim olishda eng umumiy g'oyalar bilan o'quvchilarni tanishtirishdan iboratdir. Bu texnologiya shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni aks ettiradi, har bir o'quvchining bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashlarigina emas, balki uning rivojlanish individual xususiyatlarini hisobga olgandagina unumli, ijobiy natijalarga erishish mumkindir.

Oliy va o'rta maxsus ta'limi tizimida mutaxassislar tayyorlanayotgan soha yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, chet tili o'qitish jarayonida qo'shimcha matnlar texnologiyasini qo'llash bo'lajak mutaxassislarni til o'rganish imkoniyatlarini oshiradi. Bunda muqobillik usullaridan ham foydalanish mumkin, ya'ni boshqa davlatlarning ta'lim tizimidagi muqobil uslublarini qabul qilish yo'li bilan o'quvchi, talabalarga bo'lgan talabni qondirish, bashoratlashga yuqorida qayd etilgan barcha yondashuvlardan turli kombinatsiyalarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qo'shimcha matn o'qitishda maxsus xonalarda dars olib borish, haqiqatda samarali bo'lishi uchun darsda lingofon qurilmasidan foydalanib, o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga sharoit yaratish kerak bo'ladi. So'nggi paytlarda darsda bunday uslubdan foydalanishga e'tibor kuchaymoqda. So'nggi ilg'or metodikalarga tayanib, chet tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari deb ularning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, berilgan topshiriq bilan o'quv jarayoni uslublari ma'lum tartibda nutqiy malakalarini rivojlantirishga oid mustaqil ishlarni tushunamiz.

Shunday qilib, chet tilini o'rganish hozirgi davr talabi ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rganishning yangi uslublarini, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga asoslangan holda ishlab chiqib, o'qish jarayoniga tavsiya etish olimlar, mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Iste'dodli yoshlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk mutaxassislar bo'lishlari uchun, avvalambor chet tilini jumladan, ingliz tilini mukammal bilishlari zarur.

Demak, texnologiyalarni joriy qilish, o'qitish uslublarini davr talabiga javob berishini ta'minlash pedagog-olimlarning kechiktirib bo'lmas asosiy vazifalaridir. Mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish ham dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alessi, S.M. &Trollip, S.P.Multimedia for learning: Methods and development. Boston, MA: Allyn and Bacon. 2001. – 128p.

2. Provenzo, E. F., Brett, A. and McCloskey, G. N. Computers, curriculum, and cultural change: an introduction for teachers. Rutledge. New York. 2005. - p. 328. 35.

3. Reyes, S.A. and Vallone, T.L.Constructivist strategies for teaching English language learners.Thousand Oaks: Corwin Press. 2008. – 289p. 4.http://www.uftuit.uzpak.uz/Tatulib/book/ahborot_tehnolog/ahborot_tehnolog _3.htm#model4

ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА.

Шарофутдинов Икболжон Усмонжон угли
Ферганский государственный университет, преподаватель
Телефон:+998903900766
Iqbol_uz@mail.ru

Анотация: В данной статье рассматриваются вопросы применения современных информационных технологий в образовательном процессе и технологии создания простых кроссвордов для занятий иностранного языка.

Ключевые слова: ИКТ, HotPotatoes, HotPotatoes Jcross, Поля “Имя”, “Управление сеткой” , “Автоматическое создание”, Кнопка “Создать сетку”

Информационные коммуникационные технологии (ИКТ) являются как средством подачи материала, так и контролирующим средством. Они обеспечивают высокое качество подачи материала и используют различные коммуникативные каналы (текстовый, звуковой, графический, сенсорный и т.д.). Новые технологии позволяют индивидуализировать процесс обучения по темпу и глубине прохождения курса. Такой дифференцированный подход дает большой положительный результат, т. к. создает условия для успешной деятельности каждого ученика, вызывая у учащихся положительные эмоции, и, таким образом, влияет на их учебную мотивацию.

В отличие от традиционных методике при использовании интерактивных форм обучения ученик сам становится главной действующей фигурой и сам открывает путь к усвоению знаний. Учитель выступает в этой ситуации активным помощником, и его главная функция – организация и стимулирование учебного процесса.

Прекрасные возможности для составления интерактивных кроссвордов дает совсем несложная в обращении программа HotPotatoes («Горячая картошка»).

Новейшие ИКТ занимают все большее и большее место в нашей жизни. Их использование на уроках иностранного языка (ИЯ) повышает мотивацию и познавательную активность учащихся, расширяет их кругозор и позволяет применить личностно-ориентированную технологию интерактивного обучения ИЯ, т. е. обучение во взаимодействии.

Использование информационно – коммуникационных технологий в учебно-воспитательном процессе помогает интенсифицировать и индивидуализировать обучение, способствует повышению интереса к предмету, дают возможность избежать субъективной оценки. Использование компьютера и цифровых образовательных ресурсов в обучении английскому языку помогает учащимся преодолеть психологический барьер на пути использования иностранного языка как средства общения.

Для создания кроссворда запускаем программу Hot Potatoes, загружаем раздел программы HotPotatoes JCross. В поле “Имя” надо ввести имя кроссворда.

Для автоматического создания кроссворда надо щелкнуть на кнопке “Автоматическое создание” в панели инструментов или выбрать пункт меню “Управление сеткой” – “Автоматическое создание”.



При автоматическом размещении слов все слова вводятся списком в поле ввода слов в открывшемся диалоге, при этом все слова вводятся в отдельные строки, а затем программа подбирает варианты их размещения.

В поле “Максимальный размер” указывается максимальное число ячеек в кроссворде. Щелчок на кнопке “Создать сетку” приведет к созданию кроссворда.



Теперь надо ввести определения к словам. Для ввода определений надо нажать кнопку “Определения”. Появится диалог определения: в верхней части экрана расположены слова, которые в кроссворде размещены по горизонтали, в нижней - по вертикали. Для ввода определения надо выделить нужное слово в списке, в поле под списком ввести определение и нажать кнопку OK.

Литературы

1. Белкова М. М. Информационные компьютерные технологии на уроках английского языка // Английский язык в школе. 2008,.№,.с.73–75.

2. Муковникова Е. В. Эффективное использование цифровых образовательных ресурсов на уроках английского языка // Английский язык, Изд. дом “Первое сентября”. 2008, №4, с.4–7.

3. Репина Е. В. Использование компьютерных игровых программ для обучения английскому языку в начальной школе // Английский язык, Изд. дом “Первое сентября”. 2009, №6, с.5–8.

CHET TILI DARSLARI UCHUN SODDA ELEKTRON QO‘LLANMA YARATISHNING SAMARALI USULI

Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon o‘g‘li
Fargona davlat universiteti oqituvchisi
Telefon:+998903900766
Iqbol_uz@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, hamda, chet tili darslari uchuz sodda electron qo‘llanma yaratish texnologiyasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kibernetika, Zamonaviy dasturiy ta’minot, HTML tili, Web brauzer, Web sahifa.

Bugungi kunda o‘quvchilar tomonidan turli fanlardan bilim olishi ham ularning axborotga bo‘lgan talabini qondirshning bir shakli hisoblanadi. Axbortolarning kun sayin ortib borishi, ularni jamiyatimiz taraqqiyotida qo‘llanish sohasining kengayishi turli fanlarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Jumladan, kibernetika, informatika va axborot texnologiyalari fanlarini shular qatoriga kiritsa bo‘ladi. Hozirgi paytda o‘quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini joriy etish va zamonaviy dasturiy ta’minotlar yaratish masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘tishda yangi zamonaviy elektron o‘quv qo‘llanmadan foydalanib, multimedia asosida dars o‘tish noan’anviy dars turlaridan biri hisoblanadi.

Chet tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda chizma, diagramma, jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlarni o‘qish qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqil o‘qish va o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib quyida matematika darslari uchun oddiy elektron oquv qo‘llanma tayyorlashning samarali usulini ko‘rib chiqamiz.



Misol uchun ingliz tili fanining “Verb and tenses” bo‘limini olaylik. Dastlab bo‘limda o‘qitiladigan asosiy va qo‘shimcha ma’ruzalar tanlab olinadi. Barcha ma’lumotlar yig‘ilgandan so‘ng, HTML tlida har bir mavzu uchun alohidadan sahifalar yaratiladi. Har bir sahifa tegishli mavzuga oid nom bilan nomlanadi. Asosiy sahifada esa tegishli mavzular aks ettirilgan mundarijadan iborat bo‘ladi. Rasmlar, grafiklar va jadvallar matn rangiga mos qilib tayyorlanadi. Tayyorlangan sahifalar va sahifaga o‘rnatiladigan ob’ektlar tegishli papkalarga joylashtiriladi. Sahifalar tayyor bo‘lgandan so‘ng ularni bir-biriga bog‘lash uchun giperssilkalar qo‘yilib chiqiladi. Natijada oddiy web brauzerda ochiluvchi elektron

qo‘llanma hosil bo‘ladi. Bu qo‘llanmani ishga tushirish uchun asosiy sahifa “Mundarija. htm” fayli ishga tushiriladi va brauzerda quyidagi ma’ruzalar mundarijasi hosil bo‘ladi.

Ma’ruzalarga o‘tish uchun keraki mazuning ustiga bosiladi, natijada kerali sahifa ochilib, unda belglangan ma’ruza ekranda paydo bo‘ladi. Misol uchun unit-1 sahifasining ko‘rinishi:



Shu tarzda qolgan sahifalar ham ochiladi. Har bir sahifa ostiga qo‘yilgan giperssilkalar orqali oldingi, keyingi sahifalarga, bosh sahifa bo‘lmish mavzular mundarijasiga o‘tish mumkin.



Ushbu turdagi elektron qo‘llarmalardan kompyuter yoki mobil qurilmalar orqali foydalanib ko‘rsatilgan mavzulardan qo‘shimcha adabiyotlarsiz to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishlari mumkin. Bu esa oqituvchi va o‘quvchilarga vaqtdan yutish va qo‘shimcha mablag‘larni tejash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Tayloqov N.I. Elektoron darsliklar o‘qitish faoliyatining zamonaviy vositasi sifatida. – T.: Xalq ta’limi, 2009.
2. Matrosov, Sergeev, Chaunin. “HTML 4.0 v podlinnike” VNV-SPb, 2000g.
3. L.Vaynam, V.Vaynam “Dinamicheskiy HTML.” Diasoft 2001

KOREYS TILIDA 참 DISKURS MARKERINING IFODALANISH FUNKTSIYALARI

Temirbulatova Indira Rustamovna
Urganch davlat universiteti koreys tili o'qituvchisi
Telefon: +998941101177
Indira060387@daum.net

Annotatsiya: maqolada koreys tilidagi 참 diskurs markerining funktsional xususiyatlari o'rganilgan. 참 diskurs markeri ishtirok etgan dialoglardagi anglash, salbiy holatga bo'lgan munosabat hamda yangi mavzuga o'tish kabi bir qancha ma'no xususiyatlari batafsil yoritilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, koreys tilidagi 참 diskurs markeriga ega bo'lgan jumlalar auditoriyaning e'tiborini qaratishni nazarda tutadi, muloqotda kirishilganda tinglovchining diqqatini jalb qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: koreys tili, kommunikativ strategiyalar, diskurs marker, anglash, xorijiy til, muloqot, diskurs, til

Koreys tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilar koreys tilini o'rganishdagi asosiy maqsadi koreys tili egasi sifatida erkin hamda tabiiy koreys tili muloqot qobiliyatiga ega bo'lib, shu tilda hamsuhbatdosh bilan bemalol muloqot qilishdan iboratdir. Muvaffaqiyatli muloqot deganda grammatik jihatdan aniq gap tuzilmalarini shakllantirish muhim lekin, gap mazmuniga mos bo'lgan aniq kommunikativ strategiyalardan ham foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin koreys tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilar haqiqiy muloqotga kirishganida koreys tili ona tili sifatida ishlatuvchilarga nisbatan muloqot vositalarini xilma-xil doirasini pastligini aytib o'tish joiz. Bu narsa xorijiy til o'rganuvchilari til egalariga nisbatan har xil kommunikativ strategiyalardan foydalana olmasligi bilan bog'liqdir.

Ushbu maqolamda koreys tili o'g'zaki nutqda keng qo'llaniladigan , ammo koreys tili yozma adabiyotlarda kam uchraydigan kommunikativ diskurs "참"(cham) to'g'risida batafsil yoritmoqchiman.

Ilmiy tadqiqot ishlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'pgina olimlar "참" kommunikativ diskursi to'g'risida har xil fikrlarga ega bo'lishgan. Kang U Von(강우원)2000 "참" diskursi funktsiyasi haqida "anglash holatini shakllantiradigan funktsiya", "suhbatdoshga yumshoqroq qiladigan funktsiya" , "gapiruvchining ichki kechinmalarini ifodalovchi funktsiya" sifatida ko'rib chiqdi. Kim Hyang Hva(김 향화)2001 esa ushbu diskurs funktsiyasini "ogoh, diqqat funktsiya"si sifatida ko'rib chiqdi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda diskurs marker " 참"ni "yangi muloqot temasiga o'tish", "ma'lumot yetkazish", "anglash", "diqqat, ogoh bo'lish" funktsiyasi sifatida ko'rib chiqmoqchiman.

1.yangi muloqot mavzusiga o'tish ma'nosini ifodalash funktsiyasi.

"참" diskurs marker ma'lum bir mavzuni boshlash funktsiyasini bajaradi.

A: 참, 아저씨, 서울에 "남산타우" 란 거 있어?

(A: aytgancha, amaki, Seulda Namsanthau degan joy bormi?)

B: 남산타우는 없고 남산타워는 있어, 왜?

(B: Namsanthau emas-u Namsanthavo degan joy bor, nima qildi?)

Yuqoridagi misolga nazar tashlaydigan bo'lsak, A so'zlovchi muloqot boshida "□" diskurs markeridan foydalanib, "남산타우란 있어?"(Namsanthau bormi?)deb muloqotni boshlab berdi. Bu yerda "참" muloqotda yangi mavzu boshlash funktsiyasini ifodalaydi.

2. Anglash ma'nosini ifodalanish funktsiyasi.

"참" diskurs markeri ma'lum bir narsa bo'yicha unutib qo'ygan narsa to'satdan esga

tushganda, anglaganda ishlatilib, anglash funktsiyasini bajaradi.

A:빨리 일어나, 늦었어.(A: Tez turgin, kechikding.)

B:왜…나 오늘 학교 안 가. 주말이잖아.(B: nimaga? Men bugun maktab bormayman. Dam olish kuni-ku.)

A:아. 참, 오늘 토요일이지.(A: A, aytgancha, bugun shanba kuni-ku.)

Yuqoridagi misolda qaraydigan bo‘lsak, diskurs marker “참” his-hayajonni ifodalab turgan “아”(a) bilan birlashib, “to‘satdan esga tushib ketgan holat” haqidagi funktsiyani bajarmoqda. Ushbu misolda A so‘zlovchisi bugun shanba kunligini unutib turganida B tinglovchiga bugun dam olish kunligini aytib, A shu zahoti bugun shanba ya’ni dam olish kunligini angladi.

3.Salbiy holat ma’nosini ifodalash funktsiyasi.

“참” diskurs marker suhbatdosh o‘z hissiyotlarini ifodalaydigan funktsiyasi bajarib, asosan salbiy holatda funktsiyani bajaradi.

A: 아, 참… 이게 뭡니까? 이걸 미리 신고하는 게 잊으셨어요?

(A: A, aytgancha, bu nima? Buni oldindan shikoyat arizasi berishni unutdizmi?)

B: 정말 죄성합니다. 안 그래도 바쁘실텐데요.

(B: Judayam uzrli. O‘zi shundoq ham band ediz.)

Ushbu misolda “참” diskurs markeridan foydalangan holda, suhbatdosh o‘zining salbiy hissiyotlarini ifoda qilayotgani yaqqol namoyon bo‘lib turibdi.

Hozirgacha diskurs marker “참” ni har xil finktsiyalarini ko‘rib chiqdik. Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek uning yangi muloqot temasiga o‘tish, anglash hamda salbiy holatni ifodalash funktsiyasi sifatida ko‘rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov. I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. Toshkent. O‘zbekiston, 1995

2. Karimov. I.A. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997

3. Kim N.D. “Zamonaviy koreys tilida muloqot maqsadi ifodalangan gap turlari” Toshkent, 2018.

4. 구종남(1998),「화용표지 ‘좀’에 대하여」, 한국언어문학 41권, 한국언어문학회.

5. 김향회(2001), 한국어 담화 표지의 기능, 한국어학논집 28, 61-80, 우리말글학회.

6. 구지민(2005),「한국목적 한국어를 위한 강의 담화표지 학습연구」, 한국어교육 16 호, 국제한국어교육학회.

7. 김에스더(2008),「한국어 학습자를 위한 담화표지 연구 ‘뭐’, ‘왜’, ‘어디’를 중심으 로」, 경희대학교 석사학위 논문.

8. 김상훈(2013),「한국어 담화표지 연구 - ‘아무튼’, ‘어쨌든’, ‘하여튼’을 중심으로」, 상 명대학교 석사학위 논문.

ILG‘OR O‘QITUVCHIDA NUTQ MADANIYATI

Ubaydullayeva Mashhura Mamatxanovna
Namangan viloyati Uychi tumani
2- maktab ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada nutq madaniyati, o‘qituvchida nutq madaniyati qanday bo‘lishi kerakligi, nuqt madaniyati shakllari haqida fikr yuritish.

Kalit so‘zlar: nutq, nutq madaniyati, tafakkur, notiqlik, o‘qituvchi, til.

Nutq inson aqliy faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham nutq emasmi? Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oily mahsullari tafakkur mevalari til va nutq orqali ro‘yobga chiqadi. Til tafakkur mahsullarining hayotga tatbiq etilishiga vosita bo‘luvchi qudratli quroldir.

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri “Qobusnoma” da ham til va nutqqa alohida etibor berilganki, ular hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘ramiz. Kaykovus hamma hunarlar ichida so‘z hunali-notiqlikni a’lo deb biladi: Bilginki, hamma hunardan so‘z hunari yaxshi” shuning uchun ham kishi suhandon va notiq bo‘lishini ta’kidlaydi. Muallif notiqlikni egallashning yo‘lini tinimsiz mehnat va o‘rganish deb uqtiradi.

Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi: « Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir ». Demak, til har qancha qudrati zo‘r bo‘lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilarkan. Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo‘lar ekan.

Agar til o‘q bo‘lsa, nutq kamondir. O‘qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham bog‘liq.

Nutq madaniyati o‘qituvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘ninikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgilarini tarbiyalashga xizmat qilmog‘i lozim.

O‘qituvchining nutq texnikasi

Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo‘lib, u insonning kundalik oddiy salomaligidan tortib kimga nimani, qachon, qayerda va qanday so‘zlashigacha bo‘lgan barcha nutqiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyati faqat nutqni egallash yo‘llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalaydi.

Sharoitga qarb nutq turli xilda namoyon bo‘ladi. U ba’zan istak-tilak, ba’zan chaqiriq-murojaat, ba’zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi.Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichida gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o‘z-o‘ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo‘lmaydi.

Pedagogik muloqot turlari. O‘qituvchining notiqlik mahorati

O‘qituvchi ovozining xususiyatlari nimadan iborat : 1. Bu ovozning kuchi. Ovoz kuchi tovush organlarini ishiga, ularning faoliyatiga hamda nafas chiqarishiga bog‘liqdir.

Tovushning qancha masofaga yetkazilishi. Bu bilan mutahissislar o‘qituvchi ovozini qay masofaga yetkaza olish va uni qay yo‘l bilan sozlashini aniqlab oladilar.

O‘qituvchi nutqida ovozning harakati va o‘zgaruvchanligi muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchi ovozi ravon, jarangdor, aniq va o‘ziga jalb etadigan bo‘lishi kerak. O‘quv materialini qiyin joylarini o‘qtuvchi ovozini sekinlatgan holda tushuntirib , qolgan vaqtda tezroq vaqtda gapirishi kerak.

O‘qituvchini ma’ruzaga tayyorgarlik ko‘rishi

O‘qituvchi materiallarni aniq, to‘g‘ri, tushunarli ifodali bayon qilishda ovozi ritmi ham muhim ahamiyat kashf etadi.Ilmiy tadqiqot ishlari shunday dalolat bermoqdaki, ruslar 1 minutda 120, inglizlar 120 dan 150tagacha, fransuzlar 110 so‘zni talaffuz qilar ekanlar.

O‘rtacha hammaga tushunarli bo‘lishi uchun o‘qituvchi 60 -80 so‘zni talaffus etsa, talabga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi nutqini lo‘nda, aniq, puxta, chiroyli bayon etsa, u tinglovchilarga shuncha tushunarli bo‘ladi va ular qalbida uzoq saqlanadi.

Notiqlik mahorati quyidagi tuzilmaga ega:

Ma’ruza mazminiga kerakli axborotlar, materiallarni tanlash;

Rejani tuzish , yig‘ilgan materiallarni ma’lum mantiqiy ketma-ketlikda ajratish;

Nutqqa adabiy ishlov berish, mazmunini boyitish;

Ma’ruza matnini yodlash, eslab qolish;

Ma’lum ovozning balandligida mimika, hatti-harakatlar bilan nutqni so‘zlash.

Ma’ruzaning sifati uning mantiqliliga va taqdimiga, nutqning boyligi va aniqliligiga va axborotni boyligiga bog‘liqdir. Ma’ruzaning sifati uning mantiqliliga va taqdimiga, nutqning boyligi va aniqliligiga va axborotni boyligiga bog‘liqdir.

Notiq yo‘l qo‘yadigan ba’zi xatolar:

Nutqdagi turg‘unlik – ko‘p qo‘llanadigan, hech kim eshitmaydigan so‘z va so‘z iboralari;

Konselyarezm-muloqotning byurakratik uslubida qo‘llaniladigan so‘z va so‘z iboralari;

Bachkanalik- adabiy bo‘lmagan yoki mazmuni, harflar buzilgan so‘z va so‘z iboralari;

Jarg‘on – jinoyat dunyosidan olingan so‘z va so‘z iboralari;

Ko‘pso‘zlik- o‘zining fikrini mantiqan aniq va lo‘nda ifoda eta olmaslik;

Parazit so‘zlar «mana shu», «masalan», «aytaylik», «shunday qilib» va hokazo

Og‘zaki nutqning o‘ziga xos xususiyatlari:

Donolik- fikrlarning donoligi, o‘tkir yoki kulguli so‘z iboralarini tanlash va joyida qo‘llash;

Yaxshi notiq diqqatini quyidagi amallarga qaratishi kerak :

Tinglash va eslab qolish qobilyati;

Mustaqil o‘qish;

O‘rganish;

Tadqiqotlarni olib borish;

Yig‘ilgan materiallarni tahlil qilish va ajratish;

Suhbatni olib borish;

Savollarga javob berish;

O‘zining fikrlarini yozma ravishda bayon qilish;

Nutq rejasini tuzganda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

Nutq rejasini tuzganda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

Tinglovchi uchun bu mavzu nega kerakligini aniqlash, maqsadni belgilash;

Mavzuni tinglash, agar berilgan bo‘lsa, uni tahlil qilish;

Mazmuni uchun foydali ma’lumotlar tanlash;

Asosiy nuqtalarni, mavzularni aniqlash;

Tanlangan materialni ajratish asosiylarni qoldirish;

Qiziqarli kirishni topish;

Xulosani tayyorlash;

Takrorlash va nutqni ko‘rib chiqish;

Notiq savollarga javob berishi lozim bo‘lgan vaqtda:

Berilgan savol nima maqsadda berildi;

Insonni to‘gri tushunishga tayyorlash;

Hurmat bilan to‘g‘ri tushuntirib javob berish;

O‘ziga ishonch va mehri bilan so‘zlashish darkor.

So‘zlarni aniq gapirish uchun quyidagilardan unumli foydalansa bo‘ladi :

Tabiat bergan nutq organlaridan to‘g‘ri foydalanish;

So‘zlar qanday tashkil topganligini bilish;

Har bir so‘zni baland ovozda tezlikni saqlab aniq gapirish;

Harflarni tushurib qoldirmasdan gapirish;

Boshni pastda tushurmasdan og‘izni katta ochib gapirish;

Bo‘yin, yuz va boshqa bo‘g‘inlarni bo‘sh holatda ushlash.

Nutq so‘zlaganda, ma’ruza o‘qilayotganda ortiqcha so‘zlar kirish gaplar, nopisadnoma iboralar, shuningdek, gumonsirash ishonchsizlik, hadeksirash, esankirash, asabiylashish, g‘azablanishga aslo yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Pedagogning nutqi ifodali bo‘lishi lozim. Bunda nutq intonatsiyasi muhim o‘rin tutadi. U oxang (melodika) tinim(paiza), mantiqiy urg‘u nutq sur’ati kabi tarkibiy qismlaridan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbek tili stilistikasi. T.: O‘qituvchi, 1982.
2. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili. T.: O‘qituvchi, 1980.
3. O‘zbek tili leksikologiyasi. T.: Fan, 1980.
4. N. Mahmudov. Ma’naviyat manzillari. T.: Ma’naviyat,1995.
5. internet ma’lumotlari

ARAB VA O‘ZBEK TILIDA SANOQ SONLAR VA ULARNING SANALMISH BILAN SINTAKTIK MUNOSABATI

Aygul Umurzakova
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi
Telefon: +998(90)3265116
umurzakova050883@mail.ru
Nosirxo‘ja Orifxo‘jayev
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti o‘qituvchisi Telefon: +998(97)7255395

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilida “son”, o‘zbek tili grammatikasiga o‘xshab alohida so‘z turkumi sifatida o‘rganilmasada, arab grammatikasida uning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib berilgan. Bunda o‘rganilgan mavzu o‘zbek tili bilan chog‘ishtirilib, o‘xshash va farqli tomonlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: “adad”-son, “ma’dud”,“tamyiz”-sanalmish, “adad mufrad”-sodda son, “adad murakkab”, “adad uqud”, “adad ma’tuf”.

O‘zbek tilidan farqli ravishda, arab tilida so‘z turkumi uch qismga ya’ni, ism(اِسْمٌ), fe’l(فِعْلٌ) va harf(حَرْفٌ)ga bo‘lib o‘rganiladi. Arab tilida ism(اِسْمٌ) so‘z turkumiga, o‘zbek tilidagi ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe’lning harakat nomi(masadar), sifatdosh kabi funktsional formalari, ayrim ko‘makchilar, modal so‘zlar kiradi. Shunday qilib, o‘zbek tilidagi son so‘z turkumi arab tilida ism(اِسْمٌ) so‘z turkumida alohida o‘rganiluvchi bo‘limdir. Son deb, predmetning miqdori, sanog‘i, tartibini va sonning nomini ifodalaydigan so‘zlarga aytiladi. Son-sanog‘ini bildiruvchi sonlar sanoq sonlar deyiladi. Masalan: ikki, uch, besh, yigirma kabi. Sonning bunday ta’rifi arab tiliga ham bevosita taaluqlidir.

O‘zbek tilida son boshqa so‘z turkumlaridan yasalmaydi, mustaqil so‘zlardan tarkib topgan. Ularning fe’liy o‘zaklari mavjud emas. O‘zbek tilida sonlar ko‘pincha arab (1, 2, 3, 9) va rim (I, IV, IX, X) raqamlari bilan yoziladi.

Arab tilida esa son fe’l o‘zaklaridan yasaladi. Masalan: وَاحِدٌ، أَحَدٌ (وَحَدَ) (اِثْنَانِ (ثَنَى) عَشْرٌ (عَشَرَ). Arab tilida sonlar hind raqamlari (٠١ ٢ ٣ ٤ ٥ ٦ ٧ ٨ ٩) bilan yoziladi.

Arab tilida sonlar tuzilishiga ko‘ra turlari quyidagicha:

اَلْعَدَدُ الْمُفْرَدُ (sodda son) **(اَحَدٌ، وَاحِدٌ، اِثْنَانِ، ثَلَاثَةٌ، أَرْبَعَةٌ، خَمْسَةٌ، سِتَّةٌ، سَبْعَةٌ، ثَمَانِيَةٌ، تِسْعَةٌ، عَشَرَةٌ)**

Sodda sonlarga 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,100,1000 sonlari kiradi.

اَلْعَدَدُ الْمُرَكَّبُ (murakkab son) **(أَحَدَ عَشَرَ، اِثْنَا عَشَرَ، ثَلَاثَةَ عَشَرَ، أَرْبَعَةَ عَشَرَ، خَمْسَةَ عَشَرَ، سِتَّةَ عَشَرَ)**

Murakkab sonlar 11,12,13,14,15,16,17,18,19 sonlardan iborat.

اَلْعَدَدُ الْعُقُودُ (yaxlit o‘nlik son) **(عِشْرُونَ، ثَلَاثُونَ، أَرْبَعُونَ، خَمْسُونَ، سِتُّونَ، سَبْعُونَ)**

Yaxlit o‘nlik sonlar 20,30,40,50,60,70,80,90 sonlardan iborat.

اَلْعَدَدُ الْمَعْطُوفُ (bog‘langan son) **(وَاحِدٌ وَعِشْرُونَ، اِثْنَانِ وَثَلَاثُونَ، ثَلَاثَةٌ وَأَرْبَعُونَ)**

Bog‘langan sonlarga 21,22,23,24,25,26,27,28,29,31…39…99 sonlari kiradi.

Sanoq sonlar noaniq so‘zlar turiga kiradi. Masalan, “5 ta sotib oldim” deyilsa, sotib olingan 5 ta narsani nima ekanligi noma’lum bo‘lib turibdi. Mana shu noma’lumlikni ketkazish uchun, sanalayotgan narsa(sanalmish) eslatib o‘tilsa, 5 raqamidagi noaniqlik ketadi. Masalan, “5 ta kitob sotib oldim”. Arab tilida son-“adad”(عَدَدٌ), sanalmish esa “ma’dud”(مَعْدُودٌ)(3 dan 10 gacha hamda yuzlik, minglik va shu kabi sonlar uchun) va “tamyiz”(تَمْيِيزٌ)(11dan 99gacha bo‘lgan sonlar uchun) deb ataladi.

Yana arab tilida o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan jins kategoriyasi, yani muzakkar(مُذَكَّرٌ) (erkaklarga xos) va muannas(مُؤَنَّثٌ) (ayollarga xos) jinslar mavjud. Jins kategoriyasi

sonlarga ham xosdir. Masalan: muzakkar jinsda (عَشَرَ، وَاحِدٌ), muannas jinsda (عَشْرَةَ، وَاحِدَةٌ).

Arab tilida sanoq son va sanalmish alohida qoidalar asosida birikadi.

اَلْعَدَدُ الْمُفْرَدُ – وَاحِدٌ، وَاحِدَةٌ – bir va **اثْنَانِ، اثْنَتَانِ** – ikki sanoq sonlari adabiy tilda faqat ta'kidlash uchun ishlatiladi. 1- **وَاحِدٌ** va 2- **اثْنَانِ** sonlari ishlatilganida sanalmishning moslashgan aniqlovchisi vazifasida bo'lib, sanalmishdan keyin keladi va u bilan to'rt holatda moslashadi ya'ni, jinsda, sonda, kelishikda va holatda.

اَلْعَدَدُ الْمُفْرَدُ – 3 dan 10 gacha bo'lgan sanoq son(اَلْعَدَدُ)lar doim sanalmish(اَلْمَعْدُودُ)ning birlik sondagi jinsiga teskari jinsda bo'ladi, sanalmishning o'zi ko'plik(اَلْجَمْعُ))da bo'ladi. Son bilan sanalmish odatda izofa(اَلْإِضَافَةُ) birikmasini hosil qiladi. 3 dan 10 gacha bo'lgan sanoq sonlar gapdagi vazifasiga ko'ra kelishikda o'zgaradi.

اَلْعَدَدُ الْمُرَكَّبُ- 11 dan 19 gacha bo'lgan murakkab sanoq sonlar qoidasi:

11 va 12 sanoq son(اَلْعَدَدُ)larining ikkala qismi sanalmish(اَلتَّمْيِيزُ) bilan jinsda to'liq moslashadi;

13 dan 19 gacha bo'lgan sanoq son(اَلْعَدَدُ)larda faqat "عَشَرَ" o'nlik soni sanalmish(اَلتَّمْيِيزُ) bilan moslashadi, birliklar esa sanalmishning jinsiga teskari jinsda bo'ladi;

11 dan 19 gacha bo'lgan sanoq son(اَلْعَدَدُ)larining sanalmish(اَلتَّمْيِيزُ)i har doim sondan keyin kelib, birlik holatda tushum kelishigida bo'ladi(tamyizlikka ko'ra);

11 va 19 gacha (12 mustasno) bo'lgan sanoq son(اَلْعَدَدُ)larning ikkala(o'nlik va birlik) bo'lagi uch kelishikda ham o'zgarmasdan "fatha"da keladi.

اَلْعَدَدُ الْعُقُودُ – 20,30,40,50,60,70,80,90 sanoq sonlarining sanalmish(اَلتَّمْيِيزُ)i har doim uqud sondan keyin kelib, birlik holatda tushum kelishigida bo'ladi(tamyizlikka ko'ra). Sanalmish(اَلتَّمْيِيزُ) xoh muzakkar(اَلْمُذَكَّرُ) xoh muannas(اَلْمُؤَنَّثُ) jinsda bo'lsin, uqud(اَلْعُقُودُ) sanoq sonlari bir xil ko'rinishda ya'ni, muzakkar(اَلْمُذَكَّرُ)da bo'lib, uch kelishikda turlanadi.

اَلْعَدَدُ الْمَعْطُوفُ – 21 dan 99 gacha bo'lgan sanoq son(اَلْعَدَدُ)lar (و) bog'lovchisi orqali uyushib, avvalgi birlik qismi – ma'tuf alayhi(اَلْمَعْطُوفُ عَلَيْهِ) va ikkinchi o'nlik qismi – ma'tuf(اَلْمَعْطُوفُ) deb ataladi. Qoidasi quyidagicha:

21dan 99 gacha bo'lgan sanoq son(اَلْعَدَدُ)lar tarkibidagi 1 va 2 birlik sonlari sanalmish(اَلتَّمْيِيزُ) bilan jinsda moslashadi;

21dan 99 gacha bo'lgan sanoq son(اَلْعَدَدُ)larida 3 dan 9 gacha bo'lgan birlik sonlari esa sanalmish(اَلتَّمْيِيزُ) bilan jinsiga teskari bo'ladi;

21dan 99 gacha bo'lgan sanoq son(اَلْعَدَدُ)lardan keyin kelgan sanalmish(اَلتَّمْيِيزُ)i har doim birlik son, noaniq holat, tushum kelishigida bo'ladi(tamyizlikka ko'ra);

21dan 99 gacha bo'lgan sanoq son(اَلْعَدَدُ)larda birlik soni gapdagi vazifasiga ko'ra kelishikda turlanadi, o'nlik soni esa birlik songa uyushish orqali harakatlanadi.

اَلْعَدَدُ الْمُفْرَدُ – yuz(مِائَةٌ، مِائَةٌ), ming(أَلْفٌ) kabi yaxlit sanoq sonlar. Yuz(مِائَةٌ، مِائَةٌ) soni muannas(اَلْمُؤَنَّثُ) jinsda bo'lsada, lekin u ham muzakkar(اَلْمُذَكَّرُ) ham muannas(اَلْمُؤَنَّثُ) ga ishlatiladi. Ming(أَلْفٌ) soni muzakkar(اَلْمُذَكَّرُ) jinsda, lekin muzakkar(اَلْمُذَكَّرُ) va muannas(اَلْمُؤَنَّثُ)ga ham ishlatiladi. Yuz(مِائَةٌ، مِائَةٌ) va ming(أَلْفٌ) yaxlit sanoq sonlar gapdagi vazifasiga ko'ra kelishikda turlanadi, lekin ularning sanalmishi esa birlik(اَلْمُفْرَدُ) sonda va izofalik(اَلْإِضَافَةُ)ka ko'ra qaratqich kelishigida - "majrur"(اَلْمَجْرُورُ) bo'lib keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, o'zbek tilidan farqli o'laroq, arab tilidagi sanoq son mavzusi, son(اَلْعَدَدُ) va sanalmish((اَلتَّمْيِيزُ،اَلْمَعْدُودُ)ning o'zaro birikishida murakkab qoidalarni o'z ichiga qamrab oladi. Arab tilida sanoq son mavzusi eng muhim mavzulardan biridir. Arab tili o'rganuvchilari, birgina shu sanoq son mavzusini nazariy qoidalarini yaxshilab o'rganib, uni amaliyotda tatbiq etishganda, bir necha mavzuni o'rganib olishganiga o'zlari guvoh bo'lishadi. Chunki arab tilida sanoq son mavzusi, ismlarning jins kategoriyasi – muzakkar (اَلْمُذَكَّرُ) va muannas(اَلْمُؤَنَّثُ), son kategoriyasi – birlik(اَلْمُفْرَدُ), ikkilik(اَلْمُثَنَّى) va ko'plik(اَلْجَمْعُ)), holat kategoriyasi – aniq holat(اَلنَّكِرَةُ) va noaniq holat(اَلْمَعْرِفَةُ), kelishik kategoriyasi – bosh kelishik(اَلْفَاعِلُ), tushum kelishigi(اَلْمَنْصُوبُ), qaratqich kelishigi(اَلْجَرُّ) kat-

egoriyalarini, moslashgan va moslashmaqan aniqlovchi(izofa) (الإضافة), tamyiz(التمييز) kabi mavzular bilan uzviy bog‘liqdir. Qolaversa, o‘rganilayotgan mamlakat tilining grammatik tizimini chuqur o‘rganish tilni mukammal egallashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Abdujabborov A. Arab tili. – T.: 2007.
2. Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. –T.: 2015.
3. Amin Abdulg‘oniy. An-nahv al-vodih. Qohira, 2010.
4. As- Sayyid ibn Husan ad-Dib. Al-hivar fi sharh al-ajrumiyya. Iskandariya, 2015.
5. Shayh Mustafo al-G‘alayiniy. Jami’ ad-durus al-arabiyya. Qohira, 2007.

CHET TILINI O‘RGANISHDA O‘RTA BOSQICH O‘QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Urunova Maloxat Allabergan qizi
Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani Pitnak shahar
5-son maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi
Tel:+998971305688 malohaturunova19@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'lim tizimida chet tili o‘rganishning o‘rta bosqichida (7-8-sinf) o‘quvchi va o‘qituvchilarda yuzaga keladigan psixologik jarayonlar haqida aytib o‘yilgan.

Kalit so‘zlar: chet tili, 4-5-sinf, 6-7-sinf, 7-8-sinf, takrorlash, til materiali, xoxish.

Ma'lumki chet tiliga o‘qitishda o‘quv jarayonini o‘quvchilarning yosh hususiyatlarini hisobga olingan holda tashkil qilish muvaffaqiyat garovidir. Bu yerda eng muhimi o‘quvchi oldiga qo‘yilgan vazifa ularning qobiliyatlariga yarasha bo‘lishi kerak, ya'ni u o‘quvchiga xaddan ortiq qiyinchilik tug‘dirmaslik kerak. Psixologiya kursidan ma'lumki o‘quvchilar (chet tili o‘rganishning o‘rtanchi bosqichida) bu yoshda tez o‘sadilar, natijada ular tez charchaydigan, tez jahli chiqadigan, o‘jar bo‘lib qoladilar. Shuning uchun 4-5-sinflarda til o‘rganishdagi aktiv faoliyatini unchalik aktivlikni talab qilmaydigan ish turlari bilan almashtirishi maqsadga muvofiq. Bu ayniqsa dars oxirida juda zarur. 7-8-sinf chet tili darsi til materialini o‘rganishning tematik va intensivligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda o‘quvchilar harakat qilib, harakatsiz (biror topshiriqsiz) turib qolishini yoqtirmaydilar. Shuning uchun 6-7-sinfda chet tili darsining mavzusini aslo susaytirmasligi kerak.Ilmiy izlanishlarga ko‘ra 8-sinfga kelib o‘quvchilarda chet tili materialini (turli mazmundagi) eslab qolish qobiliyati o‘sadi, (so‘zma-so‘z eslab qolish emas, balki mushoxadaviy xotira) bilib olishga bo‘lgan qiziqishi so‘nadi. Ko‘p o‘quvchilar darsda zerikib o‘tirishadi va aktivlik ko‘rsatmaydilar, vazifani bajarishga befarq qaraydilar. Bu yoshdagi o‘quvchilarda o‘zini-o‘zi boshqarishdagi irodalilik xoli yetarli darajada shakllanmasa va ulardan ichki norozilik, tez jaxli chiqish, qarshilik bildirish kabi hususiyatlar kuchli bo‘lib, bu chet tiliga bo‘lgan qiziqishni keskin kamayishiga olib keladi. Ularda o‘z kuchiga va o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonch susayadi. Bu esa o‘quv jarayoniga ta'sir ko‘rsatmasdan qolmaydi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishning pasayish sabablaridan biri bu o‘quvchilarning umumiy aktivligi va serharakatliligining o‘quvchilik talablariga nomutanosibligidandir. Masalan: 4-5-sinfda ishonuvchanlik til o‘rganishga bo‘lgan tabiiy istak, baho, norma va kattalarni aytganini bajarish va x. k.

Agar biz 4-5-sinf o‘quvchilari bilan 6-7-sinf o‘quvchilarini yosh hususiyatlarini o‘lchab ko‘rsak, u xolda shu ma'lum bo‘ladiki 4-5-sinf o‘quvchilari uchun muhimi o‘qishdir. 6-7-sinf o‘quvchilari uchun esa chet tilini gapirish. Bu yoshdagi o‘quvchilarda mustaqillilikga intilish o‘z-o‘zini boshqarish kabi masalalar kuchli. Ba'zan bir o‘zini butun sinfga qarshi qo‘yib, boshqalar oldida o‘zini, o‘zligini ko‘rsatish, ba'zi bolalarda boshqa bolalar oldida o‘zining qobiliyatliligini ko‘rsatish istagi kuchli bo‘ladi. Ayni shu yerda bolalarning kelajagi haqida o‘ylab ko‘rish kerak, ularning bu jarayonda biror kasbga qiziqishi shakllana boradi. Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi chet tiliga o‘qitishni va o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Buning oldini olish uchun maxsus ish olib borish zarur, ya'ni ularni mustaqillikka intilish istagini qondirilishiga g‘amxo‘rlik qilish, uni to‘g‘ri yo‘lga solish kerak. Ayniqsa, 7-8-sinf o‘quvchilarida agressivlik kuchli bo‘ladi. Ularga nisbatan qattiq qo‘llik qilish, nazoratni kuchaytirish, ulardagi agressivlikni kuchaytirib yuborish natijasida o‘quvchi bilan o‘qituvchi o‘rtasida turli xil nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu yoshda eng muhimi o‘z faoliyatiga (ishda, uyida, o‘qishda) muvaffaqiyatga erishish-

dir. Shuning uchun ham chet tili o‘qituvchisi o‘quvchilardagi chet tili o‘rganishga bo‘lgan ozgina yutuqlarni ham ko‘rsatish lozim. O‘quvchini qilgan xatosi uchun boshqa o‘rtoqlari oldida uyaltirish, ularda o‘qituvchiga nisbatan xurmatsizlikni agressivlikni qasos olishga bo‘gan xissini keltirib chiqaradi. 7-8-sinf o‘quvchilari faoliyatining turida bo‘lmasin, o‘zini boshqalarga solishtirib ko‘rishga harakat qiladilar va bunda ustunlikga erishishni xoxlashadi. Ulardagi bu istak o‘zlarini turli qiyinchiliklarga bardosh berishda, o‘zlarini irodaliliklarini ko‘rsatishga urinishadi va qo‘rqinch ustidan g‘alaba qozonishga intilishlarida namoyon bo‘ladi. Ularda «o‘zligini» namoyon qilish istagi kuchli, chet tili o‘qitishning o‘rta bosqichida biz yoqorida korib o‘tilgan psixologik, fiziologik xissiyotlarni o‘ziga xosligini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil qilishimiz kerak. O‘quvchilarga doimo o‘rganilayotgan til materiali avval to‘la tushunilgandek bo‘ladi, lekin material ma’lum vaqtdan song takrorlanmasa xotirada saqlab qolinmaydi. Material takrorlanib turilsagina u o‘zlashtirilgan deyiladi.

O‘rta bosqichdagi o‘quvchilar uchun ichki motivdan tashqi motiv kuchliroq shuning uchun bu har ikkala motivdan oqilona foydalanish zarur. Bajarilayotgan mashqlar o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan vazifalar muammoli harakatga ega bo‘lishi kerak, ular intellektual emotsiyani keltirib chiqarishga undovchi stimul bo‘lishi kerak. Dars kommunikativlik prinsipi asosida olib borilmog‘i zarur unda har bir nutq faoliyatini motiv-real vaziyatdan kelib chiqishi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar chet tili nutqidagi o‘z muvaffaqiyatlarini his qilsinlar. 7-8-sinf o‘quvchilari o‘zlarini chet tili nutqi juda ham soda bo‘lganligi uchun kulgiga qolmaylik deb, chet tilida gapirishga harakat qilmaydilar ham. Chet tili o‘qitishning bu o‘rtancha bosqichdagi muvaffaqiyatsizligi o‘quv prosessining psixologik jihatdan soxta situatsiyaga moslashganligidandir. Ma’lumki ularning ona-tilidagi nutqi informatsiyaga boyligi bilan ajralib turadi. Ularning chet tili nutqi esa primetiv, bo‘lib o‘quvchilarning istak xoxishlarini ifodalashga xozir emas. Shuning uchun darsda real voqealikdan kelib chiqadigan situatsiyalardan foydalanish, darsda turli xil o‘yinlarni o‘tkazish kerak. Lekin bunda 4-5-sinfga hos bo‘lgan o‘yinlardan foydalanish mumkin emas, chunki 7-8-sinf o‘quvchisi o‘zga sinfdoshlari oldida kulgi bo‘lib qolishdan qo‘rqishadi. Bunday vaqtda eng muhimi turli ro‘llarga ijobiy yondashgan holda bajariladigan o‘yin turlaridan foydalanish kerak. Bu yoshdagi bolalarni sinfdan tashqari ishlarga ham keng jalb qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chet tili o‘qitish metodikasi. Maruzalar matni.
2. Jamol Jalolov „Chet til o‘qitish metodikasi”.
3. www.google.uz

O‘QUVCHILARGA BILIM BERISHDA O‘QITUVCHI NUTQINING AHAMIYATI

Xurshida Berdiyorova Jambulovna
Qashqadaryo viloyati Koson tumani
95- IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.
Телефон: +998 99 380-85-13
xurshida.berdiyrova@mail.ru

Anatatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarga bilim berish jarayonida o‘qituvchi nutqidagi kamchiliklar, ularni bartaraf etish haqida bo‘lib, 11- sinflarda ona tili fanida ,,Nutq texnikasida urg‘u va to‘xtam” mavzusini o‘tishda qo‘llanma sifatida ko‘mak beradi.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi nutqining sofligi, o‘qituvchi nutqining komminikativ sifatlari.

Nutq ma’lum bir so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan tinglovchi yoki o‘quvchiga qaratilgan matnning tashqi ko‘rinish hisoblanib har bir soha vakillarining ma’daniyati va savodxonligini anglatib turadi.

So‘zlovch hamisha nutqning talab darajalarini hisobga olib, uning sofligi, aniqligi, tushunarliligi, to‘g‘riligi, mantiqan uzviyligi, ta’sirchanligi, tozaligiga e’tibor berishi zarur. Ayniqsa barcha soha vakillariga ta’lim- tarbiya beruvchi kasb egalari – o‘qituvchilar nutqining sofligi, ravonligi, mantiqan uzviyilligi juda ahamiyatlidir.

Dars jarayonida bilim va ma’lumotlarni o‘quvchiga tushunarli, aniq va ravon yetkazishda o‘qituvchidan har jumlani grammatik qoidalarga asoslangan holda tuzish, tinish belgilarning joylashuvi hamda gap ohangiga e’tibor berish talab etiladi. Ba’zan, hatto ona tili va adabiyot o‘qituvchilari nutqida ham yuqorida aytib o‘tilgan talablarga yetarlicha e’tibor berilmaganligi sababli g‘alizlik paydo bo‘ladi. Bu esa matnning o‘quvchi uchun tushunilishini qiyinlashtiradi va bunday holatlar turli noaniqliklarni keltirib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan, tinish belgilar va ohangga e’tibor berilmasdan tuzilgan gaplar orqali fikr ifodalanganda o‘quvchi turli chalkashliklarga uchraydi. O‘qituvchi nutqining kommunikativ sifatlari: nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyligi, nutqning ifodaliyligi talab darajasida bo‘lgandagina notiqning qay darajada madaniyati va savodxonligi ma‘lum bo‘ladi. Nutq sofligi- jamiyat ko‘rki. Ayniqsa, bugun yurtboshimiz jamiyatdagi eng hurmatli zot deya e’tirof va e’zoz etib turgan muallimlar bu soflikning targ‘ibotchilari bo‘lishlari zarur. O‘quvchilarga nutq texnikasi, nutq madaniyati va nutqning kommunikativ sifatlarini tushuntirishda eng avvalo nimalarga e’tibor berish kerak ?

1.Avvalo o‘qituvchining o‘zi adabiy til me‘yorlariga to‘la rioya qilgan holda madaniyat bilan so‘zlashi kerak.

2.O‘qituvch nutqida muloyimlik sezilib turish zarur.

3.O‘qituvchi nutqi jarayonida fonetik xatolarga yo‘l qo‘yilmasligi shart. Chunki birgina unli yoki undosh tovushning o‘rin almashilishidan gapdagi mazmun tubdan o‘zgarib ketadi. Masalan: Mana endi sen to ‘l, ey daryo. (gapdagi to‘l so‘zi bitta unli tovush almashishidan tul so‘ziga aylanib, nutqda g‘aliz xatoni yuzaga keltiradi) 4.Og‘zaki nutqda ohang katta ahamiyat kasb etishini, nafaqat ona tili va adabiyot balki har bir fan o‘qituvchisi to‘la anglab yetmog‘i g‘oyatda ahamiyatlidir. O‘qituvchi dars jarayonida nutqidagi ohangga katta e‘tibor berishi zarur.Noto‘g‘ri yoki o‘rinsiz to‘xtam sabab o‘quvchida fikrning yanglish anglashilishiga olib keladi. Bu anglashilmovchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun so‘z va gap urg‘ulariga e’tibor berib, intonatsiya bilan so‘zlash kerak. Masalan: Sobir qora qozonni o‘choqqa ildi.Ushbu gapni intonatsiya orqali mazmunan farqlab ko‘ramiz.

1.Sobir/ qora qozonni o‘choqqa ildi. O‘qituvchi gapdagi bu to‘xtam orqali Sobir ismli shaxs qora qozonni ilganini aytib o‘tmoqda.

2.Sobir qora/ qozonni o‘choqqa ildi. Bu to‘htam orqali esa birgina pauza sabab Sobirning qora tanli yoki qora laqabli ekanligini anglash mumkin.

3.Yana bir tahlil esa birgina tinish belgi bilan gapda undalma mavjudligini anglatadi. Sobir, (gapning egasi yashiringan) qora qozonni o‘choqqa ildi. Bu kabi bir qarashda arzimas ko‘ringan xatoliklar o‘quvchi bilimida bo‘shliq hosil qilishini ham unutmadlik lozim. Demak, intonatsiya va to‘xtam gapning mazmuniy va hissiy yo‘nalishini ham belgilab berar ekan. Nutqda ba’zan so‘zlarning ketma- ketligi almashganda ham ma’nolar tubdan o‘zgarib ketadi. Masalan: Men keldim. Ushbu gap xabar ma’nosidagi gap bo‘lsa, so‘zlarning o‘rni almashinishi natijasida gapga ta’kid ma’nosi yuklanadi. Keldim men. Demak, inversiya hodisasi ham (gap bo‘laklarining o‘rin almashishi) nutqda e’tiborli bo‘lishini talab etar ekan. Nutqning yuzaga chiqishida aniq bir maqsad tinglovchi yoki o‘quvchi ongiga ta’sir etishi vazifa qilib qo‘yilishi kerak. O‘qituvchi bu borada hamisha sinchkov, savodxon, e’tiborli bo‘lishi shart. Bu o‘qituvchilar zimmasiga burch, vazifa, ishonch hamda mas’uliyat yuklaydi. Biz o‘qituvchilar ushbu vazifalarni sidqidildan bajarsakgina ona tilimizni sofligi, farzandlar nutqining ravonligiga erishamiz. Zero, nutq sofligi til jozibasini ko‘z-ko‘z qiladi va jamiyatning husniga husn qo‘shadi.

Asrlar mobaynida o‘zbek tili bugungi ko‘rinishga kelgunga qadar ko‘plab tilshunos bobokalonlarimizning xizmat va mehnatlari katta bo‘ldi.

Umri mobaynida 16 yil el-u-elatlar, ovul va qishloqlar kezib avlodlarga turk tilining sof namunalarini yaratib, yig‘ib meros qoldirgan olim Mahmud Qoshg‘ariyning ,,Devoni lug‘ati turk” asari tilimizning serjilo chiroyi, ohangrabo kabi mazmun hamda mohiyatini namoyon eta olgan bo‘lsa, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy,

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

Deya tilimizning naqadar boyligini bu tilda ijod etib, alam tortib, qarshiliklarga uchrasa ham, mehnati va mashaqqatlari evaziga tilni shuhrat va shonlarga burkab avlodlarga qoldirdim deganday, go‘yo.

Til-millatning boyligi. Uni avaylab, har bir so‘zdan oqilona foydalansakgina, nafaqat o‘qituvchilar, balki barcha o‘zbek xalqi nutqimizni buzmasdan, unga hurmat bilan qarasakgina qahramon shoirimiz Abdulla Oripov aytgan to‘ti holiga tushib qolmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘qituvchi nutqi: jarayonga innavatsion yondashuv” ilmiy-metodik qo‘llanma.
2. Muallif: Gulshan Karimova Qashqadaryo viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi ,,Til va adabiyot ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi.

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KITOB O‘QISHGA QIZIQTIRISH

Xolmirzayeva Nilufar Karimjanovna
Namangan viloyati Namangan
tumanidagi 11- sonli maktabning ona tili
va adabiyot fani o‘qituvchisi
Telefon: +998(90) 215 45 70

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirish uchun adabiyot fani o‘qituvchilari nimalarga e’tibor qaratishlari kerakligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘z va iboralar: odob, ma’naviyat, ma’naviy ozuqa, insoniy fazilat, qiziqtirish,savol-javob,bilimdon,yutuq.

Аннотация: В данной статье учителя литературы излагают мысли о том, к чему надо обращать внимание для того, чтобы заинтресовать учащихся к чтению книг.

Ключевые слова и термины: этикет, духовность, духовная пища,человеческое достоинство, заинтресовать, вопрос – ответ(вопросо- ответный), знаток, достижение.

Annotation: In this article many statements have been given about how to increase pupils’ interest in reading books and what should do the teachers of literature to achieve this purpose.

Key words and expressions: moral,discipline,spiritual,food,personal qualities,encourag ement,quizzes,intelligent,success.

Biz bilamizki,adabiyot darsi odob va ma’naviyat darsidir. Bu fan orqali o‘quvchilar nafaqat tarbiyalanadilar,balki ma’naviy ozuqa oladilar hamda insoniy fazilatlarga ega bo‘ladilar.

Adabiyot fani va bu fan o‘qituvchilarining zimmasida turgan katta bir mas’uliyatli yumush ham borki, bu vazifani ular also esdan chiqarmaydilar.Bu mas’uliyatli vazifa – o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirishdir.

Bunga erishish, o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirish uchun adabiyot fani o‘qituvchisi nimalarga e’tibor berishi kerak?

Avvalo, o‘quvchilarni birdaniga kitob o‘qishga qiziqtirib bo‘lmaydi. To‘g‘ri o‘quvchilarning ichida kitobni juda-juda sevadigan o‘quvchilar ham ko‘p, lekin kitob o‘qishga erinadigan erinchoq o‘quvchilarimiz ham yo‘q emas.

Eng muhimi ,o‘quvchini kitobni sevishga o‘rgatish va kitob eng sodiq do‘st va dardkash ekanligini ularga uqtirish kerak.

Ayrim o‘quvchilarning miyasida ko‘proq boshlang‘ich sinflarda o‘qigan asarlari va she’rlari muhrlanib qoladi. Ular o‘sha davrda yod olganlarini aytsa, also kamsitmang.Diqqat bilan tinglang va qolgan o‘quvchilarni ham hurmat bilan tinglashga o‘rgating . Sababi bu kabi o‘quvchilarga bu endi yoshiga to‘g‘ri kelmasligini aytib kamsitsangiz, u qaytib so‘zlashdan va kitob o‘qishdan bosh tortadi. Shuning uchun dastlab boshlang‘ich sinflarda yod olgan she’r va asarlarini dars orasida so‘rash ,shu orqali ularning xotirasini tiklash va yaxshi so‘zlar bilan rag‘batlantirish, so‘ngra endi ular biroz katta bo‘lib qolganliklarini eslatib o‘tish lozim . Endi ular faqat ertak kitoblar yoki bolalarcha she’rlarnigina emas, yoshlariga mos bo‘lgan boshqa asarlarni ham o‘qishlari kerakligini, ko‘p kitob o‘qigan o‘quvchi so‘zga chechan , zukko, bilimdon, mushohadali va hurmatga sazovor bo‘lishini darslar jarayonida uqtirib borish kerak.

Ayrim kitobni suymas o‘quvchilarni qiziqtirish uchun yana adabiyot darslarida asta-sekinlik bilan ularga topshiriqlar berib borish mumkin. Mustaqil o‘qish uchun yoshlariga mos bo‘lgan badiiy asarlarni tavsiya etish , agar shu asarlarni o‘qisa, baholari ortishini ham

uqtirish kerak. Albatta, ularni qiziqtirish uchun asarning boshidan yoki eng qiziqarli joyidan parcha aytib to‘xtatib qo‘yish ham yaxshi samara beradi. Sababi bu usul o‘quvchining shu asar yoki kitobga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Ana endi o‘quvchi o‘sha asarni topishga va uni tezroq o‘qishga intiladi.

Darsda yana savol-javoblar orqali ham o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirish mumkin. Masalan, bironta asardan savol berib shu savolga javob topib kelgan o‘quvchi a’lo baho bilan rag‘batlanishini aytish kerak. Shu savolga javob topish uchun o‘quvchi kitobni qo‘liga oladi, kerakli javobni izlaydi va asta-sekinlik bilan kitobga yaqinlashib boradi. Agar shu tartibda ketsa o‘quvchi kitobsiz turolmaydigan ham bo‘lib qoladi.

Badiiy asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat’iy nazar , uning mohiyatida inson shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish, odamiylik sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan bir qator didaktik xususiyatlar, estetik tamoyillar mujassamlashgan bo‘ladi. [1]

Bolani o‘z qiziqishiga qarab ham kitobga yo‘naltirish kerak . Masalan, kimgadir sarguzasht asar yoqsa, kimgadir tarixiy asar yoqadi . Kimdir faqat she’riy kitoblarni o‘qishni xush ko‘radi. Mayli,u qanday kitob bo‘lsa ham, eng muhimi, u bolaning ma’naviyatini shakllantiruvchi, unga ma’naviy ozuqa beruvchi kitob bo‘lsin .

Shu o‘rinda taniqli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimovning kitob haqidagi ushbu so‘zlarini o‘quvchilarga aytish va eslatib o‘tishni ham joiz deb bilardim.

U kishi kitob haqida shunday degan edilar: “ E’tibor beganmisiz – yo‘qmi, bilmadim-ku, sizning sadoqatda tengsiz do‘stingiz bor. Qachon xohlasangiz siz bilan hamsuhbat bo‘ladi. Shod paytingizda quvonchingizga quvonch qo‘shadi. G‘amgin pallada dardingizni oladi. Bilmaganingizni o‘rgatadi. Adashsangiz, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Yaqin kishilaringiz burilib ketganida ham u sizni tark etmaydi. Xizmati uchun hech narsa talab qilmaydi. Yillar o‘tib, tashlab qo‘ysangiz indamaydi. Hatto uloqtirib yuborsangiz ham arazlamaydi. Tag‘in chorlasangiz, yetib kelib xizmatingizni qilaveradi…

…Bu do‘stning nomi-Kitob!”[2]

Shu kabi buyuk adiblarimizning chiroyli, haqiqat nafasi ufurib turgan ta’sirli so‘zlari orqali ham o‘quvchilarni kitobni sevishga o‘rgatish va kitob eng sodiq do‘st va dardkash ekanligini ularga uqtirib borish, ulardek bilimdon bo‘lishga undash va chaqirib turish kerak.

Kitob,avvalo, hayotiy maktab, ma’naviyat manbai. U kitobxonni hayot bilan tanishtiradi, unda hayotni sevish, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi.[3]

Sizning bunday tadbir va usullaringiz orqali o‘quvchi bugun yo erta kitobni qo‘lidan tushirmasa va uni o‘ziga chin do‘st deb bilsa, bilingki, bu sizning eng katta yutug‘ingizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Rasulov Tanqid,tahlil,baholash. T. “Fan”, 2006,16-bet.
2. O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar.Toshkent-2012.198-bet.
3. ma’naviyat. Uz.

TIL BEBAHO BOYLIK, MILLIY O‘ZLIGIMIZ VA MUSTAQIL DAVLATCHILIK TIMSOLI

Abdullayeva Nazokat O‘rinovna
Zarafshon shahar
10-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘zbek tili o‘qituvchisi
Telefon:+998913373762
abdulloyevanazokat69@mail.ru

Annotatsiya: Til har bir millatning benazir qadriyati va bebaho mulki hisoblanadi. Har bir xalq, har bir elat, o‘zi hurmat va ehtirom qiladigan tilga ega. Tilda xalqning, elatning tarixi va madaniyati aks etadi. Shuningdek, til ijtimoiy taraqqiyotda ulug‘vor ahamiyat kasb etadi. Til – har bir millat o‘zligining ajralmas belgisidir.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, Davlat tili, ma’naviy boylik, mustaqil davlatchilik timsoli.

O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biri bo‘lib, dunyo miqyosida bu tilda 50 millionga yaqin odam so‘zlashadi. Ajdodlarimiz buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalarni aynan shu tilda yaratganlar. O‘zbek tilimiz o‘zining jozibadorligi, boyligi bilan dunyo ma’naviyati xazinasiga bebaho ulush qo‘shib kelmoqda. Bu borada jahon ma’naviyati xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning xizmatlari beqiyos. So‘z mulkining sultoni Hazrat Navoiy ,,Muhokamat-ul lug‘atayn’’ asari orqali turkiy (o‘zbek) tilining beqiyos imkoniyatlarini namoyish etadi. Mir Alisher Navoiy forscha muqobil bo‘lmagan so‘zlar turkiyda mavjudligi, forsiylar ularni ishlatishini ta’kidlab, o‘zbek tilining har jihatdan boyligini isbotlab beradi. Jumladan, Prezident Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xaiqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, josibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onajonlarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin.”

1989 yil 21oktabr kuni qabul qilingan qonunga asosan, o‘zbek tili mamlakatimizda davlat tili maqomiga ega bo‘ldi. Istiqlol sharofati bilan tilimizga bo‘lgan e’tibor kuchaydi.O‘zbek tiliga yot bo‘lgan so‘zlar o‘rniga o‘zbekchasini ishlatish urf bo‘la boshladi. O‘zbek tili o‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizdagi yuzdan ortiq millat va elat vakillarini o‘zaro bog‘laydigan mehr-oqibat tiliga aylandi. Hozirgidek o‘ta murakkab va sinovli kunlarda, O‘zbek tili bayrami kunini beigilash to‘g‘risida’’gi qonunning imzolanishi har qanday sharoitda ham til, ma’naviyat masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida ekanini yana bir bor isbotlamoqda. Mamlakatimiz rahbarining badiiy kitob o‘qishga, ma’rifatga, teran bilimga, o‘qib- izlanishga chorlovida ham hikmat ko‘p aslida. ,,O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida’’gi qonunning qabul qilinishi esa har birimizning ona tiliga bo‘lgan munosabatimiz haqida jiddiyroq o‘ylab ko‘rish, unga tashqaridan nazar tashlash, tahlil etish imkonini bergani bilan ham qadrlidir. ,,Davlat tili haqidagi qonunni hayotga tadbiq etish va uning nufuzini mustahkamlash millati, dini, tili, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, barcha fuqarolarning burchidir. Amaldagi qonun normalari bizni ana shunga undaydi. Ming taassuflar bo‘lsinki, hali ham oramizda o‘zbek bo‘la turib, o‘z tilida ikki gapni qovushtirib gapira olmaydiganlar bor. Qolaversa, ba’zi yigit-qizlarimiz o‘z tilida fikr-mulohazalarini to‘liq bayon etib berolmaydilar. Hatto o‘zbek so‘zlarini buzib ruscha yoki tojikcha talaffuz qilayotgan ,, u’’ bilan ,,o‘’ning hamda ,,x’’bilan ,,h’’ning farqiga

bormaydigan ayrim yoshlarimizdagi so‘z bisoti kambag‘alligining asosiy sababi, badiiy asarlar-u, kitoblar, gazeta, jurnallar o‘qib so‘z boyligini boyitmasligidadir. Kitob xoh y badiiy, xoh texnika sohasida bo‘lsin, u ma’naviy xazina. Unga oshno bo‘lgan kishi ma’nan o‘sib ilm egasi bo‘lib boraveradi. Ongi, saviyasi, tafakkuri kengayadi. Xususan, jamoat joylarida, do‘konlar, xizmat ko‘rsatish shaxobchalari, binolar peshtoqida turli lavha va reklamalarning xorijiy tillarda ma’naviyatimizga yot mazmun va shakllarda g‘ij-g‘ij xatolar bilan yozilishi odatiy tusga aylanib bormoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy savodxonlik darajasi tushib ketayotganidan dalolat beradi.

Ma’lumki, yozuv tufayli kishilik jamiyati qo‘lga kiritgan (yozuvlar) yutuqlar yetib keladi. Tilsimotlar eshigini ochuvchi ilm ummoni yozuv tufayli yuzaga keladi. Yozuv insoniyat uchun birdek qadrli. Bugunda lotin yozuvidan jahon aholisining o‘ttiz foizi foydalanadi. Eng rivojlangan davlatlar aholisi shular jumlasidandir. Lotin alifbosi tilimizni o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettira oladi. Xulosa qilib aytganda,ona tilimizni sevish, tilimizning rivoji ustida mehnat qilish, bisotini boyitish, go‘zal va qudratli qilish demakdir. Shunday ekan, har bir fuqaro ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan tilimiz rivojiga mas’uldir. Ushbu mas’ullik hissi farzandlarimiz ongida yoshlikdan tarbiyalangan taqdirda kelajakda ular tilimizni dunyo tillari qatoridan o‘rin olishida o‘zlarining vatanparvarlik tuyg‘ularini namoyon eta oladilar. Shuni alohida ta’kidlash kerak, ona tilimiz bizning yuz-ko‘zimiz. Ana shu yuz-ko‘zimizni chiroyli, nafis bo‘lishi har birimizga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar r o‘yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21.10 2019
2.Qodirov S.Bilim,ilm,axloq. ,,Zarqalam’’ nashriyoti. 2006
3.Imom Zarnujiy.Ilm olish sirlari. Movarounnahr. 2004
4.Qodirov.S. Ilm va ma’naviyat. T.: Zarqalam. 2004

СОПОСТАВЛЕНИЕ КАТЕГОРИИ ЧИСЛА В УЗБЕКСКОМ, РУССКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Лола Намазовна Алибаева
Город Термез, преподаватель ТерГУ
Тел.: +998907460349 alibayeval@tersu.uz

В данной статье рассматривается сопоставление категории чисел на базе трёх языков, их сходства и различия в правилах языка. Использование категории чисел в грамматическом строе данных языков.

Ключевые слова: лингвистический, сравнительное, разносистемный, категория числа, наращение, супплетивный, множественность, чередование

Важное значение приобретает изучение иностранных языков в нашей республике. Иностранный язык, в частности, английский, наряду с русским языком, изучается во всех учебных заведениях нашего государства. Но нужно заметить, что лингвистической базой разработки методики преподавания русского и иностранных языков является глубокое их исследование в сопоставительном плане. Поэтому сопоставительное изучение русского, иностранного и национальных языков стало одной из важнейших задач современного языкознания. Академик В.В.Виноградов ещё в 1951 году, говоря о задачах языкознания, писал: «Наряду со сравнительно-историческим изучением родственных языков возможно и даже необходимо сравнительное и сопоставительное изучение разносистемных языков…» [1]

Сопоставительное исследование разносистемных языков требует глубоких знаний их строя, раскрытия особенностей своеобразных, индивидуальных языковых явлений, присущих каждому из сопоставляемых языков. Поэтому исследователям, преподавателям русского и иностранных языков в ВУЗе и школе необходимо знание грамматического строя как родного языка, так и исследуемого и преподаваемого языков. Раскрытие моментов сходства и различия могут послужить базой правильной разработки методики преподавания этих языков [2].

При сопоставлении способов выражения категории числа в русском, английском и узбекском языках видны их различия.

В русском языке категория числа имён существительных выражается четырьмя способами:

1. фонетическим: *окнО - Окна, волнА - вОлны, стеклО - стЁкла* и т. д.

здесь мы наблюдаем перемещение ударения.

2. морфолого-фонетическим: *нЕбо - небесА, чУдо - чудесА*

наращение основы и перемещение ударения; *друг - друзья, ухо - уши, сук - сучья* – чередование согласных в основе и т.п.

3. супплетивным: *человек - люди, ребёнок - дети*;
4. синтаксическим: *молодёжное кафе - молодёжные кафе, новое пальто - новые пальто, бежала кенгуру - бежали кенгуру.*

В английском языке категория числа, а точнее значение множественности, выражается тремя способами. [3]

1. морфологический способ: *dress – dresses, baby – babies, knife – knives;*

- чередование гласных в корне слова: *man – men, goose – geese, foot –feet;*
- чередование гласного звука и суффикс – **ren**, *child –children*.

2. синтаксический способ. У существительных с омонимичными формами для

единственного и множественного числа и некоторых других существительных число выражается синтаксическим способом:

On our trip in the mountainous countryside we saw two deer. - ***В нашем путешествии по горному посёлку мы увидели двух оленей.***

There was a beautiful deer in the zoo. - ***В зоопарке был красивый олень. -***

Physics is my favorite subject. - ***Физика – мой любимый предмет***.

3. Лексико - морфологический способ выражения множественности:

a bag – many bags an apple – many apples

a room – many rooms money – much money

В узбекском языке основным способом выражения категории числа является морфологический:

Дарахт – дарахтлар, одам – одамлар, мактаб – мактаблар.

Кроме того, есть ещё лексический способ:

Кинога кўп одам борган. – ***В кино было много народу.***

Мен қутубхонадан кўп китоб олдим. – ***Я взяла из библиотеки много книг.***

В этих предложениях значение множественности передаётся посредством слова *кўп* (много), в то время как само существительное *одам* (человек) заменяется множественным *(кўп одам – **много людей***). В этом и состоит характерная черта выражения значения множественности в узбекском языке, в отличии от русского и английского языков, т.е. в русском языке категория числа имён существительных может быть выражена четырьмя способами, в английском – тремя, в узбекском же только двумя способами. [4]

Таким образом, в грамматическом строе русского, узбекского и английского языков есть много общего (например, сходные части речи: существительное, глагол, числительное, местоимение: сходные грамматические категории и значения; категория времени, лица в глаголе, категория множественного числа в имени существительном и т.д.). Однако, между грамматическим строем исследуемых нами языков имеются немало различий, которые необходимо учитывать при преподавании русского, узбекского и английского языков учащимся, студентам и изучающим иностранные языки.

Литература

1. Iofik I., Chakhoyan I.P. “Readings in the Theory of English Grammar”. Pub.Leningrad «Просвещение» 1972. P.41-42
2. Ilish B. “The structure of Modern English”. «Просвещение» Ленинград, 1971 C.36
3. «The grammatical structure of English, Russian, Uzbek” P.1. Tashkent “Uqituvchi”. 1986. P. 20
4. Шоабдурахманов Ш., Аскарова М., ва бошқалар “Ҳозирги ўзбек адабий тили”, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980. Б.223

ПАРАНТЕЗ БИРЛИКЛАРНИНГ ГРАММАТИК ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Алиева Мастура Салиевна
Қўқон давлат педагогика институти
инглиз тили фани ўқитувчиси
905670950

Аннотация:Мақола доирасида парантез бирликларнинг асосий гап билан муносабати ва алоқаланиш хусусиятлари хусусида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Парантез бирлик, алоқаланиш, тобеланиш, гап, содда гап, микроматн.

Парантезалар деярли барча гап бўлаклари билан бевосита алоқаланиши мумкин. Фақат улар кесим билан алоқаланган ҳолатларда кесим гапнинг маркази, асоси бўлганлиги учун парантезалар муайян бир бўлак билан эмас, балки яхлит гап билан алоқаланган деб ҳисобланади. Гап шаклидаги парантеза асосий гапнинг синтактик мақомини ўзгартиради, яъни улар ўртасида интродуктив муносабат воқеланади. Натижада парантезали қўшма гап юзага келади. Табиийки парантезанинг содда ёйиқ ёки содда йиғиқ гап шаклида бўлиши мазкур қўшма гапнинг мақомига таъсир этмайди.

Шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, эга билан алоқаланган содда гап шаклидаги парантезанинг мазкур эга билан контакт муносабатда бўлиши шарт эмас, бундай парантеза асосий гапдаги нафақат эга билан, балки асосий гапнинг ўзи билан дистант позицияда бўлиши мумкин. Содда гап шаклидаги парантеза ўзидан бир қанча олдинги гапдаги эга билан ҳам алоқаланаверади. Қуйидаги микроматнда буни кўриш мумкин: *Муйилишдаги супачада бир мўйсафид деворга суяниб, мудрагандек бир қуйда ўтирибди. Ёз кунида бошида ярғоқ телпак. Кўзи кўрмайди – ожиз. Ўзича минғирлаб хиргойи қилади. Ўзича маст. ...(Дарвоқе, бу кўҳна зотни биз "Эркак" фильмида ҳам учратганмиз)* (Эркин Аъзам, "Сув ёқалаб" киноқиссаси). Кўриниб турганидай, содда гап шаклидаги парантеза (унинг ичида ҳам *дарвоқе* тарзидаги кириш парантезаси бор) микроматннинг бошидаги гапдаги *мўйсафид* сўзи билан ифодаланган эга билан бевосита алоқаланган.

4. Қўшма гап шаклидаги парантеза эга билан бевосита алоқаланади: *Тошев Ҳиндистон Республикаси тузилган йили олдинга сурган бу фикрига оппонентлари (уларнинг кимлигини отаси очиқ айтмас, лекин Ҳакимовлар эканини Гавҳар сезиб турарди) сиёсий хато деб баҳо бердилар* (П.Қодиров, "Уч илдиз" романи). Гапдаги *уларнинг кимлигини отаси очиқ айтмас, лекин Ҳакимовлар эканини Гавҳар сезиб турарди* боғланган қўшма гапи шаклидаги парантеза асосий гапдаги *оппонентлари* сўзи билан ифодаланган эга билан алоқаланган ва уни мазмунан тўлдирган. Парантезасиз мазкур асосий гап, тайинки, содда гап, аммо айни қўшма гап шаклидаги парантезанинг у гап таркибига киритилиши билан мураккаб қўшма гапга айланган, яъни яхлит гап учта содда гапнинг тенгланиш ва интродуктив муносабатлари асосида яхлитланган.

Қуйидаги мисолда ҳам қўшма гап шаклидаги парантеза иштироки билан мураккаб қўшма гап юзага келган: *Лекин шундай қилса ҳам, ўзига бино қўйган бу олифта бўш келмади (у прокуратурадан эмас, ҳаммани назорат қилувчи нозик ташкилотдан келган, акс ҳолда, Шарановский уни аллақачон ҳайдаб юборган бўларди), Шарановский нутқини тугатар-тугатмасданоқ зиёфатни намойишкорона тарк этди* (О.Ёқубов,

“Адолат манзили” романи).

Хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, парантез бирликлар гап билан грамматик жиҳатдан эмас, балки мазмуний яқинлик хосил қила олиши билан ҳам характерланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. -Тошкент, 2004.-Б. 58.

2. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.-Б. 30.

"ДЕВОНУ ЛУҒОТИТ ТУРК" МАТЕРИАЛЛАРИ ВА ЛИНГВОПОЭТИК ТАҲЛИЛ МАСАЛАСИГА ДОИР
(тажнис санъати мисолида)

Бердиев Хусан Холназарович
СамИСИ «Ўзбек тили ва адабиёти» кафедраси мудири, PhD
e-mail: rustam_berdiyev1996@mail.ru
тел.: +998915432041

Аннотация. Ушбу илмий мақолада бадиий санъатлардан бири тажниснинг (шаклдош сўзларнинг келтирилиши) туркий адабиётда қўлланиши лингвистик поэтика масалалари аспектида ёритиб берилган. "Девону луғотит турк" асарининг лингвопоэтика тарихини ўрганишдаги муҳим ўрни далиллар асосида кўрсатиб берилишига ҳаракат қилинган. Асар материалларининг тилшунослик ва адабиётшунослик учун аҳамиятли томонлари қайд этилган.

Калит сўзлар: лингвопоэтика, бадиий санъат, тилшунослик, адабиётшунослик, "Девону луғотит турк".

Ҳамжинс, ҳамшакл маъносидаги *жинс* тушунчаси тажнисга нисбатан олинганда сўзнинг структур белгисига кўра хусусиятни англатади. Унинг поэтик вазифаси асосида ҳосил бўлган *туюқ – туй-уг – туй-уг = тугук*да шакл негизида маъноларни мужассам этиш ётади. Луғатлардаги изоҳларга кўра, "тажнис- 1) адабиётда-омонимларни (шакли бир, маъноси бошқа-бошқа сўзларни) келтириш, ҳамжинс қилиш, ҳамшакл қилиш; туюқ…". 2) музикада энг оғир ва мураккаб куйлардан бири [5, 322]. Айрим манбаларда эса, нафақат омоним, балки паронимлар ҳам тажнис ҳосил қилиши таъкидланган [Қаранг: 4, 108]. «Тажнис (ёки жинос) шеър байтида маъно жиҳатидан ҳар хил, аммо шакли бир хил ёки шаклан бир-бирига яқин икки сўзни келтириб, улар воситасида муайян фикр, лавҳа ёки тимсолни таъсирчан ифодалаш санъатидир» - дейиладики, бу муайян маънода умумлаштирувчи таърифдир. Шунингдек, А.Ҳожиаҳмедов тажнис ҳосил қилувчи сўз фонетик ва грамматик белгиларига кўра турларга бўлиниши ва ўзига хос терминлар билан аталиши хусусида сўз юритади, тажниси томм, мураккаб тажнис, мумосил, муставфий тажнис, тажниси ноқис, тажниси зойид кабиларга тўхталиб ўтади, мисоллар келтиради [6, 67-69] .

Таъриф ва мисоллардан маълум бўладики, тажнис бадиий санъат сифатида фонетик, лексик-семантик ҳамда грамматик белгиларга эга ва шу жиҳати билан у санъат ҳисобланади.

«Муҳокамат ул-луғатайн»да шундай шарҳ мавжуд: «... Яна шеърда табъ аҳли қошида равшан ва мажмуъ, фусаҳо оллида мубарҳандурки, *тажнис* ва *ийҳом* бағоят куллийдур… ҳам турк шуароси хоссасидурки, сортда йўқтур ва муни *туюғ* дерлар» [1, 7]. Навоий таъкидида, «алфоз ва ишоратда» туркий тилдаги сўзлар имконияти кенг бўлиб, улар туфайли энг қийин санъатлар кашф этилганлиги, худди шу лингвистик хусусият «боиси такаллуф ва санъат» эканлигига урғу берилиши бежиз эмас.

"Ибн ал Муътазз "мужанаса"ни "тажнис" деб номлаб, шундай таърифлайди: "Бир нарсанинг иккинчиси билан яқинлашиши унда ҳарф ва мазмуннинг мослашишида ифодаланади… " [2, 33].

Шундай қилиб, «Девону луғотит турк»даги қуйидаги шеърни тажнисга мисол келтириш мумкин:

Қојғашуб јатса анің јузіңа,

Алсіқар окін анің созіңа,

Мің кіші јолуғі боліб озіңа,

Бэргаlар озін анің козіңа.

Мазмуни: Унинг қўйнида унга қараб ётган киши унинг майни ва ёқимли сўзларига ўзини йўқотади. Бир жонни эмас, минг жонни унинг ҳуснига фидо қиладилар... (I т., 245-б.).

Шеърдаги *озіңа, озін* сўзлари тажнис белгисидир. Чунки у биринчи ўринда ўзлик олмоши, кейингисида жон маъносидадир. Энди шеърнинг морфологик хусусияти ҳақидаги фикрга қайтадиган бўлсак, шуни айтиш мумкинки, дастлабки 2 мисрада феъл иштироки етакчи, кейинги мисраларда унинг ўрнини от ва унинг вазифадоши олмош ҳамда сон эгаллаган. Ёки қуйидаги мисолда "*куlа*" сўзи шаклдош ҳисобланади:

Кэlса кіші этма аңар ортар куlа,

Бақкіл аңар эзгуlугун ағзін куlа.

«Сенга кулар юзли бир киши келса, сен унинг юзига иссиқ – қайноқ кул чочма, яхшилик қил, ёқимли қилиқ билан ҳурматла» (I т., 149-б.).

Айрим хулосалар:

- тажнисниг туркий адабиётдаги дастлабки намуналари «Девону луғотит турк»да ҳам учрайди. Мазкур санъат, Алишер Навоийнинг илмий тадқиқига кўра, туркий-ўзбек тилидаги сўзлар имконияти кенглигига таянади;
- тажнис фонетик, лексик-семантик ҳамда грамматик белгиларга эга бўлган, аниқроғи, лингвистик белгилар тизимига асосланувчи бадиий санъат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн (нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев).- **www.ziyouz.com** kutubxonasi.

2. Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг "Мафотиҳ ал-улум" асарида поэтика (Аруз, қофия, бадиият илми истилоҳлари тарихига оид). – Т., 2001.

3. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. – Т.: Фан, 1960; III том. – Т.: Фан, 1963.

4. Сулаймонов Ш., Тўхсонов Қ. Адабиётшунослик атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Б.: «Бухоро» нашриёти, 2009.

5. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат (Тузувчилар – П.Шамсиев, С.Иброҳимов.). – Т., 1953.

6. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.

МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙ ВА ОДОБ-АХЛОҚ МАСАЛАЛАРИ

Дўсматов Санжар Тошпўлатович
Ўзбекистон халқаро ислом академияси ўқитувчиси
Телефон:+998(90) 9182811 s. dusmatov@bk.ru

Аннотация. Маълумки, бизнинг диёримиз илм ва илм зиёсини таратувчи олимларга тўла. Биз ҳозирда босиб турган қадамимиз остини бир пайтлар не-не олиму уламолар босмаган дейсиз. Зеро ҳар бир мамлакатнинг обрўйи, унинг мавқеи ўша юртнинг олимларини жаҳон тамаддуни ривожига қўшган ҳиссалари билан ўлчанади. Хусусан, Хоразм воҳасидан азалдан жаҳон фани ва маданияти ривожига улкан ҳисса қўшган кўплаб алломалар етишиб чиққан. Айниқса, ўрта асрларда бу диёрда илм-фаннинг турли соҳалари бўйича самарали ижод қилган олимлар донғи бутун мағрибу машриққа тарқалган. Хоразм заминида таваллуд топган буюк алломалардан яна бири - Абу-л-Қосим Маҳмуд Замахшарийдир. Мақолада мазкур алломанинг бир неча асарлари таҳлил этилиб, уларнинг хусусиятлари ўрганилган. Асарларда олимнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари таҳлил доирасига киритилган. Мазкур мақола ўрта асрларда алломалар ижтимоий-ахлоқий қарашларини, унинг тарихий тараққиётини ўрганаётган тадқиқотчилар учун қизиқарли маълумотлар беради.

Калит сўзлар: Маҳмуд Замаҳшарий, аллома, ахлоқ, одоб, «Навобиғ ал-калим», «Атвоқ аз-захаб», «Мақомот аз-Замахшарий», илм, олим.

Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий XI асрнинг охири ва XII асрнинг бошларида яшаб ижод қилган буюк тилшунос бўлибгина қолмай, балки фаннинг бошқа соҳаларини ҳам чуқур эгаллаган энциклопедист олим эди. У диний илмлар мажмуаси - ҳадис, тафсир, фиқҳ ва қироат илми бўйича ҳам катта шуҳрат қозонган. Бунга унинг «Жоруллоҳ», «Раис- ул-афозил», «Фахру Хваразм», «Устоз ал-араб вал-ажам» номларини олиши ҳам далолат беради.

Аз-Замахшарийнинг араб тили, адабиёти ва услуби соҳасидаги илмий билимлари, фалсафий қарашлари унинг бадиий асарларида ўзининг амалий аксини намоён этган. Олимнинг «Навобиғ ал-калим», «Атвоқ аз-захаб», «Мақомот аз-Замахшарий» асарлари ва бошқа китобларининг айрим қисмлари бадиий насрнинг юксак намуналари бўлиши билан бир қаторда Замахшарийнинг чуқур фалсафасини ҳам намоён этган. Аллома Маҳмуд аз-Замахшарий «Навобиғу-л-калим» («Нозик иборалар») асарини Маккада яшаган вақтида ёзган. Бу асар ҳам насрий сажъ услубида ёзилган бўлиб, асосан, ҳикматлар, насиҳат ва ўгитлар мажмуаси бўлиб, хилма-хил мавзуларни қамраб олган. Бу асар араб мамлакатларида бир неча марта нашр қилинган. «Навобиғу-л-калим»га бир қанча шарҳлар ҳам ёзилган бўлиб, улардан Самарқандда Амир Темур саройида хизматда бўлган йирик аллома Саъдуддин ат-Тафтозонийнинг «Ан-Ниъам ас-савобиғ фи шарҳ ан-навобиғ» («Ан-Навобиғнинг шарҳида улкан неъматлар») шарҳи эътиборга моликдир.

Алломанинг мазкур асаридан бир неча ҳикматларни келтириб ўтсак:

-Ёки илмли бўл, ёки илмга таяниб иш тутадиган бўл, лоақал илмни тинглаб эшитадиган бўл, бироқ тўртинчиси бўлма, чунки касодга учраб ҳалок бўласан.

-Агар бирор қайғу-алам юз бергани ёки таъзияли жойни эшитсанг, дарҳол у ерга боргин, агар зиёфату меҳмондорчиликка чақирилсанг, унда ўзинг ўйлаб иш тут.

-Мол-мулкни беҳуда исроф қилишлик куфрона неъматдир, ўйламасдан бойлигини сарфлаш тўлиқ таназзулга олиб келади.

-Тоғнинг тепасига чиққан киши ундан йиқилишдан ғоят огоҳ бўлмоғи лозим.

-Пасткаш кимсанинг ўз насл-насабини мақтаб, у билан фахрланиши, чанқоқ киши-

нинг сув шуъласини кўриб алдангани кабидир.

-Бошингизга мушкул иш тушганида мунис бўлиб, одамларга меҳр-муҳаббатлироқ бўласиз, аммо давлату неъматларга эришганингизда бағритошликка мойил бўласиз.

-Аҳмоқ киши ҳикмат лаззатини билмайди, бамисоли тумов киши гулнинг ҳидини сезмаганидек.

Агар тилингнинг ортиқча сўзлашига эга бўла олмасанг, унда тизгининг жиловини шайтонга топширган бўласан.

-Мен рўзадорман дейсану, аммо ўзинг биродаринг гўштини ейсан.

-Ўтган умрингни мулоҳаза этиб тавба қилишга шошилгин, чунки ажал етса, уни кечиктириш ҳеч кимнинг қўлидан келмас.

-Ҳайвонга яхшилик қилсанг севинади, ҳайвон севинса эгасини тепади, одам боласи ҳам шунга ўхшаш. Агар у ташвишу машаққатдан холи қолиб, ўзини эркин сезса, Фисқу фужурга ружуъ қўйиб, яқинларини қийнаб, азоб беради.

- Кўпинча тил билан етказилган жароҳат, қилич билан етказилган жароҳатдан оғирроқдир.

Жоруллоҳ Маҳмуд аз-Замахшарийнинг ижтимоий-ахлоқий қарашларини намоён этган асарларидан яна бири «Атвоқу-з-заҳаб фи-л-мавоиз ва-л-хутаб» («Ваъз ва хутбаларда олтин шодалар») асаридир. Бу асарни аз-Замахшарий Маккадалик пайтида, ўзининг илмий фаолияти барқ урган даврда яратган. Асарнинг дастлабки номи «Насоиҳ ас-сиғар» («Кичик насиҳатлар») деб аталиб, юз мақоладан иборат ибратомуз ҳикматлар, фойдали насиҳат ва гўзал ахлоқий ўгитларни ўз ичига олган. «Атвоқу-з-заҳаб» асари мазмуни билан танишар эканмиз, муаллиф унда ўз даврининг ижтимоий-иқтисодий ва маънавий ҳаётига доир кўп масалаларни қамраб олганини кўрамиз. У мақолаларда золим ҳукмдорларни ҳам, фалсафа ва илм ал-фалак тарафдорларини ҳам кескин танқид қилади. Порахўр қозиларни, адиблар, илм аҳллари ўртасида бўлган ашаддий кўчирмачиликни, мол-дунёга хирс қўйган уламоларни койиб, ижтимоий иллат ҳақида очиқ-ойдин ёзади. Қуйида биз бир неча мақоладаги ижтимоий қарашларини кўриб чиқамиз.

Биринчи мақола

Кишининг қадрини дину диёнати ва илму маърифати ошириб қўйгандан кейин унинг фақирлиги ва етимлиги тушириб қўя олмайди. Шунингдек, ёмон сифатлари ва нодонлиги туфайли ўз қадрини ўзи тушириб қўйган бўлса, ҳеч вақт бойлик ёки кўп авлодлик билан уни тиклай олмайди.

Инсоннинг асл отаси-бу унинг адабидир. Балки адаб бебош фарзанд учун отадан ҳам яхши тарбиячидир. Парҳезкорлик эса инсоннинг асл онасидир. Балки у онадан ҳам дилкашроқдир.

Ўзингни шу икки меҳрибон мураббийлар бағрига топшир ва улардан зинҳор айрилма. Шундагина сени Тангри Таоло ўзининг неъматлари билан сероб қилур ҳамда ҳаётингни файзу баракотли этур.

Иккинчи мақола

Эй одамзод, аслинг лой-сополдан бўлишига қарамай гоҳ ота-боболаринг, гоҳида бойлигу иқболинг билан фахрланиб такаббурланасан-а?! Аждодларингга қувониб ўзгаларни менсимай юришинг сенга лойиқ сифатлардан эмас.

Дўстим, ўзинг фикр қил. Охирги уловинг ёғоч от (тобут) ва вужудинг тупроққа айланадиган бўлгандан кейин ҳовурингдан сал тушгин ва кибру ҳаводан узоқроқ юргинда!

Алломанинг яна бир асари бўлмиш «Мақомот аз-Замахшарий» асари 50та мақомадан ташкил топган. Бу элликта мақома турли хил мавзуларни ўз ичига қамраб олган бўлиб, турли мажлисларда, ўтиришларда панд-насиҳат, ўгит тариқасида сўзлаш

учун керак бўладиган ҳикматли сўзлар, бадиий санъатлар, шеърий парчалар, масаллар, ҳикоятлардан иборатдир.

Маҳмуд аз-Замахшарийнинг «Мақомат аз-Замахшарий» асари юқорида айтилганидек, дидактик асар ҳисобланади. Мисол тариқасида «Мақомат ал-марошид»ни оламиз. Бу мақомада аз-Замахшарий: яхшилик ва ёмонликни бир-бирига таққослайди. Унинг фикрича, яхшилик қанча бўлса ҳам кам. Яхшилик ўзига инсонни жалб қилаверади. Лекин ёмонлик эса, озгина унга тегиб кетса ҳам, ўзидан инсонни итариб юборади. Агар инсон иззат-икром, обрў-эътиборга эришишни хоҳласа, фақат яхшилик қилиш керак, дейди. У залолатга кетган инсонларни худди заҳарли илонга ўхшатади. Уларнинг заҳаридан ҳеч нарса қутқара олмайди. Фақат инсондан Аллоҳга бўлган тақво бўлсагина, уларнинг заҳри таъсири ўз кучини йўқотади. Нафсларига қул бўлган инсонлар ҳақида фикр юритиб, шундай дейди: «Улар нафслари деб залолатга кетадилар. Аллоҳ ҳар бир инсоннинг ноласини эшитади. Ва уларга яна имконият беради. Лекин улар ўз нафсларига эргашган ҳолда тўғри йўлдан адашадилар»[1]. У ўзига ўзи шундай дейди: «Сен ҳам ўзингни уларнинг ичига урмагин. Агар сен ҳам уларга аралашсанг, ҳолингга вой. Сен уларнинг ичидан чиқиб кетсанг, балким Аллоҳнинг фазли билан нажот топиб ўз ниятингга эришарсан»[2].

Тақво мақомаси эса умрнинг қанчалик қисқалигини, у бизнинг қўлимизда эмаслигини, дунёнинг зебу зийнатларига берилиб, уни янада қисқартирмасликка чақиради. Бу дунёнинг зебу зийнатлари инсонни йўлдан адаштиришини айтиб, ўзига ўзи, агар сен фозил инсон бўлсанг, тўғри йўлни танлаб олгин ва шу йўл сени ҳидоятга олиб борсин, дейди. Унинг фикрича, дунё зебу зийнатларидан сақлайдиган устун - бу тақво устунидир. Дунёдан фақат унинг ортидагина яшириниш мумкин.

Ризвон мақомасида, ажал ҳақиқат, орзу ҳаваслар ўткинчи нарсалардир, дейди. Сен икки иш ўртасида турибсан, биринчиси бир соатлик лаззат, лекин ундан кейин афсуснадомат ва бахтсизлик бўлади. Иккинчиси эса бир соатлик машаққат ва лекин ундан кейин абадий бахт-саодат, фаровонлик бўлади. Жаннатдан, Аллоҳнинг розилигидан қочиб, бахтсизлик сари шошилиб, Аллоҳнинг ғазабини келтириб, дўзахга чопиб кетишига ҳеч қандай баҳона, сабаб бўлиши мумкин эмас. Нафсу-ҳаво, обрў-эътиборга бўлган муҳаббат сени шаҳватнинг асирига айлантириб қўяди ва сенга дунёни бир тип-тиниқ сувдек кўрсатади. Лекин мана шу тиниқ сув остида балчиқ лойқа бор. Сен кўрган гўзаллик, жим-жимадорлик ортида, албатта, бало бўлади. Фақат инсон ақли-дрокигина уни шу балолардан сақлаб қолиши, бундай ишлардан қайтариши мумкин. Аз-Замахшарий инсон ақлига мана шундай юксак баҳо беради.

Пушаймонлик мақомасида эса «ёшликнинг қадрига етиб, уни ғанимат билиш керак. Қомати эгилиб, сочига оқ оралагунча инсон ҳаракат қилиши керак. Инсонни кучқувват тарк этган вақтда эссиз ёшлигим ўтиб кетди деб пушаймон бўлишлик ярамайди. Нега инсоннинг нафси шайтоннинг макру-хийлаларига тушишдан лаззатланади. Ундан қутулишни истамайди», деб ёзади.

Асарнинг қолган мақомалари ҳам мана шу тарзда насиҳат, маслаҳат ва ўгитлар бериш билан давом этади. Фақат асар сўнггидаги мақомалар қолганларидан мазмун жиҳатидан ажралиб туради.

Замахшарий ҳурфикрлиликни, дунёга кенг қамровли фикр юргазиш билан қарашни, ўзгалар фикри билан ҳам ҳисоблашиб, баҳс ва мунозаралар ўтказишни тарғиб қилади.

Маҳмуд Замахшарий ўз асарлари билан бизни нафс одоби, зеҳн ва ҳиссиётлар латофатига ўргатмоқчи бўлади. Шунингдек, бизга Аллоҳнинг неъматларини айтиб, биз-

[1] Мақомот аз-Замахшарий, Қоҳира, 1896, 14-бет
[2] ўша асар, 15-бет

ни ўткинч нарсалар талабидан озод бўлишликка чақиради. Шу билан бирга, хайрли ишлар ва Фиску-фасод оқибатлари, улардан кейин келадиган неъмат ва азобдан бизни огоҳлантирмоқчи бўлади.

Мазкур асарларни кўриб чиқиб биз унинг ўта маданиятли, дунеқараши кенг инсон бўлганлиги ҳақида ҳукм чиқара оламиз. Бу нарса Замахшарийнинг ўз сўзларини пайғамбар ҳадислари билан тасдиқлашида, тарихий воқеа ва ҳодисаларни яхши билганлигида, адабий илмлар ва воизлик санъатини чуқур эгаллаганлигида кўринади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Самъоний, Китоб ал-ансоб, Лондон, 1912, 277-бет
2. Ёқут, Иршод ал-ариб, Лондон, 1928, 147-бет
3. Ал-Қифтий Абноу ар-рувот ъала анбои ан-нухот, Ж .3, Қоҳира, 1965, 269-бет
4. Крачковский И. Ю. , Изб. соч., Т . IV, Москва, 1957, 313-бет
5. Бартольд В. В. Соч. Т . V, Москва, 1968, 120-бет
6. Маҳмуд аз-Замахшарий. Таржимон ва шарҳлар муаллифи У. Уватов.Нозик иборалар. Тошкент, 1992, 24-бет
7. К. Броккельман. Тарих ал-адаб ал-арабий, ал-қисм ас-солис, Қоҳира, 1993
8. Шамсуддин Сомий. Қомус ал-аълом, Истамбул,Ж.4, 1899, 2421-бет
9. Рустамов А. Маҳмуд аз-Замахшарий, Тошкент, 1971
10. Окилов М. Замахшари и его сочинение «Атвак аз-захаб» . Автореферат канд. дисс., Москва, 1981
11. Оқилов М. Замахшарий асарларининг қўлёзма ва босма нусхалари. Адабий мерос, Тошкент, 1982
12. Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар, таржимон ва шарҳлар муаллифи У.Уватов, Тошкент, 1992
13. Маҳмуд аз-Замахшарий. Асос ал-балоға. Таҳқиқ Муҳаммад Босил Уюн ас-Суд, Бейрут 1998
14. Маҳмуд аз-Замахшарий. Мақомот аз-Замахшарий, Қоҳира, 1896, 14-15-бет.

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ СИНТАКСИСА.

Йулдашева Нозима Мусажоновна
Преподаватель русского языка и литературы
общеобразовательной школы 20
Багдадского района Ферганской области
990670381

Аннотация:В статье говорится об особенностях обучения учеников синтаксису грамматики русского языка

Ключавая слова:Синтаксис**,** морфологии, лексики, фонетики, орфографии, предложение, словосочетания.

Одной из важнейших задач уроков родного языка в начальных классах является формирование у детей умения сознательно пользоваться предложением для выражения своих мыслей. Значимость работы над предложением обусловлена прежде всего его социальной функцией. Научить учащихся сознательно пользоваться предложением означает развить у них умение делить поток речи на законченные структурно-смысловые единицы, вычленять предмет мысли, структурно и интонационно оформлять мысль, соединяя слова в предложения. Необходимо отметить также, что усвоение морфологии, лексики, фонетики, орфографии осуществляется на синтаксической основе. Программа по родному языку предполагает развитие речи учащихся, повышение их речевой культуры. Осознанные знания о предложении и его составных частях, о словах и словосочетаниях помогают детям в правильном образовании предложений, в грамматически точном их использовании.

Синтаксис – это правила соединения слов: это законы выражения объективной и субъективной информации при помощи слова, это основа нашего речевого поведения и нашего взаимопонимания. Основная единица синтаксиса – предложение. От того, как построено предложение, зависит точность передачи и адекватность восприятия информации. Минимальной единицей синтаксиса является синтаксическая форма слова (или синтаксема). Из синтаксических форм образуются словосочетания и предложения. Предложения соединяются в сложные предложения, а также образуют максимальную синтаксическую единицу – текст. Текст и предложение называют коммуникативным уровнем синтаксиса. Термином «синтаксис» обозначают не только определенную сторону языка, но и раздел лингвистики, занимающийся изучением этой стороны. Методика работы над словосочетанием. Понятие «словосочетание» показывает, что речь идет о сочетании двух или нескольких слов, связанных между собой по смыслу и грамматически. Связь между словами устанавливается с помощью вопроса. В словосочетании одно из слов является главным (от него ставится вопрос), а другое зависимым.

Работа над словосочетанием в начальной школе решает задачи:

- развитие мышления и речи;
- формирование орфографического навыка;
- осознание словосочетаний как особой единицы языка, служащей для образования предложений.

Формами и приемами работы над словосочетанием являются:

1. Составление словосочетаний из данных слов.
2. Постановка вопросов от слова к слову.
3. Составление словосочетаний и определение рода, числа, падежа.

4. Склонение словосочетаний, состоящих из прилагательного и существительного.

5. Составление глагольных словосочетаний и распознавание падежей существительных.

6. Составление словосочетаний с использованием глаголов и предлогов.

7. Замена словосочетаний, противоположных по смыслу.

8. Подбор словосочетаний, близких по смыслу.

Для формирования навыка правописания падежных окончаний имен существительных рекомендуются виды упражнений в составлении словосочетаний:

1. Поставить существительные в нужном падеже, выделить падежные окончания существительных.

2. Выписать словосочетания из предложения.

3. Подобрать к данному слову зависимые слова.

4. Составить словосочетания, используя данные слова, определить падеж существительных.

Работа над словосочетанием способствует развитию речи и мышления, обогащению словаря учащихся, формированию орфографического навыка, повышению культуры речи. Формирование у учащихся умения устанавливать связь слов в предложении относится к числу важнейших синтаксических и речевых умений. Умение выделять словосочетание в составе предложения формируется постепенно и требует длительной тренировки.

Литература

1. М.Р.Львов, Т.Г.Рамзаева, Н.Н.Светловская. Методика обучения русскому языку в начальных классах. – М, 1987.

2. Е.В. Архипова. Развитие речи: учебное пособие для учителей начальных классов, - М, 1995.

ЛУТФИЙ ШЕЪРИЯТИДА "ГЎЗАЛЛИК" КОНЦЕПТИНИНГ ВЕРБАЛЛАШУВИ

Зулфия Маруфова
Тошкент шаҳар Яшнобод туман
204-мактаб она тили ва адабиёт ўқитувчиси
Телефон*:+998 97-7161634*
Zulfiyaxon2018@gmail.com

Аннотация: Мақолада шарқ адабиётида "Гўзаллик" концептини воқелантирувчи воситалар Лутфий шеърияти мисолида таҳлил қилинган. Келтирилган шеърий мисраларда когнитив механизмларнинг ўрни, лингвопоэтик хусусиятлари хусусида мулоҳаза юритилган.

Калит сўзлар: "Гўзаллик" концепти, коцептуал метафора, концептуал метонимия, тимсол, ёр, концептуал майдон.

Асрлар мобайнида ҳар бир миллатнинг ўзига хос миллий-эстетик диди, дунёқарашлари, гўзалликка бўлган муносабатлари, тасаввурлари ва талаблари шаклланиб боради. Тасаввуфий руҳ билан йўғрилган шарқ адабиётида ҳам илоҳий ва мажозий гўзалликка субъектив баҳо ифодалаш воситаси ўлароқ кўплаб лингвопоэтик конструкциялар, лисоний бирликлар,тимсоллар мажмуи яратилган. Чунки "гўзаллик" концептига оид маънони англаш учун фақат "гўзаллик" лексик-семантик майдонига тегишли сўзларнигина эмас, балки уларда мужассам миллий руҳ, эстетик қарашлардан ҳам хабардор бўлиш муҳимдир.

"Шоир шеърий мисраларни яратар экан, онгида мавжуд севги, эътиқод, гўзаллик сингари фундаментал ҳаётий қадриятларни ўзининг хусусий такрорланмас интерпретациялари билан янада бойитиб, янгича маънолар яратишга мойил бўлади",-деб таъкидлайди К.В.Сборошенко[1]. Лутфий шеърияти ўзининг поэтик бўёқдорлиги, услубининг нисбатан соддалиги билан ажралиб туради.Шоир гўзал образни ифодалаш учун белги билдирувчи сўзлардан унумли фойдаланади.

Дудоғинг маъдани жондур»,—дедим, айтур: «Сенга не?!» «Қоматинг сарви равондур»,— дедим, айтур:«Сенга не?!»

Келтирилган байтида ёр лабини таърифлаш учун "маъдани жон" бирикмаси қўлланилган. "Маъдан" сўзининг луғавий маъносига эътибор қаратамиз:

Маъдан(араб.; кўплиги маодин) — 1) ўрта аср Шарқ муаллифлари, жумладан, Беруний, Ибн Сино ва б. асарларида кон, металл, руда, минерал ва умуман ер ости фойдали қазилма бойликлари маъносида қўлланилган; 2) ҳар бир нарсанинг асли жойи[2].

Маълумки, мумтоз шеъриятимизда ёр лабини лаълга, ёқутга қиёслаш анъаналари мавжуд. *Маъдан* сўзининг 1-маъносига кўра: дудоқ – "гўзал", "қимматли" семалари ёрдамида ошиқ "ҳаётининг бор-йўғи, хазинаси" сифатида; 2-маъносига кўра: "макон" семаси орқали "тириклигининг манбаи, жони турадиган макон" сифатида Гўзаллик концептини майдонига қамраб олиняпти. Иккинчи мисрада субъектнинг *сарв дарахти* ва инсон қомати ҳақидаги мавжуд билимлари тафаккурида қайта ишланиб, "тик", "текис" семалари етакчилигида янги метафорик тасвир яратилган. *Дарахт* ва *қомат* ҳақидаги тасаввурлар когнитив тарзда бирлаштирилишидан тик ва гўзал қоматли аёл сиймоси кўз ўнгимизда гавдаланади.

А.Г.Юлдашевнинг таъкидлашича, ҳар қандай кўчма маънога эга бўлган тил бирли-

клари, аввалам бор, инсон тафаккурида босқичма босқич амалга оширилган жараёнлар самарасидир[3]. Лутфий шеъриятида когнитив механизмлар воситасида хилма-хил янги тасвирлар яратилганини кўриш мумкин.

Жону кўнгул кишварининг хонисиз,

Ҳусну латофат танининг жонисиз.

Ушбу байтда бирикмали концептуал метафора механизмининг икки босқичда вербаллашувини кузатамиз:

Биринчи мисрадаги *жону кўнгил+кишвар (мамлакат)* сўзларининг бирламчи маънолари субъект онгида *"ҳаёт","одам", "яшаш"* семалари воситасида ўзаро туташади. Бунда бирикманинг синтактик қурилиши тартибига кўра *кишвар* бош сўз бўлгани ҳолда, "макон" маъноси устунлик қилади.

Кейинги босқичда **"кўнгил (жон) кишварининг+***хонисиз"* бирикмасида мослашув йўли билан бирикаётган *кишвар (мамлакат)* ва *хон* сўзлари ўзаро *бошқариш, ҳукмронлик* умумий семалари ёрдамида туташиб, *хон* бирлиги етакчи ўринга чиқади. Ж. Лакофф ва М. Жонсон метафорик ҳосила маънонинг пайдо бўлишида икки когнитив майдон, яъни *манба майдони* ҳамда *мақсад майдони* иштирок этишини кўрсатишади. *"Кўнгил (жон) мамлакатининг хони"* бирикмаси **манба майдонига** айланади ва ёрнинг ошиқ ҳаётидаги мавқеини белгиловчи **мақсад майдони**нинг юзага келишига ёрдам беради. Шоирнинг мақсади-ошиқнинг кўнгли ва тириклиги ёрнинг ихтиёрида эканлигини таъкидлаш. Бу жараённи қуйидаги схемада тасвирлаш мумкин:

Макон концепти+Одам концепти=**Гўзаллик** концепти

Байтнинг 2-мисрасида *(Ҳусну латофат танининг жонисиз)* ҳам худди шу метафорик модел орқали субъектив баҳо позицияси ифода этиляпти.

Лутфий ижодида метонимия воситасида вербаллашган кўплаб "гўзаллик" концептосфераси элементларини учратиш мумкин.

Ўқдайин қоматимизни *қора қошлиғлар* учун,

Муттасил ё қиладурғон бу кўнгулдур,бу кўнгул,-

Байтининг 1-мисрасида *(қора қошлиғлар)* концептуал метонимия механизми воситасида субъектив баҳо позицияси намоён бўлади. Н.Н. Болдырев концептуал метонимиянинг бир концептнинг бошқа концептни тавсифлаш учун ишлатилиши, ўзи билан боғлиқ бўлган концепт билан бир концептуал майдон атрофида бирлашувини қайд этади[4]. Сўз ясалишида концептуал метонимия типидаги маъно кўчишининг юз бериши хусусида В. Крофт ва Д. Крузлар икки когнитив майдонни, яъни *восита майдони* ва *мақсад майдонини* ўз ичига олишини таъкидлайдилар. Уларнинг фикрича, метонимияда *восита майдони*нинг вазифаси фақат *мақсад майдони* тузилишини аниқлашдан иборат[5]. *Қора қошлиқ* бирикмаси шарқ мумтоз шеъриятидаги анъанавий ифода усулларидан бири бўлиб, қош орқали инсонни аташ, яъни қисм орқали бутун ифодалаш ҳодисаси мавжуд.Метонимик маъно кўчишининг восита майдони бўлган *қош* мақсад майдони бўлган *гўзал ёр* тасвирини юзага чиқаришга ёрдам беради. О.В.Ваховская ва бошқа тилшуносларнинг таъкидлашича, концептуал метонимия лингвокогнитив жараён бўлиб, метафорадан фарқли ўлароқ, бир концепт доирасида сўзлар қайта номланади[6]. Кўрилган мисолда восита майдони бўлган *қош* бирлиги ҳам, манба майдони *ёр* бирлиги ҳам "*одам*" концепти доирасига кирувчи сўзлардир. Ҳар қандай эстетик баҳонинг миллий-этник хусусиятдан келиб чиқишини назарда тутадиган бўлсак, *қора қошлиқ* бирикмаси шарқона гўзаллик концептини вербаллаштиряпти.

Лутфий ўзидан олдинги ва кейинги шорларнинг анъаналарига содиқ қолган ҳолда ёр юзини гулга, лолага, анорга; тишларини дурга, садафга, инжуга қиёслаш оқали

субъектив ҳайрат ва эстетик қарашларини ифода этган.

Гулчеҳраларнинг жавридин қат-қат бу бағрим қон эрур

Дур тишлиларнинг норидин икки кўзум уммон эрур[8].

Гул ва чеҳра лексемалари учун умумий бўлган *чиройли,ёқимли,хушбўй,завқ берувчи* каби семалар шоир тафаккурида ассоциациялашиб,ўзаро когнитив-семантик алоқага киришади. Концептуал метафора механизмига кирувчи манба майдони-*гул* мақсад майдони-*чеҳра*нинг сифатини юзага чиқаришга хизмат қилган. Ўсимлик концепти ва Одам концепти элементларининг ўзаро когнитив мослашувидан янги ҳосила маъно –"гўзал юз" маъноси шаклланмоқда.Тана аъзоси (*чеҳра)* орқали бир бутун одам ифодаланиши эса концептуал метонимия воситасида амалга ошяпти. *Гулчеҳралар* бирлигининг семантик доирасида метафора ва метонимиянинг хусусиятларини ўзида мужассам этган комплекс механизм – **метафтонимия** механизми юзага чиққан. Л. Гуссенс тилшуносликда биринчи бўлиб метонимия ва метафоранинг ўзаро туташув жараёнига эътибор қаратди ва бу ҳодисани *метафтонимия* термини билан атади. Л. Гуссенс метафтонимиянинг икки асосий турини фарқлаган. Булар: 1) метонимиядан келиб чиқадиган метафора (metonymy within a metaphor); 2) метафорада мужассам бўлган метонимия (metaphor from metonymy) [7]. Биз таҳлил қилган метафтонимия 2-турга мисол бўла олади.

Байтнинг иккинчи мисрасидаги "дур тишлилар" метафтонимияси ҳам шу усулда ҳосил қилинган. Тош(дур)+тана аъзоси(тиш)-метафора; дур тишлилар-(метонимия) гўзал аёллар. Биринчи когнитив жараёнда *дур* ва *тиш*нинг мос келувчи семалари (*оппоқ,текис*) орқали гўзаллик белгиси ҳосил қилингач, иккинчи жараёнда одам сиймоси намоён бўляпти.

Лутфий ғазалларидаги когнитив механизмлар воситасида яратилган кўплаб образ ва тасвирлар, ўзбекча миллий, маданий- эстетик қарашлар *ёр,севги-муҳаббат,аёл* тушунчаларига шарқона ёндашувга асосланган Гўзаллик концепти элементларини воқелантиришга хизмат қилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. К.В.Сборошенко.Метафорическая репрезентация концепта "красота" в современной поэзии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.

2. http://qomus.info/encyclopedia.

3. А.Г.Юлдашев.Кўчма маъноли сўзларда когнитив механизмларнинг ўрни. Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.PhDТошкент.akmal 1909@mail.ru

4. Болдырев Н.Н. Когнитивная лингвистика. Введение в когнитивную лингвистику. –Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государстенный университет имени Г.Р.Державина,2014. – 236 с.

5. Croft W. and D. Alan Cruse. Cognitive Linguistics. – New York: Published in the United States of America by Cambridge University Press, 2004 – 374 p.

6. О.В.Ваховская.Вербализация концепта "грех"в англоязычном дискурсе XIV- XXI веков.Украина. Когниция, коммуникация, дискурс. –2012. – № 5. – С. 17–36.

7. Goossens L. the Interaction of metaphor and metonymy in expressions for linguistic action //Metaphor and Metonymy in Comparison and Contrast. – Berlin; New-York: Mouton de Gruyter,2002. – pp. 349–378.

8. Лутфий.Девон/Лутфий; нашрга тайёрловчилар: Содир Эркинов.
Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи,2012.

MILLIY TIL VA LINGVISTIK XARITALAR

Z.T.Xolmanova
O‘z MU professori, f.f.d.
D.M.Nasriyeva
O‘z MU magistranti
Telefon:+998977337904
e-mail: delmik1979@gmail.com

Annotatsiya: Shevalar milliy tilni boyituvchi manba, uni oziqlantiruvchi ildizdir. Areal lingvistika qardosh bo‘lmagan hamda qardosh tillarni, shuningdek, bir til belgilarini xaritalashtirish bilan shug‘ullanadigan yo‘nalishdir. Lingvistik xaritalar til hodisalarining mavjudlik maydoni va tarqalish arealini yorituvchi manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqolada areal lingvistikaning tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblangan lingvistik xaritalarning milliy til rivojidagi o‘rni haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: departament, atamalar komissiyasi, milliy til, davlat tili, adabiy til, sheva, areal lingvistika, lingvistik xarita, xaritalashtirish., lingvistik atlas.

Ma’lumki, milliy til har bir millatning ma’naviyati, ruhiyati, qadri va g‘ururini ko‘rsatadigan bebaho mulkdir. Milliy til milliy urf-odat, qadriyatlar, milliy- ma’naviy merosni bilish, shuningdek, ularni avlodlarga yetkazib, targ‘ib etish vositasi sifatida ham qiymatlidir. Milliy tilda shu til ijodkori bo‘lgan xalq, millat va elatning tarixi hamda madaniyati yorqin aks etadi. Milliy tilga e’tibor millatsevarlik, vatanparvarlik va milliy g‘ururning o‘ziga xos ifodasidir.

Mamlakatimizda milliy tilimizning nufuzini oshirish va rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 21-oktabr kuni “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” farmon qabul qilindi va 21-oktabr sanasi yurtimizda “O‘zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi. Ushbu farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida”gi Nizomning tasdiqlanganligi, o‘zbek tiliga kirib kelayotgan atamalarni qonunchilikka joriy etish va amalda qo‘llashning huquqiy muammolarini o‘rganish va tartibga solish maqsadida department huzurida “Atamalar komissiyasi”ning ish boshlaganligi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida keyingi yillarda e’tibor susaytirilgan, o‘zbek xalqining tub qadriyati bo‘lgan o‘zbek shevalari va shevashunosligini jonlantirish, o‘zbek tilshunosligida yangi yo‘nalish hisoblangan areal lingvistikani takomillashtirish maqsadida “O‘zbek shevalari tadqiqoti va ta’limini muvofiqlashtirish markazi” tashkil etilganligi qadimiy va boy tilimizning jamiyatdagi o‘rni va qadr-qimmatini tubdan oshirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy asos sifatida namoyon bo‘ladi. “Markaz” o‘z oldiga hozirga qadar o‘rganilmagan shevalar va muqaddam (ellik yildan oshgan) o‘rganilgan shevalarni an’anaviy qiyosiy- tarixiy metodda o‘rganish, tarixiy dialektologiyani yaratish, shu bilan birgalikda o‘zbek areal lingvistikasini shakllantirib, lingvistik xarita va atlaslar yaratishni maqsad qilib qo‘ydi. Shevashunoslarimiz oldida turgan dolzarb masalalarni belgilab berdi.

O‘zbek shevashunosligi shu kunga qadar ma’lum yutuqlarga erishgan. Ammo shuni ham aytish lozimki, keyingi yillarda dunyo tilshunosligiga qiyoslaganda o‘zbek shevashunosligining ancha ortda qolgani ma’lum bo‘lib qoldi. Asosiysi, shevalarning adabiy tilni oziqlantiruvchi manba sifatidagi asosiy jihatiga kam e’tibor qaratildi. Ko‘pgina o‘z qatlam so‘zlarimiz dialektlar tarkibida yashab kelmoqda. Shevalarda adabiy tilda mavjud bo‘lmagan so‘zlar

(lakunalar) uchraydi. Ularni aniqlash va keng yoyish milliy til sohiblarining mas'uliyat bilan yondashish lozim bo'lgan burchidir. O'zbekiston Respublikasi Prezedentining yuqorida ta'kidlangan farmoni o'zbek tilidagi bir qator chet so'zlarning, terminlarning o'zbekcha muqobilini topish va ommalashtirish vazifasini qo'ydi. Bunday yondashuv jahon tajribasida ko'p kuzatilgan va milliy til taraqqiyoti uchun ijobiy ahamiyat kasb etgan. Xususan, Koreya o'z ona tilini rivojlantirish maqsadida chet so'zlarning aksariyatini milliylashtirish yo'lidan bordi va hozirga qadar bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi.

Ma'lumki, dialektlar nisbatan qadimiy bo'lib, adabiy til bilan mustahkam aloqada yashaydi, o'z navbatida, unga material beradi va boyitadi. Adabiy til esa bir yoki bir bir necha dialekt zaminida vujudga keladi. O'zbek adabiy tili o'zbek xalqining – milliy tili, milliy tilda esa millatning mafkurasi,tarixi, qadriyatlari aks etadi. Shunday ekan, uni asrab-avaylab sofligicha kelajak avlodga qoldirish eng muhim vazifalardandir.

O'zbek dialektologiyasining yutuqlaridan biri sifatida keyingi yillarda shakllangan areal lingvsitika sohasini qayd etish mumkin. Areal lingvistikaga doir ma'lumotlar bir qator dialektologik manbalarda qayd etilgan bo'lsa-da, bu soha tizimli ravishda so'ngi yillarda shakllanmoqda. Davlat tili mavqeyi va nufuzini tubdan oshirish masalasining kun tartibiga qo'yilishi areal lingvistika taraqqiyotiga zamin yaratdi.

Areal lingvistika zamonaviy-qiyosiy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida har bir tilning ham madaniy, ham ijtimoiy holatini tadqiq etib, til hodisalarining tarqalish chegarasini lingvistik xaritalarda aks ettiradi. Areal lingvistika lingvistik geografiya tadqiqot metodlari asosida ish ko'radi. Lingvogeografik tadqiqotning asosiy nuqtasi esa lingvistik xaritalardir. Davrlar o'tishi bilan ma'lum bir tilda so'zlashuvchi etnik guruhlar turli joylarga tarqalib o'troqlashadilar. Demak, tillarning ham tarqalish o'rni bor, ularni ham kartalashtirish mumkin.

Ilmda ko'rsatilishicha, lingvistik xarita – til hodisalarining tarqalish territoriyasi tushirilgan karta sanaladi. Lingvistik xarita tuzishda dastlab xaritalashtiriladigan til hodisasining tarqalish chegarasi – izoliniyasi aniqlashtirilib, so'ngra, har xil sheva va dialektlarda mavjud bo'lgan bir xil til hodisalari izoglossa orqali kartalashtiriladi.

Lingvistik xaritalar milliy til taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Jahon tilshunosligida dastlabki lingvistik xaritalar XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Aslida 1821-yil K.de Monbre tomonidan tuzilgan fransuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta Fransiya qirollik jamiyatiga taqdim qilinadi. 1823-yilda D.Monye o'zining lingvistik karta tuzish g'oyasini ilgari suradi. Shundan so'ng 1876-yilda Germaniyada maktab o'qituvchisi G.Venker o'zi yashab turgan tuman o'qituvchilariga nemis shevalarining chegaralarini aniqlash uchun 339 so'zdan iborat so'rovnoma yuboradi va ularga barcha so'zlarni mahalliy shevaga tarjima qilish kerakligini aytadi. Natija qiziqarli materiallarni taqdim etganligi sababli G.Venker kuzatuv doirasini kengaytirdi. Germaniya bo'ylab 40.736 aholi punktidan olingan javoblarga ko'ra, til hodisalariga asoslangan 557 ta xaritani to'plab, G.Venker va F.Fred "Germaniya lingvistik atlasi" ("Deutscher Sprach atlas")ni yaratdilar (1876 – 1926-yillar). Shundan so'ng fransuz dialektologi J.Jilyeron o'z oldiga boshqacha maqsad qo'yib, ya'ni til hodisalarining alohida, fonetik va grammatik xususiyatiga e'tibor qaratib, E.Edmon bilan birgalikda 1897 – 1901-yillarda fransuz tilida so'zlashadigan 639 ta aholi punktidan alohida so'zlarga bag'ishlangan savollar bo'yicha kuzatishlar asosida materiallar yig'di va 1920 ta xaritani birlashtirib "Fransiya lingvistik atlasi" ("Atlas linguistique de la France")ni tuzdi. Ushbu atlaslar turli mamlakatlarda lingvistik va dialektologik atlaslar yaratishda, areal lingvistika rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab turkiyshunos olimlar ham lingvistik atlas tuzish muammolariga diqqat qaratdilar. Turkiy tillarni areal nuqtayi nazardan o'rganishda N.Z.Gadjiyeva, A.B.Jo'rayev kabi olimlarning xizmati katta. Ayniqsa, A.B.Jo'rayevning

o‘zbek tilini areal o‘rganishning nazariy asoslarini belgilab berishdagi xizmatlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

O‘zbek tilshunosligida professor V.V.Reshetov o‘zbek shevalari dialektologik atlasi tuzish tamoyillarini belgilab, qurama o‘zbek shevalarining 49 ta xaritasini tuzdi, ammo bu tuzilgan atlas hali hanuz nashrdan chiqqanicha yo‘q. Shuningdek, boshqa tilshunos olimlarimiz tomonidan ham O‘zbekistonning ma’lum hududi (Namangan viloyati, Buxoro viloyati, Navoiy viloyati, Toshkent viloyativa b.) sheva va lahjalarining leksik, fonetik, grammatik xususiyatlari o‘rganildi va o‘rganilmoqda. Shu asosda tilning muayyan hodisasini qamrab olgan dialektal atlaslar yaratilmoqda. Umuman olganda, dunyo tilshunosligida dialektal atlaslar son jihatdan nihoyatda ko‘p. Lingvistik xarita va atlaslar hajmining katta va miqdorining ko‘pligi tilshunoslardan uzoq yillik mehnat va mashaqqatni talab qiladi.

Muhimi, har qanday holatda ham milliy tilimiz ildizlarini, uning qadimiy ko‘rinishini saqlab qolish uchun xaritalarimiz “ko‘zgu” vazifasini o‘taydi.

Fransuz dialektologi J.Jilyeronning fikricha, adabiy tilning mahalliy shevalarga ta’siri kuchli bo‘lib, natijada shevalarning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin, “shuning uchun ularni (shevalarni) gerbariydagi gullar kabi xarita va atlaslarda saqlash lozim”.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, lingvistik xaritalarning milliy til rivojidagi o‘rni beqiyos. Birinchidan, lingvistik xaritalar til hodisalarining innovatsiya markazi qaysi ekanligi va uning tarqalishi tarixan qay tomondan qay tomonga yo‘nalganligini izoglossalar yordamida aniqlaydi, bu esa tilimizning ildizi qaysi shevaga borib taqalganini aniqlashda ko‘mak beradi. Ikkinchidan, ularda til tarixining hamma davri o‘z aksini topishi mumkin. Uchinchidan,adabiy tilning ta’sir doirasi kengayib borishi natijasida yo‘qolib borayotgan sheva so‘zlari asrab qolinadi. Xullas, areal lingvistika o‘zbek tili, o‘zbek xalqi tarixi va o‘zbek millatining shakllanishini o‘rganish uchun qimmatli material beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аванесов Р.И. Лингвистическая география и история русского языка. – Вопросы языкознания, 1962. – № 2.
2. Ареальная исследования языкознании и этнографии (язык и этнос). – Л.,1983.
3. Большая российская энциклопедия. – М.:СЭ, 1925.
4. Вопросы теории лингвистической географии. – М.: Наука, 1962.
5. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.Тошкент: Ўқитувчи, 1985.

TEACHING ENGLISH PRONUNCIATION: COMMON TECHNIQUES AND DRILLS

Parakhatova Kirmizi Bakhadirovna
3rd year student at the faculty of Foreign Languages at Karakalpak State University named after BERDAKH Phone number: +998905742876
Uzaqbergenova Bagdagul Baltaniyazovana
Teacher of English language at the secondary school № 23 in Kegeyli region, Karakalpakstan, Uzbekistan Phone Number: +998974747613

Annotation: English is the most useful language in today's world which gives special status to the individual in the present globalized world. It is the aptness in pronunciation that makes our language comprehensible to others. Particularly in English, where there is no one to one correspondence between word and sound, and which follows the time stress rhythmic pattern demands more attention on pronunciation. Though pronunciation has an important place in English as a foreign language (EFL) teaching and learning, it is evident that EFL teachers experience some problems in pronunciation classes. Thus, this article aims to review some studies on teaching pronunciation to present essential information and solutions to the problems encountered in pronunciation classes. It was concluded that techniques, materials, and approaches used to teach pronunciation have significant influences on learners' achievement. This paper mainly focuses on basic approaches to teach pronunciation and methods that are useful in teaching pronunciation in the communication based class room environment**.**

Key words: English as foreign language learning; pronunciation; learners; current approaches, teaching techniques, teaching pronunciation.

English is the lingua franca and second official language of many countries. The knowledge of English language has become an essential asset that facilitates us to attain a special status in the modern world. Because of some historical factors, English had spread all over the world. Even though it is spread, each country developed its own variety of English.

Language is basically a systematic means of communication which uses sounds and symbols. Pronunciation refers to the way in which we sound or speak a particular language. If the main purpose of language is communication, it can be achieved mainly through proper pronunciation. Linguists demonstrated the importance of pronunciation and developed a unique code i.e. IPA (International Phonetic Alphabet) to standardize pronunciation. Proper pronunciation increases the intelligibility of our speech as well as its effectiveness. But unfortunately, this pronunciation hasn't received due importance in the language teaching context.

Particularly in countries, where English is taught as the second language, more importance is given to written skills and grammar rather than pronunciation. Pronunciation deserves strong attention in the English class, especially in classes which focuses on communication. Poor pronunciation can cause problems in oral communication, no matter, how good a speaker has control on English grammar and vocabulary. So, what affects Pronunciation Learning?

Age is a strong determining factor influencing foreign language pronunciation. It is closely connected to the theory of Critical Period Hypothesis (Lenneberg, 1967) which states that children between 2 and 13 can achieve native-like proficiency in acquiring a foreign

language, especially pronunciation (Loewen, Raiders, 2011). According to this theory, older learners of a foreign language can rarely achieve native-like fluency and pronunciation.

According to Avery and Ehrlich (1992) sound patterns of the mother tongue are transferred into the foreign language. When the sound is absent in the native sound inventory, the learners might not be able to pronounce the sounds. Combining sounds rules in native language might be different to the target language. Stress, rhythm and intonation patterns of the native language might be transferred to the target language. All these factors might cause problems for learners because the rules are language specific and can vary from one language to another.

Common Techniques and drills in Teaching Pronunciation.The Common European Framework for Languages (2001) recommends teaching pronunciation right from the beginning of foreign language learning. According to the CEFR, pronunciation should be developed via contact with authentic spoken language. The recommended techniques are listening and *repeating, drilling, minimal pair drills, ear training, phonetic training, reading aloud, imitation, tongue twisters, sound-color charts, phonics, songs/rhymes, recording learners' pronunciation,* etc. Also *clapping, clicking, tapping, gestures, mirrors, visual aids*, etc. can be used for teaching pronunciation. It is advised to combine different teaching techniques. Most popular and common pronunciation teaching techniques recommended by AMEP (2002), Celce-Murcia, Brinton, Goodwin (2002), Reid (2014), Morley (1991), O'Connor (1993), Baker (2006), Hancock (1995), Hudson (2012) with the focus on age suitability are analyzed below.

*Minimal pair drills.*Words which have the same pronunciation except one phoneme are called minimal pairs (man/men, bright/bride, tin/thin, sin/sing, etc.). This technique helps learners to recognize differences between sounds and it helps them to articulate individual sounds. In practicing minimal pair drills, learners should first differentiate, then recognize the sounds and finally to imitate the minimal pairs with correct sounds. This technique should be also used with all age groups, but probably more suitable for young learners who have the elasticity of the brain to recognize and imitate sounds they hear. Adult learners might struggle with such activities without explicit explanation.

*Tongue twisters.*Tongue twisters are purposefully created sentences or rhymes aiming at certain sounds which are difficult to pronounce. Tongue twisters are in all languages and are created for pronunciation training of the mother tongue. However, they are very useful in foreign language learning too. They are useful for all age groups, can bring a lot of fun to the class and learners usually enjoy saying them. To avoid frustration, they should be practiced once the required sound has been learnt.

*Songs and rhymes.*Using songs and rhymes is considered to be a very effective way of teaching English. They are rhythmical, learners can dance, move or do TPR while singing. By singing or saying rhymes, learners practice pronunciation drills, rhythm or intonation. Songs and rhymes are especially useful and loved by young learners who love singing and do not like static exercises. They are very motivational too. Songs and rhymes can be used for all age groups, but older learners and adults can be more shy and reluctant to sing.

*Recording learners' pronunciation.*This technique involves audio-recordings of learners' speech, free conversations, role plays, tongue twisters, reading, etc. It is a very useful technique, which is time consuming, as the follow up listening takes a lot of time. It is valuable though to get a feedback on own pronunciation. However, it is suitable for older learners who can hear and analyze their own mistakes.

List of references:

1. AMEP Research Center. (2002). Fact sheet – Teaching pronunciation: Approaches and activities. Available on the internet: http://www.ameprc.mq.edu.au/docs/fact_sheets/03Pronunciation.pdf.

2. AVERY, P. - EHRLICH, S. (1992). Problems of Selected Language Groups. In Teaching American English Pronunciation. Oxford University Press. ISBN: 978-0194328159.

3. CEFR - Common European Framework of Reference for Language Learning, Teaching, Assessment. Council of Europe. (2001). Available on the internet: http://www.coe.int/t/dg4/linguistic/Source/Framework_EN.pdf.

4. CELCE-MURCIA, M., BRINTON, D.M., GOODWIN, J.M. (2002). Teaching Pronunciation: A Reference for Teachers of English to Speakers of Other Languages. Cambridge University Press. ISBN: 0521405041.

5. Clement Laroy, Pronunciation, Oxford University Press, 1995.

6. Jonathan Marks and Tim Bowen, The Book of Pronunciation: Proposals for a Practical Pedagogy, Delta Publishing, 2012.

7. Martin Hewings, Pronunciation Practice Activities, Cambridge University Press, 2004

8. Tejedor-Garcia, C, Cardenoso-Payo, V, Camara-Arenas, E, Gonzales- Ferreras, C, and Escudero-Mancebo, D., Playing around minimal pairs to improve pronunciation training, The Journal of Acoustical Society of America, 2015

ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНДЕГИ АЙЫРЫМ ТИЛЛИК ҚУБЫЛЫСЛАР ҲАҚҚЫНДА

Патуллаева Гаўҳар Сақлапбергеновна
Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты доценти
Телефон: +998913889149
gauxar_patullaeva@mail.ru

Аннотация. Мақалада тилдиң морфологиялық қурылысындағы формаларда ушырасатуғын үнемлеў ҳәм плеоназм қубылыслары, олардың қарақалпақ тилиндеги көринислери ҳаққында айтылған.

Таяныш сөзлер: экономия, үнемлеў қубылысы, аффикслик үнемлеў, плеоназм, аффикслик плеоназм, линвопоэтика.

Ҳәр бир тилдеги бирликлердеги өзгерислер тилдиң раўажланыўы, оның жәмийетлик хызметиниң өсиўи, сондай-ақ әдебий тил нормаларының жетилисиўи нәтийжесинде әмелге асып барады. Мәселен, тилден пайдаланыў процесинде айырым сөзлер үнемленип қолланылса, ал айырымларында белгили бир мәнили бөлеклердиң тәкирарланып қолланылыўынан көриниўи мүмкин. Биз қарақалпақ тилиндеги тиллик қубылыслар болған экономия менен оның қарама-қарсысы плеоназм қубылыслары ҳаққында тоқтаймыз.

Экономия қубылысы (үнемлеў қубылысы) сөйлеўшиниң қуўатын тил бирликлерин қысқартыў, түсирип қалдырыў арқалы үнемлеў, қарым-қатнасқа кететуғын ўақытты азайтыў, тилдеги артықшалықты сапластырыў ушын керекли. Қарақалпақ тилинде үнемлеў қубылысы теориясында оның жазыўда ҳәм сөйлеўдеги ҳалаты үйрениледи. Тилдеги бирликлерди жазыўда айырым сөзлер қысқартылып жазылыўы, бир бөлеклериниң түсирилип қалдырылыўы ҳәм т.б. мүмкин. Бул қарақалпақ тилиндеги қысқарған қоспа сөзлерде жүз береди. Онда бир мәнини билдириўши сөзлер дизбегиниң ҚР (Қарақалпақстан Республикасы), ШБ (Ширкетлер бирлеспеси) сөзлеринде тек бас ҳәриплериниң алыныўы, ӨзИА (Өзбекстан Илимлер Академиясы), ӨзЛиДеП (Өзбекстан либераль демократиялық партиясы) сөзлеринде басқа бөлеклериниң түсирилип қалдырылыўы, телекөрсетиў (телевизиялық көрсетиў), юрфак (юридикалық факультет) сөзлеринде бир буўыны алынып та қолланылыўы мүмкин. Демек, бул арқалы ўақытты ҳәм жазылатуғын қуралды үнемлеў мақсетинде қолланылады, лекин бул бирликлер сөйлеўде қысқартылған формада қолланылмайды, оның қурамындағы сөзлер айтылғанда ҳеш бир бөлеги түсирилип қалдырылмастан толық айтылады. Ал сөйлеў ўақтында айырым бирликлерди айтқанда ўақытты азайтыў мақсетинде үнемлениўи мүмкин. Ол көбинесе фейиллерде ап кетиң – алып кетиң, көретин болды – көретуғын болды ҳәм т.б. Бунда дизбеклесип келген фейил сөзлердиң биринши ҳәм екинши бөлегиндеги формалары түсирип қалдырылған, ал гейпара меншикли атлықларда адам атларының қысқартып қолланылыў жағдайлары (*Әжеке* – Әжинияз, *Қутеке* - Қутлымурат) ушырасады, олар ҳәтте ўақыттың өтиўи менен меншикли ат сыпатында турақласқан. Буны илимде аффикслик экономия деп те атайды.

Қарақалпақ тилинде үнемлеў қубылысының бир көринислери бириккен сөзлерде (*бармекен* – бар ма екен, *әпер* – алып бер, *бүгин* – бул күн, *билезик* – билек жүзик) ушырасады. Олар жазыўда да, сөйлеўде де усы корининсинде қолланылады. Үнемлеў қубылысы тилдеги сөзлердиң морфемалық қурылысындағы сиңисиў, жылысыў қубылысы, фузия қубылысы, морфонологиялық қубылыслар ҳәм т.б. менен байла-

нысылы болады.

Тилде ықшамлылықты пайда етиўде, ўақытты ҳәм жазыўды үнемлеўде экономия қубылыс жүз берсе, ал усы экономияның кериси плеоназм да қолланылады. Плеоназм арқалы бирдей түбир сөздиң (*тықтық*, *сақсақ*, *дүлдүл*), белгили бир сөздиң қурамындағы бирдей аффикстиң (қай*сысы*) тәкирарланып екинши бир функциональ хызметте қолланылады, сондай-ақ бирдей хызметтеги аффикслердиң (уқып-*лы-лық*, китап-*хана-шы-лық*, балалық-*ым-нан*, устаз-*лар-ымыз-дан-сыз*) бир жерде қатар қолланылыўы да оның көриниси саналады. Бул плеоназм қубылысы да сиңисиў қубылысы менен тығыз байланыслы болады. Буны илимде аффикслик плеоназм деп атайды. Аффикслик плеоназм түбир менен аффикстиң сиңисип кетип, бир мәнили бөлекке айланады ҳәм ондағы түбир өз ғәрезсизлигин жойтады. Плеоназм тилде тек аффикслерде емес, сондай-ақ басқа да тил бирликлеринде ушырасып, олар ҳәр қыйлы стильлик хызметте қолланылады. Мәселен, айырым ўақытларда еки синоним сөз бир гәпте қатар келип, синонимлердиң мәнилери бирге қосылып, толықтырылған ҳәм жетилискен бир пикирди билдиреди. Бундай плеоназм дурыс қолланылса, айтылажақ пикир көркем, толық ҳәм өткир болып шығады. Мысалы: Ер жигитке намыс пенен ар керек (Бердақ). Бундай плеоназмлар линвопоэтикада жүдә өнимли қолланылады.

Жуўмақлап айтқанда, қарақалпақ тилиндеги үнемлеў қубылысын, оның қарама-қарсысы плеоназм қубылысын кеңирек изертлеў қарақалпақ тилиниң теориялық грамматикасын ислеп шығыўда жәрдемши қурал болады, сонлықтан оларды еледе изертлеў мақсетке муўапық.

Пайдаланылған әдебиятла дизими:

1. Патуллаева Г. Қарақалпақ тилиндеги плеоназм қубылысы. - «Қарақалпақ тил билими ҳәм әдебияттаныў мәселелери» атамасындағы илимий-теориялық конференция материаллары. Нөкис, 2018. Б. -68-69

2. Dawletov A., Dawletov M., Qudaybergenov M. Hazirgi qaraqalpaq adebiy tili. Morfemika. Morfonologiya. Soz jasalıw. Morfologiya. JOO ushın sabaqlıq. Nokis, «Bilim» baspası, 2010. Б. -28.

3. Патуллаева Г. Қарақалпақ тилинде тартым мәнисиниң билдирилиў усыллары. Ташкент, 2017. Б. -34.

МУЛЬТФИЛМ ВА ҚИСҚА ҲИКОЯЛАР ОРҚАЛИ ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШ

Рахмонова Шахзода Камоловна
Навоий вилояти Навбаҳор тумани 25-мактаб
инглиз тили ўқитувчиси
Телифон-998(91)308 5794

Аннотация: Чет тилини билиш мақсадларига эришишнинг бир қанча усуллари мавжуд ва ўрганувчиларнинг эҳтиёжларига ва шароитларига қараб буни танлай бошлайсиз.Шундай самарали усуллардан бири мультфилмлар орқали инглиз тилини ўрганиш.

Калит сўзлар: Чет тили, компютер саводхонлиги, карикатура, мультфилм, комик, субтитрли, чизиқли, видео.

Ҳозирги кунда болаларни замон билан ҳам нафас, дунё ўзгаришларининг олд қадамида бўлиб, ўсиши учун бирор чет тилини ва компютер саводхонлигини ёшлигидан бошлаб ўрганмоғи лозим.Доно халқимизда бир нақил бор “Тил билган эл билади” деган шу сабабли бу мақола орқали болалар чет тилини ўрганишнинг энг самарали усуллари ҳақида суҳбат юргизамиз.Писихологик нуқтаи назардан бола етти ёшгача бўлган даврида кўрганини тезда ёдида сақлаб қолар экан. Шундай экан болажонларга ана шу усулдан фойдаланиб ўзга тилни ўргатиш учун мультфилм ва қисақа ҳикоялар орқали амалга ошириш ҳақида суҳбатлашсак.

Мультфилм қисқа ёки узоқ ҳикоядир. Ҳикояда бўлгани каби, бу воқеа ёки вазият ҳақида гапиради. Учрашувдан сўнг мультфилмда болажон билан қуйидаги жараёнлар содир бўлади: Болажон расмларга эътибор қаратганда «кириш» бўлими китобхонларнинг тушунадиган ва таржимонларини тушунганида, «ривожланиш» бўлими сирини очишга ҳаракат қилади, юқори даражадаги карикатурага қарши танқидлар пайдо бўлади, «натижалар» бўлимида жилмайиш ёки жаҳл билан якунланади. Комик материалга асосланган карикатура фикрлар, ҳиссиётлар, тасаввурлар, ҳазил ва танқид элементларига эга. Мультфилм болажонларни чуқур ўйловга ҳам тортиши мумкин, чунки у камроқ маълумот билан кўп гапириш мажбурияти бор. Қизиқ, бу қизиқ энг машҳур санъат турлари кўпинча бир хил ёки бошқа карикатуралар; Масалан, ҳайвонларни тасвирлайдиган преҳисторик ғор санъатидир.Мультфилмларнинг маъноси баъзан бевосита ҳис этилмайди, бу юзаки эмас. Шу нуқтаи назардан, у шу каби атамалар ва иборалар, айниқса, оғзаки бўлмаган карикатураларнинг маъносини тушуниш учун болаларнинг ҳаракати зарур.Мультфилм ёки оғзаки сўзлашувлар оғзаки равишда қўллаб-қувватланадими йўқми, у фикрлар ва ҳис-туйғуларни ҳазил йўл билан ифодалайди. Кар икатурист, бола билан махфий ва оғзаки равишда мулоқот қилади. Фикр ишлаб чиқарадиган киши карикатураларда, карикатуристнинг «очиқ осмон шисаси»нинг махфий сўзларини вужудга келтиради, у сеҳрли эшикни очади. Ушбу ҳолат болаларга қизиқарли, қизиқиш ва қувонч келтиради.Мультфилмлар-бу ижтимоий алоқалар билан боғлиқ бўлган ҳар қандай ҳодиса ёки ҳолатни кулгили фикрлаш тарзи билан намоён қиладиган санъат туридир[1].Улар ақлбовар қилмайдиган нарсаларга ўхшаш, улар ақлбовар қилмайдиган нарсага эга бўлишади ва улар камроқ материаллар билан кўп гапиришади.

